

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



AMALIY MATEMATIKA VA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

## QISHLOQ XO‘JALIGIDA AXBOROT– KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI

fanidan o‘quv – uslubiy majmua



<b>Bilim sohasi:</b>	800000 – Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	810000 – Qishloq xo‘jaligi
<b>Ta‘lim yo‘nalishi:</b>	60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi 60810700 - Agrokimyo va agrotuproqshunoslik

**Guliston – 2022**

O‘quv–uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Kengashining 2022 yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Qishloq xo‘jaligida axborot - kommunikatsion texnologiyalari” fanining ishchi o‘quv dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchilar : Saidov J.D. - GulDU “Amaliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchisi.

Taqrizchi: Allayorov S.P. - GulDU “Amaliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrası dotsenti, t.f.n.

O‘quv–uslubiy majmua Guliston davlat universiteti O‘quv–uslubiy Kengashi tomonidan («\_\_»\_\_\_\_\_2022 y. dagi, №\_\_-sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

1	Kirish .....	4
2	O‘quv materiallar.....	5
3	Ma’ruza mashg‘ulotlari.....	5
4	Amaliy mashg‘ulotlarni bajarish buyicha uslubiy ko‘rsatmalar.....	174
5	Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari .....	242
6	Glossariy .....	244
7	Ilovalar .....	246
	Fan dasturi .....	246
	Sillabus.....	254
	Tarqatma materiallar.....	261
	Test savollari.....	262
	Baholash mezonlari .....	264
	Adabiyotlar.....	265

## **So'zboshi**

Qishloq xo'jaligida axborot - kommunikatsion texnologiyalari fani 60812100 – Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalvryat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Qishloq xo'jaligida axborot - kommunikatsion texnologiyalari talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalari va ularniind dasturiy, texnik ta'minoti bo'yicha internet va axborot bilan ishlash bo'yicha bilimlar beradi. Bundan tashqari axborot xavfsizligi va madaniyatini shakllantirish masalalari ham ko'riladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga qishloq xo'jaligida axborot - kommunikatsion texnologiyalarining nazariy, uslubiy va texnologik asoslarini, sohaga oid aniq masalalarni yechishda axborot texnologiyalarni qo'llashning amaliy yutuqlari va uslublari bilan chuqur har tomonlama tanishtirish hamda texnik va dasturiy vositalar bilan ishlashning umumiy tartiblarini o'rgatish hamda ularni amalda tadbqiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iboratdir.

Fanning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, axborot texnologiyalari bilan bog'liq jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy-texnikaviy dunyoqarashini yanada shakllantirishdan iboratdir.



## **O‘QUV MATERIALLAR** **FANNING NAZARIY QISMI.**

*1-mavzu. Qishloq xo‘jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar” fanining maqsadi va vazifalari.*

### **Reja:**

1. Fanning ta’rifi, mohiyati, o‘qitish maqsadi va vazifalari
2. Axborot texnologiyalari: tasnifi va rivojlanish istiqbollari
3. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari evolyutsiyasi
4. Axborot texnologiyalarining ta’minoti
5. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarida qo‘llash
6. AKTga doir O‘zbekiston Respublikasi qonuniy – me’yoriy hujjatlari

### **Fanning ta’rifi, mohiyati, o‘qitish maqsadi va vazifalari**

XX asrning 50 – yillarida Yangi fan – informatika faniga asos solindi. Informatika termini lotincha “informatio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tushuntirish, xabar qilish, bayon etish ma’nolarini anglatadi. Ba’zi manbalarda keltirilishicha, “Informatika” atamasi dastlab 1960 – yillarida Fransiyada vujudga kelgan. Bu so‘z fransuz tilidagi **informatsiya (information)** va **avtomatika (automatique)** so‘zlarini birlashtirilishidan hosil bo‘lib, “axborotlarni avtomatik qayta ishlash” degan ma’noni bildiradi.

Informatika inson faoliyatining turli jabhalarida axborotlarni izlash va undan foydalanish masalalari bilan Shug‘ullanuvchi fandır.

#### **Informatika quyidagi masalalar guruhini tadqiq qiladi va o‘rganadi:**

- **texnik**, axborotlarni ishonchli yig‘ish, saqlash, jo‘natish, qayta ishlash va uzatish usullarini o‘rganish bilan bog‘langan.

- **semantiklik**, axborotlarni o‘rganishda axborotning mohiyatini ochish va uning elementlarining mazmunan ahamiyati o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatish imkoniyatini beradi;

- **pragmatiklik**, axborotlarning amaliy jihatidan foydaliligi, iste‘molchi uchun qanchalik qimmatli ekanligi va qaror qabul qilishdagi ahamiyati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi.

- **sintaksislik**, ayrim ilmiy – faoliyat sohalarini formallashtirish va avtomatizatsiyalash masalalari bilan bog‘langan, jumladan, indekslash, mashina tarjimai va h.q.

Informatikaning asosiy uchta yo‘nalishi mavjud:

**Birinch** yo‘nalish – axborotni uzatish, yig‘ish va qayta ishlashning texnik vositalarini rivojlantirish nazariyasi bilan bog‘liq. U o‘z ichiga hisoblash komplekslarini, lokal va global hisoblash tarmoqlarini qamrab oladi.

**Ikkinchi yo‘nalish** – ma‘lumotlarni qayta ishlash bo‘yicha har xil amaliy vazifalarni hal etish yuzasidan turli kategoriyadagi foydalanuvchilar uchun texnik vositalar bilan samarali ishlashni tashkil etish imkonini beradigan, dasturiy ta‘minotni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan, matematik va amaliy fanlar kompleksini o‘z ichiga olgan dasturlashtirishdir.

Axborot tizimini yaratishda ikkinchi yo‘nalishni umumiy va **amaliy dasturiy ta‘minot** deb atash qabul qilingan.

**Uchinchi yo‘nalish** – avtomatlashtirilgan usulda turli darajadagi vazifalarni hal etish modellari, algoritmlari, tartibi, texnologiyasini ishlab chiqish va tashkil qilishdir. Informatikaning bu bo‘limi hozirgi davrda qishloq xo‘jaligi sohasida o‘ta muhim va dolzarb hisoblanadi.

Informatikaning moddiy texnik bazasi va boshqaruv faoliyatining turli sohasi va darajalarida ishlayotgan mutaxassislar uchun AIJdan keng foydalanish imkonini beradi va Shuningdek, ekspert – professional (ekspert tizimi) darajasida qaror qabul qilishga qodir bo‘lgan ixtisoslashtirilgan predmet sohasida hisoblash tizimini va axborot – kommunikatsiya tarmog‘ini yaratish imkoni yuzaga keladi.

Informatikaning inson faoliyati mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqishi birinchi navbatda kompyuter texnikasi rivojlanishi bilan bog‘liq. Bunda asosiy xizmat mikroprosessor texnikasiga to‘g‘ri keladi. Informatika kompyuter texnikasi rivojlanishi tufayli yuzaga keldi, unga asoslanadi va usiz mavjud bo‘la olmaydi.

Informatika keng ma‘noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida asosan kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlashi bilan bog‘liq fan, texnika va ishlab chiqarishning xilma – xil tarmoqlari birligini o‘zida namoyon etadi.

Informatikani tor ma‘noda o‘zaro aloqador uch qism – texnik vositalar (hardware), dasturiy vositalar (software) va algoritimli vositalar (brainware) sifatida tasavvur etish mumkin. O‘z navbatida informatikani ham umuman, ham qismlari bo‘yicha turli jihatlaridan: milliy iqtisodiyot tarmog‘i, fundamental fan, amaliy fan sohasi sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Informatika iqtisodiyot tarmog'ini sifatida kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va axborotni qayta ishlash zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish bilan Shug'ullanadigan xo'jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalarining bir turda jamlanishidan iborat bo'ladi.

Fundamental fan sifatida informatika, kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan ob'ektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan, amaliy fan sohasi sifatida esa quyidagilar bilan Shug'ullanadi:

- a) axborot jarayonlaridagi qonuniyatlarni o'rganish (axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tarqatish);
- b) inson faoliyatining turli sohalarida kommunikatsion – axborot modellarini yaratish;
- v) aniq bir sohalarida axborot tizimi va texnologiyalarini ishlab chiqish va ularning hayotiy bosqichini, ularni ishlab chiqish, ishlashni va hokazolarni loyihalash, ishlab chiqish bosqichlari uchun tavsiyalar tayyorlash.

Kompyuter texnikasi va informatsion texnologiyaning keng rivojlanishi jamiyatning rivojlanishiga turtki bo'lib, u turli informatsiyalarni qo'llash asosida axborotlashgan jamiyat nomini oldi. Axborotlashgan jamiyat aqliy mehnatni oshiradi. Turli tizimlar, kompyuter texnikasi, kompyuter tarmoqlari informatsion texnologiya, telekommunikatsiya aloqasi, axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik bazasi bo'lib hisoblanadi.

“Texnologiya” so'zi lotincha “**texnos**” - san'at, hunar, soha va “**logos**” - fan degan ma'noni bildiradi. Texnologiya so'zi - biror vazifani bajarishda uning turli xil usullarini ko'rinishini anglatadi.

**Axborot texnologiyalari (AT)** – bu usullar tizimi va axborotlarni yig'ish, saqlash, izlash yo'lidir. AT informatikaning predmeti hisoblanadi, hamda boshqaruv amaliyotini o'tkazishni, ishlab chiqarishni boshqarishni, ilmiy izlanishlar va iqtisodiyotda korxonalarining tashkil topishini, ularning texnik revojlantirish natijasida milliy iqtisodiyotning Yangi tarmoqlarini yuzaga keltiradi.

• **AT** - axborotlarni jamlash, saqlash, uzatish va Shu jarayonlarni amalga oshiruvchi barcha texnik vositalarni ishlatishni o'rgatuvchi fan hisoblanadi.

• **AT** fan sifatida metodologik va uslubiy holatlarni tashkillashtirish, instrumental - texnik vositalardan foydalanish usullari va h.k. o'z ichiga oladi. Yangi ilmiy bilimlarni aniq axborot texnologiyalariga transformatsiya qilinishi – fan sifatida axborot texnologiyalarining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Axborot atamasi lotincha “**Informatio**” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbekchada tushuntirish, tanishtirish, bayon etish degan ma'nolarni anglatadi.

O'z navbatida, xabar- axborotni tasvirlash shakli bo'lib, u nutq, matn, tasvir, grafik, jadval, videotasvir, tovush va h.k ko'rinishlarda ifodalanadi.

Umuman olganda, axborot – bu odamlar orasidagi, odamlar bilan eHM lar orasidagi, jonli va jonsiz tabiat orasidagi ma'lumot almashinuvi bo'lib, keng ma'noda ilmiy tushunchadir. Informatika bu – inson faoliyatining bir sohasi bo'lib, u axborotni hosil qilish, saqlash va kompyuter yordamida uni qayta ishlash, Shu bilan bir qatorda tadbqiq muhiti bilan o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlarning aloqadorligini o'z ichiga oladi.

“Informatika” so'zi dastlab, XIX asrning 60 – yillarida Fransiyada vujudga keladi. U informatsiya va avtomatika so'zlarini birlashtirishdan hosil bo'lib, “ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash” degan ma'noni bildiradi. Ingliz tilida gaplashadigan mamlakatlarda u kompyuter fani deb ataladi. Mustaqil fansifatida informatika 40-yillar oxirida texnika, biologiya ijtimoiy va boshqa sohalarida boshqalarning umumiy prinsplari haqidagi fan- kibernetika fani bazasida vujudga keldi.

Informatika keng ma'noda fan, texnika va ishlab chiqarish, ya'ni inson faoliyatining barcha sohalarida axborotni kompyuter va telekommunikatsiyalar yordamida qayta ishlash, saqlash, uzatish bilan bog'liq bo'lgan yagona sohadir.

Informatika ham xuddi fundamental fanlar singari kompyuterlar texnologiyasi bazasidan ixtiyoriy ob'ektlarni boshqarish jarayonlarining axborot ta'minoti metodologiyalarini, tadbqiqiy predmet sifatida esa insonning konkret ishlab chiqarish faoliyati doirasida axborot sistemalarini yaratish bilan Shug'ullanadi.

Xususan, axborotning eng asosiy turlaridan biri – iqtisodiy axborotlardir. Uning oddiy ma'lumotlardan farqli tomoni shundaki, u odamlarning katta jamoalari bilan, tashkilotlar bilan korxonalar va Shu singari boshqa iqtisodiy strukturalardagi boshqarish jarayonlari bilan bog'liqligidir.

### **Axborot texnologiyalari: tasnifi va rivojlanish istiqbollari**

«Texnologiya» grekcha so'z bo'lib (techne) mohirlik, ustalik, biror ishni uddalay olishni anglatadi. Bu ma'lum bir jarayonga nisbatan qo'llanilgan. Jarayon deganda esa maqsadga erishishga yo'naltirilgan

xatti-harakatlar majmui tuShunilgan. Ushbu jarayon kishi tomonidan tanlangan strategiya bilan belgilanadi va turli xildagi vositalar, usullar yordamida amalga oshiriladi.

Umumiy hollarda texnologiya deganda, mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan xom – ashyo, material yoki yarim tayyor mahsulot shakli, xususiyati, holatining o'zgarishi, uni qayta ishlash, tayyorlash usullarining majmui tuShuniladi. Bu biror bir ishni yuqori darajada uddalash deganidir.


Axborot texnologiyalari to'g'risida gap ketganda, material sifatida ham, mahsulot sifatida ham axborot ishtirok etadi. Biroq bu ob'jekt, jarayon yoki xodisa to'g'risidagi sifat jihatidan Yangi ma'lumot bo'ladi. Texnologiya xodimning axborot bilan ishlash usuli va uslubi hamda texnik vositalar orqali namoyon bo'ladi.

Sanoat ishlab chiqarishida har qanday texnologiya mahsulotni yaratishning boshidan oxirigacha bo'lgan texnologik jarayonni qamrab oluvchi tarkibiy elementlari majmuining bayonini ifodalaydi. Tarkibiy elementlarining (texnologik operatsiyalar) tarkibi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi: birinchidan, mazkur texnologik jarayon asosiga nisbatan sifatli usullar va prinsiplar orqali, ikkinchidan, mahsulotni tayyorlashning oxirgi jarayonidagi texnologik operatsiyani bajarish uchun jalb etish mumkin bo'lgan asbob – uskuna vositalari orqali.

Uslublar ayrim mahsulotlarni olishning prinsipial imkoniyatini tavsiflab beradi. Ularning asosini inson tomonidan o'rganilgan (balki to'liq emas) tabiiy (fizik, kimyoviy, biologik) jarayonlar yoki mazkur soha mutaxassislarining ilmiy izlanishlari natijasida to'plangan tajribani aks ettiruvchi ayrim qonuniyatlar tashkil etishi mumkin. Odatda muayyan bir texnologiya, usullar va prinsiplarni belgilovchi butun majmuaga tayanadi. Bu majmua elementlarining ahamiyati ham turlicha. Ulardan biri ishlab chiqarishning texnik jihatlarini, ikkinchisi ishning iqtisodiy tomonini, boshqa biri tashkiliy tuzilmani belgilaydi.

Uslublar va prinsiplarning turlicha roli ularning texnologiya tuzilmasiga nisbatan ta'siri har xil bo'lishini keltirib chiqaradi. Ba'zan ayrim uslub yoki prinsiplarning ishlab chiqarishga nisbatan ta'siri hisobga olinmasligi mumkin.

Uslub va prinsiplar ishlab chiqarishning oxirigi jarayonidagi mahsulotni olishni belgilab beradi. Ushbu mahsulotni olishga erishish uchun, ishni kim va qanday bajarish davomiyligi aniq belgilangan bo'ladi. Mahsulotni yaratish jarayonida turli xil ishni amalga oshirish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan asbob – uskuna vositalari texnologiya tarkibi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Asbob – uskuna vositalarining mavjudligi (yoki bo'lmasligi) tayyor mahsulot ko'rinishida natijalar olish uchun zarur bo'lgan texnologik operatsiyalar ro'yhatini belgilaydi. Agar uni yaratish bo'yicha belgilangan barcha funksiyalar amalga oshirilsa (asbob – uskuna vositalari yordamida yoki ularni qo'llamasdan), amalda o'sha buyumni olish texnologiyasini ishlab chiqish mumkin. Aksincha, ayrim funksiyalar bajarilmasa yoki mavjud asbob – uskunalar bilan uni bajarish o'ta murakkab bo'lsa, u holda tegishli operatsiyani bajara oladigan asbob-uskunalar yaratish vazifasi qo'yiladi yoki bunday texnologiyani yaratish imkoniyati yo'qligi haqida qaror qabul qilinadi. Moddiy ishlab chiqarish texnologiyasi deganda, tayyorlash, qayta ishlash vositalari va usullari orqali belgilanadigan xom ashyo, material holati, xususiyati va shaklining o'zgarish jarayoni tuShuniladi. Texnologiya moddiy mahsulot olish maqsadida materialning sifati yoki boshlang'ich holatini o'zgartiradi(1.2-rasm).



1.2 - rasm. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari moddiy resurslarni qayta ishlash texnologiyasining analogi sifatida.

Axborot Shuningdek, resurs ham hisoblanadi. Uni qayta ishlash jarayonini xuddi moddiy resurslarni qayta ishlash jarayoni kabi texnologiya sifatida qabul qilish mumkin.

**Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari** – ob’jektning (axborot mahsulotining) holati, jarayon yoki voqeaning Yangi xususiyati to’g’risida axborot olish uchun ma’lumotlarni yig’ish, qayta ishlash va uzatish vositalari va usullari majmuidan foydalaniladigan **jarayondir**.

Moddiy ishlab chiqarish texnologiyasining maqsadi – inson yoki tizimning ehtiyojini qondiruvchi mahsulot ishlab chiqarish sanaladi.

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining maqsadi esa – axborot ishlab chiqarish bo’lib, uni tahlil etish va uning asosida biror – bir harakatga qo’l urish uchun tegishli qaror qabul qilish.

Ma’lumki, bitta va faqat o’sha moddiy resursga nisbatan har xil buyum yoki mahsulot olish mumkin. Axborotlarni qayta ishlash texnologiyasiga nisbatan ham Shunday bahoni bersa bo’ladi.

**Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari.** Axborotlarni yig’ish, uzatish, to’plash, qayta ishlash, saqlash, taqdim etish va foydalanish uslublari va usullari tizimi **axborot – kommunikatsiya texnologiyalari** deb yuritiladi.

Moddiy va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy komponentlarini qiyoslash 1 – jadvalda berilgan.


Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari avtomatlashgan va an’anaviy(qog’oz) ko’rinishda amalga oshiriladi. Avtomatlashtirish hajmi va texnik vositalardan foydalanish turi aniq bir texnologiyaning mohiyatiga bog’liq.

**Avtomatlashtirish** – bu inson ish faoliyatini mashina va mexanizmlar bilan almashtirish demakdir. U texnik, tashkiliy va iqtisodiy mazmundagi xatti – harakatlar hamda tadbirlar kompleksidan iborat bo’lib, ishlab chiqarish jarayoni, boshqaruv jarayonining u yoki bu ishini amalga oshirishda inson ishtirokini qisman yoki butunlay cheklash imkonini beradi.

1 – jadval.


<b>Mahsulot ishlab chiqarish uchun texnologiya komponentlari</b>	
<b>Moddiy mahsulot</b>	<b>Axborot mahsuloti</b>
Xom ashyo va materiallar tayyorlash	Ma’lumotlar yoki boshlang’ich axborotlarni yig’ish
Moddiy mahsulot ishlab chiqarish	Ma’lumotlarni qayta ishlash va yakuniy axborotlarga ega bo’lish
Iste’molchilarga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish	Uning asosida qaror qabul qilish uchun yakuniy axborotlarni uzatish

Har qanday axborot texnologiyasining maqsadi – belgilangan taʼshuvchi vositada talab qilingan sifat darajasida kerakli axborotlarni olishdir. Ayni paytda axborotlarni qayta ishlash jarayonining tezkorligi va ishonchliligi, axborot resursidan foydalanish jarayonining koʻp mehnat talab qilishiga, maʼlumotlarni qayta ishlash qiymatiga nisbatan cheklashlar bor.



Zamonaviy axborot texnologiyalari rahbarlarga, mutaxassislariga, texnik xodimlarga axborotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilishda, oʻz vaqtida ishonchli va kerakli hajmda axborot olish, avtomatlashtirilgan ofislar tashkil etish, kompyuterlar va aloqa vositalarini qoʻllagan holda tezkor majlislarni oʻtkazish uchun moʻljallangan zamonaviy axborot tizimlarini yaratish imkonini beradi.

Axborotlarni uzatish va almashtirishga ehtiyojni insoniyat oʻz rivojlanishining eng dastlabki pallalaridayoq sezgan. Agar boshida axborotlarni uzatishni jadallashtirish uchun gulxanlar, choparlar, keyin pochta semaforli telegraf va boshqalardan foydalanilgan boʻlsa, elektr telegraf va telefonning kashf qilinishi bilan axborotlarni uzatish imkoniyatlari tubdan oʻzgardi. Radio va televideniya, keyin kompyuterlar, aloqaning raqamli tizimlari va hisoblash tarmoqlarining kashf qilinishi, 1978 yilda birinchi SHKning kashf qilinishi va uning axborotlarni jamlash, qayta oʻzgartirish hamda uzatishning xuddi uskunaviy vositasi sifatida benihoya tez tarqalishi va rivojlanishi Yangi avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini amalda inson faoliyatining barcha sohalariga tadbiq etishga imkon berdi. Aloqa vositalari axborotlarni ishlab chiqish, jamlash va aks ettirish sohasidagi yutuqlarini integratsiyalash AATexlarini shakllanishiga koʻmaklashdi (1.4 – rasm).



1.4 – rasm. Texnik yutuqlar asosida AATexni shakllantirish.

AATexning asosini quyidagi **texnik yutuqlar** tashkil qiladi:

- magnitli va optik disklar kabi mashina manbalarida axborotlarning katta hajmlarini jamlash vositalarini yaratish;
- amalda er sharining istalgan nuqtasida axborotlarni qabul qilish, foydalanish va uzatishga imkon beruvchi radio va televizion aloqa, teleks, telefaks, aloqaning raqamli tizimlari kompyuter tarmoqlari, kosmik aloqa kabi turli xildagi aloqa vositalarini yaratish;
- belgilangan algoritmlar bo'yicha axborotlarni ishlab chiqish va aks ettirishga bilimlarni jamlash va generatsiyalashga imkon beruvchi kompyuterlarni, ayniqsa, shaxsiysini yaratish.

Axborotlar turlari bo'yicha tasniflanadi. **Ilmiy axborot** – bu tabiat, jamiyat va tafakkurning ob'yektiv qonunlarini eng to'liq aks ettiruvchi axborotdir. U olinish yoki foydalanish sohasi bo'yicha siyosiy, iqtisodiy, texnik, biologik, fizik, belgilanishi bo'yicha ommaviy va maxsusga bo'linadi.

Tashkiliy boshqaruv tizimlarida kishilarni boshqarish bilan bog'liq iqtisodiy axborot va texnik ob'yektlarni boshqarish bilan bog'liq texnik axborotlar farqlanadi.

Iqtisodiy axborot moddiy boyliklar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish, avtomatlashtirilgan iste'mol qilish jarayonlarini aks ettiradi. Iqtisodiy axborot ko'proq ijtimoiy ishlab chiqarish bilan bog'liqligi sababli, u ko'pincha **ishlab chiqarish axboroti** deb ataladi.

Iqtisodiy axborot natijaviy axborotning ko'pgina turlarini olish uchun katta hajmi, ko'p martalab foydalanilishi, mantiqiy operatsiyalarning katta soni va nisbatan murakkab bo'lmagan matematik hisob-kitoblar bilan ta'riflanadi.

Bozor munosabatlari sharoitlarida axborotlar va axborot – kommunikatsiya texnologiyalariga o'sib borayotgan talab Shunga olib keladiki, axborotlarni ishlab chiqishning zamonaviy texnologiyasi texnik vositalar va, eng avvalo, SHK, kommunikatsiya vositalarining juda xilma-xil turlarini qo'llashga mo'ljallangan. Ular asosida nafaqat axborotlarni jamlash, saqlash, qayta ishlash, balki terminal qurilmalarni mutaxassis yoki qaror qabul qiluvchi rahbarning ish joyiga judayam yaqinlashtirish

maqsadida turli konfiguratsiyalardagi hisoblash tizimlari va tarmoqlari tashkil qilinadi. Bu AATex ko'p yillik rivojlanish yutug'idir.

1950 – yillarning oxirida eHMning paydo bo'lishi va ulardan foydalanish imkoniyatlarining jadallik bilan takomillaShuvi boshqaruv mehnatini avtomatlashtirish, axborot mahsulot va xizmatlar bozorini shakllantirish uchun haqiqiy shart-sharoitlarni yaratdi. AATex rivojlanishi axborotlar ishlab chiqish va uzatish texnik vositalari Yangi turlarining paydo bo'lishi, eHM va SHK foydalanishning tashkiliy shakllarini takomilla-shishi, infratuzilmani kommunikatsiyalar Yangi vositalari bilan to'ldirilishi bilan parallel ravishda bordi.

### **Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari evolyutsiyasi**

XIX asrning ikkinchi yarimigacha axborot texnologiyasining asosini pero, siyohdon va buxgalteriya daftari tashkil etgan. Kommunikatsiya (aloqa) paket (rasmiiy hujjatlar solingan konvert) yuborish orqali amalga oshirilardi. Axborotlarni qayta ishlash mahsuldorligi o'ta past bo'lib, har bir xat alohida, qo'lda ko'chirib olingan. Qaror qabul qilish uchun bir – biriga qo'shiladigan hisob – kitobdan boshqa axborot ham bo'lmagan.

«Qo'l» axborot texnologiyasi o'rniga XIX asr oxirida «mexaniq» texnologiya kirib keldi. Yozuv mashinasi, telefon, diktafonning kashf etilishi, jamoa pochatasi tizimining takomillashuvi – bularning bari avvaliga axborotni qayta ishlash texnologiyasida, so'ng ish mahsuldorligida sezilarli o'zgarishlar yuz berishiga zamin bo'ldi. Mohiyatan, mexaniq texnologiya mavjud muassasalarda tashkiliy tarkibining shakllanishiga yo'l ochib berdi. XX asrning 40 – 60 yillarida «elektr» texnologiyasi paydo bo'lib, u echib almashtiriladigan elementlarga ega elektr yozuv mashinkalari, oddiy qog'ozdan foydalanuvchi nusxa ko'chirish mashinasi, portativ diktafonlardan iborat edi. Aynan shu vositalar hujjatlarni qayta ishlash sifati, soni va tezligini oshirish hisobiga boshqarish faoliyati yaxshilandi. Ko'pgina zamonaviy muassasalar «elektr» texnologiyasiga asoslangan.

60 – yillarning ikkinchi yarmidan esa «elektron (yoki «kompyuter») texnologiyasi yuzaga kela boshladi va axborotlarning shaklini emas, mazmunini o'zgartirishga urg'u berila boshlandi.

Ma'lumki, boshqaruvning axborot – kommunikatsiya texnologiyalari axborotlarni qayta ishlash bo'yicha eng kamida quyidagi muhim uchta tarkibiy qismga ega bo'lishi lozim: hisobga olish, tahlil va qaror qabul qilish. Bularni kompyuterlarda amalga oshirish tobora murakkablashib bormoqda. Chunki, o'zida sanoqsiz ma'lumotlarni jamlagan «qog'ozlar dengizi» tobora kengayib bormoqda.

**Axborotlarni taqdim etish tizimining rivojlanishi.** Aytish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bir necha million yillar avval odamzod o'rtasida ilk bor o'zaro muloqatga kirishish usullari (turli tovushlar chiqarish, imo-ishora, hatti-harakatlar qilish) paydo bo'lishi bilan birga yuzaga kelgan deb aytish mumkin. Bunda axborot almashinuvi faqat yakka shaxslar o'rtasidagina amalga oshirilgan. Nutq paydo bo'lishi bilan birga (taxminan 100 ming yil oldin) odamlar miyasida axborot to'planishi imkoniyati yuzaga keldi.

Keyingi bosqichda, ya'ni yozuvning paydo bo'lishi (5 – 6 ming yil avval) insoniyatning umumiy, jamoa xotirasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Aynan yozuvning paydo bo'lishi axborotlarni to'plash, uzatish, qayta ishlash, saqlash va etkazish kabi to'liq jarayonni amalga oshirishga imkoniyat yaratib berdi. Bu imkoniyat tufayli axborotlarni moddiy taShuvchilarda qayd etila boshlandi.

Axborot tizimi va texnologiyasining keyingi taraqqiyoti asosan kommunikatsiya vositalari bilan bog'liq.

**Kommunikatsiya tizimining rivojlanishi.** Axborot – kommunikatsiya texnologiyasining rivojlanishi axborotlarni taqdim etish tizimidan tashqari, axborot-kommunikatsiya vositalarini takomillashtirish bilan bog'liq edi. Ular axborotning nomoddiy taShuvchisi, ya'ni nutq paydo bo'lgandan so'ng yuzaga kelgan. Buni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi tarixidagi ilk «portlash» deb baholash mumkin edi. Taraqqiyotning keyingi fazasi – qog'oz kashf qilingunga qadar axborotlarning moddiy taShuvchi vositalari o'zgarib bordi. YA'ni, so'zlarni toshga o'yib yozish orqali birinchi marta axborotni ko'z bilan ko'rib qabul qilish imkoniyati yuzaga keldi. Eramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillikda avvaliga loydan, so'ng yog'ochdan yasalgan tablichkalarga yozishga o'tildi va bu axborot –kommunikatsiyalarga dinamik mazmun kasb etdi. Papyrusning kashf etilishi axborot tashish vositasining hajmini oshirdi va unga buyoq qo'llash imkoniyati mavjudligi bois ahamiyati ham oshib bordi. Pergamentning paydo bo'lishi (eramizdan avvalgi III-asr) bilan esa Yangi axborot «portlashi» ro'y berdi: axborotning eng maqbul taShuvchisi – kitob yuzaga keldi (IV-asr).

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qog'oz fazasi V asrdan boshlanadi. Bu paytda qog'oz (II asrda Xitoyda kashf etilgan) evropa mamlakatlarining sanoat ishlab chiqarish ob'yektiga aylangan edi.



Shundan keyingi davr axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishida katta rol o'ynadi. Shundan so'ng savdo va hunarmandchilik rivojlangach shahar pochta, XV asrdan boshlab esa xususiy pochta (G'arbiy evropa), XVI-XVII asrlarda markaziy qirollik pochta (Fransiya, Shvetsiya, Angliya va boshqalar) yuzaga keldi. Ushbu barqaror kommunikatsiya tufayli axborot faoliyatiga yanada ko'proq odamlar jalb etilmoqda va u yirikroq mintaqalarni qamrab olmoqda.

Germaniyada kitob chop etilishining kashf etilishi (XV asr o'rtasida) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi jarayonida kashfiyot bo'ldi. Bu hol unga ommaviylik olib keldi. Mohiyatan bu tabiatshunoslikda ilmiy-texnik taraqqiyotining Yangi bosqichi bo'lib qoldi. Ilmiy-texnik atamaning paydo bo'lishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida sifat o'zgarishini, ko'p nushada kitob, jurnal, gazeta, geografik xarita, texnik chizmalarning chop etilishi esa miqdor o'zgarishini keltirib chiqardi.

**Axborot<sup>1</sup> – kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish tendensiyasi.** Xorijiy mutaxassislar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining beshta asosiy tendensiyani ajratib ko'rsatadi:

**1. Axborot mahsulotlarining murakkablashuvi.** Axborot vositasi ko'rinishidagi axborot mahsuloti, ekspert ta'minoti xizmatining ma'lumotlar bazasi strategik ahamiyat kasb eta boradi. Turli shakldagi (nutq, ma'lumot, tasvir) axborot mahsulotlari eshish, ko'rish va anglash uchun foydalanuvchining talabiga ko'ra ishlab chiqiladi hamda unga qulay vaqtda va shaklda mahsulotni yetkazib berish vositasi mavjud bo'ladi. Axborot mahsuloti borgan sari yakka foydalanuvchiga taqdim etiladigan o'ziga xos xizmat va hisobot-tahlil ishlari natijalari o'rtasidagi gibridga aylanib bormoqda.

**2. Birgalikda harakat qilish qobiliyati.** Axborot mahsulotining ahamiyati oshib borishi bilan mazkur mahsulotlarni kompyuter va inson yoki axborot tizimlari o'rtasida ideal tarzda amalshuvini o'tkazish imkoniyati ilg'or texnologik muammo kasb etadi. Axborot mahsulotlarini qayta ishlash va uzatish muammosi ularning kelishi va tez harakatlanishi bo'yicha to'liq muvofiq bo'lishi lozim.

**3. Oraliq bo'g'inlarni tugatish.** Birgalikda harakatlanish qobiliyatining rivojlanishi axborot mahsulotlari almashish jarayonining takomillaShuviga, so'ngra, axborot manbai yo'lidan iste'molchiga qarab (ya'ni, bu sohadagi etkazib beruvchi va iste'molchilar) oraliq bo'g'inlar tugatiladi. Masalan, muallif va o'quvchi, sotuvchi va xaridor, qo'shiqchi va tinglovchi, o'qituvchi va o'quvchi yoki tashkilotlarda mutaxassislar o'rtasida videokon-ferensiya, elektron kiosk, elektron pochta tizimi orqali bevosita muloqat qilish imkoniyati tug'iladi.

**4. Globalashtirish.** Tashkilot yo'ldosh aloqa va Internet tarmog'idan foydalanib axborot – kommunikatsiya texnologiyalari yordamida hohlagan joyda va hohlagan paytda ish olib borishi mumkin. Aynan Internet tufayli odamlar dunyoning har qanday nuqtasidan turib o'zaro muloqat qilish imkoniga ega. Bu holatda doimiy va yarim doimiy harajatlar yanada keng geografik mintaqada taqsimlanish hisobiga ustuvorlikka ega bo'ladi.

**5. Konvergensiya.** Konvergensiya AATning zamonaviy rivojlanish jarayonining oxirgi bosqichi sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda mahsulotlar va xizmatlar, axborot va dam olish, Shuningdek, ovozli, raqamli hamda videosignallarni uzatish kabi ish rejimlari o'rtasidagi farq yo'qoladi. Moddiy ishlab chiqarish va axborot biznesi sohalari o'rtasidagi tafovut o'chib ketadi, firmalar va korporatsiyalarning faoliyat turlari diverfikatsiyasi, sanoat tarmoqlari, moliya sektori va xizmat sohalari o'zaro uyg'unlashib ketadi.

Shunday qilib, Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – bu dunyo miqyosida jamiyat taraqqiyotining sanoat asridan axborot asriga qarab o'tish asosidir. Mazkur tendensiyaning biznesda qo'llanilishi quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

har bir ish o'rnida resurslar etarli bo'lganda axborotlarni qayta ishlash uchun taqsimlangan shaxsiy(personal) hisoblashlarni amalga oshirish;

xabarlarni jo'natish uchun ish o'rinlari birlashganda kommunikatsiyaning rivojlangan tizimini yaratish;

tashkilot axborot oqimiga ulanganda, moslashuvchan global kommunikatsiyalarga ega bo'lishi;

elektron savdo tizimini yaratish va rivojlantirish;

tashkilot integratsiyasi – tashqi muhit tizimidagi oraliq bo'g'inlarni bartaraf etish.

**Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalorida qo'llash**

Ma'lumotlarni qayta ishlashning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yaxshi tuzilmalashgan vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan, ularga ko'ra zarur kirish ma'lumotlari mavjud va algoritmlar hamda ularni qayta ishlashning boshqa standart protseduralari ma'lum. Bu texnologiya boshqaruv

<sup>1</sup> **Information** is an [abstract concept](#) that refers to that which has the power to [inform](#). At the most fundamental level information pertains to the [interpretation](#) of that which may be [sensed](#). Any natural process that is not completely random, and any observable pattern in any medium can be said to convey some amount of information. Whereas [digital signals](#) and other [data](#) use discrete [signs](#) to convey information, other phenomena and artifacts such as [analog signals](#), [poems](#), [pictures](#), [music](#) or other [sounds](#), and [currents](#) convey information in a more continuous form.<sup>[1]</sup> Information is not [knowledge](#) itself, but the [meaning](#) that may be derived from a [representation](#) through interpretation.<sup>[2]</sup>



mehnatining ayrim mayda, doimo takrorlanuvchi operatsiyalarini avtomatlashtirish maqsadlarida yuqori bo'lmagan malakali xodimlarning ijrochilik faoliyati darajasida qo'llaniladi. Shu bois ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bu darajada qo'llash xodimlar mehnati samaradorligini ancha oshiradi, ularni mayda operatsiyalardan ozod etadi, ehtimol, hatto xodimlar sonini qisqartirish zaruriyatiga olib kelishi mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida operatsiyaviy faoliyat darajasida quyidagi vazifalarni hal etish mumkin:

1. firma amalga oshiradigan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash;
2. firmadagi ishlarining ahvoli haqida davriy nazorat hisobotlarini tuzish;
3. istalgan joriy so'rovlarga javob olish va ularni qog'oz hujjatlari yoki hisoblari ko'rinishida rasmiylashtirish.

Ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bir necha o'ziga xosliklar mavjud, ular quyidagi **jihatlar** bilan boshqa texnologiyalardan ajralib turadi:

- ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha firmaga zarur bo'lgan vazifalarni bajarish. Har bir firma o'z faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi va saqlashga qonunan haqli. Ular firmada nazoratni ta'minlash va qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida foydalanilishi mumkin. Shu bois ham istalgan firmada ma'lumotlarni qayta ishlash axborot tizimi albatta bo'lishi va tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ishlab chiqilishi lozim faqat yaxshi tuzilmalashgan vazifalarni hal etish, uning algoritmini ishlab chiqish mumkin;

- qayta ishlashning standart ish tartibini bajarish. Mavjud standartlar ma'lumotlarni qayta ishlashning namunaviy ish tartibini belgilaydi va ularga barcha turdagi tashkilotlar rioya qilishini ko'zda tutadi;

- odam kam katnashadigan avtomatik rejimdagi asosiy ish hajmini bajarish;

- detallashtirilgan ma'lumotlardan foydalanish.

Taftish o'tkazishga yo'l qo'yuvchi, firma faoliyati haqida tahlil xususiyatga ega yozuvlarni amalga oshirish. Taftish jarayonlarida firma faoliyati boshidan oxirigacha va oxiridan boshigacha ketma-ketlik tartibida tekshiriladi;

- voqealar ketma-ketligiga (xronologiyasiga) urg'u berish;

- boshqa darajadagi mutaxassislar tomonidan muammolarni hal etishda kam yordam talab qilish.

Ma'lumotlarni qayta ishlash axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy komponentlari quyidagilardan tarkib topgan:

**Ma'lumotlar bazasi.** U qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlashning axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida muhim rol o'ynaydi. Ma'lumotlar bevosita foydalanuvchi tomonidan matematik modellar yordamida hisob – kitoblar uchun foydalanilishi mumkin. Ma'lumotlar manbalari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

**1) Ma'lumotlarning bir qismi** axborot tizimidan operatsiyaviy darajaga kelib tushadi. Ulardan samarali foydalanish uchun bu ma'lumotlar oldindan qayta ishlanishi lozim. Buning uchun ikki imkoniyat mavjud:

- firma operatsiyalari haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimi tarkibiga kiruvchi ma'lumotlar bazasining boshqaruv tizimidan foydalanish lozim;

- ma'lumotlarning maxsus bazasini yaratgan holda qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimidan tashqarida qayta ishlashni amalga oshirish.

Bu variant ko'p miqdorda tijorat operatsiyalarini amalga oshiruvchi firmalar uchun to'g'ri keladi. Firma operatsiyalari haqidagi qayta ishlangan ma'lumotlar fayllarini hosil kiladi, ular kirishga ishonchlilik va tezlikni oshirish uchun qarorlarni qabul qilishni qullab-quvvatlash tizimidan tashqarida saqlanadi.

**2) Firma operatsiyalari haqidagi** ma'lumotlardan tashqari, qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimi ishlashi uchun boshqa ichki ma'lumotlar, masalan, xodimlarning harakatlanishi haqidagi ma'lumotlar, muhandislik ma'lumotlari va hokazolar talab etiladi, ular o'z paytida to'planishi, kiritilishi va ishlanishi lozim.

**3) Boshqarishning yuqori darajalarida** qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun tashqi manbalardan olinadigan ma'lumotlar ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Raqobatchilar, milliy va dunyo iqtisodiyoti haqidagima'lumotlarni zarur tashqi ma'lumotlar qatoriga qo'shish mumkin. Ichki ma'lumotlardan farqli ravishda, tashqi ma'lumotlar odatda ularni yig'ishga ixtisoslashgan tashkilot tomonidan sotib olinadi.

## SAVOLLAR

1. Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari nima uchun xizmat qiladi ?
2. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy elementlarini keltiring.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qanday belgilar asosida tavsiflanadi ?
4. Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari qanday xususiyatlarga ko'ra tavsiflanadi ?
5. Integrellashgan paketlar o'z tarkibiga qanday texnologiyalarni qamrab oladi ?

6. Multimedia – texnologiya deb nimaga aytiladi ?

**2. Mavzu:** Axborot jarayonlarining zamonaviy apparat va dasturiy ta'minotlari..

**Reja:**

1. Zamonaviy kompyuterlarning turlari.
2. Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari va ularning vazifalari.
3. Axborot tashuvchi va saqlash vositalari.
4. Dasturiy ta'minot. Tizimli, amaliy va instrumental dasturiy ta'minoti.
5. Axborot himoyalashning dasturiy ta'minoti.

1. Zamonaviy kompyuterlarning turlari. Kompyuter tizimi – ma'lumotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish hamda xotira tizimidir. Axborot tizimi – kompyuter, kompyuter tarmoqlari, foydalanuvchilar, axborot va dasturiy ta'minot majmuasidir. Kompyuter (ingl. computer – hisoblagich) – elektron shaklga ega turli ma'lumotlarni qabul qilish, yig'ish, saqlash, ularga ishlov berish, axborot uzatish, hisoblash kabi imkoniyatlarga ega bo'lgan qurilma. Kompyuterlarning turlari:

- 1) Mini kompyuterlar (MiniComputer)
- 2) Shaxsiy kompyuterlar (Personal Computer)
- 3) Server kompyuterlar (Servers)
- 4) Superkompyuterlar (Super Computer)

1) Mini kompyuterlar (MiniComputer) – o'lchami va bajaradigan amallar hajmi jihatidan juda kichik hisoblanadi. Ularga portativ va kichik kompyuterlar kiradi (noutbuk, planshet, bloknot va boshqalar). Netbuk (ingl. Netbook) - Internetdan foydalanish va ofis dasturlari bilan ishlash uchun mo'ljallangan kichik noutbukdir. Netbuklar ixcham o'lchamlari, kichik vazni, kam energiya iste'moli va nisbatan arzon narxlari bilan ajralib turadi.

Noutbuk (ingl. Notebook – bloknot) – mobil ixcham shaxsiy kompyuter bo'lib, uning asosiy qismi va monitori birlashgan holda bo'ladi. Bunday kompyuterlarning ko'pchiligi deyarli standart klaviaturaga, kompyuter grafikasi vositalariga ega.

- 2) Shaxsiy kompyuterlar (Personal Computer)

Shaxsiy kompyuterlar - uyda va ish joyida turli masalalarni echishda foydalaniladigan IBM rusumidagi kompyuterlar. Axborotlarga ishlov berish tezligi va xotira tizimi ish faoliyatimizdagi oddiy masalalarni echishga etarli hisoblanadi.

- 3) Server kompyuterlar (Servers)

Server kompyuterlar – fan va texnikaning turli sohalariga oid masalalarni echishga hamda tarmoqdagi kompyuterlarga o'z resurslarini taqdim etishga mo'ljallangan kompyuterlar. Ularning amal bajarish tezligi va xotira hajmi shaxsiy kompyuterlarnikiga qaraganda ancha yuqori hisoblanadi.

- 4) Superkompyuterlar (Super Computer)

Superkompyuterlar (ingl. supercomputer) – juda katta tezlikni talab qiladigan va katta hajmdagi masalalarni echish uchun mo'ljallangan tizimdir. Bu kompyuter tizimlari 1 sekundda o'n trillion amal bajaradi.

2. Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari, ularning vazifalari.

Kompyuterning asosiy qurilmalari:

- tizimli blok
- monitor
- klaviatura
- sichqoncha

Tizimli blok kompyuterning asosiy zanjiri hisoblanadi, qaysi-ki barcha qurilmalarning boshqarish va ularning vazifalarini ishlashini ta'minlaydi.

Tizimli blok tarkibi:

1) tizimli (asosiy, ona) plata atamasi inglizcha mother board so'zidan kelib chiqqan. Tizimli plata kompyuterni ko'p tomonlama umumiy tuzilmasini aniqlab beruvchi asosiy qurilmalaridan biridir.

Bu qurilma, yirik, ko'p qavatli plata ko'rinishida bo'lib, qolgan barcha qurilmalarni protsessor va bir-biri bilan o'zaro aloqasini ta'minlovchi komponentlardan tashkil topgan. Ushbu plataga protsessor bilan birgalikda kompyuterni barcha qurilmalari, unda joylashgan bo'linmalar yordamida ulanadi.

- 2) adapter, kontroller va portlar – qurilmalararo aloqa o'rnatuvchi qurilmalar;

- 3) Qattiq jisimli magnit disklar, egiluvchan magnit disk o'qish qilmasi, optik disk o'qish qilmasi;
- 4) Elektr ta'minlovchi blok.

Monitorlar – kompyuter xotirasidagi axborotlarni insonga tushunarli ko'rinishda tasvirlash qurilmasi. Zamonaviy monitorlar korpus, boshqaruv platasi, ekran va elektr ta'minlovchi bloklardng tashkil topadi.

Kompyuter klaviaturasi – kompyuter tizimi va kompyuter xotirasiga ma'lumotlarni kiritish qurilmasi. Standart klaviatura odatda 101 yoki 102 klavishali PCG'2 yoki USB interfeysli bo'ladi.

Sichqoncha kompyuterga axborotlarni kiritishning koordinatali qurilmalari hisoblanadi. Ular klaviaturaning o'rnini to'laligicha almashtira olmaydi. Bu qurilmalar asosan ikki yoki uchta boshqaruv tugmachasiga egadir.

*Periferiya qurilmalari* – protsessorning hisoblash imkoniyatlarini qullash apparatlari. Ularga kompyuterning qo'shimcha qurilma va vositalari kiradi. Masalan: printer, skaner, modem, raqamli apparatlar, multimedia vositalari va boshqalar.

Skaner - kompyuterga matn, rasm, slayd, fotosurat ko'rinishida ifodalangan tasvirlar va boshqa grafik axborotlarni avtomatik ravishda kiritishga mo'ljallangan qurilmadir. Skanerlarning har xil turlari mavjud: qul, planshetli, biro'tishli va boshqalar. Skanerlarning eng ommaviy ishlab chiqarish firmalardan birlari bu HP, XEROX, RICOH.

Digitayzer – kodlash plansheti, maxsus dasturiy ta'minot yordamida qullaniladi, professional chizmalarni shakllantirishga imkoniyatga ega.

Raqamli fotokamera – fotosurat va video ma'lumotlarni qabul qilish, uzatish va saqlash qurilmasi.

Printer – ma'lumotlarni qog'ozga chiqaruvchi qurilma. Barcha printerlar matnli ma'lumotlarni, ko'pchiligi esa rasm va grafik ma'lumotlarni rangli ko'rinishda qog'ozga chiqaradi.

Printerlarning quyidagi turlari mavjud:

matritsali

purkovchi

lazerli

Plotter grafik ma'lumotlarni (grafik, chizma, rasmlar) maxsus qog'ozga chop etuvchi qurilma. Hewlett Packard va Canon firmalar tomonidan ishlab chiqilgan plotterlar xozirgi kunga kelib ommabop hisoblanadi.

Modem – modulyator-demodulyator so'zlarining qisqartirilgan shakli hisoblanadi. Modem signalni (axborot) telekommunikatsiya kanallar bo'yab uzatishni ta'minlaydi.

Modem yordamida internetda oddiy analog telefon tarmog'i orqali bog'lanish mumkin. Bunday modemlarning nazariy jihatdan eng yuqori foydalanish tezligi 56 KbG'sek. ni tashkil etadi.

Modem ichki va tashqi turlarga bo'linadi va har ikkalasi ham internetga yoki telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanish uchun xizmat qiladi.

### 3. Axborot tashuvchi va saqlash vositalari.

Axborot tashuvchi – shunday materialli ob'ekt va muxit, qaysiki o'zoq vaqt mobaynida o'zining tarkibida yozilgan ma'lumotlarni saqlash imkoniyatlarga ega.

Qattiq jisimli magnit disk (angl. hard disk drive, HDD), erkin murojaatli saqlash qurilmasi, magnit prinsipi asosida ma'lumot yoziladi. Qo'p kompyuterlarning asosiy ma'lumot saqlovchi qurilmasi.

Flesh disklar juda katta hajmdagi axborotni o'z ichiga sig'dira oladigan yarim o'tkazgichli elementlardan qurilgan xotira. Hozirgi kunda flesh xotiralarning hajmi 32 Gb gacha bo'lgan axborotni o'ziga sig'dira oladi. Flesh xotiralar o'lcham jihatidan juda kichik bo'lib foydalanish uchun juda qulash.

CD disklar – bu kompakt disk so'zlarining bosh harflaridan olingan nomli disklar bo'lib, axborotlarni saqlash uchun optik yuzadan iborat, yumaloq disk ko'rinishidagi axborot tashuvchi hisoblanadi. Kompakt disklar 700 Mbayt hajmga ega bo'lib, unga ma'lumot disk o'quvchi qurilmaning lazer nuri yordamida yoziladi va o'qiladi.

DVD disklar – bu dijital video disk so'zlarining bosh harfidan iborat nomli disklar hisoblanadi. Bu disklar 4.5 Gbayt hajmga ega bo'lib, CD disklarga nisbatan 7 barobar ko'p axborot sig'dirishi mumkin.

### 4. Dasturiy ta'minot. Tizimli, amaliy va instrumental dasturiy ta'minoti.

Dastur – tartiblangan buyruqlar ketma-ketligidir. Har qanday dasturning yakunlovchi maqsad – bu apparat vositalrning boshqarishdir.

Hisoblash tizimning dasturiy ta'minot tarkibi dasturiy konfiguratsiya deb nomlanadi.

Dasturiy ta'minot (angl. software) – dasturlarning shunday majmuasi, qaysi kompyuter funktsiyasini va ular yordamida predmet soha masalalarning echimlarni olinishini ta'minlaydi.

Umuman olganda dasturiy ta'minot tizimini uchta guruhga ajratish mumkin(1.-rasm):

1. Tizimli dasturiy ta'minot (tizimli dasturlar);
2. Amaliy dasturiy ta'minot (amaliy dasturlar);
3. Instrumental dasturiy ta'minot (dasturlash tizimlari).

Tizimli dasturiy ta'minot – bu barcha uchun yaratilgan va universal bo'lgan dasturlardir.

Amaliy dasturiy ta'minot – bu foydalunuvchilarning o'zlari uchun va o'zlari tomonidan yaratiladigan dasturlar to'plami. Uning tarkibiga amaliy dasturlar va amaliy dastur paketlari kiradi. Amaliy dasturlar paketi – bu amaliy masalalarni echish uchun mo'ljallangan dasturlar to'plamidir. Ularga – ilmiy hisoblashlar, modellashtirish va h.k. misol bo'ladi.

Instrumental dasturiy ta'minotlarga dasturlash tizimlari kiritiladi. Dasturlash tizim – yangi dasturlarni yaratish vositasidir. Masalan, Paskal, Beysik. Oddatda ular o'z tarkibida matn muxarrir, ya'ni dastur kodini yozish maydoni, translyator va standart funksiyalar kutubxonasi komponentlardan iborat. Eng mashhur instrumental tizimlari bu CQQ, Delphi, Visual Basic, Java, MatLab, BpWin, ErWin va boshqalardir.

#### **5. Axborot himoyalashning dasturiy ta'minoti.**

Axborot xavfsizligi deb, ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossali tasodifiy va qasddan ta'sirlardan xar qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi. Ilgarigi xavf faqatgina konfidentsial (maxfiy) xabarlar va xujjatlarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat so'ramasdan foydalanishdir. Bulardan tashqari, bu xarakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi.

Axborotning himoyasi deb, boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarning yaxlitligi, ishonchligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi.

Axborot himoya vosita dasturiy deb aytiladi, qachon bu vosita dasturiy ta'minot tarkibida ishga tushurilsa. Ularning orasidan va batafsil qo'yidagilarni ko'rib chiqamiz:

- ma'lumotlarni arxivlash vositasi;
- antivirus dasturi;

Arxivlash bu bir nechta fayl yoki kataloglarni bitta faylga birlashtiruvchi jarayon, qaysi xech qanday yo'qotishsiz, ma'lum bir algoritim yordamida ma'lumot hajmini qisqartiradi. Arxiv formatlardan mashhurlari bu qo'yidagilardir:

- ZIP, ARJ (DOS va Windows operatsion tizimlari uchun);
- TAR (Unix operatsion tizimi uchun);
- ko'pplatformali format JAR (Java ARchive);
- RAR (Windows va Linux operatsion tizimlari uchun).

Antivirus dasturlari – viruslarni topish va ular faoliyatini tugatish uchun xizmat qiladigan dasturlar. Oddiy virusdan zararlanishni virusga qarshi dasturlar yordamida oson aniqlash mumkin, (murakkab tuzilishga ega) viruslarni bu usul bilan aniqlash qiyin, chunki ular o'z-o'zini nusxalashda ko'rinishini o'zgartiradi. Makroslar bilan ishlaydigan ilovalar makroviruslar bilan zararlanishi mumkin.

Kompyuter virusi o'lchami buyicha katta bo'lmagan, maxsus yozilgan dasturdan iborat bo'lib, u o'zini boshqa dasturlarga «yoziq qo'yishi», shuningdek, kompterdagi turli noxush amallarni bajara olishi mumkin. Bunday dastur ishlashni boshlaganda dastlab boshqaruvni virus oladi. Virus boshqa dasturlarni topadi va unga «yuqadi», shuningdek, qandaydir zararli amallarni (masalan, diskdagi fayl yoki fayllarning joylashish jadvalini buzadi, tezkor xotirani «ifloslaydi») bajaradi.

Axborotni ximoyalovchi umumiy vositalardan tashqari viruslardan ximoyalashda maxsus programmalardan ham foydalaniladi. Bu dasturlarning bir necha turlari mavjud: detektorlar, doktorlar (faglar), revizorlar, doktor-revizorlar, filtrlar va vaksinalar (immunizatorlar).

Nazorat savollari:

ShK asosiy qurilmalari va ularning vazifalarini aytib o'ting.

ShK periferiya qurilmalari va ularning vazifalari.

Dasturiy ta'minot turlari va ularning tarkibi.

Arxivlash formatlarini aytib o'ting.

**3-Mavzu:** Operatsion tizimlar va ularning turlari. Windows operatsion tizimining imkoniyatlari.

**Asosiy savollar:**

1. Operatsion tizim (OT) tushunchasi.
2. Fayl tizimi kompyuter.
3. Operatsion tizimning asosiy ob'ektlari

**Operatsion tizim** - Bu kompyuter yoqilganda yuklangan dastur. Bu foydalanuvchi dialogini, kompyuterni, uning resurslarini (x va h va hlu) boshqaradi. Boshqa (amaliy) bajarilishi dasturlarini ishga tushiradi. Operatsion tizim foydalanuvchi va ilova dasturlarini kompyuter qurilmalari bilan aloqa qilishning qulay usuli (interfeys) bilan ta'minlaydi.

Operatsion tizimga bo'lgan ehtiyojning asosiy sababi shundaki, kompyuter qurilmalari va kompyuter resurslarini boshqarish juda past darajadagi operatsiyadir, shuning uchun foydalanuvchi va dastur dasturlari bir necha yuz yoki minglab ishlarni amalga oshiradigan harakatlar Bunday boshlang'ich operatsiyalar.

Uy yoki past ofis tarmog'ini yaratishda Windows XP professional yoki Windows XP Home Editions mahalliy tarmoq (LAN) bilan bog'liq. Windows XP-ni o'rnatishda tarmoq adapteri aniqlangan va mahalliy tarmoq ulangan. Odatiy bo'lib, joylashuv ulanishi har doim faol. Faqatgina ushbu turni ulash avtomatik ravishda yaratilgan va faollashtirilgan. Agar siz mahalliy tarmoq orqali ulanishni buzsangiz, u endi avtomatik ravishda faollashtirilmaydi. Bu haqda ma'lumot uskunalar profilida saqlanadi, shuning uchun profil o'z joylarini o'zgartiradigan mobil foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olishga imkon beradi. Uy tarmog'ini yoki kichik tashkilot tarmog'ini yaratish orqali siz kompyuteringizning barcha manbalaridan foydalanib, ish uchun va o'yin-kulgi uchun foydalaning.

Agar dumberlar, skanerlash yoki kameralar kabi bir nechta kompyuter yoki boshqa uskunalar bo'lsa, siz fayllar, papkalar va Internet ulanishlarini almashish uchun tarmoqdan foydalanishingiz mumkin. Masalan, kompyuter tarmoqqa ulanganda, boshqa kompyuter foydalanuvchilari ham Internetga ulanishlari mumkin. Agar bir nechta kompyuterlar va bir yoki bir nechta periferik asboblari (printerlar, skaner yoki kameralar) bo'lsa, ushbu qurilmalarga kirish barcha kompyuterlardan foydalanish mumkin.

Tarmoqqa kompyuterlarni birlashtirishning bir necha yo'li mavjud. Uy va kichik ofis tarmog'i uchun eng oddiy model - bu tengdoshlar tarmog'i.

Ishchi guruh deb nomlangan tengdoshlar tarmog'i kompyuterlar bir-birlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lish va tarmoq resurslarini boshqarish uchun serverni talab qilmaydi. Umumiy maydonda o'ndan kam kompyuterni joylashtirishda bu eng mos keladi. B.S. ishchi guruh Kamaytirilgan deb hisoblanadi, chunki ular teng va umumiy resurslardan foydalanadilar. Har bir foydalanuvchi nima ma'lumotlarni hal qiladi mahalliy kompyuter Siz umumiy tarmoqqa kirish imkoniyatini berishingiz mumkin. Resurslardan keng tarqalgan foydalanish foydalanuvchilarga bitta printerda chop etishga, jamoat papkalarida ma'lumotlarga kirish va bitta fayl bilan egiluvchan diskda ishlashga imkon beradi.

Uy yoki kichik ofis tarmog'i telefon tizimiga o'xshaydi. Tarmoq ichida bo'lsa-da, har bir kompyuter telefon naychasiga o'xshash funktsiyani bajaradigan tarmoq adapteri bilan ta'minlangan: telefon tarmoqlari qurilmasi boshqa tarmoqlarni yuboradi va qabul qiladi.

Shunday qilib, Windows XP mahalliy tarmog'i bir xil kompaniya yoki korxonada qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan mahalliy tarmoq - bu to'g'ridan-to'g'ri bir-biringiz bilan o'zaro aloqada bo'lish va tarmoq resurslarini boshqarish uchun serverni talab qiladigan tengdoshlar tarmog'i. Mahalliy tarmoq quyidagi xususiyatlarni taqdim etadi: Internetga ulanish, fayllar va papkalarga, ofis uskunalari, shuningdek qo'shma o'yinlar va o'yin-kulgilarga umumiy foydalanishdan foydalanish.

### **Global Internet tarmog'i**

Global katta geografik bo'shliqlarni qamrab oluvchi kompyuter tarmoqlari deb nomlanadi. Eng keng tarqalgan global tarmoq Internet. Internet - Global International kompyuter tarmog'i Bir nechta serverlarni bir nechta sertifikatni birlashtirgan raqamli aloqa, ularda turli mavzular bo'yicha juda ko'p ma'lumotlar mavjud. Global tarmoq har doim birga ulangan ko'plab mahalliy tarmoqlardan iborat.

Uchun windows foydalanadi XP Internetga yangi ulanishni sozlash uchun tarmoqqa ulanish ustasi ishlatiladi. Ulanish ustasi Internetga ulanishni yaratadi va ekrandagi Internet-provayderlar ro'yxatini namoyish etadi. Ro'yxatdagi mos provayderni tanlashda davom etadi, keyin yangi hisob beriladi. Maks

Microsoft Xizmat paketi bilan MSN Explorer brauzerining so'nggi versiyasini o'z ichiga oladi va so'nggi yangilanish Internet Explorer brauzeri.

Butunjahon veb-serverlariga yo'naltirilgan Internet Axborot resurslari foydalanuvchilarga nafaqat havolaga kirishdan, balki kerakli ma'lumotlarni so'rash uchun sahifalarni ko'rishlariga imkon beradi.

Foydalanuvchilar Internetdan foydalanuvchilar, balki aloqa vositalari sifatida ham tarmoqdan foydalanishlari mumkin. XP Internetda ishlashda xavfsizlik va maxfiylikni saqlashni ta'minlashning quyidagi usullarini taklif qilishi mumkin:

internet Explorer mukofotlarini va kompyuter xavfsizligini va shaxsiy ma'lumotlarni yaxshilash uchun Internet Explorer sovg'alarining xavfsizligi va maxfiyligini ishlating;

xavfsizlik zonalaridan turli xil Internet tarmog'iga xavfsizlikning turli darajasini belgilab, kompyuterni himoya qilish darajasini oshirish uchun xavfsizlik zonalaridan foydalanish;

replikatsiya ekranida rasmlar bo'yicha maslahatchi, rasmlar qo'mitasi tomonidan mustaqil ravishda aniqlangan standart reytinglardan foydalangan holda (Internet-tarkibni tanlash uchun platforma).

Shunday qilib, Internet eng keng tarqalgan global tarmoq. MSN Explorer - bu Internetdan ko'proq foydalanishga imkon beradigan yangi Universal dastur. Bu sizga belgilangan manzilda turli xil Internet-resurslarga (matn, rasmlar, fayllar, fayllar) kirishga imkon beradi. Windows XP operatsion tizimida elektron pochta, Outlook Express, Windows Express. Windows XP tarmoq xavfsizligini ta'minlash va tarmoqni himoya qilish uchun kuchli vositalardan foydalanadi.

#### **Savollar**

1. Hisoblash mashinalarining texnik bazasini ishlab chiqishda operatsion tizimlar tarixida muhim voqealar bo'ldi?
2. Birinchi paketni qayta ishlash bo'yicha birinchi ishlarni qayta ishlash bo'yicha me'yorlar shu vaqtgacha, yuklovchilar, linterlar, protseduralar kutubxonalari bilan tanishgan muntazam ishlov berish dasturlaridan asosiy farq bor edi?
3. Operatsion tizimsiz kompyuter ishlay oladimi?
4. OT tarixi davomida ko'p sonli mürrogramma kontseptsiyasiga qanday munosabatda?
5. OT-ni Internetga taqdim etishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. UNIX OT-ning operatsion tizimlar tarixidagi maxsus joy tomonidan izohlanadi?
7. OTning hozirgi rivojlanish tendentsiyalari qanday?

#### **4-Mavzu: Matn muxarrirlarining zamonaviy versiyalarida hujjatlarni tayyorlash va qayta ishlash.**

Asosiy savollar:

1. Matnlar bilan ishlash.
2. Microsoft Word matn muxarriri.

Kompyuterdan foydalanuvchi ish jarayonida biror xujjatni tez va yuqori sifatida kirill yoki lotin alifbosida tayorlash hamda chop qilish zaruratiga ko'pincha duch keladi. Bunday vaziyatda u Microsoft firmasi tomonidan yaratilgan WORD dasturida ishlashni bilishi lozim.

MS WORD - bu matnli xujjatlarni tuzish, ko'zdan kechirish, taxrir qilish va chop etish uchun xizmat qiluvchi xamda Microsoft Office dasturlari guruxiga kiruvchi zamonaviy matn muxarriridir.

MS WORD - matnli va grafikli malumotlar ustida yuzdan ortiq operatsiyalarni bajaruvchi xamda matnli protsessorlar sinfiga kiruvchi eng takomillashgan amaliy dasturlardan biri hisoblanadi.

MS WORD - yordamida ixtiyoriy ko'rinishdagi xujjatni juda tez va yuqori sifatda tayorlash mumkin. Dasturning yana bir qulaylik tomoni shundan iboratki, unda bir nechta xujjatlar bilan, ya'ni ularni qo'shish, biridan ikkinchisiga kerakli joyni olib ko'chirish, matn oldiga tasvir tushirish, jadval tashkil qilish, turli shriftlar bilan ishlash, xarflarni istalgan shaklda yetarlicha katta formatda chop etish mumkin. Lekin MS WORD - ayrim "kamchiliklar" dan ham holi emas. Masalan: matematik ifodalar va kimyoviy formulalarni kiritishda katta qiyinchiliklar mavjud. Bundan tashqari, juda murakkab strukturali poligrafik (atlaslar, albomlar va jurnal muqovalari) materiallarini tayorlashda noqulaylik yuzaga keladi.

Shunday qilib, WORD matn muxarriri ko'magida rus va ingliz tilida xar xil xujjatlar, xat, xisobot, maqola, tijorat xabarlar kabi bir turkum matnli ma'lumotlarni zudlikda tayorlash va chop qilish mumkin. Bu matn muxarriri yordamida o'zbek shriftida va lotin alifbosi asosida, o'zbek tilida xar xil ma'lumotlarni osonlik bilan tayorlash mumkin.

#### **Word matn muxarriri imkoniyatlari.**

-Matnni kiritish, taxrir qilish va ko'zdan kechirish;

- Qator oraliqlari abzatsini o'rnatish;
- Avtomatik tarzda matnni saxifalarga bo'lish;
- Matn qismni ajratish va uni kerakli joyga nusxalash;
- Xujjat mundarijasini tuzish;
- Matematik, kimyoviy formulalarni yozish;
- Xar xil shriftlarda - oddiy, og'ma, tagiga chizib yozish;
- Bir vaqtda bir nechta oynada xujjat tayorlash;
- Matnda xar xil shakl, grafik va rasmlardan foydalanish;
- Turli ma'lumotli jadvallar tuzish;
- Avtofiguralar chizish, titul varaqalarini jihozlash va shu kabi yana bir turkum ishlarni bajarishi mumkin;

Word dasturini ishga tushirish va undan chiqish.

Word dasturi, odatda, dasturlar dispechorining Microsoft Office bo'limida joylashgan bo'ladi. Word dasturini ishga tushirish uchun "sichqoncha" ko'rsatkichini Word piktogrammasini ustiga keltirilib, uning chap tugmachasi ikki marta bosib, standart usulda ishga tushirish mumkin. Yoxud "Пуск" tugmachasi yordamida "Программы" bandiga kiriladi va dasturlar ro'yxatidan Microsoft Word ko'rsatkich orqali topiladi xamda "sichqoncha" chap tugmachasi bosiladi. Natijada ekranda dastlab Word dasturi zarvaragi so'ngra Wordning ishchi stoli paydo bo'ladi.

### **Microsoft Word<sup>3</sup> dasturi ish stoli.**

Uskunalar majmuasida Word menyu buyruqlarining deyarli barchasiga mos xamda qo'shimcha amallarni bajarish uchun mo'ljallangan maxsus tugmachalar joylashgan. Maxsus tugmachalar ustidagi belgilar bajariladigan amallarni ko'rsatib turadi.

Masalan, uskunalar majmuasida printer tugmachasi mavjud. Bu tugmachani bosish ekrandagi matnni chop qilishga buyruq beradi.

Dasturdan chiqish quyidagi usulda bajariladi. Ko'rsatkichni sistema menyusi ustiga keltirilib, ikki marta bosish bilan:

Oyna ilovasining sistema menyusini ochib va Close buyrug'ini tanlash bilan:

[Alt]-[F4] klaviatura tugmachalarini birgalikda bosish bilan: Файл buyruqlar to'plamidan Выход buyrug'ini berish bilan:

Agar Word oynasini yopish paytida xujjatga ayrim o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, u diskda saqlanmagan bo'lsa, ekranda "Хотители вы сохранить изменения в документе?" degan savol chiqadi, u xolda o'zgarishni diskda saqlash uchun "Да", o'zgarishni saqlamaslik uchun "Нет" yoki taxrir qilishni davom ettirish uchun "Отмена" tugmachalari tanlanadi.

### **Matnlarni kiritish va saqlash.**

Agar buyruqlar satrida argumentsiz Wordni ishga tushirgan bo'lsangiz, u xolda kompyuter yangi xujjatni "Документ 1" shartli nom bilan boshlashni taklif etadi. Ushbu xujjatning shablони Normal.Dat fayl standart fayl shaklida saqlanadi. Yangi saxifa ochilgandan so'ng kerakli xujjat klaviatura tugmachalari orqali kiritiladi.

Odatda, matn klaviatura qurilmasidan terib kiritiladi. Dastlab, ko'rsatkich ekranda kerakli joyga keltiriladi. Kiritilayotgan matn ko'rsatkich turgan joyga joylashadi.

Agar kirill alifbosidan lotin alifbosiga o'tish lozim bo'lsa [Alt]-[Shift] tugmachalar majmuasidan foydalaniladi. Klaviatura drayverlari xar xil bo'lganligi sababli, kirill alifbosida lotin alifbosiga o'tish, bazan ikki marta [Shift] yoki [Ctrl] bilan birgalikda bosilganda bo'lishi xam mumkin.

Yangi abzatsdan matnni kiritishni boshlash uchun qator nixoyasida [Enter] tugmachasini bosish lozim, aks xolda ko'rsatkich avtomatik ravishda qator oxiridan yangi qator boshiga keladi. Matndagi keraksiz jummalarni o'chirish uchun ko'rsatkich mazkur belgi old tomoniga keltiriladi va [Del] tugmachasi yordamida o'chiriladi.

---

<sup>3</sup> **Microsoft Word** (часто — **MS Word**, **WinWord** или просто **Word**) — [текстовый процессор](#), предназначенный для создания, просмотра, редактирования и форматирования текстов статей, деловых бумаг, а также иных [документов](#), с локальным применением простейших форм [таблично-матричных](#) алгоритмов. Выпускается [корпорацией Microsoft](#) в составе [пакета Microsoft Office](#). Первая версия была написана [Ричардом Броди \(Richard Brodie\)](#) для [IBM PC](#), использующих [DOS](#), в 1983 году. Позднее выпускались версии для [Apple Macintosh](#) (1984), [SCO UNIX](#) и [Microsoft Windows](#) (1989). Текущей версией является Microsoft Office Word 2021 для [Windows](#) и [macOS](#), а также веб-версия Word Online ([Office Online](#)), не требующая установки программы на компьютер.

Matndagi biror qatorni ikkiga bo'lish uchun bo'linadigan matn maydoniga ko'rsatkich keltiriladi va [Enter] tugmachasi bosiladi. Ikki qatorni birlashtirish uchun birinchi qator oxiriga ko'rsatkich keltiriladi va [Del] tugmachasi bosiladi.

Xujjatni tayyorlab bo'lgandan keyin ixtiyoriy nom va DOC kengaytkichi bilan "Сохранит как" buyrug'i orqali saqlab qoyishingiz yoki menyudagi fayl bo'limiga kirib, "Сохранит" satrini tanlash yo'li bilan uni xotirada saqlab qo'yishingiz mumkin.

Xotirada saqlab qo'yilgan faylni yana taxrir qilish zarur bo'lsa, Word menyusidagi Файл bo'limida Открыть buyrug'i tanlanadi va fayl nomi beriladi.

Natijada ish stolida matn xosil bo'ladi. O'z navbatida matnni taxrir qilish yoki chop qilishni davom ettirish mumkin.

WD matn muharriri menyusi oltita buyruqdan iborat. Har bir buyruq oldidan uni bajarish uchun bosilishi mumkin bo'lgan klavish (F1, F2, .../10,) ko'rsatilgan.

Leksikon matn protsessori menyusi ichma-ich joylashgan buyruqlar tizimiga ega. Ya'ni menyuning biror buyrug'i tanlasa, Menuy satrida qo'shimcha buyruqlar hosil bo'ladi. F10 klavishi bosiladi. Natijada yurgich menyular satriga o'tadi.

Yo'nalish klavishlari (chapga yoki o'ngga) yordamida yurgich menyuning "Tekst" menyusining amallari ("yuklash", saqlash" va hakoza) paydo bo'ladi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib matn ko'rinishdagi axborotlarni qayta ishlash usullari va yo'l-yo'riqlarini hozirgi kunda eng mukammal matn protsessorlaridan biri bo'lgan MICROSOFT WORD (qisqacha WORD) matn protsessori misolida ko'rib chiqamiz. U juda ko'p amallarni bajara olishi bilan boshqa matn protsessorlaridan ajralib turadi. WORD grafik interfeysga ega bo'lib, aksariyat buyruq va amallar "sichqoncha" yordamida amalga oshiriladi.

WORD bir vaqtda bir vaqtning o'zida bir nechta xujjat bilan ishlash imkoniyatiga ega. Har bir hujjat "oyna" deb ataladigan ichki maydonida tashkil etiladi. Oynalarning o'lchami va joylashish tartibi foydalanuvchi o'z hohishiga qarab belgilab oladi.

MICROSOFT WORD matn protsessorlarining o'zbek tilidagi ifodasi bilan birga qavs ichida rus tilidagi ifodasini berib borishni lozim topdik.

MICROSOFT WORD ishga tushirilganda ekranda uning ishchi maydoni va boshqarish paneli hosil bo'ladi. Boshqarish paneli, odatda sarlavha satri, va uskunalar panelidan iborat

Uskunalar panelida uskunalar rasmi chizilgan tugmalar bo'lib,

Ulardan foydalanish matn protsessori bilan ishlashda qulaylik yaratadi.

Sarlavhalar satrida ishlanayotgan hujjatning nomi aks etadi:

**Menyular satri quyidagilardan iborat.**

- fayl menyusi
- to'g'rilash
- ko'rinish
- joylashtirish
- format
- servis
- jadval (tablitsa)
- oyna (okno)
- ma'lumot (spravka)

Mazkur menyular hujjatlar tanlashda muhim ahamiyatga ega. Endi har bir menyuning asosiy buyruqlari bilan tanishib chiqamiz

**Fayl menyusi:**

- ochish (открыть)
- hosil qilish (создать)
- saqlash (сохранить)
- ...kabi saqlash (сохранить как)
- hujjatlarni chop etish (печать)
- WORD dan chiqish (выход)

**"To'g'rilash" menyusi quyidagi amallarni bajaradi :**

- yo'qotish qirqib olish (virezat)
- nusxalash (kopirovat)
- joylashtirish (vstavit)
- matnni izlash va almashtirish (poisk i zamenit teksta)

**"Ko'rinish" menyusi quyidagi amallarni bajaradi:**

- hujjatni ko'rish rejimini tanlash buyruqlari;
- uskunalar paneli;
- kolontitul o'rnatish
- hujjat matni tasvirining masshtabini sozlash

**"Joylashtirish" menyusi quyidagi amallarni bajaradi:**

- turli ko'rinishdagi matnlar va grafik tasvirlarni hujjat matni ichiga joylashtirish.
- "Format" menyusi quyidagi amallarni bajaradi.
- matnlarni formatlash;
  - grafiklarni formatlash (ularning rangi va o'lchovini o'zgartirish);

**"Servis" menyusi quyidagi amallarni bajaradi:**

- Hujjatlarni tekshirish,
- WORD dasturlarini sozlash.

**"Jadval" quyidagi amallarni bajaradi:**

- Jadvallarni hosil qilish.
- To'g'rilash.
- Formatlash.

**"Oyna" menyusi quyidagi amallarni bajaradi:**

- ochiq xujjatlar oynasini tartibga keltirish,
- kerakli oynani hujjatda ishlash.

**"Ma'lumot" menyusi quyidagi amallarni bajaradi:**

- WORD dasturi bilan ishlashga doir ma'lumotlarni olishga xizmat qiladi
- WORD matn protsessorlarida bir nechta uskunalar paneli bo'lib, asosan ikkita "standart" va "format" uskunalar paneli ko'p qo'llaniladi.

Matn protsessorlari yordamida hosil qilingan matn hujjat deb yuritiladi. U rasmiy hujjat bo'lishi shart emas.

quyida hujjatlarning asosiy parametrlari keltirilgan:

- sahifa o'lchami
- sahifa yo'nalishi;
- hoshiya
- abzats chekinishi;
- shrift turi;
- shrift o'lchami;
- satrlar orasidagi masofa

Sahifa o'lchamlari va hoshiyalar o'rnatilgach, "sahifa parametrlari" muloqot oynasidagi **"OK"** tugmasi bosiladi.

Kerakli shriftni tanlash uchun **"FORMAT"** menyusiga kirib, **"SHRIFT..."** amali bajariladi. Ekranda **"SHRIFT"** muloqot oynasida berilgan shriftlardan biri tanlanadi.

**"Fayl"** menyusidan "hosil qilish" (*sozdat*) buyrug'i tanlanadi. Natijada matn terish uchun yangi sahifa vujudga keladi. Bu ishni standart uskunalar panelidagi "hosil qilish" (*sozdat*) tugmasini bosish bilan ham amalga oshirish mumkin. Matnda tinish belgilar va maxsus belgilar ham ishlatiladi. Bu belgilar hammasi klaviaturada mavjud. Kursor harakatini boshqaruvchi yana bir nechta klavishlar bor. Ulardan eng muhimi **"ENTER"** klavishidir. **"ENTER"** klavishi bosilganda yurgich keyingi qator boshiga ko'chadi. Bu matnda abzats tugab, yangi abzats boshlanganligini bildiradi. "Chapga", "o'ngga", "yuqoriga", pastga, yo'nalish klavishlari mos ravishda siljitadi.

Bosh harflarni yozish uchun **"SHIFT"** klavishini bosishni unutmang. Ba'zan matnning biror qismini faqat bosh harflarda yozishga to'g'ri keladi. Bunday holda, odatda, **"CAPS LOCK"** klavishidan foydalaniladi. Yozayotgan matni vaqt- vaqti bilan saqlab turish kerak bo'ladi.

Matnli hujjatda tuzatishlar kiritish matnini tahrir qilish deyiladi.

Matnini tahrirlashda eng ko'p bajariladigan ish bu ortiqcha belgini o'chirish yoki tushib qolgan belgini oraga joylashtirish. U quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Yurgich o'chiriladigan belgi oldiga olib kelinadi. Buning uchun yurgich harakatini boshqaruvchi klavishlardan foydalanamiz.
2. Yurgichni matnning kerakli joyiga "sichqoncha" yordamida"

ham o'rnatish mumkin. Buning uchun "sichqon" ko'rsatgichi matnning kerakli joyiga olib boriladi va sichqonning chap tugmasi bosiladi.

3. Yurgich kerakli joyga qo'yilgach bitta yoki bir nechta belgini o'chirish mumkin. Buning uchun DELETE yoki BACKSPACE klavishlari qo'laniladi. Ularning ishlari turlicha.

4. BACKSPACE klavishi bilan yurgichdan chapda joylashgan belgilar o'chiriladi Ba'zi klaviaturalarda BACKSPACE yozuvi o'rniga mazkur klavishga chapga yo'nalgan chiziq chizilgan.

5. DELETE klavishi bilan yurgichdan o'ngda joylashgan belgilar o'chiriladi.

Matnga yangi belgilarni kiritish quyidagicha bajariladi:

**1. Yurgich matnig kerakli yeriga o'rnatiladi.**

**2. Kerakli belgilar klaviaturada teriladi.**

WORD matn protsessori dasturiy ta'minotiga 50 dan ziyod rasmlar kirgan bo'lib, ulardan turli hujjatlarni bezatishda foydalanish mumkin. Joylashtirish (Vstavka) menyusidan "rasm" (risunok) buyrug'i tanlanadi. Ekranda "rasm joylashtirish" muloqat oynasi paydo bo'ladi.

Mazkur muloqot oynasi rasmi fayllar nomlari ro'yxatini ko'rsatib turadi.

Ushbu ro'yxatdan biror faylni belgilab, undagi rasm tasvirini ko'rish mumkin. Bu kerakli rasmni tanlash uchun juda qulay. Rasm tanlangach "OK" tugmasi bosiladi. Hosil bo'lgan rasmdan nusxa olish, uni o'chirish va o'lchamlarini o'zgartirish mumkin. Belgilangan rasm o'lchamini o'zgartirish uchun "sichqoncha"ni chap tugmasi bosilgan holda qarama qarshi burchak tomonga siljiltisa, rasm kichrayadi, aksincha kattalashadi.

Ixtiyoriy jadval n ta ustun va m ta satrdan iborat. Ular o'z navbatida kataklardan tashkil topadi. Jadvalning asosiy elementi - katak. Katakni o'ziga hos mikro hujjat deyish mumkin. Katakka matn yozish, uni formatlash, hatto rasmlar joylashtirish mumkin bo'ladi. Unga faqatgina yangi jadval joylashtirib bo'lmaydi.

Jadval katagiga kiritilgan axborotlar ham jadval elementi hisoblanadi. Jadvallar quyidagi amallarni bajarishi mumkin.

- jadvalga yangi ustunlar qo'shish;
- jadvalga yangi satrlar qo'shish;
- jadval kataklarini birlashtirish;
- jadval kataklarini bo'laklarga ajratish;
- jadval elementlarini saralash.

Таблица menyusidan вставить - таблица buyrug'i tanlanadi. Ekranda вставка таблицы muloqot oynasi paydo bo'ladi.

Avval jadval nechta ustun va satrdan iborat bo'lishini aniqlab olish lozim. Ustun va satrlar soni aniqlangach, "jadval" (tablitsa) menyusining "jadval joylashtirish" buyrug'i tanlanadi. Hosil bo'lgan muloqot oynasida ustunlar va satrlar soni kiritiladi va "OK" tugmasi bosiladi.

**5-Mavzu:** Qishloq xo'jaligiga oid masalalarni yechishda elektron jadvallarning imkoniyatlari.

#### **Reja:**

1. Excel elektron jadvali haqida umumiy ma'lumotlar
2. Excel dasturini yuklash va unda ishni tugatish
3. Excel elektron jadval dasturining menyusi

**Tayanch iboralar:** Elektron jadvallar, elektron jadvali dastur, elektron jadval uchtunlari, EJ katorlari, kataqlar, ishchi kitob, ishchi varak, formula katori, EJ dasturi menyusi

#### **1. Microsoft Excel elektron jadval dasturi haqida umumiy ma'lumotlar.**

Excel Microsoft Office paketi tarkibidagi dastur bo'lib, u Windows operatsion tizimi boshqaruvida ma'lumotli elektron jadvallarni tayyorlash va kayta ishlashga mo'ljallangan.

Windows operatsion tizimi yaratilmasdan avval DOS tarkibida SuperCalc, QuatPrio va shunga uxshash elektron jadvali dasturlardan foydalanilgan.

Windows muxiti yaratilgandan keyin, ayniksa Windows operatsion tizimi yaratilgandan keyin ko'pgina foydalanuvchilar Office dasturlarining elektron jadvali dasturi Microsoft Excel elektron jadval (EJ) dasturidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.


Excelda tayyorlangan har bir hujjat (ma'lumotli jadval) ixtiyoriy nom va .xls kengaytmadan iborat fayl bo'ladi. Excelda odatda bunday fayl «Ishchi kitob» (Workbook, kniga ) deb yuritiladi.

Microsoft Excelning asosiy ish sohasi bu – «Ishchi kitob» bo'lib, u standart holda 3 ta varakdan (list) dan iborat bo'ladi. Foydalanuvchi xoxishiga ko'ra bu varaqlar sonini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Ish varagida buxgalter (hisobchi) kitobi kabi, sonlar, matnlar, arifmetik ifodalar, hisoblar kator va ustunlarda joylashgan bo'ladi.

Excel elektron jadvali, butun sonlar bilan tartiblangan 65536 ta kator (row- "1, 2, 3,...,65536") va lotin alifbosining bosh harflari bilan nomlangan 256 ta ustun (column – A,B,C,D,...,Z,AA,AB,...,IV)dan iborat. Kator va ustun kesishmasida elektron jadvalning tarkibiy elementi – katak (sell – yacheyka) joylashgan. Har bir katakka son, matn, yoki formula tarzidagi ma'lumotlar kiritiladi. Kataqlarning nomlari kator va ustunlarning nomlaridan kelib chikadi. Masalan A ustun bilan 7 katorning kesishmasi A7 katagi deyilsa D ustun bilan 12 katorning kesishgan joyi D12 katagi deyiladi.

## 2. EXCEL dasturini yo'qlash va unda ishni tugatish

Excel dasturini yo'qlashning bir necha usullari bor.

1. Windows ishchi stolida MS Excel nomli yorlik bo'lsa, shu yorlikni ishga tushurish bilan Excelni yo'qlash mumkin. Ya'ni shu yorlikka sichqoncha ko'rsatgich
2. i keltirilib bir vaqtda ikki marta sichqonchani chap tamondagi tugmasi bosiladi.
3. Ishchi stoldagi MS Excel yorligiga ko'rsatgich keltirilib yorlikning kontekstli menyusi ochiladi va menyudan «Открыть» bo'limi tanlanadi.
4. Agar foydalanuvchi vazifalar katoriga Excelning belgisini  (znachok) kiritib kuygan bo'lsa, shu belgini sichqoncha orqali tanlash bilan ham elektron jadvalni yo'qlash mumkin.
5. «Пуск» tugmasini bosib Windowsning menyusi chikariladi, menyudan «programm» bo'limi tanlanadi, sung MS Excel tanlanib Excel EJ ni yo'qlash mumkin.
6. «Пуск» tugmasini bosib Windowsning menyusi chikariladi, «Документы» bo'limini chikarib, Excelda yozilgan fayllardan birini tanlasak, shu fayl bilan birgalikda Excel EJ chikadi.

Excel EJ yo'qlanganda ekranga ikkita oyna chikadi, oynaning biri Excelning oynasi bo'lsa ikkinchisi EJ kitobinig oynasi.

1- rasmda Excel oynasining umumiy ko'rinishi va uning elementlari ko'rsatilgan.

Excel EJ dan chiqish uchun bir necha usullardan foydalanish mumkin:

-sichqoncha yordamida boshqarish tugmalaridan **ёпиш (закрыть)** tugmasi bosiladi.

-menyudan «Файл» bo'limiga utiladi, sung «Выход» bo'limi tanlanadi. Bu ishni sichqoncha orqali yoki klaviatura yordamida ham bajarish mumkin. **Alt** tugmasi bosiladi, **Enter** klavishi bosiladi, sung «Выход» bo'limi tanlanadi.

- Faqat klaviaturadan foydalanish kerak bo'lsa, quyidagi klavishlar ketma-ket bosiladi. Chap **Alt**,


**Ф**, **ы**.

- **Alt** va **F4** klavishlari birgalikda bosiladi.

Excel EJ oynasining umumiy ko'rinishidagi nomerlangan elementlar quyidagilar:

1. Excel oynasining belgisi va sarlavxasi.
2. Excel Ejning menyusi.
3. Excel oynasining boshqarish tugmalari. O'rash, (tiklash) yoyish va yopish tugmalari.
4. Excel oynasining instrumentlar paneli.
5. Yacheyka (katak) nomini ko'rsatuvchi satr.
6. Formula (yozish) katori






1-rasm

7. Ustun nomlarini ko'rsatuvchi satr.
8. Kator nomlarini ko'rsatuvchi satr.
9. Varaqlarni utkazuvchi (aylantiruvchi) tugmalar.
10. EJ kitobining varaqlari.
11. SHizish va ob'ektlar bilan ishlashning instrumentlar paneli.
12. EJ kitobini gorizontal aylantirish (utkazish) tugmalari.
13. EJ kitobini vertikal aylantirish (utkazish) tugmalari.
14. EJ varagi katagidagi kursor.

### 3. EXCEL elektron jadvalli dasturning menyusi.

Excel dasturi uz menyusi va instrumentlar paneliga ega bo'lib, uning menyusida quyidagi bo'limlar mavjud:



Excel EJ menyusi ham Word matn muharriri menyusi kabi vazifalarni bajaradi, lekin Exceldagi menyuning ayrim bo'limlari Word matn muharririda yo'q. Shuning uchun bu bo'limlarni ko'rib chikamiz.

**Правка** bo'limidagi **Заполнить** va **Очистить** bo'limlari kataqlarning belgilangan yo'nalishda nusxasini oladi yoki tozalaydi. **Удалить лист** bo'limi belgilangan varakni uchiradi. **Переместить \ скопировать лист** Excel ishchi kitobi sahifasini kerakli joyga siljitadi yoki nusxasini yangi sahifada hosil qiladi. Kolgan bo'limlar Microsoft Office guruhidagi dasturlar uchun umumiy bo'lgan vazifalarni bajaradi.

**Вид** bo'limining **Строка формул** bo'limi formulalar bilan ishlash satrini ekranda hosil qiladi yoki aksincha.

**Вставка** bo'limi katak, satr, ustun va varak ustida amallar bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning mazmuni quyidagicha:

- Ячейки..** – jadvalga yangi katak qo'shish;
- Строки** – jadvalga yangi satr qo'shish;
- Столбцы** – varakka yangi ustunlar qo'shish;
- Лист** – ishchi kitobga yangi varak qo'shish;
- Диаграмма...** - diagrammalar tashkil etish;

**Разрыв страницы** – sahifani ajratish;  
**Функция..** – funktsiyalarni tanlash;  
**Имя** – ishchi kitobga nom berish;  
**Примечание** – izoxlar hosil qilish;  
**Рисунок** - tasvirlarni hosil qilish, chiqarish;  
**Карта** – haritalar hosil qilish.

**Формат** bo'limi Excel dasturida formatlashni asosan katak, satr, ustunlarning ustida bajaradi. Bo'lim bandlarida satrlarning balandligi, ustunlarning eni, katak Chiziqlarini hosil qilish va yo'qotish, yangi varak hosil qilish, unga nom berish vazifalari amalga oshiriladi. **Стиль** bandida satr yoki ustun nomi belgilanishi, katakda ma'lumotlarning berilishi va tuldirish usullari aniqlanadi. Katakda yozuvlarning alifbosi va o'lchamini belgilash mumkin.

**Сервис** bo'limi Office muxitidagi amaliy dasturlarnikiga uxshash.

**Данные** bo'limi bandlari kataqlardagi kiymatlar ustida amallar bajarishga mo'ljallangan.

**Сортировка..** – kiymatlarni tartiblash;

**Фильтр** – biror belgi yoki shart bo'yicha saralash;

**Форма..** – biror shaqlda tartiblash;

**Итоги..** – yakuniy natijalarni aniqlash;

**Проверка..** – ma'lumotlarni tekshirish;

**Текст по столбцам..** – matnni ustunlarga bulish;

**Консолидация..** – kiymatlarni birlashtirish;

**Группа и структура** – yangi tizimlar olish;

**Свободная таблица..** – natijaviy jadvallar tuzish;

**Внешние данные** – tashki ma'lumotlar kiritish.

Maskur bo'limning dastlabki ikki bandi ustun yoki satr elementlarini biror belgisi bo'yicha saralash va tartiblash vazifasini bajaradi.

Yozilgan sonlarni ustunlar va satrlar buylab o'sish yoki kamayish tartibi bo'yicha joylashtirish, matnlarni ham alfavit bo'yicha tartiblash mumkin.

Keyingi bandlar jadval elementlarini birlashtirish, yaxlitlash va ajratish, tashki tarmoqlardan ma'lumotlar tuplash uchun xizmat qiladi.

Yuqorida aytilgan menyuning bo'limlari xizmatlarini instrumentlar panelidagi tugmalardan yoki klavishalar kombinatsisidan foydalanib ham bajarish mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Elektron jadval deganda nimani tushinasiz?
2. MS DOS tarkibidagi qanday EJlarni bilasiz?
3. Excel dasturi nimaga mo'ljallangan?
4. Excel EJlining qanday imkoniyalarini bilasiz?
5. Excel EJli qanday yo'qlanadi va undan qanday chiqiladi?
6. Excel EJlida satrlar, ustunlar, kataqlar nima?
7. Excel ishchi kitobi va varaqlari deganda nimani tushinasiz?
8. Excelda tayyorlangan fayl kengaytmasi standart holda qaysi tipda bo'ladi?
9. Ishchi kitobni klaviatura yordamida fayl
10. sifatida diskka saqlash jarayonini tushintiring
11. Exceldagi jadvalni Word dasturiga utkazish mumkinmi?

### **6-Mavzu: Ma'lumotlar bazalari va Big Data texnologiyalari.**

#### **Reja:**

- 3.1. Katta ma'lumotlar: asosiy tushunchalar.
- 3.2. Uchta «V» va katta ma'lumotlar bilan ishlashning uchta printsiipi.
- 3.3. Big Data bilan texnologiyalar va tendentsiyalar.
- 3.4. Katta ma'lumotlarni tahlil qilish usullari va usullari.

**Asosiy tushunchalar:** *Katta ma'lumotlar, Big Data, hajm, tezlik, xilma-xillik, Big Data texnologiyalari.*

#### **3.1. KATTA MA'LUMOTLAR: ASOSIY TUSHUNCHALAR.**

Katta ma'lumotlar - bu turli maqsad va vazifalar, ishlov berish usullari, turli xil holatlar va yondashuvlar uchun tuzilgan va tuzilmagan ma'lumotlarni qayta ishlash.

Tuzilmaydigan ma'lumotlar - bu ma'lum tartibda tashkil etilmagan yoki dastlabki tuzilishga ega bo'lmagan ma'lumotlar.

«Katta ma'lumotlar» atamasi Nature jurnali Klifford Linch tomonidan 2008 yilda dunyoda ma'lumotlarning o'sishiga bag'ishlangan maxsus sonida kiritilgan.

2018 yil o'rtalariga kelib Vikipediya *Big Data* atamasiga quyidagi ta'rif berdi:

«Katta ma'lumotlar bu 2000-yillarning oxirida paydo bo'lgan va ma'lumotlar bazasini boshqarishning an'anaviy tizimlari va Business Intelligence echimlariga muqobil bo'lgan gorizontaal miqyosda kengaytiriladigan dasturiy vositalar tomonidan samarali ishlov berilgan ulkan hajm va sezilarli xilma-xillikka oid tuzilgan va tuzilmagan ma'lumotlarning ta'rifidir.»

Ko'rib turganingizdek, ushbu ta'rifda «ulkan», «ahamiyatli», «samarali» va «alternativ» kabi noaniq atamalar mavjud. Masalan, 4 Terabayt (noutbuk uchun tashqi qattiq disk sig'imi) katta ma'lumotmi yoki yo'qmi? Vikipediya ushbu ta'rifga quyidagilarni qo'shadi: «keng ma'noda» katta ma'lumotlar «ulkan ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish uchun texnologik imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida aytiladi, ba'zi bir muammoli sohalarida butun dunyo miqyosidagi ma'lumotlar va bundan kelib chiqadigan transformatsion oqibatlar.

Eng sodda ta'rifdan xam foydalanish mumkin:

«Katta ma'lumotlar - bu uchta operatsiyani bajarish uchun mo'ljallangan texnologiyalarning birikmasi:

1. «Oddiy» stsenariylarga qaraganda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash
2. Juda katta hajmda juda tez keladigan ma'lumotlar bilan ishlash. Ya'ni, ma'lumotlar shunchaki ko'p emas, lekin doimiy ravishda tobora ko'payib bormoqda
3. Tarkibiy va yumshoq tuzilgan ma'lumotlar bilan parallel va turli tomonlarda ishlash imkoniga ega bo'lish.»

IBS tahlilchilariga ko'ra «butun dunyo miqyosidagi ma'lumotlar hajmini» quyidagi qiymatlar bilan baholadi:

2003 yil - 5 ekzabayt ma'lumotlar (1 EB q 1 milliard gigabayt)


2008 yil - 0,18 zettabayt (1 ST q 1024 ekzabayt)

2015 yil - 6,5 zettabaytdan ko'proq

2020 - 40-44 zettabayt (prognoz)

2025 yil - bu hajm yana 10 baravar ko'payadi.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, katta ma'lumotlar kuniga 100 Gb dan ortiq ma'lumotlar oqimini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda ushbu oddiy atamada faqat ikkita so'z mavjud - ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash. Bugungi dunyoda *Big Data* - bu keng ko'lamlil ma'lumotlarni tahlil qilish uchun yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.




### 3.1-rasm. Ma'lumotlarning katta o'sishi indeksi

#### 3.2. UCH "V" VA UCHTA KATTA MA'LUMOTLAR PRINTSIPLARI

Katta ma'lumotlarning aniqlovchi xususiyatlari, ularning jismoniy hajmidan tashqari, ushbu ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish vazifasining murakkabligini ta'kidlaydigan boshqa xususiyatlardir.

Meta Group kompaniyasi 2001 yilda Meta Group kompaniyasi tomonidan har uch jihat bo'yicha ham ma'lumotlarni boshqarishning bir xil ahamiyatligini namoyish etish uchun VVV atributlari to'plamini (VVV - volume, velocity, variety) (hajm, tezlik, xilma-xillik - jismoniy hajm, ma'lumotlarning o'sish sur'ati va tezkor qayta ishlash zarurati, turli xil ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida qayta ishlash qobiliyati) ishlab chiqdi.



### 3.2-rasm. Katta ma'lumot asoslari

Kelajakda talqinlar to'rtta V (veracity – ishonchlik ko'shilgan), beshta V (viability - hayotiylik va value – qiymat ko'shilgan) va ettita V (variability - o'zgaruvchanlik va visualization – vizualizatsiya ko'shilgan) bilan izoxlanadi.

Yuqoridagi ta'riflarga asoslanib, katta ma'lumotlar bilan ishlashning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

1. **Gorizontol masshtablash.** Bu katta ma'lumotlarni qayta ishlashning asosiy printsiplari. Yuqorida aytib o'tilganidek, har kuni ko'p ma'lumotlar bor. Shunga ko'ra, ushbu ma'lumotlar taqsimlanadigan hisoblash tugunlari sonini ko'paytirish kerak lekin ishlash samarasini buzmasdan amalga oshirilishi kerak.

2. **Kamchiliklarga bardoshlik (otkazoustoychivost).** Ushbu tamoyil avvalgisidan kelib chiqadi. Klasterda juda ko'p hisoblash tugunlari bo'lishi mumkin (ba'zida o'n minglab) va ularning soni, mumkin, ko'payadi va mashinaning ishdan chiqishi ehtimoli ham ortadi. Katta ma'lumotlar bilan ishlash usullari bunday holatlarning ehtimolini hisobga olishi va profilaktika choralarini ko'rishi kerak.

3. **Ma'lumotlarning lokalligi.** Ma'lumotlar juda ko'p sonli hisoblash tugunlari bo'ylab taqsimlanganligi sababli, ular bitta serverda joylashgan bo'lsa va boshqasida ishlov berilsa, ma'lumotlarni uzatish xarajatlari asossiz ravishda oshib ketishi mumkin. Shuning uchun, ular saqlanadigan mashinada ma'lumotlarni qayta ishlashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu printsiplar an'anaviy, markazlashtirilgan va yaxshi tuzilgan ma'lumotlarni saqlash uchun vertikal modellardan farq qiladi. Shunga ko'ra, katta ma'lumotlar bilan ishlash uchun yangi yondashuvlar va texnologiyalar ishlab chiqilmoqda.

### 3.3. BIG DATA BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYALAR VA TENDENSIYALAR

Dastlab, SUBD NoSQL MapReduce algoritmlari va Hadoop loyihasi vositalari kabi noma'lum tuzilgan ma'lumotlarga ommaviy ravishda parallel ravishda ishlov berish usullari va texnologiyalari kiritilgan. Keyinchalik, boshqa echimlar katta ma'lumot texnologiyalariga taalluqli bo'lib, ular katta-katta ma'lumotlar massivlarini, shuningdek ba'zi bir uskunalarini qayta ishlash qobiliyatlarida o'xshash xususiyatlarni taqdim etishdi.

**MapReduce** - Google tomonidan taqdim etilgan kompyuter klasterlarida taqsimlangan parallel hisoblash modeli. Ushbu modelga ko'ra dastur klaster tugunlarida bajariladigan juda ko'p o'xshash elementar vazifalarga bo'linadi va keyinchalik tabiiy ravishda yakuniy natijaga tushiriladi.


- **NoSQL** (ingliz tilidan Not Only SQL) - har xil nomutanosib ma'lumotlar bazalari va omborxonalar uchun umumiy atama biron bir aniq texnologiya yoki mahsulotni anglatmaydi. An'anaviy relyatsion ma'lumotlar bazalari juda tez va bir xil bo'lgan so'rovlar uchun juda mos keladi va katta ma'lumotlarga xos bo'lgan murakkab va moslashuvchan qurilgan so'rovlarda yuk o'rtacha chegaralardan oshib ketadi va ma'lumotlar bazasidan foydalanish samarasiz bo'ladi.

- **Hadoop** - bepul tarqatiladigan yordamchi vositalar to'plami, kutubxonalar va yuzlab va minglab tugunlar klasterlarida ishlaydigan tarqatilgan dasturlarni ishlab chiqish va boshqarish. U katta ma'lumotlarning asosiy texnologiyalaridan biri hisoblanadi.

- **R** - statistik ma'lumotlarni va grafikalarini qayta ishlash uchun dasturlash tili. U ma'lumotlarni tahlil qilish uchun keng qo'llaniladi va aslida statistik dasturlar uchun standart bo'lib qoldi.

- **Uskuna echimlari**. Teradata, EMC va boshqa korporatsiyalar katta ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan apparat va dasturiy ta'minotni taklif etadi. Ushbu tizimlar serverlar va ommaviy parallel ishlov berish uchun boshqarish dasturlarini o'z ichiga olgan o'rnatishga tayyor telekommunikatsiya shkaflari sifatida etkazib beriladi. Bunga ba'zan tasodifiy kirish xotirasida analitik ishlov berish uchun apparat echimlari, xususan, SAP va Oracle Analytics-dan Hana dasturiy ta'minoti va dasturiy ta'minotlari kiradi, garchi bunday qayta ishlash dastlab katta darajada parallel bo'lmasa ham va bitta tugunning xotira hajmi cheklangan bir necha terabayt

McKinsey konsalting kompaniyasi aksariyat tahlilchilar tomonidan ko'rib chiqilgan NoSQL, MapReduce, Hadoop, R texnologiyalariga qo'shimcha ravishda, katta ma'lumotlarga ishlov berish sharoitida SQL qo'llab-quvvatlaydigan Business Intelligence texnologiyalari va ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarini ham o'z ichiga oladi.



**3.3-rasm. Katta ma'lumotlar texnologiyasi**

#### *3.4. KATTA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH USULLARI.*

McKinsey, strategik menejment bilan bog'liq muammolarni hal qilishga ixtisoslashgan xalqaro konsalting kompaniyasi, katta ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladigan 11 usul va tahlil usullarini aniqlaydi.

**Data Mining** - ma'lumotlar bo'yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ilgari noma'lum, arziyas, amaliy foydali bilimlarni aniqlash usullari to'plami. Bunday usullar, xususan, uyushma qoidalarini o'rganish, tasniflash (tasniflash), klaster tahlili, regression tahlil, og'ishlarni aniqlash va tahlil qilish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

- **Kraudsorsing** - bu ishlarni mehnat munosabatlariga kirmasdan amalga oshiradigan keng, noma'lum odamlar guruhlari bo'yicha ma'lumotlarni tasniflash va boyitish.

- **Ma'lumotni birlashtirish va integratsiyalash** (data fusion and integration) - turli xil manbalardan olingan turli xil ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish uchun (masalan, raqamli signallarga ishlov berish, tabiiy tilga ishlov berish, shu jumladan ohanglar tahlili va boshqalar) turli xil manbalardan ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradigan texnikalar to'plami.

- **Mashinali o'qitish, shu jumladan o'qituvchisiz va o'qituvchisiz o'qitish** - statistik tahlil asosida yaratilgan modellardan foydalanish yoki asosiy modellar asosida murakkab prognozlarini olish uchun mashinani o'rganish.



• **Sun'iy neyron tarmoqlar, tarmoq tahlillari, optimallashtirish, shu jumladan genetik algoritmlar** (genetic algorithm - **genetik algoritim** - tabiatdagi tabiiy selektsiyaga o'xshash mexanizmlardan foydalangan holda kerakli parametrlarni tasodifiy tanlash, birlashtirish va o'zgartirish orqali optimallashtirish va modellashtirish muammolarini echishda ishlatiladigan evristik qidiruv algoritmlari)

- **Naqshni aniqlash,**
- **Bashoratli tahlil..**

**Simulyatsiya** (simulation) - bu jarayonlarni haqiqatda bo'lgandek tasvirlaydigan modellarni yaratishga imkon beradigan usul. Simulyatsiyani eksperimental sinovlarning bir turi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

**Fazoviy tahlil** (spatial analysis) - ma'lumotlardan olingan topologik, geometrik va geografik ma'lumotlardan foydalanadigan usullar sinfi.

• **Statistik tahlil** - vaqtni tahlil qilish, A/B testi (A/B testing, split testing - marketing tadqiqoti usuli; uni ishlatishda elementlarning nazorat guruhi bir yoki bir nechta ko'rsatkichlar o'zgartirilgan sinov guruhlari to'plami bilan taqqoslanadi. maqsadni yaxshilaydigan qaysi o'zgarishlarni aniqlang)

• **Analitik ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish** - natijalarni olish uchun ham, keyingi tahlil uchun manba ma'lumotlari sifatida foydalanish uchun interfaol xususiyatlar va animatsiyalardan foydalangan holda chizmalar, diagrammalar ko'rinishidagi ma'lumotlarni taqdim etish. Katta ma'lumotlarni tahlil qilishning muhim bosqichi, bu tahlilning eng muhim natijalarini idrok qilish uchun eng qulay usulda taqdim etishga imkon beradi.

### 7-Mavzu: Axborot tizimlari va ularning boshqarishdagi axamiyati.

#### Reja:

1. Axborot tizimlari
2. Axborot texnologiyalari
3. Axborot tizimlarining turlari

Axborot tizimi tushunchasini kiritishdan oldin tizim (sistema) deganda nimani tushunishimizni aniqlab olaylik. Tizim (sistema) deganda, yagona maqsad yulida bir vaktning uzida xam yaxlit, xam o'zaro bog'langan tarzda faoliyat kursatuvchi elementlar (ob'ektlar) majmuasi tushuniladi. Demak, xar qanday tizim biror-bir anik maqsad yulida xizmat qiladi. Masalan, sizga ma'lum bo'lgan shaxar telefon tarmoklari tizimi, insondagi yurag' kon-tomir tizimi, asab tizimi va boshqalar sun'iy yaratilgan va tabiiy tizimlarga misol bo'la oladi. Ularning xar biri tizimga qo'yiladigan barcha shartlarga javob beradi, ya'ni, xar biri uziga xos yagona maqsad yulida faoliyat ko'rsatadi va tizimni tashkil etuvchi elementlardan iborat.

Kuyidagi jadvalda elementlari va asosiy maqsadi kursatilgan xolda tizimlarga yana bir nechta misollar keltirilgan.

Тизим турлари	Тизимнинг элементлари	Тизимнинг асосий мақсади
Корхона	<b>Одамлар, қурилмалар, материаллар, бино ва бошқалар.</b>	Маҳсулот ишлаб чиқариш.
Компьютер	Электрон ва электромеханик ускуналар.	Маълумотларни қайта ишлаш.
Телекоммуникацион тизим	Коммуникация воситалари, алоқа каналлари, қурилмалар.	Алоқа каналларини ўзаро боғлаш ва маълумот алмашувини таъминлаш.
Аxborot тизими	Компьютерлар, компьютер тармоқлари, одамлар, аxborot ва дастурий таъминот ва бошқалар.	Маълумотларни яратини, йиғини, қайта ишлаш ва масофага узатиши.

Informatikada «tizim» tushunchasi ko'prok texnik vositalar, asosan, kompyuterlar va murag'kab ob'ektlarni boshqarishga nisbatan ishlatiladi. «Tizim» tushunchasiga «axborot» so'zining qo'shilishi uning belgilangan funktsiyasini va yaratilish maqsadini anik aks ettiradi.




Axborot tizimi — belgilangan maqsadga erishish yulida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun qo'llaniladigan usullar, vositalar va shaxslarning o'zaro bog'langan majmuasidir.

Axborot tizimlari jamiyat paydo bo'lgan paytdan boshlab mavjud bo'lgan, chunki rivojlanishining turli bosqichida jamiyat uz boshqaruvi uchun tizimlashtirilgan, oldindan tayyorlangan axborotni talab etgan. Bu, ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonlari — moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab

chiqarish bilan bog'liq jarayonlarga tegishlidir. Chunki ular jamiyat rivoji uchun xayotiy muhim ahamiyatga ega. Aynan ishlab chiqarish jarayonlari tezkor takomillashadi. Ularning rivojlanib borishi bilan boshqarish xam murag'kablashadiki, o'z navbatida, u axborot tizimlarini takomillashtirish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Shu sababli, avvalo, boshqaruv tizimi nima ekanligini bilib olaylik.

Kibernetik yondashuvga muvofik boshqaruv tizimi boshqaruv ob'ekti (masalan, korxonalar, tashkilotlar va xokazo) va boshqaruv sub'ekti, boshqaruv apparati yig'indisini uzida namoyon etadi. Boshqaruv apparati deganda maqsadlarni shakllantiruvchi, rejalarni ishlab chiquvchi, qabul kilingan qarorlarga talablarni moslashtiruvchi, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qiluvchi xodimlar tushuniladi. Boshqaruv ob'ekti vazifasiga esa boshqaruv apparati ishlab chiqqan rejalarni bajarish kiradi, ya'ni boshqaruv tizimining uzi aynan mana shu ishlarni amalga oshirish uchun tuzilgandir.



2.1-расм.

Boshqaruv tizimining ikkala komponenti to'g'ri (T) va aks (A) aloqalar bilan bog'langan. TuKri aloqa boshqaruv apparatidan boshqaruv ob'ektiga yunaltiladigan axborot okimida ifodalanadi. Aks aloqa teskari yunalishda yuboriluvchi qabul kilingan qarorlarning bajarilishi haqidagi xisobot axboroti okimida uz aksini topadi.

Axborot okimlari (T va A), qayta ishlash vositalari, ma'lumotlarni uzatish va saqlash, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha operatsiyalarni bajaruvchi boshqaruv apparati xodimlarining o'zaro aloqasi ob'ektning axborot tizimini tashkil etadi.

Axborot tizimlari nafakat axborotni qayta ishlash va saqlash, yozuv-chizuv ishlarini avtomatlashtirish, balki qarorlarni qabul qilish (sun'iy intellekt usullari, ekspert tizimlari va xokazolar), zamonaviy telekommunikatsiya vositalari (elektron pochta, telekonferentsiyalar), yalpi va lokal xisoblash tarmoklari va boshqaruvning yangi uslublaridan foydalanish xisobiga boshqaruv ob'ekti faoliyati samaradorligini oshiradi va shu maqsadda keng qo'llaniladi.

Axborot tizimlarining avtomatlashtirilgan va avtomatik turlari ma'lum.

Avtomatlashtirilgan axborotlar tizimida boshqarish yoki ma'lumotlarni qayta ishlash funksiyalarining bir qismi avtomatik ravishda, qolgani esa inson tomonidan bajariladi.

Avtomatik axborotlar tizimida boshqarish va ma'lumotlarni qayta ishlashning barcha funksiyalari texnik vositalarda, inson ishtirokisiz amalga oshiriladi (masalan, texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish).

Qullanish soxasiga qarab axborot tizimlarini quyidagi sinflarga ajratish mumkin:

- ilmiy tadkikotlarni avtomatlashtirish va boshqarish;
- loyixalashtirishni avtomatlashtirish;
- tashkiliy jarayonlarni boshqarish;
- texnologik jarayonlarni boshqarish.

Ilmiy tadkikotlarni avtomatlashtirish va boshqarishda axborot tizimlari ilmiy xodimlar faoliyatini avtomatlashtirish, statistik axborotni taxlil etish, tajribalarni boshqarish uchun muljallangan.

Loyixalashtirishni avtomatlashtirishda axborot tizimlari yangi texnika (texnologiya) ishlab chiqaruvchilar va muxandis loyixachilar mexnatini avtomatlashtirish uchun muljallangan.

Tashkiliy boshqaruvda axborot tizimlari — shaxslar funksiyalarini avtomatlashtirish uchun muljallangan. Bu sinfga xam sanoat (korxonalar), xam nosanoat ob'ektlari (bank, birja, suKurta kompaniyalari, mexmonxonalar va xokazolar) va ayrim ofislar (ofis tizimlari)ni boshqarishning axborot tizimlari kiradi.

Texnologik jarayonlarni boshqarishda axborot tizimi turli texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun muljallangan (moslashuvchan ishlab chiqarish jarayonlari, metallurgiya, energetika va xokazolar).

Dastlabki axborot tizimlari 50-yillarda paydo buldi. Bu yillarda ular maosh xisob-kitoblarini qayta ishlash uchun muljallangan bo'lib, elektromexanik buxgalterlik xisoblash mashinalarida amalga oshirilgan. Bu kog'oz xujjatlarni tayyorlashda mexnat va vakti bir kadar kiskartirishga olib kelgan.

60-yillarda axborot tizimlariga munosabat butunlay uzgardi. Bu tizimlardan olingan axborot davriy xisobot uchun ko'pgina parametrlar bo'yicha kullana boshlandi. Buning uchun tashkilotlarga ko'pgina funktsiyalarga ega bo'lgan EHM lar talab etila boshlandi.

70—80-yillarda axborot tizimlari qarorlarni kullab-kuvvatlovchi va tezlashtiruvchi jarayonga ega bo'lgan nazorat boshqaruvi vositalari sifatida keng foydalanila boshlandi.

80-yillar oxiridan boshlab, axborot tizimlaridan foydalanish kontseptsiyasi yanada uzgarib bormokda. Ular axborotning strategik manbai bo'lib qolmoqda va istalgan soxada tashkil etishning barcha darajalarida foydalanilmokda. Bu davrning axborot tizimlari axborotni o'z vaktida berib, tashkilot faoliyatida muvaffakiyatga erishishga yordam bermokda.

**Tayanch so'z va iboralar:** axborot tizimi, elementlar (ob'ektlar), tarmok, tizim, texnik vositalar, moddiy va nomoddiy ne'matlar, boshqaruv tizimi, kibernetik yondashuv, boshkaruv apparati, komponent, axborot okimlari (T va A), avtomatlashtirish, sun'iy intellekt usullari, ekspert tizimlari, zamonaviy telekommunikatsiya vositalari, elektron pochta, telekonferentsiyalar, yalpi va lokal xisoblash tarmoklari, loyixalastirish, tashkiliy boshqaruv, texnologik jarayonlar.

#### **Savol va topshiriqlar:**



1. Tizim tushunchasiga ta'rif bering.
2. Tizimga misollar keltiring.
3. Quyosh sistemasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Axborot tizimiga ta'rif bering.
5. Boshkarish deganda nimani tushunasiz?
6. Boshkaruv tizimi komponentlari va ularning vazifalarini aytib bering.
7. To'g'ri va aks aloqalarni tushuntirib bering.
8. Axborot tizimlarining qanday turlarini bilasiz?

#### 8-Mavzu: Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar.

##### **Reja:**

- 1.1. "4.0-ishlab chiqarish" (Industry-4.0) kontseptsiyasi va evolyutsiyasi.
- 1.2. Korxonalar resurslarini rejalashtirish (ERP). Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish (CRM). Biznes samaradorligini boshqarish (BPM)

**Tayanch iboralar:** *Industry-4.0, IIoT, ishlab chiqarish evolyutsiyasi 1.0-4.0, smart mahsulotlar, aqlli raqamli texnologiyalar, IoT tizimi, Enterprise Resource Planning System, ERP, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish, CRM-tizimi, strategik CRM, operatsion CRM, analitik CRM, aralash (qo'shma) CRM, Business Performance Management (BPM.)*

##### **1.1. "4.0-ishlab chiqarish" (Industry-4.0) kontseptsiyasi va evolyutsiyasi**

Industry 4.0 yoki aqlli ishlab chiqarish (IIoT) – informatsion inqilobning yangi bosqichini nazarda tutadi, u asosan o'zaro aloqalarni ta'minlash, avtomatlashtirish, mashinalar va real vaqtda ma'lumotlarga ishlov berishga yo'naltirilgan. Industry 4.0 ishlab chiqarishga mo'ljallangan bo'lib, ta'minot zanjiri yo'naltirilgan kompaniyalar uchun yanada yaxlit va takomillashtirilgan ekotizimni yaratish uchun jismoniy ishlab chiqarish va aqlli raqamli texnologiyalar, kompyuterni o'rganish va katta ma'lumotlar bilan ishlaydi. Bugungi kunda ishlayotgan har bir kompaniya va tashkilot turli xil bo'lsada, ularning barchasi umumiy muammoga duch keladi. Bular turli jarayonlarga, hamkorlarga, mahsulotlarga va insonlar orqali real vaqt rejimida ulanish va ma'lumotlarga kirishni ta'minlaydi.





1.1-rasm. Industry 4.0

Bugungi kundagi axborotlashgan jamiyatda to'rt xil Industry inqilobi mavjud.

#### Birinchi sanoat inqilobi

Mazkur inqilob 1700-yillarning oxirlarida - 1800-yillarning boshlarida ro'y berdi. Bu vaqt mobaynidagi ishlab chiqarish insonlar tomonidan suv va bug' motorlaridan oqilona foydalanish yoki uy hayvonlari yordami bilan amalga oshirilgan. Bu esa yildan yilga optimallashtirib texnik qurilmalarga yuklatilgan.

#### Ikkinchi sanoat inqilobi


XX asrning boshida dunyo po'latni joriy etish va fabrikalarda elektr energiyasidan foydalanish bilan ikkinchi sanoat inqilobiga kirdi. Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilar Industryning samaradorligini oshirishga imkon berdi va zavod mashinalarini yanada mobilroq qilish imkonini berdi. Ushbu bosqichda, mahsuldorlikni oshirish uchun ommaviy ishlab chiqarish kontseptsiyalari joriy etildi, masalan, konveyer lentasi.

#### Uchinchi sanoat inqilobi

1950 yillar oxiridan boshlab, uchinchi sanoat inqilobi asta-sekin paydo bo'ldi, chunki ishlab chiqaruvchilar o'zlarining fabrikalarida ko'proq elektron va oxir-oqibat kompyuter uskunalaridan foydalana boshladilar. Ushbu davr mobaynida ishlab chiqaruvchilar analog va mexanik texnologiyalarga kamroq e'tibor qaratadigan va raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish dasturlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lgan o'zgarishni boshladilar.

#### To'rtinchi sanoat inqilobi yoki Industry 4.0.

So'nggi bir necha o'n yilliklar ichida, Industry 4.0 deb nomlanuvchi to'rtinchi Industry inqilobi paydo bo'ldi. Industry 4.0 so'nggi o'n yilliklar davomida raqamli texnologiyalar va Internet of Things (IoT) orqali o'zaro bog'lanish, real vaqtda ma'lumotlarga kirish va kiber-fizikani joriy etish yo'li bilan butunlay yangi darajaga qaratdi. Industry 4.0 ishlab chiqarishga nisbatan to'liq, o'zaro bog'liq va yaxlit yondashuvni taklif etadi. Jismoniy raqamli aloqa bilan bog'laydi va bo'limlar, hamkorlar, etkazib beruvchilar, mahsulot va insonlar bilan o'zaro aloqalarni yaxshilashga imkon beradi. Industry 4.0 biznes egalari o'zlarining ishlarining har bir jihatini yaxshiroq nazorat qilish va tushunish imkonini beradi va samaradorlikni oshirish, jarayonlarni yaxshilash va o'sishini oshirish uchun ularni tezkor ma'lumotlardan foydalanishiga imkon beradi.



1.2-rasm. Industry 4.0 xususiyatlari.

IIoT yoki Industry 4.0 bilan bog'liq yuzlab kontseptsiyalar va atamalar mavjud:

- **Korxonalar Resurslarini rejalashtirish (ERP)** - tashkilotda axborotni boshqarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan biznes jarayonlarini boshqarish vositalari;
- **IoT (Internet of Things)** - narsalarning Interneti, sensor yoki mashinalar va Internet kabi jismoniy ob'ektlar o'rtasidagi aloqalar bilan bog'liq;
- **IIoT** - ishlab chiqarishga aloqador bo'lgan narsalar uchun sanoatlashgan Internetni anglatadi, bu insonlar, ma'lumotlar va mashinalar o'rtasidagi aloqalarni nazarda tutadi;
- **Katta ma'lumot** - katta ma'lumot tuzilishi, saqlanishi, tashkil etilishi, tendentsiyalar, uyushmalarning imkoniyatlarini aniqlash uchun tuzilgan ma'lumotlarning katta majmuini bildiradi;
- **Sun'iy aql** - kompyuterning topshiriqlarni bajarish qobiliyatiga va tarixiy ravishda inson ongining ma'lum darajasiga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilishga qaratilgan tushunchadir;
- **M2M** - mashinadan mashinaga o'tadi va simsiz yoki simli tarmoqlar orqali ikkita alohida mashina o'rtasidagi aloqani anglatadi;
- **Raqamlashtirish** - axborotning turli xil turlarini raqamli formatga yig'ish va konvertatsiya qilish jarayoniga tegishlidir.
- **Aqlli fabrika** - aqlli zavod, Industry 4.0 texnologiyalar, echimlar va yondashuvlarni ishlab chiqishga mablag' talab qiladi;
- **Mashinali o'qitish** - kompyuterlarning sun'iy aql bilan yaxshilashi kerakligini anglatadi;
- **Bulutli hisoblash** - Cloud Computing - axborotni saqlash, boshqarish va qayta ishlash uchun Internetda joylashgan o'zaro bog'liq bo'lgan uzoq serverlardan foydalanish amaliyotiga ishora qiladi;
- **Ma'lumotlarni qayta ishlash rejimi** - real vaqtda, haqiqiy vaqtda ma'lumotlarni qayta ishlash, avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni uzatish uchun kompyuter tizimlari va mashinalarining imkoniyatlarini anglatadi va natijalar real vaqt tizimiga etkazish imkonini beradi;
- **Ekosistema** - ishlab chiqarish nuqtai nazaridan ekotizim, barcha faoliyatlarning potentsial ulanishini anglatadi - inventarizatsiya va rejalashtirish, moliyaviy hisobot, mijoz munosabatlari, ta'minot zanjiri boshqaruvi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi;
- **Jismoniy tizimlar (SPS)** - shuningdek, ba'zan kiber ishlab chiqarish deb ataladigan kiber-fizikaviy tizimlar ishlab chiqarish jarayonining barcha jihatlarida real vaqtda ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va oshkorlikni ta'minlaydigan texnologiya Industry 4.0 ni qo'llab-quvvatlovchi sanoat muhitini nazarda tutadi.



1.3-rasm. Industry 4.0 texnologiyalari.

Ishlab chiqarishda Industry 4.0 ning ma'nosini chuqurroq tushunishga yordam beradigan uchta usul mavjud:

**1. Ta'minot zanjiri boshqaruvini optimallashtirish.** Industry 4.0 texnologiyalari korxonalarni ta'minot zanjiri bo'ylab ma'lumotlarni yaxshiroq tushunishga, boshqarishga va ko'rishga imkon beradi. Ta'minot zanjiri boshqarish qobiliyatidan foydalanib, kompaniyalar mahsulot va xizmatlarni bozorga tezroq, arzonroq va kamroq samarali raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq ega bo'lish uchun etkazib berishlari mumkin

**2. Tahlil qilish.** Industry 4.0 texnologiyalari ishlab chiqaruvchilarga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni qachon yuzaga kelishini oldindan taxmin qilish imkonini beradi. Ishlab chiqarish korxonasida IoT tizimlari bo'lmasa, profilaktika parvarishi muntazam yoki vaqtga asoslangan bo'ladi. Boshqacha aytganda, bu qo'l mehnatidir. IoT tizimidan foydalangan holda, profilaktika texnikasi juda ko'p avtomatlashtirilgan va optimallashtirilgan. Tizimlar muammolar paydo bo'lganda yoki mexanizmlarni aniqlab olishlari kerak va ular sizni jiddiy muammolarga duch kelmasidan oldin mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish imkoniyatini berishi mumkin. Predictive analytics kompaniyaga nafaqat "nima bo'ldi?", "nima uchun bunday bo'ldi?" kabi reaktiv savollarni berishga imkon bermaydi.

**3. Aktivlarni kuzatish va optimallashtirish.** Industry 4.0 texnologiyalari ishlab chiqaruvchilarning ta'minot zanjiri har bir bosqichida aktivlar bilan yanada samarali bo'lishiga yordam beradi, bu esa ularni yanada yaxshiroq ta'minlash imkonini beradi, sifat va optimallashtirish imkoniyatlarini logistika bilan bog'liq. Fabrikada IoT dan foydalanish orqali xodimlar butun dunyo bo'ylab o'z aktivlarini yaxshiroq ko'rishadi. Aktivlarni boshqarish, topshirish, tasniflash va sozlash kabi standart aktivlarni boshqarish vazifalari sodda va real vaqtda boshqarilishi mumkin.

Industry 4.0 mahsulotining davri va ta'minot zanjiri, sotish, inventarizatsiya, rejalashtirish, sifat, dizayn va mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimini o'z ichiga oladi. Ularning har biri ma'lumot beradi, ishlab chiqarish va biznes jarayonlar bo'yicha tegishli qarashlarni yangilaydi va juda boy va o'z vaqtida tahlilchilardir.

Industry 4.0 dan foydalanishning ayrim afzalliklari qarab chiqamiz:

1) Amazon kabi kompaniyalar logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvini takomillashtirishda davom etar ekan, biz ishimizni yaxshilashimiz va optimallashtirishga yordam beradigan texnologiyalar va echimlarni investitsiyalashimiz kerak. Muvaffaqiyatli bo'lish uchun mijozlarga Amazon kabi kompaniyadan olishlari mumkin bo'lgan xizmat darajasini (yoki yaxshiroq) ta'minlash imkonini beradigan tizimlar va jarayonlarga ega bo'lishimiz kerak.

2) Zamonaviy, innovatsion texnologiyalarga investitsiya kiritadigan kompaniyalar 4.0 yangi xodimlarni jalb qilish va saqlash uchun eng yaxshi imkoniyatga ega.

3) Sanoatning 4.0 echimiga investitsiya kiritadigan kompaniyalar samaradorlikni oshirish, bo'limlararo hamkorlikni kuchaytirish, bashoratli va tahlillarni amalga oshirish, shuningdek, operatorlar, va menejerlarga, real vaqtda ma'lumotlarni va ma'lumotlardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

4) Jiddiy muammolarga duch kelmasdan oldin muammolarni hal qilishga imkon beradi. Internet bilan bog'langan mashinalar va avtomatlashtirish ta'minot zanjirini boshqarishda va saqlab turish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda faolroq bo'lishga yordam beradi.

5) Xarajatlarni kamaytirish, daromadni oshirish. Industry 4.0 ishlab chiqarish jarayonlari va ta'minot zanjirining barcha jihatlarini boshqarish va optimallashtirishga yordam beradi. Bu ish yuzasidan aniqroq va tezkor qarorlar qabul qilishga to'g'ri keladigan ma'lumotlarni real vaqtda olish imkonini beradi, natijada ishning samaradorligi va rentabelligi oshadi.

### **1.2. Korxonalar resurslarini rejalashtirish (ERP). Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish (CRM). Biznes samaradorligini boshqarish (BPM)**

Enterprise Resource Planning System (ERP) — Korxonalar resurslarini rejalashtirish tizimi — korxonaning ichki va tashqi resurslarini (etarli fizik aktivlar, moliyaviy, material-texnik va inson resurslari) boshqarish uchun integrallashgan tizim.

ERP tizimining maqsadi korxonalar ichidagi barcha xo'jalik bo'linmalar (biznes-funksiyalar) orasida axborot oqimiga ta'sir etish va boshqa korxonalarni qo'llab-quvvatlash xisoblanadi. Qoidaga ko'ra markazlashgan ma'lumotlar bazasida qurilgan ERP tizimi korxonaning standartlashtirilgan yagona axborot makonini shakllantiradi.

ERP tizimi asosida barcha korporativ biznes ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi va korxonaning istalgan zarur xodimlar sonining ularga mos ravishda berilgan xuquqlari bilan bir vaqtda murojatini ta'minlovchi ma'lumotlarning yagona omborini yaratish printsipi yotadi.




1.4-rasm. ERP tizimining xususiyatlari.

ERP-tizimi quyidagi funksiyalar to'plamini o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqariluvchi buyumlarning tarkibini xamda ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan jarayonlar va material resurslarni aniqlovchi konstruktorlik va texnologik spetsifikatsiyalarni olib borish;
- ishlab chiqarish va savdo rejalarini shakllantirish;
- maxsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun etkazib berish muddati va xajmini, materiallar va extiyot qismlarga extiyojni rejalashtirish;
- zaxira va sotib olishni boshqarish: shartnomalarni yuritish, sotib olishni markazlashtirilgan amalga oshirish, tsex va omborxonalar zaxiralarini optimallashtirish va qayd etishni ta'minlash;
- ishlab chiqarish quvvatini yiriklashtirilgan rejalashtirishdan, to aloxida stanoklar va uskunalarni ishlatilishigacha rejalashtirish;
- moliyaviy va boshqaruv qaydlari, moliyaviy rejani tuzish va uni bajarilishi nazoratini amalga oshirishni kiritgan xolda moliyani tezkor boshqarish;

• loyixalarni, ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar va bosqichlarni rejalashtirishni o'z ichiga olgan xolda, boshqarish.



1.5-rasm. ERP tizimlar.

ERP tizimining MRPII (manufacturing resource planning – ishlab chiqarish resurslarini rejalashtirish) tizimidan asosiy farqlari:

- ishlab chiqarish tiplarining, hamda tashkilotlar va korxonalar faoliyati turlarining ko'p sonliligi;
- faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha resurslarni rejalashtirish;
- korporativ strukturalar orqali guruxli avtonom ishlovchi korxonalarni boshqarish imkoniyati;
- boshqaruv va moliyaviy rejalashtirish quyi tizimlariga e'tiborning ko'proqligi;
- transnatsional korporatsiyalarni boshqaruv funktsiyalarining mavjudligi;
- korxonaning axborotli infrastrukturasi yaratishga, egiluvchanlikka, ishonchliligiga, turli dasturiy platformalar bilan moslashishiga e'tiborning ko'proq qaratilganligi;
- korxonada qo'llaniladigan ilovalar va boshqa tizimlar bilan integratsiyasi;
- dasturiy vositalari bilan integratsiyasi yoki tizimda mavjudligi;
- rivojlangan sozlash vositalari va apparat dasturiy vositalarini konfiguratsiyalashning mavjudligi.

ERP II tizimi – bu internet texnologiyalari taqdim etadigan axborot kanallari yordamida mijozlar va kontragentlar bilan korxonaning torroq o'zaro ta'sir etish imkoniyatini beruvchi ERP tizimi metodologiyasi.

ERP tizimini tadbiq etish sabablari:

- Moliyaviy axborotni integratsiyalash
- Buyurtmalar xaqida axborotni integratsiyalash
- Ishlab chiqarish jarayonini standartlashtirish va tezlashtirish
- Omborxonalar zaxiralarini kamaytirish
- Personal bo'yicha axborotni standartlashtirish

#### **Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish (CRM)**

«Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish (Customer Relationship Management - CRM)» tushunchasi 1990 yil boshlaridan qo'llanila boshlagan. Shundan buyon CRM ga ta'rif berish uchun ko'p urinishlar bo'lgan.

1. CRM dasturiy ta'minot va oddiy Internet imkoniyatlari metodologiyasi uchun axborot sanoati tushunchasi. Bu esa korxonaga mijozlar bilan o'zaro munosabatni tashkillashtirilgan yo'l bilan boshqarishga yordam beradi.

2. CRM bu kompaniya bilan uning mijozlarini o'zaro munosabatlari paketlarini, shu jumladan sotuv va xizmat ko'rsatish jarayonlarini boqarishdir. CRM ilovalari kompaniya mijozlarini tushunish va o'zaro munosabatlari yaxshilanishini ta'minlaydi.

3. CRM bu tashkilotlarda boshlang'ich sotuvni rejalashtirish xamda keyingi sotuvni aktivatsiyalash uchun qo'llaniladigan integratsiyalashgan axborot tizimidir. CRM potentsial va real mijozlar bilan ishlashni barcha aspektlarini, ya'ni call tsentrlarni (qo'ng'iroqlar), sotuvni oldinlash (forsirovanie), marketing, texnik qo'llab-quvvatlash va joylarda xizmat ko'rsatishni qamrab oladi.

4. CRM bu mijozlarni aniqlash, jalb etish va ushlab qolish bo'yicha integratsiyalashgan yondoshuv. Tashkilotlarga bir qancha kanallar, bo'limlar, biznes mutaxassisliklari va geografiyasi bo'yicha mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish va koordinatsiyalash imkonini beradi. CRM



tashkilotlarga xar bir mijoz bilan o'zaro munosabatlarni qadrlashni maksimallashtirishga yordam beradi va yuqori korporativ samaradorlikka olib keladi.

5. CRM bu foydani, daromadni va mijozlarni qoniqtiruvchi biznes strategiya. U mijozlar segmenti atrofida tashkil etiladi. Mijozlar extiyojlari bo'yicha o'zgarishlarni stimullashtiradi, bu esa mijozni qoniqtiradi va xarakat markaziga uni jalb etadi.

*CRM-tizimi (Customer Relationship Management - Mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish)* – korporativ axborot tizimi bo'lib, biznesni yuritish uchun zamonaviy instrumentdir. U nafaqat sotish jarayoni va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni avtomatlashtirish imkonini beradi balki, ularni ishini shunday tashkil etadiki, korxonada maksimal natija olishini ta'minlaydi.



1.6-rasm. CRM tizimi xususiyatlari.

IT kompaniyalar, qoidaga ko'ra, marketing, sotish va biznesning xizmatlar funksiyalarini avtomatlashtirilgan dasturiy ilovalarni tavsiflash uchun CRM terminini qo'llaydilar.

CRM-tizimi oxirga vaqtlarda «CRM-tizimi» termini ostida CRM kontseptsiyasini amalga oshirishga yo'naltirilgan dasturiy ta'minot (DT) tushuniladi.

Biroq CRM — dasturiy maxsulot xam emas va texnologiya xam emas. CRM — bardosh (ustoychivo'y) biznesni qurishga yo'naltirilgan kontseptsiya va yadrosi «mijozga-yo'naltirilgan» yondoshuvni tashkil etuvchi biznes strategiyadir.

CRMning 4 ta turi mavjud:

- Strategik
- Operatsion
- Analitik
- Aralash

Strategik CRM bu – yadrosi mijozga yo'naltirilgan biznes strategiya bo'lib, uning maqsadi daromad keltiruvchi mijozlarni ushlab qolishdan iborat.

Operatsion CRM - buyurtmachi jarayonlarini, ya'ni sotish, marketing va mijozga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirishga qaratilgan.

Analitik CRM strategik va taktik maqsadlar uchun mijozlar xaqida ma'lumotlarni intellektual yig'ishga qaratilgan.

Aralash (qo'shma) CRM - kompaniya, sheriklar va iste'molchilar tanlovini optimallashtirish maqsadida texnologiyalarni tashkillashtirilgan chegaralarda qo'llaydi.

CRM-tizimlar imkoniyatlari:

- Mijozlar xaqida aktual axborotga murojat etish;
- Mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish va bitimlar tuzish;
- Mijozlar bilan o'zaro munosabatlar sxemasini shakllantirish, xujjat aylanishini avtorizatsiyalash;
- Zarur bo'lgan barcha xisobot ma'lumotlarini va analitik axborotlarni tezkor olish;
- Menedjerlarni operatsion xarajatlarini kamaytirish;
- Menedjerlar ishini nazorat qilish;
- Xodimlar va bo'limlar orasida kelishilgan o'zaro munosabatlar;

Asosiy printsiplar:

- Mijozlar bilan o'zaro munosabatlar haqida yig'iladigan ma'lumotlarning yagona axborot omborining mavjudligi.

- O'zaro munosabatlarning ko'p kanallarining qo'llanilishi: sotish nuqtalarida xizmat ko'rsatish, telefon qo'ng'iroqlari, elektron pochta, tadbirlar, uchrashuvlar, veb-saytlarda registratsiya formalari, reklama xavolalari, chatlar, ijtimoiy tarmoqlar.

- Mijozlar haqida yig'ilgan axborot taxlili va qaror qabul qilish uchun ma'lumotlarni tayyorlash. Masalan: mijozlarning kompaniya uchun ahamiyatliligi asosida ularning segmentatsiyasi, u yoki bu prom-aksiyalarga potentsial javoblar (otklik), kompaniyaning u yoki bu maxsulotlarga ehtiyojlar prognozi

CRM-tizimlarining qo'llanilish soxalari:

- Xizmat ko'rsatish;
- Ishlab chiqarish;
- Ko'tara va chakana savdo;
- Sug'urta va moliya;
- Telekommunikatsiya va transport;
- Qurilish.

Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish uchun CRM tizimini tanlashning asosiy kriteriyalari:

- Biznes maqsadlariga va kompaniyaning strategiyasiga tizimning funktsional imkoniyatlari mosligi;

- Boshqa korporativ axborot tizimlari bilan integratsiyasi;
- Kompaniya ehtiyojlariga yunaltirib CRM tizimiga kushimcha funktsiyalarni qo'shish imkoniyati;
- CRMning texnik talablarga mosligi;
- CRM tizimiga egalik qilish uchun umumlashgan narxi (litsenziyalar, tadbir qilish, qo'llab quvvatlash narxi)

- Sizning xududingizda tadbir qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmat ko'rsatish imkoniyatlarining qulayligi


CRM tizimi o'zi mustaqil ravishda dasturiy maxsulot bo'lishi mumkin yoki ERP tizimi tarkibiga modul sifatida kirishi mumkin (masalan, CRM tizimi ERP tizimi moduli Microsoft Dynamics AX).

Biznesni boshqarish nuqtai nazaridan CRM tadbiridan kutiladigan samaradorlik shunda ayon bo'ladi, qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish xisobiga pastroq darajaga o'tkaziladi va unifikatsiyalashtiriladi. Buning xisobidan so'rovlarga reaksiya tezligi oshadi, vositalarning aylanma (oborot) tezligi oshadi.

### **Biznes samaradorligini boshqarish (BPM)**

*Business Performance Management (BPM) (biznes samaradorligini boshqarish)* — egalik qiluvchilarni, menedjrlarni, personallarni va tashqi kontragentlarni umumiy integratsiyalashgan boshqaruv muxiti chegaralarida birlashtirish yo'li bilan barcha darajada o'z faoliyatining samaradorligini boshqarish va kompaniyaning o'z xolatini baxolashni yaxshilash qobiliyatiga yo'naltirilgan, boshqaruv qarorlarini qabul qilishning jarayonga yo'naltirilgan, yaxlit yondoshuv.

BPM – tizimi ishtirokchilar orasida ishlar oqimini taqsimlaydi, shu orqali biznes jarayonlarni boshqarishni ta'minlaydi. O'z-o'zidan biznes jarayonlarni avtomatlashtirish, tizimni tadbir qilishning ustuvor maqsadi deb qaralmaydi va xisob-kitoblar bu erda BPM tizimi tadbiridan so'ng kompaniyaning biznes-jarayonlarni boshqarishda instrument paydo bo'lishi uchun qilinadi.



1.7-rasm. BPM tizimlari xususiyatlari.

BPM asosida uzluksiz tsiklni boshqarish g'oyasi yotadi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- rivojlanish maqsadlarni aniqlash;
- bu maqsadlarga erishish uchun cheklovlarni aniqlash faktorlarini modellashtirish;
- qo'yilgan maqsadga erishish uchun olib boruvchi xarakterlarni rejalashtirish;
- samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari xolati va ularning rejadani og'ishini kuzatish imkonini beruvchi doimiy monitoring;

- samaradorlikning tabiatini yaxshiroq xis etish imkonini beruvchi erishilgan natijalar taxlili;
- boshqaruvchilarga kelgusi qarorlarni qabul qilish uchun yordam beruvchi xisobotlarni tuzish.

Analitika vositalari va arxitekturasi BPM- tizimi tarkibida uchta qavatni ajratib ko'rsatiladi.

- **Ma'lumotlarni boshqarish va ma'lumotlar ombori qavati.** Bular tashkilotning qayd etish tizimlaridan integratsiyalashgan instrumentlar yordamida axborot bilan to'ldiriladi;

- **VRM- ilovalar qavati.** Boshqaruv va xisobotlarni tayyorlashning integratsiyalashgan qo'llab-quvvatlash uchun amaliy modullardan tashkil topgan;

- **Xisobotlar va taxlil qavati.**

Tayyor VRM-instrumental echim (BI) va amaliy (VRM) komponentlardan tashkil topgan.

- BI-instrumentlar ma'lumotlar omborini yaratish va to'ldirish, taxlil va xisobotlarni chop etish uchun qo'llaniladi.

- VRM-ilovalar — boshqaruv funksiyalarini va xisobot ko'rsatkichlarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi.

Istalgan BPM - tizimi modulli tashkil etishini nazarda tutadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- jarayonlarni ko'rish, tavsiflash, taxlil qilish uchun mo'ljallangan grafik funksiyalari.
- VRM jarayonlarining nazoratlarini amalga oshirish topshiriqlarini bajaruvchi server.
- jarayonni bajarish davomida o'zgartirish funksiyalarini bajaruvchi tezkor ishlash vositalari.
- monitoring va boshqaruv instrumentlari

VRM-tizimi ikki pog'onali biznes analitika ega:

- Birinchi pog'onada biznes-faolligi monitoringi- Business Activity Monitoring (VAM) instrumentariysi mavjud. Bunda real vaqtda jarayon natijaviyligi asosiy ko'rsatkichlarining taxlili orqali biznes jarayonlarini boshqarish sodir bo'ladi.

- Ikkinchi pog'onada avtomatlashtirilgan biznes-jarayonlarni BI (Business Intelligent) taxlili sodir bo'ladi. Biznes- jarayon taxlili, uni doimo mukammallashtirish uchun amalga oshiriladi.

VRM tizimlarini tadbiriqining afzalliklari:

- Ma'lumotlarni ko'rish va taxlil qilish uchun turli ilovalar va ma'lumotlar omboridan bitta tizimda axborotlarni konsolidatsiyalash.

- Moliyalashtirish, rejalashtirish, modellashtirish va taxlilning samarali funktsionallari uchun moliyaviy ilovalar.

- Barcha mutaxassislarning rejalashtirish va bashorat qilishdagi urinishlarini yagona baoshqaruv tizimiga birlashtirish.

- Qo'shma korxonalar va filiallardan zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish vaqtini qisqartirish.

- Ko'p sonli turli ko'rsatkichlardan foydalanish xisobidan kompaniya faoliyati xaqida to'liq tasavvurga ega bo'lish.



## 9-Mavzu: Tarmoq texnologiyasi va Internet xizmatlari.

### Reja:

1. Kompyuterdan foydalanish modellari
2. Lokal kompyuter tarmog'i
3. Global kompyuter tarmog'i

**Tayanch iboralar:** Kompyuter tarmog'i, lokal, global, Jawa tili, tarmoq doirasi, uzatish miqyosi, uzatish texnologiyasi, ogir buyum, yengil qism, router, subnet, point-to-point, topologiya, master, celle

### Kompyuterdan foydalanish modellari

Har bir shaxs uz uyida turib katta masofalarda joylashgan ma'lumotlarni olishi mumkin. Uzoq masofalarda joylashgan ma'lumotlarni olishi mumkin. Komp'yuter tarmoqlari har-xil loyihalar bo'yicha tashkil etiladi. Barcha ko'rsatkichlardan quyidagi ikkitasi asosiy hisoblanadi:

1. Axborotlarni uzatish texnologiyasi.
2. Axborotlarni uzatish miqyosi, masshtabi

Hozirgi kunda ikkita ikki xil texnologiya qo'llanilmoqda.

1. Keng ko'lamli axborot uzatish texnologiyasi bu texnologiyaga server tamonidan uzatilgan axborot tarmog'idagi barcha kompyuter tamonidan qabul kilinishi mumkin.
2. Axborotlarni ikki nuqtali uzatish texnologiyasi (point-to-point) nuqtadan nuqtagacha bu texnologiyada fakat bir juft kompyuter xizmat qiladi.

Axborotlarni uzatish miqyosi bo'yicha kompyuter tarmoqlari bir nechta turlarga bulinadi.

Protessorlar orasidagi masofa	Protessorlarning joylashishi	Nomlanishi
0,1m	Ulanish chizigi	Ma'lumotlar okimini kayta ishlaydigan mashina
10m 100m 1000m	Katta xona Bino Kompus(compus)	Maxalliy kompyuter tarmoqlari LAN(Local Area Networks)
10km	Maxalliy kompyuter tarmoqlari	MAN(Metropolitan Area Networks)
100km 1000km	Viloyat kompyuter tarmoqlari	Wan(Wide Area Networks)
10.000km	Dunyo miqyosidagi kompyuterlar	Internet (Internet Computer Networks) O'zaro bog'langan kompyuter tarmoqlari

Kompyuter bu hisoblash ishlarni va mantiqiy karorlarni insonga nisbatan million va hattoki milliard marta tezrok bajara oladigan kurilmadir. Takkoslash uchun shuni aytish lozimki zamonaviy shaxsiy kompyuterlar1-sekundda bajaradigan ishlarni kalkulyator 10-yil mobaynida bajaradi. Kompyuter barcha amallarni kompyuter uchun tuzilgan dasturlar deb ataluvchi ko'rsatmalar asosida bajaradi. Bu ko'rsatmalarni yani dasturlar kompyuter dasturchilari bajaradi. **Microsoft** firmasi dasturiy taminotni ishlab chiqdi. Kompyuterning apparat qismi yoki manitor, printer, tizimli blok, skaner, modem, sichqoncha, audio-video kompyuterning **Hardware** hard (qattiq) ware (buyum) qismi deyiladi. Kompyuterning ishlayotgan dasturiy majmuasi esa kompterning dasturli taminoti deyiladi, va kompyuterning Software soft (yumshoq) qismi deyiladi. Internetdan foydalanish **WWW (World Wide Web-** Jahon o'rgimchak to'ri) tizimidan foyalanish uchun yangi dasturlashtirish tillari yaratildi. Bu tillardan biri **Java**-dasturlashtirish tili 1995 yildan boshlab ishlatilmoqda.

### Lokal kompyuter tarmog'i

Xududiy taqsimlanishi jixatidan kompyuter tarmoqlarini uch guruhga ajratish mumkin.

1. Lokal tarmoqlar (**LAN–Local Area Network**), bir korxonada, muassaning bir yoki bir nechta yaqin binolardagi ob'ektlarni boglaydi. Lokal tarmoqdagi kompyuterlar orasidagi masofa uncha katta emas, agar radiokanal aloqasidan foydalansa 20 kmni tashkil qiladi.

Lokal tarmoqda kompyuterlarni birlashtiruvchi sim (kabel) sifatida kalin koaksil, ingichka koaksil, juft-juft qilib uralgan (toking Ring «vitaya para») optik tukima (tola) simlari ishlatilishi mumkin.

Kompyuter tarmog'i maxsus operatsion tizim boshqaruvida ishlaydi. Hozir ko'p ishlatilayotgan Windows-95 operatsion tizim tarkibida lokal tarmoqda ishlash imkonini beruvchi dasturlar mavjud.

Lokal kompyuter tarmoqlari boshqa kompyuter tarmoqlari turlaridan quydagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Uzining o'lchamlari ;
2. Axborot almashish texnologiyasi bilan;
3. Topologiyasi (tuzilishi) bilan

Lokal kompyuter tarmog'ining o'lchamlari uncha katta bulmaganligi sababli, ular o'ziga xos dizayniga ega bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda ular bitta kabeldan tashkil topgan axborot tashish texnologiyasiga ega bo'ladi. Lokal kompyuter tarmog'ining axborot uzatish tezligi 10 Mb/sek dan 100 Mb/sek gacha bo'ladi.

Lokal kompyuter tarmog'ining topologiyasi ko'p hollarda quydagi ikki ko'rinishga ega bo'ladi: **to'g'ri Chiziqli** topologiya va **aylana** ko'rinishli topologiya. Bunday bir topologiyada istalgan kompyuter ishlab turgan bo'lishi mumkin, hozirgi ongda ishlab turgan, ya'ni tarmoqqa axborot jo'natayotgan kompyuter **macrep** deyiladi.

Macter ishini kolgan kompyuterlar kutib turadi. Shuning uchun 2 ta kompyuter bir vaqtning uzida axborot jo'natish xollarini bartaraf etish rejimi statsionar va dinamik rejim bo'lishi mumkin. Axborot jo'natish mexanizimi markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan bo'lishi mumkin. Har qanday kompyuter tarmog'idan foydalanishning shu tarmoqqa xos koidalari, ya'ni **protokollari** ishlab chiqilgan.

#### 2. Shahar miqyosidagi kompyuter tarmoqlari (**Metropolitan Area Networks MANs**).

Shahar miqyosidagi kompyuter tarmoqlari umuman olganda Lokal kompyuter tarmoqlariga uxshash bo'lib, ishlash texnologiyasi deyarli bir xil.

Odatda MANlarga kushni ofeslar birlashtiriladi. Yoki shahar miqyosidagi korxonalar ofislari birlashtiriladi. MANlar xususiy tarmoqlar bo'lishi mumkin. MANlarni Lokal televizion tarmoqlarga ham ulash mumkin. MANlarning alohida kategoriyalariga bo'linishi sabab shundaki, ular uchun xalqaro standartlar ishlab chiqilgan. Bu standartning nomi **DQDB** (Distributed Queue Dual Bus)-tarkatilgan navbat ikkilangan kanal, magistral. DQDB –standarti bo'yicha kompyuterlarni tarmoqqa ulash sxemasi quydagicha bo'ladi. Bu sxema 2 ta bir xil magistrantdan iborat bo'lib, bularga tarmoqqa kiradigan kompyuterlar kiradi. Har bir magistral axborotlarni jo'natish kurilmasiga ega bo'ladi. Bu kurilma **head-end** (boshi-oxiri) deyiladi.

Har bir kompyuterdan bu kompyuter ung tomonga joylashgan kompyuterlarga axborot jo'natish uchun yuqori magistaldan foydalanishga to'g'ri keladi. Chap tomondagi kompyuterlarga ma'lumot yuborish uchun esa quyi magistraldan foydalanish kerak.

MANlarni asosiy xususiyati shundan iboratki, axborotlarni keng ko'lamda tarkatish imkoniyatlari bor, bu kompyuter tarmog'i o'ziga xos dizaynerga ega bo'ladi. MANlarni topologiyasi regulyar (to'g'ri) sxemada bo'ladi.

#### **Global kompyuter tarmoqlari (Wide Area Networks, WANs )**

Texnologiyasi, miqyosi bilan kompyuter tarmoqlari bir-biri bilan farq qiladi. Odatda keng zonali kompyuter tarmoqlari bir kichikroq mamlakat, yoki kichikroq kit'a miqyosida ishlatiladi.

WANlar foydalanuvchilar masalalarini yechishga mo'ljallangan kompyuterlar kolleksiyasidan tashkil topadi. Kelgusida bu kompyuterlarni asosiy kompyuterlar yoki (host computers) **host** deb yuritimiz.

**WAN** larda host (asosiy) kompyuterlar bir-biri bilan komunikatsiya tizim osti deb ataluvchi tizim osti bilan ulanadi. Kompyuter tarmog'ining kommunikatsiya tizim osti **subnet** deb ataladi.

**Subnetning** asosiy vazivasi–tarmoqdagi asosiy kompyuterlar orasida aloqa o'rnatishdan, ya'ni tarmoqdagi bir kompyuterdan ikkinchi asosiy kompyuter axborot uzatishdan iboratdir. Keng zonali kompyuter tarmoqlarida–WANlarda quydagi ikkita tushunchani ajratib takidlab utamiz.

1. Aloqa tarmoqlari (Subnet)
2. Tarmoqning amaliy masalalarini yechishda kullaniladigan qismi, ya'ni host (asosiy) kompyuterlar.

Bu 2ta tushunchani bir-biridan ajratish WANlarni loyخالashni, ya'ni ularni dizaynini soddalashtirish imkoniyatini beradi. Ko'p hollarda komutatsiya yoki aloqa Subneti quydagi 2ta har xil kompyuterlardan iborat bo'ladi:

1. Uzatish tarmoqlari (liniya peredachi)
2. Boshqa aloqa tarmog'iga ulash elementlari.

Uzatish tarmoqlarining vazifasi aloqa axborotlarini uzatish, ya'ni bitlarni uzatishdan iborat).

Axborotlarni bitta asosiy kompyuterdan boshqa asosiy kompyuterlarga uzatiladi. Bu alohida aloqa tarmog'ining vazifasi. Bitta aloqa tarmog'ini boshqa aloqa tarmog'i bilan ulaydigan elementlarning vazifalari bir aloqa tarmog'ini boshqa aloqa tarmog'i bilan ulashdan iboratdir. Bu vazifani, ya'ni bir tarmoqni ikkinchi tarmoq bilan ulash vazifasini maxsus moslashtirilgan kompyuterlar bajaradi. Tarmoqlarni ulash elementiga kiruvchi tarmoqdan axborot kelganda ulash elementi kelgan axborotni jo'natish uchun chiqish tarmog'ini tanlashi kerak. Tarmoqlarni ulaydigan kompyuterlarni **router** deb qabul kilamiz.

Router – yo'naltiruvchi, marshrutizator degan manoni bildiradi.

Lekin asosiy kompyuterlar har doim LANlarga ulangan bo'lishi shart emas. Agar bitta router dan jo'natilgan axborot, ikkinchi router yetib borishi uchun orada 2-3 ta routerlardan utsa, tabiyki, jo'natilgan axborot oralikdagi routerlarga kelib kiradi. Ma'lumki bu oralik routerda saqlanib turishi mumkin, keyin chiqish yuli bush bo'lganda jo'natiladi. Axborotni bir routerdan boshqaga yetib borish modeli 2 nuqtali model deyiladi (**Point to point**). Bu modelda axborot jo'natuvchi va axborot qabul qiluvchi bor.

Katta xajimga ega bulmagan axborotlar va o'zaro teng bo'lgan axborotlar adabiyotda **cellelar** deyiladi. Keng zonali kompyuter tarmog'ining WANlarni topologiyasi irregulyar (noto'g'ri) sxemada bo'ladi.

### Nazorat savollari

1. Kompyuter tarmog'i deb nimaga aytiladi?
2. Kompyuter tarmoqlari bir-biridan nima bilan farqlanadi?
3. Lokal kompyuter tarmog'i deganda nimani tushinasiz?
4. Shahar miqyosidagi kompyuter tarmog'i deganda nimani tushinasiz?
5. Keng zonali (global) kompyuter tarmog'i deganda nimani tushinasiz?
6. Bu tarmoqlarning topologiyalari qanday bo'ladi ?
7. Router nima vazifani bajaradi?
8. Subnetning vazifasi nimadan iborat?
9. Ikki nuqtali model deb qanday modelga aytiladi?

**Mavzu: Internet global kompyuter tarmog'i. Elektron pochta. INTERNET EXPLORER dasturi**

### Reja:

1. Internet tarixi
2. Internetning information va kommunikatsion funktsiyalari
3. Internet Explorer dasturi bilan tanishish

**Tayanch iboralar:** Internet, TCP/IP, World Wide Web, HTML, Virtual, giper bog'lanish, To'g'ridan-to'g'ri ulanish, SLIP va PPP, "Chaqiruv" bo'yicha ulanish

### Internet tarixi.

Internet bu XX asrda kashf etilgan telekommunitcion va kompyuter tarmoqlar majmuidir. Uning tarixi 1960 yillaridagi Karib majorasidan sung, AQSHning ilmiy markazlaridan biri bo'lgan **RAND CORPARATION** korxonasi birinchi marta butun mamlakatni qamrab oladigan markazlashmangan kompyuter tarmog'ini yaratishni taqlif qilgandan boshlanadi. Bu loyihani amalaga oshirishdan Maqsad harbiy muassasalar, ilmiy va o'quv markazlari kompyuterlarni bir tarmoqqa birlashtirib, boshqarishni markazlashtirish edi. Maqsad yadro quroli xujumiga ham, tarmoqning bir necha qismi ishdan chikkan holda ham ishlash faoliyatini saqlab qoladigan tizimni yaratish edi. Bunday tizimni tarmoqlar soni ko'p bo'lgandagina amalga oshirish mumkin edi. Shunday qilib Internetga asos solindi.

1964- yili 4 tarmoqdan iborat AQSH ning eng nufuzli tekshirish institutlarida joylashgan **ARPANET** tarmog'i yaratildi. Boshida olimlarning tadqiqot ishlarida foydalanilgan tarmoq, keyinchalik ularning safsata sotishning sotishning kompyuterlashgan zanjiriga aylanadi. Ammo shunday tarmoq yaratishning o'zi katta muvaffaqiyat edi. 70-yillarda tarmoq ancha o'sdi. Endi tarmoqning tuzilishi unga xoxlagan kompyuterlarni ulash imkoniyatini berdi. Keyinchalik 1974-yilda tarmoqlarni birlashtiruvchi TCP/IP protokoli tuzildi va tarmoqning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Chunki tarmoqqa ixtiyoriy

kompyuterni ulash imkoniyati paydo bo'ldi. 1983-yilda **ARPANET-INTERNET** deb atala boshlandi va juda kuchli, bir-biri bilan bog'langan kompyuterlar va tarmoqlar to'plamidan iborat tizimsiga aylandi.

1980-yillar INTERNETning keskin o'sish davri bo'ldi. Kompyuterlarning markazlashmagan boshqarish tarmog'i bilan bog'lanish sxemasi butun dunyoga tarqaldi va chet el tarmoqlari tashkilotchilari AQSH tarmog'iga ulanishga rozi bulishdi. INTERNET ning butun dunyoni qamrab olishi quyidagi tarmoqlarning kushilishi hisobiga bo'ldi. **NSFNET** - AQSHning ilmiy-tadqiqot institutlarini, korporatsiya va xukumat idoralarini birlashtiruvchi tarmog. (1980 yil) **EUNET** (Europe Union Network) - Yevropaning UNIX operatsion sitemasida va UUCP hamda TCP/IP da ishlaydigan mashinalari tarmog'i. Markazi Amsterdam shaxrida. (1982 yil) **EARN** (European Academic Research Network)- Yevropaning o'quv, ilmiy-tekshirish va tadqiqot muassasalarining tarmog'i (1983 yil) **JUNET** - Yaponiyaning UNIX mashinalari tarmog'i (1984 yil) **JANET** - Buyo'q Britaniyaning birlashgan akademik tarmog'i (1984 yil) Shulardan **NSFNETni** - **Internet Backbone** yoki "*internetning asosi*" deb atashadi. Tashkil etilgan vaqtda 1980 yilda u 56 Kbit-s tezligida axborot uzata olish qobiliyatiga ega edi. 1988 yilda esa unin tezligi 1,544 Mbit-s oshdi. 1991-yili NSFNET tarmog'i takomillashtirildi va uzatish tezligi 44.736 Mbit-s ga yetdi.

Internetga ulangan kompyuterlar soni 1987 yilda 10 000 bo'lsa, 1989 yilda 100 000 taga yetdi, 1995 yilda esa 6,5 million deb hisoblangan. Hozirgi kunda esa dunyoning 150 dan ortiq mamlakatida 100 millionlab kompyuterlar Internetga ulangan bo'lib, har oyda tarmoq abonentlar mikdori 7-10% ortib bormokda. Internetdagi kompyuterlar aksariyati AQSH da joylashgan.

90- yillar INTERNET da xizmat tarmoqlari tashkil kilingan davr bo'ldi. 1990 yili Bill Xilan, Elan Emtidj va Piter Deych **ARCHIE** dastursini ishlab chiqishdi. 1991 yili Bryuster Kaale **WAIS** dastursini tuzdi, Minnesota universitetida Pol Lindner va Mark Mak-Kayl tomonidan **Gopher** dastursi tuzildi. 1992 yilda Nevada shtati universitetida yaratilgan **Veronica** tizimsi ishga tushirildi va shu sababli tarmoqdagi kompyuterlar soni milliondan oshib ketadi.

Ammo Internet ning 90-yillardagi rivojlanishiga asosiy sabab World Wide Web (Butun Dunyo Tarmog'i) ning tuzilishi bo'ldi. Uni birinchi nusxasini 1990 yilining noyabrida **CERN** (Yevropa atomni tekshirish markazi) xodimi Tim Berns-Li yaratdi, lekin 1992 yilgacha ishga tushirilmadi. 1993 yilda **NCSA** (National Center for Supercomputer Applications, Superkompyuterli Hisoblash Milliy Markazi) tomonidan **Mosaic** dastursi ishlab chikarildi va shu yil oxiriga 200 ta WWW server ishga tushirilib WWW bo'yicha axborot okimi 1% ni tashkil qilgan.

Internet va WWW bir xil emas. Internet butun dunyo kompyuterlar tarmoqlarining to'plamini belgilaydi va turli xil kompyuter xizmatlarini ko'rsatadi. Bu - **E-mail elektron pochta, Usenet telekonfrentsiyalari, FTP ma'lumot fayllarini uzatish tizimsi, Telenet uzokdan terminalga kirish tizimsi, Gopher tizimsi va Butun Dunyo Tarmog'i- WWW**. Demak WWW Internetning fakatgina bir qismidir. Lekin u juda tez rivojlanmoqda.

WWW - Internet ning ommabop xizmat turidir. Unga ulanish uchun kompyuter bilan modem yetarlidir. Shuning uchun Butun dunyo tarmog'i butun olam axborotlar ombori-kutubxonaga aylanib qoladi va u dunyoga yoyiladi. WWW da ma'lumotlar sahifalarda joylashadi. WWW sahifalarning soni oxirgi 3 yilda yuz milliondan oshib ketdi. Bu sahifalarning egasi kim? Ular yirik korporatsiyalar yoki kichik korxonalar, universitet va maktablar, tashkilotlar, jurnal va ruznomalar yoki oddiy shaxslardir. Bu sahifalarda turli-tuman ma'lumotlar joylanadi. Hozirgi kunda WWW axborot olishning va tarkalishning eng qulay usulidir. U unga kiruvchi va ulangan barcha kompyuterlarning o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini yaratib beradi.

**Nielsen-NetRatings** kompaniyaning izlanishlari natijasida, 2000 yil mart oyida Internet foydalanuvchilar soni 379 mln. ga teng bo'lgan bo'lsa ulardan 211 mln. internetning aktiv foydalanuvchilari. Ushbu kompaniya ma'lumotlariga ko'ra eng aktiv foydalanuvchilar Janubiy Koreyada joylashadilar - bir oyda 2164 veb sahifani ko'rib chiqishadi (dune bo'yicha urtacha 774 veb sahifa). Undan keyingi urinlarda Singapur, Germaniya, Yaponiya va Kanada mamlakatlari turishadi. AQSH esa 7 urinda.

2005 yilga Internet foydalanuvchilar soni 1 milliardga teng bo'lishi kutilmokda. 135 million AQSH fukorolari Internet xizmatlaridan doimiy foydalanmokda bo'lib, 2002 yildagi har bir ishlatilgan dollarning yarimi Internet orqali ishlatilgan.

Internet ma'lumotlari ichida harakatlanish uchun bizga gipermatn a'lokalar yordam beradi. Gipermantn bu matnni giperko'rsatmalar yordamida tushuntirishdir. Ya'ni matndagi biror suz yeki atamani izoxlashda boshqa matn yeki sahifadan foylanish. Har bir Internet sahifasi uz tarmoq adresiga ega va AQSHning Virdjiniya shtatida shu adreslar takrorlanmasligi uchun maxsus kompaniya mavjud. Bu URL (Universal Resorce Locators) adresi. URL adresi giperdokumentning nomi va joylanish katalogi,

serveri, domeni va server turini ko'rsatadi. URL adresi bir necha qismdan iborat. Har bir qismi nuqta bilan ajratiladi.

URL adresning umumiy ko'rinishi:

**tizim :// kompyuter(bo'lim)\_nomi . tarmoq(provayder yoqi server)\_nomi .  
yuqori\_domen/faylgacha\_to'liq\_yul(papkalar va fayl)**

Masalan:

**http://informatika.freenet.uz/bonus/music.html**

**music.html** –fayl nomi

**bonus** - katalog

**freenet.uz** – yuqoriserver nomini ko'rsatadi

**http:** - ma'lumotlarni almashish qoidalar tizimini ko'rsatadi (http –bu WWW, ftp – bu FTP, gopher –bu GOPHER tizimlari).

FTP protokol yordamida biz Internet tarmoq orqali boshqa serverlardan ma'lumotlarni uzimiz kompyuterimizga kuchiramiz. FTP serverda fakat fayllar, Web serverda esa fakat giperdokumentlar saqlanadi. Giperdokumentlar bilan ishlash uchun bizga "Internet provodnik" dasturlar yoki brouzer dasturlar turi yordam beradi. Bularga Internet Explorer, Netscape Navigator boshqa dasturlar kiradi.

Eng sungi qismi - yuqori domen deb nomlanadi va asosan mamlakatni ko'rsatadi. U ikki harfdan iborat bo'ladi, masalan:

**Uz** – Uzbekiston

**Us** – AQSH

**Ua** – Ukraina

**Uk** – Buyo'q Britaniya

**Ru** – Rossiya

**Au** – Avstraliya

**Kr** – Koreya

**Jp** – Yaponiya

**Cn** – Xitoy

**Br** – Braziliya

**De** – Germaniya

**It** - Italiya

Lekin domen mamlakatni ko'rsatmasligi ham mumkin va u uchta harfdan iborat bo'lib, quyidagicha bo'lishi mumkin:

**Com** – kompaniya yoki firma,

**Net** – tarmoq tizimlari,


**Org** – nodavlat korxonasi,

**Int** – jaxonaro korxonasi,

**Edu** – ta'lim muassasa

### **INTERNET EXPLORER dasturi bilan tanishish**

Internetda ishlash uchun bizga maxsus dasturlar «internet yulovchilari» yordam berishadi. Uni ishga tushirish uchun biz Pusk menyusiga kirib Programm bo'limni tanlaymiz va shu bo'limda Internet Explorer dasturni tanlaymiz.



Har bir dastur oynasiga uxshab bu dastur ham uzining menyusi va yordamchi tugmalariga ega. Dasturda ishlash uchun biz ularni har bittasini bilishimiz shart. Oynaning eng yuqorisida menu satri joylashgan. Bu dasturni ishlash holatlarini to'g'ri o'rnatish uchun biz menyudan foydalanamiz. Quyida biz shu menyuning har bir bo'limini alohida ko'rib chikamiz.

#### Файл menyusi

- Создать - Yangi oynani ochish
- Открыть окно - Yangi yoki saqlangan saytni shu oynada ochish
- Редактировать - Saytni taxrirlash
- Сохранить как - Saytni kattik diskga saqlash
- Параметры страницы - Sayt varakasining xususiyatlarini o'zgartirish
- Печать - Bosmaga chiqarish
- Отправить - Saytni jo'natish
- Свойства - Sayt xususiyatlarini ko'rish
- Работать автономно - Telefon orqali ulanmasdan ishlash
- Закреть - Berkitish

#### Правка menyusi

- Вырезать - Xotiraga kuchirib olish
- Копировать - Xotiraga nusxani olish
- Вставить - Xotiradan chiqarish
- Выделить всё - Butun saytni guruhga tanlash
- Найти - Kidirish

#### Вид menyusi

- Панель инструментов - Yordamchi qurollarni o'rnatish
- Строка состояния - Ma'lumotlar satrini o'rnatish
- Панель обозревателя - Обозреватель qurollarini o'rnatish
- Перход - Saytga o'tish
- Остановить - To'xtatish
- Обновить - Yangilatish
- Размер шрифта - Harflar shriftini o'zgartirish
- Вид кодировки - Kodlarni o'zgartirish
- Вид HTML - HTML ko'rinishda ko'rsatish
- Во весь экран - To'liq ekran ko'rish

#### Избранное menyusi

- Добавить в избранное - Tanlangan saytlar ro'yxatiga qo'shish
- Упорядочить избранное - Tanlangan saytlar ro'yxatini tartiblash

## Сервис menyusi

**Почта новости** - Pochta bilan ishlash


**Синхронизировать** - Oynani kayta tekshirib yangilangan sohalarni o'zgartirish

**Windows Update** - Windows ni versiyasini Internet orqali yangilash

**Показать связанные ссылки** - Hamma giperyullanmalarni ko'rsatish

**Свойства обозревателя** - Общие bo'limida – boshlovchi saytni o'rnatish, vremenny fayllarni yoki kirilgan saytlarni ro'yxatini saqlash, ekran ranglari tilli shrifti va har xil boshqa holatlarni o'rnatish. Dastur bo'limida – pochta va telekonferentsiyalar bilan ishladigan dasturlarni o'rnatish. Soedenenie bo'limida – ulanish vaziyat holatlarini o'zgartirish. Bezopastnost bo'limida – viruslarda saqlanish. Soderjanie bo'limida - bir xil saytlarga kirishni takidlash, ma'lumotlar to'g'rilikni o'rnatish. Dopolnitelno bo'limida – Explorer dasturni xususiyatlarini o'rnatish (qaysi ob'ektlarni yo'qlash va yo'qlamasligini)

Menyu satri tagida yordamchi tugmalar satri jolashgan. Bu satrdagi tugmalar yordamida biz har xil amallarni tezkor bajarishimiz mumkin. Shu tugmalari bilan ham yaqinroq tanishaylik.



1. **Назад** - Bir sahifa orqaga yoki eski saytlarga kaytish
2. **Вперед** - Bir sahifa oldingi yoki yangi saytlarga o'tish
3. **Остановить** - Yo'qlanishni to'xtatish
4. **Обновить** - Yo'qlanishni yangilash
5. **Домой** - Boshlovchi (uy) saytga o'tish



1. **Поиск** - Internetda saytni kidirish
2. **Избранное** - Tanlangan saytlar ro'yxatini ko'rish
3. **Журнал** - Kirilgan saytlar ro'yxatini ko'rish
4. **Во весь экран** - To'liq ekran ko'rinishga o'tish
5. **Почта** - Pochta bilan ishlash
6. **Размер** - Ekran shriftlarini o'zgartirish
7. **Печать** - Bosmaga chiqarish
8. **Правка** - Saytni taxrirlash

Yordamchi tugmalar satri tagida Adres satri joylashgan. Bu satrda biz kerakli Web-sayt adresini yezib ENTER tugmasini bosamiz va shu vaqt kompyuterimiz shu adresga tegishli Web-sahifani bizning ekranimizda chiqaradi.

Masalan:

Agar adres satriga **www.gov.uz** ni kiritib ENTER tugmasini bossangiz u holda sizning ekranda Uzbekiston Respublikasi xukumati sahifasi paydo bo'ladi. Bu sahifada biz har xil bizning Respublikamizga doir rasmiy axborotlar, Oliy majlisning karorlari haqida ma'lumot, Vatanimizning ngiliklari bilan tanishimiz mumkin. Oynani pastida ma'lumotlar satri joylashgan. Bu satrda biz qaysi Web sahifani yo'qlaganimizni, to'liq yo'qlanishiga qancha vaqt qolishini, giper yullanmalarni kaega o'tishini ko'rishimiz mumkin.

### Nazorat savollari

1. Internet tarmog'i nima?
2. Internet tarixi haqida nimalar bilasiz?
3. Internet Explorer dasturining vazifasi nimadan iborat
4. Qanday Internet sahifalarini bilasiz?

### 10-Mavzu: Algoritmash va dasturlash asoslari.

#### Asosiy savollar:

1. **Algoritmalar, ularning xossalari.**
2. **Berilish usullari va strukturalari**

Yuqorida qayd qilganimizdek, qo'yilgan biror masalani EHMda yechish uchun, avval uning matematik modelini, keyin algoritmini va programmasini tuzish kerak bo'ladi. Bu uchlikda algoritm bloki muhim

ahamiyatga ega. Endi algoritm tushunchasining ta'rifi va xossalarini bayon qilamiz. Algoritm bu oldimizga qo'yilgan masalani yechish zarur bo'lgan amallar ketma-ketligidir. Algoritm so'zi va tushunchasi IX asrda yashab ijod etgan buyur alloma Muhammad al-Xorazmiy nomi bilan uzviy bog'liq. Algoritm so'zi Al-Xorazmiy nomini Yevropa olimlari tomonidan buzib talaffuz qilinishidan yuzaga kelgan. Al-Xorazmiy birinchi bo'lib o'nlik sanoq sistemasining tamoyillarini va undagi to'rtta amallarni bajarish qoidalarini asoslab bergan.

**Algoritmning asosiy xossalari.** Algoritmning 5-ta asosiy xossasi bor: **Diskretlilik (Cheklilik).** Bu xossaning mazmuni algoritmlarni doimo chekli qadamlardan iborat qilib bo'laklash imkoniyati mavjudligida. Ya'ni uni chekli sondagi oddiy ko'rsatmalar ketma-ketligi shaklida ifodalash mumkin. Agar kuzatilayotgan jarayonni chekli qadamlardan iborat qilib qo'llay olmasak, uni algoritm deb bo'lmaydi.

**Tushunarlilik.** Biz kundalik hayotimizda berilgan algoritmlar bilan ishlayotgan elektron soatlar, mashinalar, dastgohlar, kompyuterlar, turli avtomatik va mexanik qurilmalarni kuzatamiz. Ijrochiga tavsiya etilayotgan ko'rsatmalar, uning uchun tushinarli mazmunda bo'lishi shart, aks holda ijrochi oddiygina amalni ham bajara olmaydi. Undan tashqari, ijrochi har qanday amalni bajara olmasligi ham mumkin.

Har bir ijrochining bajarishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar yoki buyruqlar majmuasi mavjud, u ijrochining ko'rsatmalar tizimi (sistemi) deyiladi. Demak, ijrochi uchun berilayotgan har bir ko'rsatma ijrochining ko'rsatmalar tizimiga mansub bo'lishi lozim.

Ko'rsatmalarni ijrochining ko'rsatmalar tizimiga tegishli bo'ladigan qilib ifodalay bilishimiz muhim ahamiyatga ega. Masalan, quyi sinfning a'lochi o'quvchisi "son kvadratga oshirilsin" degan ko'rsatmani tushinmasligi natijasida bajara olmaydi, lekin "son o'zini o'ziga ko'paytirilsin" shaklidagi ko'rsatmani bemalol bajaradi, chunki u ko'rsatma mazmunidan ko'paytirish amalini bajarish kerakligini anglaydi.

**Aniqlik.** Ijrochiga berilayotgan ko'rsatmalar aniq mazmunda bo'lishi zarur. Chunki ko'rsatmadagi noaniqliklar mo'ljaldagi maqsadga erishishga olib kelmaydi. Odam uchun tushinarli bo'lgan "3-4 marta silkitilsin", "5-10 daqiqa qizdirilsin", "1-2 qoshiq solinsin", "tenglamalardan biri yechilsin" kabi noaniq ko'rsatmalar robot yoki kompyuterni qiyin ahvolga solib qo'yadi.

Bundan tashqari, ko'rsatmalarning qaysi ketma-ketlikda bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Demak, ko'rsatmalar aniq berilishi va faqat algoritmida ko'rsatilgan tartibda bajarilishi shart ekan.

**Ommaviylik.** Har bir algoritm mazmuniga ko'ra bir turdagi masalalarning barchasi uchun ham o'rinli bo'lishi kerak. YA'ni masaladagi boshlang'ich ma'lumotlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar algoritm shu xildagi har qanday masalani yechishga yaroqli bo'lishi kerak. Masalan, ikki oddiy kasrning umumiy mahrajini topish algoritmi, kasrlarni turlicha o'zgartirib bersangiz ham ularning umumiy mahrajlarini aniqlab beraveradi. Yoki uchburchakning yuzini topish algoritmi, uchburchakning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, uning yuzini hisoblab beraveradi.

**Natijaviylik.** Har bir algoritm chekli sondagi qadamlardan so'ng albatta natija berishi shart. Bajariladigan amallar ko'p bo'lsa ham baribir natijaga olib kelishi kerak. Chekli qadamdan so'ng qo'yilgan masala yechimga ega emasligini aniqlash ham natija hisoblanadi. Agar ko'rilayotgan jarayon cheksiz davom etib natija bermasa, uni algoritm deb atay olmaymiz.

Hukumat faoliyati samaradorligini oshirish uchun yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish g'oyasi yangi davlat menejmenti g'oyasi asosida olib borilayotgan ma'muriy faoliyatda reforma o'tkazish jarayonida 1990 yillarda yuzaga keldi. Lekin “elektron hukumat” iborasi keyinroq (e-government), 1997 yili AQSh milliy ilmiy fondi tashabbusi bilan yuzaga keldi. Bu erda asosiy urg'u davlatning ommaviy boshqaruv organi tizimiga berilgan. Yangi davlat menejmenti asosida elektron hukumat dasturini amalga oshirish jarayonida ma'muriy o'zgarishlar g'oyasi tor ma'noda bo'lib qoldi, ommaviy boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq o'z ichiga olmadi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotida yangi tendentsiyalar globallashuv, tarmoq tuzilishi, kommunikatsiya inqilobi, bilimlar jamiyati yuzaga keldi. Yangi texnik vositalarni boshqaruv jarayonlariga tadbiq etish 1940 yillarning oxiri va 1950 yillar boshlariga to'g'ri keldi. 1951 yili tijoratda foydalanish uchun birinchi kompyuter yaratilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu “First Ferranti MARKI” va UNIVACI hisoblanadi. Bunday kompyuterlar aholini ro'yxatga olishda ishlatilgan. 1950 yillarning birinchi yarmidan kompyuterlardan ilmiy va texnik sohada, qisman tijorat va ommaviy boshqaruvda foydalanilgan. 1965 yillarga kelib Kongress siyosati va Prezident ma'muriyatida ma'lumotlarni qayta ishlashda kompyuterlardan foydalana boshlandi. Asosiy e'tibor elektron kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib, menejment faoliyati sarf-xarajatlarini kamaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. 1966 yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'sha yillari AQShda 2600 kompyuter mavjud bo'lib, ularda 71 ming mutaxassis faoliyat yuritgan. Kompyuterning yaratilishi boshqa texnologiyalar imkoniyatlariga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Kompyuterning asosiy imkoniyatlari jumlasiga: inson va sun'iy yo'ldoshlarning koinotga uchishi, tibbiyot olami tadqiqotlaridagi yutuqlar, soliq tizimini boshqarish orqali davlat jamg'armalarini oshirish, ijtimoiy xavfsizlikni boshqarish, mudofaa sohasida logistik tizimni boshqarish, sug'urta to'lovlarini tezlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish, kam xarajatli yo'llarni loyihalash va infrastrukturani yaratish kiradi. Qonunchilikka asosan kompyuterlardan davlat faoliyatida foydalanish uch tashkilot tomonidan amalga oshirila boshlandi: Bosh ma'muriy xizmat, savdo vazirligi va Byudjet byurosi. 1970-80 yillarga kelib ma'lumotlarni



uzatish va qayta ishlash texnologiyasi asosida kommunikatsion tarmoqlar yuzaga kela boshladi. Shaxsiy kompyuterlarning va ularga mos ravishda dasturiy vositalarning yaratilishi butunjahon axborot tarmog'i va Internet yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Ikki yo'nalish – AKTning rivojlanishi va ommaviy boshqaruv modeli 1990 yillarda ma'muriy islohotlar o'tkazilishini taqozo etdi. Natijada AQShda «hukumatni yangilash» (Reinventing government) dasturi ishlab chiqildi. Buyuk Britaniyada 1994-96 yillarda elektron hukumatni joriy etish strategiyasi ishlab chiqildi. 1997 yilga kelib, Britaniyada konservativ hukumat tomonidan elektron hukumat xizmatlarini joriy etish bo'yicha bir qator loyihalar ishlab chiqildi. Hukumatning 1999 yilga kelib leyboristlar qo'liga o'tishi bilan hukumatni modernizatsiyalash dasturiga bir qator yangi g'oyalar kiritilib, 2000 yil uni joriy etish dasturi - «Elektron hukumat»: axborot asosida ommaviy xizmat uchun strategik asos qabul qilindi. 1990 yillarga kelib, boshqa davlatlar ham hukumatni elektronlashtirish dasturini qabul qila boshladi. 1999 yil Evropa komissiyasi «Elektron Evropa yaratish initsiativasi (tashabbusi)» dasturini ishlab chiqdi.

“Elektron hukumat” quyidagi yo'nalishlarda ishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- davlat boshqaruvida AKTdan foydalanish sohasida standartlar va takliflarni shakllantirish;
- hukumat axborot tizimi integratsiyasi va AKT asosida tashkilotlararo axborot almashinuvi samaradorligini ta'minlash;
- AKT yordamida aholi va davlat boshqaruv organlari orasidagi o'zaro bog'lanish samaradorligini ta'minlash;
- davlat boshqaruv organlari faoliyatida axborot boshqaruv tizimini joriy etish;
- davlat boshqaruv organlari faoliyatini ta'minlash uchun namunaviy dasturiy-texnik echimlarni topish;
- chora-tadbirlar dasturlarini amalga oshirish jarayonlarini boshqarish.

Shunday qilib, yangi asrda “elektron hukumat” tizimining yaratilishi muhim voqea bo'lib, barcha davlatlarni qamrab olgan. Elektron hukumatning nazariy jihatlari uning amaliy tadbiri bilan birga, har bir mamlakatning milliy va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlanib borishida namoyon bo'lmoqda.

Axborot, dasturiy va elektron texnik vositalarning rivojlanishi davlat boshqaruv jarayonlari hamda tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Avvaliga bu qarorlar qabul qilish jarayonida ma'lumotlardan foydalanish, yig'ish va qayta ishlash samaradorligini oshirishda, keyinchalik barcha davlat boshqaruv tizimlarini tashkil etish usullari va institutlari transformatsiyasida namoyon bo'lmoqda. Umuman olganda, elektron hukumat rivojlanishi elektron biznes va elektron tijoratning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Davlat elektron vositalariga asoslanib, aholi va tijorat tashkilotlariga xizmat ko'rsatib keladi, hukumat tuzilmalari orasidagi o'zaro bog'lanishni takomillashtiradi. Bunda davlat faoliyatida umumiy maqsadga erishiladi:

- davlat va tashkilotlar o'rtasida hamkorlik shakllari kengayadi hamda mustahkamlanadi;
- tashkilot va fuqarolarning ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi;
- faoliyatning sharoitlari o'zgarishlariga tez va samarali moslashadi;
- aholi va tijorat tuzilmalariga xizmat ko'rsatish takomillashadi, xizmat ko'rsatish turlari oshib, narxi pasayadi;
- davlat boshqaruvida tashkilotlararo munosabatlarda samaradorlik oshadi;
- davlat boshqaruvida kadrlar samaradorligi oshadi;
- davlat boshqaruvida shaffoflik darajasi va davlat xizmatchilari mas'uliyati oshadi, xizmatchilar tashabbuslari rag'batlantiriladi.

## 2. Elektron xukumatni joriy etish bosqichlari.

AKTni davlat boshqaruvida joriy etish bir necha bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich – veb portallarning yaratilishi hukumatni elektron tarmoq tuzilmasiga chiqishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda hukumat bir yoki bir necha saytga ega bo'lib, axborot bilan ta'minlash vazifasini bajaradi. Sayt orqali aholiga hukumat tarkibi, uning vazirlari, agentliklari va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, telefonlar, manzillar, qabul vaqtlari va

boshqalar haqida ma'lumotlar joylashtiriladi. Saytda fuqarolar va tashkilotlar tomonidan berib boriladigan savollarga javoblar ham muntazam ravishda joylashtirib borilishi mumkin. Ikkinchi bosqich – veb portal ishtirokida hukumat saytlari orqali foydalanuvchilarga maxsus va yangi ma'lumotlarni ko'plab taqdim etish mumkin. Bu ma'lumotlar hukumat nashrlari, huquqiy hujjatlar, yangi axborotlardan iborat bo'lishi mumkin. Tarmoqda hukumat agentliklari soni oshib boradi va har biri bilan bog'lanish mumkin bo'ladi. Elektron manzil, qidiruv tizimi, biron bir izoh yoki taklif yuborish imkoniyati yuzaga keladi.

Uchinchi bosqich – interaktiv veb portallar aholiga xizmat ko'rsatish bilan birga, davlat tuzilmalari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning izchilligini ham oshiradi. Milliy hukumat veb-saytlari foydalanuvchini veb portal ko'rinishida to'g'ridan-to'g'ri vazirliklar, departament va agentliklar bilan bog'laydi. Fuqarolar va provayderlar xizmatlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish tarmoq foydalanuvchilariga o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlar bilan tanishish imkonini beradi. Foydalanuvchi maxsus ma'lumotlarni olishi, turli shakl va blankalarni tarmoq orqali to'ldirishi, rahbarlar bilan bitimga kelishishi, elektron majlislarda qatnashishlari mumkin. Bu erda foydalanuvchi uchun sayt xavfsizligi va paroli yuzaga keladi.

To'rtinchi bosqich – foydalanuvchi uchun axborot oqimi veb portali tarmoq orqali hujjatlarni olish va kelishuvlarga erishishni ta'minlaydi. Fuqarolar vizalar, pasport, tug'ilganlik yoki o'lganlik haqida guvohnoma, litsenziya, ruxsatnoma va boshqa axborot xizmatlaridan foydalanadi. Hukumat veb-sayti portal hisoblanadi, fuqarolarga hukumat tuzilmalari va xizmatiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat etishni ta'minlaydi. Bunday portallar hukumat tuzilmasi va vazifasidan ko'ra, asosan, aholining talab va e'tirozlarini inobatga olishga qaratilgan. Fuqarolar, shuningdek, soliq va kommunal to'lovlarini tarmoq orqali amalga oshirishlari mumkin. Bu bosqichda elektron raqamli imzodan foydalanish mumkin.

Beshinchi bosqich – to'liq integrallashgan veb portal hukumat portali tarmog'i orqali xizmat ko'rsatish va bog'lanishni ta'minlaydi, tarmoq foydalanuvchisiga ixtiyoriy xizmatni o'z vaqtida olishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimini yaratish borasida ishlar jadal olib borilmoqda, uning amaliy tadbiri ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi, aholining turmush tarzi o'sadi, xalqning davlat boshqaruvidagi ishtiroki izchilligi oshadi, davlat boshqaruv organlari xizmatchilarining rahbarlik faoliyatidagi mas'uliyati oshib, mukammal qarorlar qabul qilinishiga erishiladi.

“Elektron hukumat” shakllangan davlat xizmatlari turlari haqidagi ma'lumot va xizmatlarni aholiga, tijorat va davlat organlari shaxobchalariga, tashkilot rahbarlariga etkazadi, axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanib, buyurtmachi va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masofasini mumkin qadar qisqartiradi.

“Elektron hukumat” davlat boshqaruvida elektron hujjat aylanishi tizimi hisoblanib, mamlakat miqyosida barcha boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishga asoslangan va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida har bir jamiyat a'zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiya kechikishlarini qisqartirishga qaratilgan. Elektron hukumatning yaratilishi jamiyat boshqaruvining umumdavlat tarmoqlangan hujjatlarni boshqarish va qayta ishlash jarayonlariga bog'liq bir qator masalalarni echishga qaratilgan tizimni shakllantirishni taqozo etadi. Elektron hukumat amaldagi hukumatga qo'shimcha bo'lmay, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida davlat xizmatlari samaradorligini oshirishdan iborat.

Xozirgi kunda “elektron hukumat” “yagona oyna” sifatida bugungi kunga nisbatan yanada dolzarb bo'lishi muqarrar. Bu jarayon ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Bunday texnologiyalar ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya imkoniyatlari darajasini yanada oshirib, hukumat, tijorat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro integratsiyaning yangi shakllari yaratilishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda “elektron hukumat”ning yagona kontseptsiyasi yaratilgan, faqat har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyat va sharoitidan kelib chiqqan holda, hukumat fuqarolar va tijorat sohasi xizmatchilarining kerakli ma'lumotlarni olib ishlatishiga bo'lgan talablari

majmuasi yaratilgan. Turli daraja va toifadagi foydalanuvchilarni yagona maqsad birlashtiradi, ularning qisqa vaqtda, kam sarf-xarajatta, eng yaqin yo'l orqali ma'lumot olish uchun samarali vositaga ega bo'lishlari, davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarining sodda, tezkor va qulay kechishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, "elektron hukumat" yaratishdan ko'zlangan maqsad:

- aholi va tijoratga hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni optimallashtirish;
- barcha saylovchilarning davlatni boshqarish va rahbarlik jarayonlaridagi ishtiroki darajasini oshirish;
- fuqarolarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishlari imkoniyatlari darajasini oshirish va quvvatlash;
- fuqarolarning saviyasi va texnologik ta'minlanganlik darajasini oshirish;
- o'zaroaxborot almashinuv jarayonlarida geografik jihatdan joylashish faktorlariga bog'liq ta'sirlar darajasini kamaytirish;
- davlat boshqaruvida sarf-xarajatlarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va h.z.

"Elektron hukumat" ma'muriyat boshqaruvi samaradorligi va unga bog'liq sarf-xarajatlarni kamaytiribgina qolmay, balki jamiyat va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tubdan o'zgartiradi. Bu o'z navbatida demokratik jamiyatning takomillashuvi va davlatning xalq oldidagi mas'uliyatini yanada oshiradi.

"Elektron hukumat"ning joriy etilishi davlat va aholi munosabatlarini muvofiqlashtiradi, hukumatga bo'lgan xalq noroziligini kamaytiradi, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro elektron muloqot va kelishuvlar tufayli siyosiy qarama-qarshiliklar barham topadi. Natijada, yangicha barcha jamiyat institutlari va tuzilmalarini: davlat xizmatchilari, tijoratni, tashabbuskor fuqarolarni, ta'lim tizimi va tadqiqotchilik institutlari, jamoa guruhlari va fuqarolik jamiyatini bog'lovchi Internetga asoslangan davlat boshqaruvi tuzilmasi shakllanadi.

Odatda, "elektron hukumat"ni joriy etish jarayoni uch bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda AKT vositasi davlat organlari axborotlariga tashkilot, korxonalar va fuqarolarning murojaatini tezlashtiradi, aniq manzilini belgilaydi. Bu bosqichni amalga oshirish uchun davlat organlari o'zlarining veb-saytlarini yaratadilar, ularga qonunchilik va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ularning kerakli shakllari, statistik va iqtisodiy ma'lumotlar kiritiladi. Bu bosqichning asosiy elementi - ma'lumotlarning tez yangilanishi, barcha davlat axborot resurslarini jamlovchi va "yagona oyna orqali" murojaatni ta'minlovchi davlat veb-portalining mavjudligi.

Ikkinchi bosqichda davlat xizmatlari (ko'chmas mulk va er maydonlarini ro'yxatga olish, soliq deklaratsiyalarini to'ldirish, ruxsatnoma olish uchun arizalar berish) online rejimida taqdim etiladi. Bu bosqichga o'tish byurokratik to'siqlarga barham beradi, murakkab jarayonlar kamayadi, bevosita tashkilot rahbarlari bilan muloqot keskin kamayadi. Bu bosqichning amalda joriy etilishi hukumat organlariga elektron shaklda (e-services) "yagona oyna" orqali haftaning 7 kuni va kunning 24 soati mobaynida xizmat ko'rsatadi.

Uchinchi bosqichda davlat boshqaruvining barcha bosqichlarida hukumat siyosati ishlab chiqishning jarayonlarida fuqarolar va firmalarning siyosatchilar va rahbarlar bilan interaktiv munosabatlari orqali ishtiroki ta'minlanadi. Bu ishlar asosan veb-forumlar orqali amalga oshirilib, qonunchilik dalolatnomalari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari, taklif va tavsiyalar jamlanaib, muhokama etiladi.

Yangi texnologiyalarning joriy etilishi hukumatdan vaqt kategoriyalariga nisbatan juda e'tiborli bo'lishni taqozo etadi. Ma'muriy organlar tomonidan kelajakni o'ylab qabul qilingan qarorlar texnologiyaning rivojlanishi bilan tezda o'zgarimoqda. "Elektron hukumat"ni joriy etishda yo'l qo'yilgan xatolar moliyaviy jihatdan qimmatga tushadi, ayniqsa, fuqarolar va tijorat sohasi xodimlarining ishonchini yo'qotishdan ehtiyotkor bo'lishni talab etadi. Mamlakatning elektron hukumatga o'tishi hukumatning yangi sharoitga moslashish qobiliyati qay darajada shakllanganligini namoyish etish imkonini beradi. Raqobatli, jahonda yuz berayotgan izchil o'zgarishlar davrida elektron hukumatni joriy etish borasida olib borilayotgan islohotlardagi kechikish mamlakat iqtisodiy rivojlanishida qimmatga tushadi.

Elektron xizmatning keng joriy etilishi uchun uni qog'ozdagi jarayonlar kabi tan olinishi va quvvatlanishi lozim. Shuningdek, online rejimida xizmat ko'rsatishni muvaffaqiyatli rivojlanishi axborotlarning daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlashga bevosita bog'liq.

Elektron texnologiyaning shakllanishi hukumat faoliyatida boshqaruv xarakteri o'zgarishini taqozo etadi. Axborot jamiyatida amaldagidan farqli o'laroq hukumat boshqaruv organlari vakolatlaridan kelib chiqqan holda yangi tuzilma va boshqaruv tamoyillariga o'tiladi. Odatdagi hukumat bilan yangi elektron hukumat boshqaruv mezonlari orasidagi farqni keltirib o'tamiz. Amaldagi qaror qabul qilish jarayonlari nazoratda va buyruqni bajarishga asoslangan bo'lsa, yangi usulda asosiy parametr sifatida rozilik va kelishuv ishlatiladi. Amaldagi boshqaruvda asosiy e'tibor huquq va vaqtga qaratilgan bo'lsa, zamonaviyda majburlanmagan meyorlarga, jamoaning taklif va tavsiyalariga, kelishuvlarga asoslangan. Amaldagi davlat hukumat va parlament, tarmoqli jamiyatda yangi boshqaruv ommaviy davlat shaklini: komissiya, forum, demokratik tashkiliy guruhlarni o'z ichiga oladi. Avval axborot boshqaruv uchun markazlashgan va maxfiy bo'lsa, endi axborot tarqalgan, ochiq tarmoqli bo'lib, tarmoqli forum, ta'lim va boshqalarni o'z ichiga oladi, axborot jarayonlari esa interfeys va protokollar bilan bog'langan. Odatda "elektron hukumat"ning uchta asosiy elementi ajratiladi:

1. Elektron vositalar yordamida ommaning fikrini (fuqarolar tarmog'i, ovoz berish va boshqalar) shakllantirish va qarorlar qabul qilishga asoslangan elektron demokratiya hamda ishtirok (e-democracy and participation);
  2. Elektron vositalar yordamida o'zaro ommaviy, xususiy va ommaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlik shakli elektron foydalanish tarmog'i (electronic production network) hisoblanadi;
  3. Foydalanuvchilarga, xususiy shaxs yoki jamoaga mahalliy, hududiy yoki milliy portal orqali xizmatni taqdim etishga asoslangan ommaviy elektron xizmat (electronic public services).
- Ushbu elementlar u yoki bu ma'noda siyosiy tizimga aloqasi bor. Shuning uchun ham "elektron hukumat" siyosiy ma'muriy tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni o'rganish imkoniyatini beradi.

"Elektron hukumat"ni ikki ma'noda talqin qilish mumkin: Birinchisi – yangi axborot texnologiyalari asosida davlat boshqaruv faoliyatini takomillashtirish ma'nosini anglatib, oxir-oqibatda aholiga samarali xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Ikkinchisi – faqat tashkilotlararo munosabatlar xarakterini yangilabgina qolmay, balki, davlat boshqaruvining jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini to'liq yo'lga qo'yadi.


Shunday qilib, "hukumat elektron" vositalar yordamida aholiga, biznes-tashkilotlarga samarali xizmat ko'rsatadi, hukumat tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlarni ham takomillashtiradi. Bunda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- hukumat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik shakllarini kengaytirish va mustahkamlash;
- fuqarolar va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish;
- ish va boshqaruv faoliyati sharoitining o'zgarishiga muvofiq ravishda tez va samarali moslashish;
- aholi va biznes-tuzilmalarga interaktiv xizmat turlarini kengaytirish va optimallashtirish, xizmat to'lovlari miqdorini muntazam kamaytirib borish;
- davlat boshqaruvida tashkilotlararo o'zaro munosabatlar samaradorligini oshirish;
- davlat boshqaruv tizimida etuk mutaxassislar salohiyati va saviyasini oshirish;
- aholiga va biznes-tuzilmalarga xizmat ko'rsatishda davlat xizmatchilari mas'uliyatini oshirish, davlat boshqaruvi faoliyati shaffofligi darajasini oshirish.

Iqtisodiy boshqarish sub'ekti sifatida "elektron hukumat"ning vazifalari:

1. Maqsadli – asosiy milliy iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari va prioritetlarini, maqsadini aniqlash.
2. Me'yoriylashtiruvchi – hukumat qonunchilik, me'yoriy - huquqiy bazalariga asoslanib, iqtisodiyot sub'ektlari uchun faoliyat qoidalarini belgilaydi, faoliyat doirasi huquqlarini aniqlaydi.

3. Muvofiqlashtiruvchi – jamiyatning yashash sharoitini ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan mo'tadilligini ta'minlash va salbiy oqibatlariga olib kelishini bartaraf etish, takomillashuv jarayonlarini rivojlantirish maqsadida iqtisodda resurslarni taqsimlash.
4. Ijtimoiy – hukumat tomonidan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, foydani taqsimlash, ijtimoiy himoyani, ijtimoiy huquq va kafolatni ta'minlash.



Elektron xuqumat strukturasi.

5. Bozor sektori bo'lmagan iqtisodiy boshqarish - iqtisodning davlat sektorini muvofiqlashtirish, ijtimoiy jamiyat mahsulotlari va xizmatlarini yaratish.
  6. Rag'batlantiruvchi – faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlariga samarali ta'sir ko'rsatish va jamiyat yo'nalishlari uchun ma'qul bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantirish.
  7. Nazorat qiluvchi – davlat nazorati va qonunlar me'yoriy - huquqiy hujjatlar, belgilangan iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy standartlar ijrosini nazorat qilish.
- “Elektron hukumat”da iqtisodiy vazifalarning bajarilishi byudjet, moliyaviy-kredit, tuzulmaviy, investitsion, baholash, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo'nalishlari mexanizmlarini yaratish orqali amalga oshiriladi.
- Davlat boshqaruv qarorlarining ijrosini ta'minlashda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'rt guruhga bo'linadi:
1. Axborotning cheklanganligi.
  2. Hukumatning qabul qilgan boshqaruv qarorlariga jamiyat munosabatini to'liq nazorat qila olmasligi. (Jamiyatning qiziqish ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olmagan holda bir tomonlama boshqaruv qarorlari qabul qilish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin).
  3. Siyosiy jarayonlarning takomillashmaganligi (saylovchilar ta'sirida, ijtimoiy guruh qiziqishi, ayrim davlat organlari tomonidan noto'g'ri siyosat yuritish va boshqaruvning muvofiq usullarini qo'llamaslik holatlari va hokazo).

4. Davlat apparatini nazorat qilishning cheklanganligi (boshqaruv xodimlari sonini oshirib yuborish, byudjet sarf-xarajatining oshib ketishi).

Iqtisodiy qarorlar qabul qilishda bozor va hukumat kamchiliklarining ta'siri natijasini taqqoslagan holda davlat boshqaruvining optimal shakli va chegaralarini aniqlash mumkin. Odatda, davlat boshqaruvining to'rtta modeli amalda keng tadbiiq etiladi.

1. Amerika modeli. Liberallashtirish milliy iqtisodni boshqarish tizimida iqtisodiy jarayonlarda bozor munosabatlarini muvofiqlashtirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Davlat boshqaruvida huquqiy bazalardan foydalanish usuliga asoslanib, jamiyatning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratiladi. Amerika modelida jamiyat va iqtisodni boshqarishda hukumatning aralashuvi juda kam. Bu o'z samarasini bermoqda. Olimlarning ta'kidlashlaricha, demokratik davlat boshqaruvi jamiyat va iqtisodni dinamik ravishda rivojlanishini ta'minlamoqda.

2. Yapon modeli. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini iqtisodiy va shakllanmagan davlat boshqaruv turli usullaridan foydalanib, markaziy muvofiqlashtirish. Yaponiya iqtisodiyoti rivojlanishining o'ziga xos xususiyati bozor munosabatlarini shakllantirish mexanizmi asosida davlat korporativ tuzilmasi yotadi. Bunda jamoaning dunyoqarashi, hamjihatligi, shaxsning qiziqishi, jamoa va davlat siyosatiga tobeltigi asosiy mezon hisoblanadi.

3. Nemis modeli. Milliy iqtisodiy-ijtimoiy boshqaruv tizimi asosida bozor munosabatlari (asosan raqobat) va davlat darajasida fuqarolarni samarali ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratish yotadi.

4. Shved modeli. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvida hukumatning bevosita ishtirok etishi asosiy holat hisoblanadi. Bunda asosiy faktor tenglik va hamjihatlilik hisoblanadi, xalqni ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratish, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida hukumatning bevosita ishtirok etishi ko'zda tutiladi.

### 3. Elektron hukumat joriy etishning Janubiy Koreya tajribasi.

Janubiy Koreya elektron hukumatni rivojlantirishda ulkan muvaffaqiyatga erishgan davlat hisoblanadi. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumat institutlarining hamda aholining davlat boshqaruvidagi elektron ishtirokining rivojlanganlik darajasi bo'yicha reytingida birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun ham uning tajribasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Janubiy Koreyada elektron hukumatni shakllantirish bo'yicha tashabbus 2001-yilda yuridik kuchga ega bo'ldi. Mamlakatda elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur hukumat organlarining ishida samardorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, u uch bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan.

Birinchi bosqichda (2001-2003) kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning natijasida Koreyaning hukumat organlari tashqi dunyo bilan Internet orqali uchta asosiy yo'nalishda-G2C (davlatdan-fuqaroga), G2B (davlatdan-biznesga) va G2G (davlatdan-davlatga) sxemalari bo'yicha aloqa qila boshladi.

Bundan tashqari, davlat boshqaruvi tizimida idoralararo elektron aloqalarni ta'minlashga qaratilgan axborot-texnologik arxitektura ham ishlab chiqilgan. Unda, xususan, elektron hujjat aylanishi, elektron raqamli imzo va boshqa texnologiyalar faol qo'llanilgan. Umumiy hisobda, birinchi bosqich uchun jami 225 million AQSh dollari miqdorida mablag' sarflangan. Natijada, Koreya raqamli imkoniyatlar indeksi bo'yicha jahonda 4-o'ringa ko'tarilib oldi.

Ikkinchi bosqichda (2003-2007) Koreya hukumati o'z oldiga ancha katta maqsadni qo'ygan - dunyo davlatlari ichida nisbatan ochiq va shaffof elektron hukumatni shakllantirish. Koreyaning "Elektron hukumat qurishning milliy asoslari va tamoyillari" nomli dasturiga muvofiq to'rtta sohaga oid loyihalar ishga tushirilgan:

- davlat boshqaruvi organlarining faoliyat ko'rsatishi
- davlat xizmatlarini ko'rsatish
- axborot resurslarini boshqarish
- qonun ijodkorligi tizimi

Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun jami 981 million AQSh dollari miqdoridagi mablag' sarflangan. Natijalar kutilganidan ham a'lo darajada bo'lgan.

2007-yilga kelib Koreyada markaziy boshqaruv organlarining 55 foizida davlat apparatining 96,6 foiz xodimlari axborotlarni qayta ishlashning milliy elektron tizimi - "On-Nara" (koreyscha, onlayn-mamlakat) tizimidan foydalanishga o'tgan. Buning natijasi o'laroq, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddati 30-44 kundan 7-13 kungacha qisqargan.

Davlat tuzilmalarida ma'lumotlarni qayta ishlashning innovatsion tizimi - "On-Nara" 2007-yildan to'liq ishga tushgan bo'lib, uning oldiga quyidagi maqsadlar qo'yilgan:

- ma'lumotlarni qayta ishlash va almashish doirasida barcha boshqaruv jarayonlarini standartlashtirish;
- davlat organlarining markazlashmagan operatsiyalarini boshqarishni yagona tizimga solish;
- tizim ishtirokchilari o'rtasida axborotlarni almashish va tarqatishni ta'minlovchi turli jarayonlarni o'zaro bog'lash va bir-biriga integratsiya qilish.

2008-yildan uchinchi bosqich boshlangan. Bu bosqichda asosiy e'tibor barcha mavjud tizimlar va turli darajadagi elektron hukumatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va ularni bir-biriga integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan. Bu fuqarolarga va kompaniyalarga kompleks davlat xizmatlarini taqdim qilish imkonini beradi.

Ushbu bosqichda Koreya Respublikasi boshqa davlatlarga (jumladan, Ekvador, Indoneziya, Bangladesh, Shri-Lanka, Mali) elektron hukumatni shakllantirish uchun texnologik echimlarni etkazib berish bo'yicha shartnoma ham tuzgan. Bungacha, 2004-yildan boshlab Janubiy Koreyada elektron hukumat uchun ishlab chiqilgan texnologiyalarni import qiluvchi asosiy davlat Yaponiya bo'lgan.

Janubiy Koreya hukumati turli sohalarida axborot texnologiyalarni qo'llash borasida ilg'or davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatda, bir so'z bilan aytganda, bojxona ishidan tortib to intellektual mulk masalalarigacha avtomatlashtirilgan tizimga o'tgan. Shuning uchun ham u hozirda dunyoda elektron hukumatning rivojlanish darajasi bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

#### O'zbekiston Respublikasi yagona davlat xizmatlari portallari bilan ishlash

Ishdan maqsad: Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini amalda qo'llash. Uning resurslari, faoliyat maqsadlari, interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish. Kommunal xo'jalik va uy-joy fondi portalini tahlil qilish. Uning resurslari, faoliyat maqsadlari, kommunal xizmatlarini yagona oyna ko'rinishida interaktiv xizmatlarni o'rganishga bag'ishlangan.

Masalaning qo'yilishi: Tinglovchi my.gov.uz portalini, ya'ni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan ID.uz yagona identifikatsiya tizimi orqali ro'yxatdan o'tishi kerak bo'ladi xamda interaktiv xizmatlar orqali davlat tashkilotiga murojaat etishi lozim. Tinglovchi e-kommunal.uz, ya'ni Kommunal xo'jalik va uy-joy fondi portalidan ID.uz yagona identifikatsiya tizimi orqali ro'yxatdan o'tishi kerak bo'ladi xamda elektron xisoblagichlarni profilga kiritib onlayn to'lovni amalga oshirishi lozim.

#### Ishni bajarish uchun namuna

1.1. Yagona portal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrda "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 378-son qarori asosida tashkil etilgan hamda mazkur Qaror bilan qabul qilingan Nizomga ko'ra faoliyat yuritadi.

my.gov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini (Yagona portal) 2013 yilning 1 iyul kuni ishga tushirilgan bo'lib, Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini doirasida, shu jumladan «yagona darcha» rejimida faoliyat ko'rsatadi.



Yagona portal davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining maqsadi fuqarolarga interaktiv davlat xizmatlarin ko'rsatishdir. U yagona oyna rejimida faoliyat ko'rsatadi. Yagona portal zamonaviy texnologiya yordamida foydalanuvchining interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo'ljallangan.

Uning vazifalari:

- foydalanuvchilarga davlat organlariga to'g'ridan-to'g'ri murojat qilish uchun imkoniyat berish;
- foydalanuvchilarni AKT sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash;
- foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;
- davlat organlariga murojaat qilinganda, foydalanuvchilar uchun byurokratik to'siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish;
- "Elektron hukumat"ni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy AKT ni joriy etishda ko'maklashish.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini 2013 yil 1 iyulda ishga tushirildi. U quyidagi imkoniyatlarga ega:

- davlat tashkilotlari va xizmatlariga oid ma'lumotlardan foydalanish;
- davlat xizmatidan foydalanish uchun elektron shakldagi so'rovlarni va boshqa hujjatlarni to'ldirish imkoniyati;
- davlat xizmatidan foydalanish uchun so'rov (ariza) yuborish;
- so'rovlarni ixtiyoriy paytda va manzildan yuborish;
- so'rov qabul qilinishi uchun navbatda turish zarurati bo'lmaydi;
- so'rovni yuboruvchi arizasining bajarilishiga oid ma'lumotlardan ixtiyoriy paytda xabardor bo'lish imkoniyati;
- davlat xizmatlari berilishi haqidagi so'rovni berish;
- davlat xizmati so'rovi natijalarini olish imkoniyati.



1-rasm. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini.

Shuningdek, Yagona portal orqali 120 dan ortiq davlat organlariga bevosita elektron tarzda murojaat qilish imkoniyati yaratilgan va bu organlar ro'yxati vaqt o'tishi bilan kengayib bormoqda.

Yagona portal orqali ko'plab foydali va zarur ma'lumotlar ham berib boriladi. Masalan, mazkur portaldan notarial harakatlarning turlari va bunday harakatlarga to'lanadigan davlat bojlari (1), Ichki ishlar organlarining Kirish-chiqish va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi tomonidan

ko'rib chiqiladigan huquqbuzarliklar va ular uchun qo'yiladigan jarimalar miqdori (2), Yo'l harakati qoidasi buzilishi yuzasidan belgilanadigan jarimalar miqdori (3), Davlat o'rmon fondidan tashqari, daraxtlar va butalarni kesish uchun to'lanadigan to'lovlar miqdori va yashil o'simliklarga etkazilgan zarar va ularni o'zboshimchalik bilan kesganlik uchun jarima miqdorlari (4) bilan tanishish mumkin.

Davlat yo'l harakati xavfsizligi organlari tomonidan yo'l qoidasi buzilishi yuzasidan belgilanadigan jarima miqdori bo'yicha ma'lumot

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi moddolari	Huquqbuzarlik turi	Eng kam ish haqining miqdorida jarima qiymati	Transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish muddati	Jarima miqdori
<b>125-modda. Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish</b>				
125-modda 1- qism	Haydovchilarning transport vositalarini boshqarish va yo'lovchilar tashishda xavfsizlik kamidan foydalanish qoidalariga, xuddi shuningdek mototakli haydovchilarning motosabellardan foydalanish qoidalariga rioya etmasligi	eng kam ish haqining beshdan bir qismi miqdorida		26048 so'm
125-modda 2- qism	Haydovchilarning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilmagan yohud foydalanish man etiladigan darajada nosozligi bo'lgan, xuddi shuningdek ishlayotganida tashqariga chiqarayotgan ifloslantiruvchi moddalarning miqdori, shuningdek shovqin darajasi belgilangan normalardan ortiq bo'lgan transport vositalarini boshqarishi	eng kam ish haqining ikkidan bir qismi miqdorida		65120 so'm
125-modda 3- qism	Haydovchilarning tormoz tizimida, rul boshqaruvida yoki ulovchi qurilmada nosozligi bo'lgan yohud tegishli ruxsatnomasiz qayta jihatlangan transport vositalarini boshqarishi	eng kam ish haqining bir baravari miqdorida	yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oygacha muddatga mahrum etish	130240 so'm

2-rasm. Yo'l qoidasi buzilgandagi jarimalar miqdori haqida ma'lumot.

Bundan tashqari portaldan ishonch telefonlari bo'limi ham joy olgan bo'lib, unda 19 ta ishonch telefoni ko'rsatib o'tilgan.

Barcha xizmatlar	Barcha tashkilotlar	Qisqa raqamlar	Tadbirkorlik	NBBI mudirokatsisi
Yong'in xavfsizligi xizmati	Militsiya	Tez yordam	Gaz xizmati	
Qutqaruv xizmati	"DORI DARMON" AK (dorixonalar bo'yicha ma'lumot)	Bosh prokuratura ishonch telefoni	Adliya vazirligi ishonch telefoni	
"Suvsoz" DUK (avariya xizmati)	Toshkent shahri kommunal xizmatlari bo'yicha dispatcherlik xizmati	Kommunal-sozlash avariya tiklash xizmatlarining Markaziy dispatcherlik xizmati	"Toshshahartransxizmat" AK ishonch telefoni	
TShTT ma'lumot berish xizmati (Shaharlar kodlari)	«UZDIGITAL TV»	ShTS (to'g'ri simlar ta'mirlash buyurosi)	Dorixonalar bo'yicha ma'lumot	
Shahar telefonlarni ta'mirlash bo'yicha buyurtmani qabul qilish	Aniq vaqt haqida ma'lumot berish xizmati	Ob-havo ma'lumoti		

3-rasm. Ishonch telefonlari ro'yxati.

Portalda fuqarolar tomonidan so'ralgan savollarga berilgan javoblarni o'zida mujassam etgan "Ko'p beriladigan savollar" bo'limi hamda bo'sh ish o'rinlari ro'yxati ham joy olgan.

Yagona portal davlat interaktiv xizmatlaridan foydalanish tartiblari:

- foydalanuvchi davlat interaktiv xizmatidan foydalanish ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi;
- foydalanuvchi arizasiga asosan ruxsatnoma berish va uni berkitib yoki yopib qo'yish huquqlariga "O'zinfokom" markazi yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi kompyuterlashtirish markazlari ega, ya'ni ushbu markazlar ushbu faoliyatni olib borish vakolatiga ega va mas'ul markazlar hisoblanadi;

- jismoniy shaxslar (ariza va pasport asosida) va yuridik shaxslar (ariza va ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma asosida) uchun shaxsiy kabinetdan erkin foydalanishga ruxsatnoma bir yoki ikki kun mobaynida mas'ul markazlar tomonidan beriladi;
- foydalanuvchi o'zi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlar o'zgarganda besh kun muddatda bu haqda mas'ul markazga xabar berishi shart.

Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish tartiblari Yagona portal nizomida batafsil keltirilgan. Quyida arizani berish, javob berish, rad etish, ko'rib chiqish tartibi va muddati hamda nazoratiga oid tartiblarini qisqacha keltiramiz.

Arizani berish tartibi:

- foydalanuvchilar shaxsiy kabinet orqali o'z murojaatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va davlat tashkilotlariga yuborishlari mumkin.
- murojaat bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hamda murojaatlarda qo'yilgan masalalarni hal etish vakolatiga kiradigan bir nechta davlat organlariga yuborilishi mumkin.
- foydalanuvchi shaxsiy kabinetidan yuborgan murojaat elektron raqamli imzo va ularni identifikatsiyalovchi boshqa hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak.
- foydalanuvchi arizaga zarur hujjatlar, xatlar va rasmlarni ilova qilishi mumkin.

Arizani qabul qilish tartibi: mas'ul xodim ariza qabul qilinganligi to'g'risida foydalanuvchiga xabar jo'natadi.

Arizaga javob berish tartibi:

- foydalanuvchi arizasiga javob ko'rsatilgan pochta manziliga yuboriladi;
- foydalanuvchi arizasi murojaatlar uchun belgilangan tartib va muddatda ko'rib chiqiladi;
- foydalanuvchi arizasiga javob oluvchining yoki boshqa vakolatli xodimning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Ariza rad etilish tartibi

Quyidagilar foydalanuvchi murojaatini ko'rib chiqishni rad etish uchun asos hisoblanadi:

- odobsizlik mazmunidagi murojaatlar (axloqsiz yoxud haqoratli iboralar, tahdidlar, mantiq va ma'nosi bo'lmagan takliflar va shunga o'xshash murojaatlar);
- matnda tushunarsiz qisqartirishlar yoki reklama materiallari mavjud bo'lgan arizalar;
- tarkibida aniq arizalar, shikoyatlar yoki takliflar bo'lmagan murojaatlar;
- rad etishning asoslangan sabablari ko'rsatilgan rad javobi foydalanuvchiga bir ish kuni mobaynida yuboriladi;
- ariza vakolatiga kirmaydigan davlat organlariga tushganda, u besh kun muddatda, foydalanuvchi xabardor qilingan holda tegishli organga yuboriladi.

Arizalarni ko'rib chiqish tartibi: foydalanuvchi shaxsiy kabinet orqali berilgan arizasi majburiy qabul qilinishi va ko'rib chiqilishi kerak, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bunda ushbu murojaat Mas'ul xodim elektron pochta-siga kelib tushgan sana – murojaat qabul qilingan sana hisoblanadi.

Arizalarni ko'rib chiqish muddati:

- takliflar – bir oygacha muddatda. Agar qo'shimcha o'rganishlar talab qilinsa, bu to'g'rida foydalanuvchi o'n kun muddatda xabardor qilinadi. Bunda muddat ariza oluvchiga tushgandan boshlab hisoblanadi;
- ariza yoki shikoyatlar – o'n besh kun muddatda. Agar qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish o'tkazish, qo'shimcha hujjatlar talab etilsa – bir oygacha muddatda. Bunda muddat ariza Mas'ul xodimga tushgandan boshlab hisoblanadi.

Ariza nazorati va javobgarlik tartibi:

- O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish tartibiga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

- davlat tashkilotlari rahbarlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiy bo'linmalari Yagona portal orqali ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishning asossiz rad etilganligi va xizmatlar sifatsiz ko'rsatilganligi uchun javob beradilar;
- foydalanuvchi arizada noto'g'ri ma'lumotlar berganligi, uydirma va haqoratlar bo'lgan murojaatlar uzatganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Yagona portaldan foydalanishning foydalanuvchi uchun ba'zi imkoniyatlari:

- kommunal xizmat, elektr energiya va suv iste'molchilari ushbu xizmat xarajatlari haqidagi shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati yaratildi. Bu imkoniyatdan foydalanish tartibi juda osondir. Ushbu xizmatga doir ariza va shikoyatlarni Yagona portal orqali tezda jo'natish va hal qilish imkoniyati yaratildi. Bunda arizaga hujjatlar va rasmlarni ilova qilish imkoniyati mavjud;
- chet el fuqarolari O'zbekistonga viza rasmiylashtirish uchun interaktiv xizmatdan foydalanishi mumkin. Buning uchun hamkasb yoki do'stlarini bezovta qilish zarurati yo'qoldi. Tadbirkorlar uchun onlayn interaktiv xizmatlar Yagona portal samarali imkoniyatlaridan biri aloqa natijalari SMS xabarlar yordamida jo'natilishidir. Bu aloqani qulay va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Chunki foydalanuvchi ariza etib borganligi va ishga tushganligi haqida xabardor bo'ladi va bu haqda Yagona portaldan xabarlar yozib, xodimlarni qo'shimcha savollar va e'tibor bilan bezovta qilmaydi. Natijada foydalanuvchi bezovta bo'lmaydi va xodimlar qulay sharoitda ariza ko'rilishi tartibiga rioya qilgan holda ishini davom ettiradi.


Yagona portaldan 4 xil ro'yxatdan o'tish usuli mavjud:

1. SMS tasdiqlash orqali ya'ni Yagona portaldan ro'yxatdan o'tiladi;
2. ID.uz – Yagona identifikatsiya tizimidan ro'yxatdan o'tiladi;
3. Elektron raqamli imzo orqali;
4. UzCARD yordamida.

#### Ro'yxatdan o'tish usullaridan birini tanlang



#### Yagona portaldan foydalanish qoidalari



Yagona portaldan ro'yxatdan o'tish orqali, Siz Portaldan foydalanish qoidalariga rozi ekanligingizni tasdiqlaysiz

4-rasm. Yagona portaldan ro'yxatdan o'tish usullari.

Misol qilib portaldan to'laqonli foydalanish hamda davlat organlariga murojaat qilish uchun ID.uz – Yagona identifikatsiya tizimidan ro'yxatdan o'tishni misol qilib ko'ramiz. Dastlab ID.uz – Yagona identifikatsiya tizimidan ro'yxatdan o'tiladi.

5-рasm. ID.uz – Yagona identifikatsiya tizimi.


ID.uz- yagona identifikatsiya tizimidan ro'yxatdan o'tib, so'ng yagona portalga kirayotganda aynan o'sha ID profil orqali tizimga ma'lumotlar kiritiladi.

Kirish

6-рasm. ID profil orqali tizimga ma'lumotlar kiritish.


Shundan so'ng, foydalanuvchi kabineti ochiladi. U erda Profil, Yuridik shaxs, Mening arizalarim, Mening qoramalarim, Mening ma'lumotlarim kabi bo'limlar mavjud.





7-rasm. Foydalanuvchining shaxsiy kabineti

Profilda shaxsiy ma'lumotlarni tahrirlash imkoniyati mavjud. Mening arizalarim bo'limida yuborilgan arizalar ro'yxati, ularning holati va ularga berilgan javob xatlari bilan tanishish imkoniyati mavjud.



8-rasm. Foydalanuvchi kabineti.

### MUROJAAT YuBORISH

Yagona portalning eng qulay tomoni bu davlat organlariga bevosita elektron murojaat qila olish imkoniyati borligidir. Bu fuqarolarga ancha qulayliklar yaratadi. Agar ilgari yozilgan murojaatni chop etib, konvertga solib, pochtdan yuborib yoki bevosita fuqaroning o'zi o'sha murojaat xatini davlat organi binosiga olib borib berib, ortiqcha harajat va harakat, asosiysi qimmatli vaqtni yo'qotgan bo'lsa, endilikda uyda o'tirgan holda ham, ko'chaga bir qadam chiqmasdan tegishlicha shikoyat qilish, ariza yoki taklif berish imkoniyati mavjud.

Qanday qilib murojaat qilish mumkin?

Avvalo yuqorida ta’kidlanganidek, Yagona portal tizimiga kiriladi. So’ngra portalning yuqori o’ng burchagida turgan “Davlat tashkilotiga murojaat qilish” tugmasi bosiladi. 5 qadamdan iborat quyidagi oyna ochiladi:

**Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali**

1-qadam. Eslatma

Humatli foydalanuvchi!

Yagona portal Sizga davlat tashkilotiga tashrif buyurishdan yoki qog'oz tarzda xat yuborishdan qulayroq bo'lgan elektron tarzda murojaatlarni yuborish imkoniyatini taqdim etmoqda. Shu bilan birga, Sizning yuborayotgan murojaatingiz rasmiy maqomga ega ekanligini ham eslatib qo'ymoqchimiz. Shu sababli, Sizdan quyidagilarni unutmasligingizni so'raymiz:

1. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6-moddasiga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxsning murojaatida murojaatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak. Elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo'lgan elektron hujjat shaklida bo'lishi kerak. Elektron murojaat qonunda belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanmagan murojaatlar anonim murojaatlar deb hisoblanadi.
2. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 28-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 40 - 41-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139 - 140 va 237-moddalariga muvofiq huqumat, xaqorat so'zlar ishlatilgan va yolg'on xabar beruvchi murojaatlarni taqdim etgan jismoniy va yuridik shaxs javobgarlikka tortiladi.
3. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 27-moddasiga muvofiq yolg'on ma'lumotlar bayon etilgan murojaatlarni ko'rib chiqishda davlat organi tomonidan qilingan xarajatlarni jismoniy yoki yuridik shaxsdan sudning qaroriga ko'ra undirib olinishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, agar davlat organi Sizga masalangi bilan bog'liq bo'lmagan javobni yo'llaganida, qonunchilikda belgilangan muddatlarni buzganida, Sizning murojaatingiz bo'yicha asossiz yoki qonunga zid bo'lgan qaror qabul qilganida, yoki boshqa yo'l bilan Sizning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan huquqlaringizni buzganida va boshqa shu kabi holatlarda Siz yuqori turuvchi tashkilot, yoki sudga bunday hatti-harakatlar ustidan shikoyat bilan murojaat qilishingiz mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risida Nizomiga asosan davlat organlari jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini rad etishlari mumkinligini eslatib o'tamiz. Quyidagilar foydalanuvchining shaxsiy kabinet orqali tushgan murojaatini ko'rib chiqishni rad etish uchun asos hisoblanadi:

- o'zlashtirilgan murojaatlar (yuvatsiz yoxud haqorati iboralar, tahdidlar, marfiq va ma'nosiz bo'lmagan takliflar va shunga o'xshash murojaatlar);
- murojaat matnida tushunarsiz qisqartirishlar yoki rektama materiallari mavjud bo'lgan, tarkibida aniq arizalar, shikoyatlar yoki takliflar bo'lmagan murojaatlar

9-rasm. Davlat tashkilotiga murojaat qilish.

1-qadam. Murojaatni yozish tartib qoidalari haqida rozilik bildiriladi.

2-qadam. Siz murojaat qilayotgan shaxs turini tanlaysiz: Jismoniy yoki yuridik shaxs. Agarda “Foydalanuvchi kabineti”dagi “Profil” bo’limida shaxsga tegishli ma’lumotlarni kiritilgan bo’lsa, 2-qadamda avtomatik ravishda o’sha ma’lumotlar paydo bo’ladi.

**Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali**

2-qadam. Turini tanlash

Murojaatlarni ko'rib chiqish

Atiz kim tomonidan to'ldirilmoqda \*

Jismoniy shaxs

Yuridik shaxs

F.I.Sh. \*

Abdullaev Akshar Ilhamovich

Elektron pochta \*

alisherul@inbox.uz

Telefon raqami \*



10-rasm. 2-qadam. Murojaat yuborish.

3-qadam. Murojaat qilmoqchi bo'lgan tashkilot tanlanadi.

11-rasm. 3-qadam. Murojaat yuborish.

4-qadam. Mazkur qadam eng asosiy bosqich hisoblanib, bu erda quyidagi ma'lumotlarni to'ldiriladi:

Murojaat sohasi – nima masalada ekanligi;

Murojaat turi – ariza, shikoyat yoki taklif;

Javob olish yo'li –elektron pochta yoki pochta orqali xat bilan;

Murojaatning ko'rinishi – shaxsiy, ommaviy;

Murojaat mavzusi – nima mavzuda murojaat qilayotganligi;

Murojaat matni – murojaat batafsil tushuntiriladi;

Faylni ilova qilish – agar murojaatga fayl (hujjatning skaner varianti, foto yoki videomaterial va h.k.) ilova qo'shish imkoniyati mavjud.

Agarda barchasi to'g'ri bajarganligi to'liq ishonch xosil qilinsa, uchta variant bo'ladi: Imzo chekish, yuborish va qoramamani saqlash. Imzo chekish – bu erda ERI moduli, ya'ni elektron raqamli imzo orqali tasdiqlash mumkin.

Yuborish – murojaatni yuborish. Qoramamani saqlash – agarda yozgan murojaat yuborish uchun etarli deb hisoblanmasa, ushbu tugma orqali uni saqlab qo'yish va keyinchalik yana tahrir qilib, yuborish imkoniyat mavjud bo'ladi.

## Murojaatlarni ko'rib chiqish

4-qadam: Formani to'ldirish

Xizmat pasporti

Ko'p beriladigan savollar

1-qadam

2-qadam

3-qadam

4-qadam

5-qadam

Murojaat sohasi \*

Murojaat turi \*

Javob olish yo'li \*

Murojaatning ko'linishi \*

Murojaat mavzusi \*

Tadbirkorlik subyekti sifatida taqdim etilmoqda

Agar siz, haqiqatan ham tadbirkorlik subyekti sifatida murojaat yuborayotgan bo'lsangiz, ilimos ushbu katakchani belgilang. Ushbu ma'lumotning to'g'ri bo'lishi sizning fikringiz biz uchun muhim.

Murojaat matni \*

Faylni ilova qilish

Avvalgi qadam

Intro chekish

Yuborish

Qoramamni saqlash

12-rasm. 4-qadam. Murojaat yuborish.

5-qadam. Mazkur qadam "Tamom" deb nomlanib, murojaatni yuborish yoki qoramamga saqlash tamomlanganligini bildiradi.

## MUROJAATGA JAVOBLAR

Murojaatga javob kelganini qanday bilish mumkin?

Eng avvalo foydalanuvchilarga qulay bo'lishi uchun SMS xizmati joriy etilgan. Ya'ni shaxsiy ma'lumotlarda kiritilgan telefon raqamiga uchta holatda SMS-bildirishnomalar keladi. Bular:

1. Murojaat yuborilganda.
2. Murojaat ko'rib chiqish uchun qabul qilinganda.
3. Murojaatga javob berilganda.

Profil

Yuridik shaxs

Mening arizalarim

Mening qoralmalarim

Mening ma'lumotlarim

Mening bank kartalarim

To'lovlar

Tanlangan xizmatlar

Tizim guruhga murojaat

### Saralash

Murojaat raqami

Sana (dan)

Sana (gacha)

Status

Xizmat turi

Tashkilot nomi

Filtiri tozalash

Idash

### Arizalar ro'yxati

	Xizmat	Tashkilot	Taqdim etilgan vaqt	Maqomi
560659	Toshkent shahar AQBB ma'lumotlariga ko'ra bino buzilishi rejalashtirilmaganligi haqida ma'lumot olish	Toshkent shahar arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi	2016-04-12 10:54:51	<span style="background-color: #27ae60; color: white; padding: 2px 5px; border-radius: 3px;">Ko'rib chiqilgan</span>
362093	Toshkent shahri hududida xususiy uy-joy borligi (yo'qligi) to'g'risidagi ma'lumotni olish	Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi	2015-10-16 14:17:45	<span style="background-color: #27ae60; color: white; padding: 2px 5px; border-radius: 3px;">Ko'rib chiqilgan</span>
362059	Toshkent shahri hududida xususiy uy-joy borligi (yo'qligi) to'g'risidagi ma'lumotni olish	Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi	2015-10-16 13:50:35	<span style="background-color: #27ae60; color: white; padding: 2px 5px; border-radius: 3px;">Ko'rib chiqilgan</span>
245831	Murojaatlarni ko'rib chiqish	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	2015-06-12 14:18:55	<span style="background-color: #27ae60; color: white; padding: 2px 5px; border-radius: 3px;">Ko'rib chiqilgan</span>
244574	Murojaatlarni ko'rib chiqish	Davlat test markazi	2015-06-11 16:21:48	<span style="background-color: #e74c3c; color: white; padding: 2px 5px; border-radius: 3px;">Qaytarilgan</span>
211467	Murojaatlarni ko'rib chiqish	Toshkent shahri Yunusobod tumani hokimligi	2015-05-06 16:02:28	<span style="background-color: #27ae60; color: white; padding: 2px 5px; border-radius: 3px;">Ko'rib chiqilgan</span>
211466	Murojaatlarni ko'rib chiqish	Toshkent shahar hokimligi	2015-05-06 16:02:27	<span style="background-color: #27ae60; color: white; padding: 2px 5px; border-radius: 3px;">Ko'rib chiqilgan</span>
211465	Murojaatlarni ko'rib chiqish	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	2015-05-06 16:02:27	<span style="background-color: #27ae60; color: white; padding: 2px 5px; border-radius: 3px;">Ko'rib chiqilgan</span>

13-rasm. Murojaatlarni ko'rib chiqish.

Shuningdek, murojaat holatini "Mening arizalarim" sahifasida xam ko'rish mumkin. Agarda murojaatga javob berilgan bo'lsa, unda o'sha murojaat sahifasida ko'rinib turadi.


## 1.2. Kommunal xo'jalik va uy-joy fondi portali e-kommunal.uz

Portalning asosiy vazifasi aholining uy-joy-kommunal soha va kommunal xizmat vakillari, shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining sohaning yuqori tashkilotlari bilan hamkorligini yanada takomillashtirishdir. Portalning maqsadi – interfaol va axborot xizmatini ko'rsatish orqali kommunal xizmatlarining aholi, tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro hamkorlik qilishi uchun yagona axborot makonini tashkil etish, kommunal xizmatlar faoliyatida oshkoralikni ta'minlashdan iborat. Portal yordamida iste'molchilarga interaktiv xizmatlar ko'rsatish maqsadida kommunal xizmat va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati avtomatlashtirilmoqda.



14-рasm. E-kommunal.uz

Foydalanuvchi tizimdan foydalanish uchun ID.UZ yagona identifikatsiya tizimida ro'yxatdan o'tish kerak bo'ladi.



15-рasm. Ro'yxatdan o'tish bo'limi.



16-rasm. ID.uz orqali ro'yxatdan o'tish.

Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgandan so'ng xizmatlar etkazib beruvchilarining rekvizitlarini bilib olishi, portal ma'muriyatiga savol bilan murojaat qilish imkoniyati mavjud. Shuni ta'kidlash joizki, faqat o'z profilidagi ma'lumotlarni, misol uchun, o'z manzilini ko'rsatgandagina boshqaruvchi kompaniyalarning rekvizitlarini bilib olish uchun "Xizmatlar etkazib beruvchilarim" xizmatidan foydalanish imkoniyati beriladi. Profildagi barcha ma'lumotlar tahrir qilinadi, shu sababli yangi yashash joyiga ko'chib o'tganda axborotni yangilash imkoniyati mavjud.

Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgandan so'ng yuqori o'ng burchakda foydalanuvchi ismi va familiyasi bilan bir qatorda "xizmatlar profili" paydo bo'ladi. Bu xizmatlar profilida "Murojaatlarim", "Xizmatlar etkazuvchilarim", "Profilim" va "Vijetlarim" servislariga menyusi paydo bo'ladi. "Profilim" bo'limida foydalanuvchi kommunal hisob-raqamlarini to'ldirish kerak. Shundan so'ng "Vijetlarim" da resursdan foydalanuvchi on-layn rejimida kommunal bo'yicha joriy hisoblanmalarni ko'rishi mumkin.



На главную Вы вошли как: Abdullaev Alisher II...

---

**Меню сайта**

- Новости
- Рекомендации по подготовке к зиме - Помощь ТЧСЖ и махаллям
- Нормативные документы
- Жилищно-коммунальное хозяйство
- Территориальное разделение
- Справочник
- Помощь потребителю
- Интерактивные услуги
- Медiateка
- Мобильное приложение

## Профиль пользователя

---

**Персональные данные**

Пользователь: Abdullaev Alisher Ihamovich  
 Email: af1914@gmail.com  
 Последний вход: 23.04.2016 16:04:29  
 Телефон: 998911630942  
 Адрес: Мустақиллик 81/87

Внимание! Ваш адрес необходим для автоматического заполнения графы "адрес" в бланках оплаты.

Вы можете посмотреть текущее состояние лицевых счетов по коммунальным услугам по этой [ссылке](#)

---

**Лицевые счета**

**Электроэнергия**

Выберите регион:

Выберите РЭС:

Введите лицевой счет:

Внимание! Лицевой счет можно узнать в квитанции об оплате за электроэнергию или в РЭС по месту жительства. Лицевой счет должен состоять из 7 цифр. Услуга доступна по всем регионам.

---

**Природный газ**

Выберите область:

Выберите РАЙГАЗ:

Введите лицевой счет:

Внимание! Лицевой счет можно узнать в квитанции об оплате за газ или в районном отделении газоснабжения. Лицевой счет должен состоять из 8 цифр. Услуга доступна по всем регионам.

---

**Горячая вода и отопление**

Введите лицевой счет:

Внимание! Лицевой счет указан в договоре с потребителем тепловой энергии, в абонентской книжке потребителя тепловой энергии, или можно узнать в районном отделе управления "Теплосбыт" (РОТС) УП ПО "Тошиссикуввати". Лицевой счет состоит из 11 цифр. Услуга доступна только для потребителей г.Ташкента.

---

**Холодное водоснабжение**

Введите лицевой счет:

Внимание! Лицевой счет можно узнать в квитанции об оплате за холодное водоснабжение или в районном отделении сбыта (РОС). Лицевой счет должен состоять из 6 цифр. В данный момент услуга доступна только по г.Ташкент.

**Информер тарифов**

Тарифы ЖОХ от e-kommunal.uz

	Счетчик	Без
Гор. вода	3439.90	20267.60
Хол. вода	360.00	4767.81
Газ	226.00	4298.15
Элек-во	182.00	182.00
Тепло	-	1169.70
Утилизация	-	2800.00

[Получить информер тарифов](#)

**Утвержденные тарифы на тепловую энергию**

Наименование продукции	Ед. изм.	Тариф, сум	Тариф с повыш. Коэф. сум
<b>Исчисление тепла: Единый тариф с 01.04.2016</b>			
При наличии ПУТ без НДС	сум/ Гкал	60 700,00	60 700,00
При наличии	сум/		

17-rasm. Foydalanuvchi profili.

Natijada Vidjet bo'limida sovuq suv, elektroenergiya, tabiiy gaz, issiq suv uchun to'lagan pullari haqida ma'lumotlarni (qarz bo'lsa, qarzlarni) kuzatib borishi imkoniyati mavjud.

На главную

Вы вошли как: Абдулхай Албабер К.

### Текущее состояние лицевого счетов по коммунальным услугам

Внимание! Для того чтобы узнать текущее состояние лицевых счетов, Вам необходимо заполнить номера лицевых счетов в Вашем профиле.

Электроэнергия	
Лицевой счет	262690248516
ФИО	Сайдурадов Я
Адрес	Мустақиллик. ул д 81 кв 87
Дата последней оплаты	21.04.2016
Сумма последней оплаты	91000.00
Последнее показание счетчика	11108
Остаток «+» предоплата, «-» долг	43779.79
Тип счетчика	DD5-U500 10A
Серийный номер счетчика	EX-209330
Последний тариф	182.00
Наименование РЭС	MIRZO ULUGBEK TETK
ФИО директора РЭС	Артыков А.Р.
Телефон РЭС	2675740
адрес РЭС	Tashkent shahar, Amir Temur bari ko shahri, 6 uy
ИНН РЭС	201052490
МФО	00423
ОКОНХ РЭС	11170
Расчетный счет	22604000800126958048

Вы можете погасить свой лицевой счёт посредством оплаты через MBANK

Холодная вода	
Лицевой счет	291011
ФИО	Сайдумаров Ядгар Ташходжаевич
Адрес	Пушкина Улицы дом 81 кв. 87
Баланс (Долг)	94113.78
Дата баланса	01.05.2016 0 00 00

Вы можете погасить свой лицевой счёт посредством оплаты через системы UPAY

Горячее водоснабжение и отопление	
Лицевой счет	0300040294
Ф.И.О.	Егоров Дмитрий
Адрес	ул. Пушкина, дом 81, кв. 87
Отопливаемая площадь, кв.м	31.18
Количество жильцов	1
Дата последних показаний счетчика	
Последние показания счетчика, куб.м	
Дата последней оплаты	06.01.2016
Сумма последней оплаты	117 500.00
Баланс, сум (Долг)	510 413.28
Дата баланса	25.03.2016

Вы можете погасить свой лицевой счёт посредством оплаты через платежные системы

Утилизация(мусор)	
<b>Лицевой счёт недоступен</b>	
Возможные причины: Неправильный лицевой счет или биллинг-система поставщика коммунальной услуги временно не доступна	

Природный газ	
Лицевой счет	02264132
ФИО	ЕГОРОВ Д.А.
Баланс	-125 507 496
Адрес	ПУШКИНА/ФРИГАТОР-АККОРГ 81/87

Вы можете погасить свой лицевой счёт посредством оплаты через платежные системы

18-rasm. Onlayn vidjet.

Интерактив xizmatlar bo'limi mavjud. Bo'limda bir qancha xizmatlar mavjud:

- kommunal xizmatlar kalkulyatori;
- kommunal xizmatlari uchun onlayn to'lov va balansni tekshirish;
- qurilish va ta'mirlash ishlari smeta kalkulyatori;
- savol berish;
- so'rovnomalari;
- murojaat;
- to'lov varaqasi.

На главную

Вы вошли как: Абдулхай Албабер К.

### e-kommunal

Меню сайта

- Новости
- Размещение на сайте объявлений и услуг - Показы, ЕСМ, в. м. услуги
- Нормативные документы
- Жалобы потребителей
- Уведомления для клиентов
- Ссылки
- Поиск, регистрация
- Интерактивные услуги
- Медиацентр
- Мобильные приложения

Информация о тарифах

Калькулятор коммунальных услуг

Световой калькулятор строительного-монтажных и ремонтных работ

Оплатить проверку Баланса и оплату за коммунальные услуги

Задать вопрос

Опросы

Почта рассылки/уведомлений отправки

Обращения

Подать обращение

Просьба об обращении

Моя информация

Получить уведомление

Вся информация

Билеты

Билет оплаты за электроэнергию

Билет оплаты за холодную воду (платить на сайт Сувеко)

Билет оплаты за газ

Билет оплаты за отопление и горячую воду


19-rasm. Interaktiv xizmatlar.





20-rasm. Onlay kalkulyator.

E-kommunal portalida nazarda tutilgan yana bir interfaol xizmat – «Kommunal xizmatlar kalkulyatori». Bunda foydalanuvchi, hatto ro'yxatdan o'tmasdan turib, elektr energiya, tabiiy gaz, issiq va sovuq suv, isitish, chiqindi uchun qancha to'lashi kerakligini hisoblashi mumkin. Dasturda hisoblagichning mavjudligini hisobga olib, xonadonda yashovchi kishilarning sonidan kelib chiqib turli tariflar qo'yilgan. Bu faqat jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan.




21-rasm. Onlayn to'lov bo'limi.

Kommunal xizmatlari elektr energiya, tabiiy gaz, issiq va sovuq suv, isitish, chiqindi uchun u-pay va mbank to'lov tizimlari orqali onlayn to'lov imkoniyati mavjud.




22-rasm. Savol berish bo'limi.



23-rasm. Murojaat bo'limi.

Murojaat bo'limida murojaat formasini to'ldiriladi, zarur hollarda esa unga qo'shimcha fayllarni qo'shish imkoniyati mavjud. So'ngra foydalanuvchi tomonidan tanlangan soha va toifaga qarab, tizim uning murojaatini tegishli davlat organiga jo'natadi.



24-rasm. To'lov varaqasi.

To'lov varaqasi xizmatida tanlangan kommunal turi bo'yicha to'lov varaqa xosil bo'ladi, to'lov varaqa to'ldirilib, chop etish imkoniyati xam mavjuddir.

Elektron huqumat interaktiv xizmat tizimlaridan foydalanish.

Ishdan maqsad: Elektron huqumatning interaktiv xizmatlarini amalda qo'llash. Ularning resurslari bilan tanishish.

Masalaning qo'yilishi: Tinglovchi interaktiv xizmatlar orqali davlat tashkilotlarining resurslari bilan tanishadi va ulardan foydalanishga o'rganadi.

Nazariy ma'lumotlar.

Elektron hukumat interaktiv xizmatlari turlari.

“Elektron hukumat” – davlat boshqaruvining elektron hujjat aylanishi tizimi mamlakat miqyosidagi boshqaruv jarayonlarining barchasini avtomatlashtirishga asoslangan, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda jamiyatning har bir a'zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiya xarajatlarini kamaytirish maqsadiga xizmat qiladi.

Interaktivlik - texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari bilan foydalanuvchilar o'rtasidagi muloqot. Demak, kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, biz u yordamida kompyuter bilan muloqot o'rnatamiz.

Interaktivlik muloqot tizimini tashkil etish bilan bog'liq. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo'llaniladi.


“Interaktiv xizmat” tushunchasi. Interaktivlik orqali foydalanuvchi uchun moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko'riladigan manfaat mavjud bo'lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya'ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat ko'rsatilgan.

Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlari. Hozirgi vaqtda, mamlakatimizda interaktiv xizmatlar tashkil etish, shakllantirish va ularni boshqarishga katta

e'tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlar tashkil etishning eng tez va qulayxshi yo'li - Internet tarmoqlari orqali amalga oshirishdir.


Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlariga quyidagilar kiradi: Transport vositalarining harakatlanish jadvali. Respublikadagi transport vositalari harakatlarining jadvali bir nechta saytlarda berilgan. Foydalanuvchi saytdan transport vositalari qatnovi jadvallari orqali o'ziga kerakli ma'lumotlarni oladi. Quyida ushbu veb-sahifalar keltirilgan:

<http://www.orexca.com> – sayyohlar uchun mo'ljallangan veb sahifa;




Aviareyslar jadvali. Aviareyslari bo'yicha ma'lumotlar olish uchun <http://uzairways.com> – "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi veb-sahifasiga murojat qilinadi. Saytda xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi aviaqatnov jadvallari berilgan.







Temir yo'l transporti qatnovi jadvali. Respublika ichki va tashqi temir yo'l qatnovlari jadvallari va ular haqidagi ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan topish mumkin:  
uzrailpass.uz - temir yo'l transport qatnovi jadvali.



Bank xizmati ma'lumotlari va valyuta kurslari. O'zbekistondagi barcha banklar haqida ma'lumotlar va yangiliklarni, quyidagi saytlardan olish mumkin:  
www.bank.uz




[www.mikrokreditbank.uz](http://www.mikrokreditbank.uz)



[www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz);  
[www.asakabank.com](http://www.asakabank.com);  
[www.new.nbu.com](http://www.new.nbu.com);  
[www.uzpsb.uz](http://www.uzpsb.uz);  
[www.infinbank.com](http://www.infinbank.com);  
[www.xb.uz](http://www.xb.uz);  
[www.ipotekabank.uz](http://www.ipotekabank.uz);  
[www.csb.uz](http://www.csb.uz)









Tele va radioeshittirish dasturlari. O'zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi ma'lumotlari va teledasturlar jadvalini hamda ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni quyidagi veb-sahifadan olish mumkin.


[www.mtrk.uz](http://www.mtrk.uz)




Ish o'rinlari birjalari. Respublika doirasida bo'sh ish o'rinlari topish, aniqlash va muloqot o'rnatish quyidagi veb-sahifalar orqali amalga oshiriladi. [www.myjob.uz](http://www.myjob.uz) saytidan ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni jo'natishingiz va javob olishingiz mumkin.



Sport yangiliklari. Respublika va xalqaro miqyosdagi sport musobaqalari, ularga oid barcha ma'lumotlarni:  
[www.uff.uz](http://www.uff.uz)



[www.the-uff.com](http://www.the-uff.com)



Davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati – idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda idoralar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko'rsatiladi:

- umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan, Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;
- bir tomonlama o'zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har xil formulyarlaridan foydalanish imkoniyatini berish;
- ikki tomonlama axborot ayirboshlash - so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish vaG'yoki berish);
- elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan, xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash.

Bugungi kunda aholiga davlat organlarining veb-saytlari orqali interaktiv davlat xizmatlari asosida 500dan ortiq turdagi interaktiv xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Quyidagi veb-sahifalardan Davlat boshqaruvi va xo'jalik yurituvchi organlar veb-sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlarini olish mumkin.

Bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari «elektron hukumat» tizimini faol joriy qilmoqda. Bu davlat tuzilmalarini boshqarishga, davlat va tadbirkorlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda biznes jarayonlarni samarali rivojlantirishga, shuningdek, fuqarolarga Internet tarmog'i orqali ochiq interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatishga yordam beradi.

Bugungi kunda «elektron hukumat»ning samarali elementlari sifatida 20 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda. Ular quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal – gov.uz bo'lib, tashkilotlar, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida elektron-axborot hamkorlik infratuzilmasining tizim hosil qiluvchi elementi hisoblanadi.

Har bir fuqaro yoki korxon, tashkilot, muassasa vakili O'zbekistondagi davlat hokimiyatining barcha elementlari yuzasidan to'liq axborotni olishi mumkin, shuningdek, hokimiyatning u yoki

bu organiga gov.uz portali orqali elektron shaklda rasmiy so'rov yuborishi mumkin. Mazkur portalda Asosiy interaktiv davlat xizmatlarining to'liq ro'yxati chop etilgan.

«E-Kommunal.uz» portali uy-joy, kommunal xo'jaligi sohasidagi umumiy axborot infratuzilmasi bo'lib, aholi, nazorat qiluvchi organlar va uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, shuningdek, kommunal xizmatlar o'rtasida axborot almashishni osonlashtiradi. Mazkur portalda O'zbekistondagi uy-joy va kommunal xo'jaligining barcha masalalariga doir axborot, shuningdek tariflar to'g'risida ma'lumot berilgan hatto, barcha kommunal xizmatlarning interaktiv kalkulyatori qulay shaklda joylashtirilgan. Xohlovchilar portalda kommunal xo'jaligi muammolariga oid xabar, fotosuratlarni joylashtirishlari mumkin, davlat hokimiyati tegishli organlari tomonidan ko'rib chiqilib, muammolarni bartaraf etish choralari qo'llaniladi.

•stat.uz, soliq.uz tadbirkorlik sub'ektlarining elektron shakldagi statistik, soliq va boshqa moliyaviy hisobotlarini to'plash va ishlov berishni avtomatlashtirish tizimi. Davlat soliq qo'mitasi saytida har bir soliq to'lovchi ham yuridik, ham jismoniy shaxs sifatida elektron shaklda xizmatlarning to'liq ro'yxatini olishi, soliq hisoboti yoki daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etishi yoxud o'zining soliq to'lovchi identifikatsiya raqamini (INN) olishi mumkin.

Statistika davlat qo'mitasining sayti orqali har qanday tadbirkorlik sub'ekti elektron shaklda statistik hisobotni topshirishi mumkin, yangi firma tashkil etayotganda har bir fuqaro firma nomini rezerv qilishning elektron tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega. Hozir davlat statistik hisobotining 101 ta shakli (141 ta amaldagi shakldan) Internet tarmog'i orqali elektron shaklda yuborilishi mumkin. Joriy yilning 1 fevral holatiga ko'ra, 103 mingdan ortiq firma nomlari elektron shaklda rezerv qilingan.

O'zbekiston qonunchilik milliy bazasi (lex.uz) 25 mingdan ortiq normativ hujjatni barcha uchun ochiq tarzda o'z ichiga olgan. Lex.Uz milliy tizimining asosiy maqsadi yuridik va jismoniy shaxslar uchun normativ-huquqiy hujjatlarga keng kirishni ta'minlash yo'li bilan aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularni huquqiy axborot bilan ta'minlash ishlarini takomillashtirishdan iborat.

Ushbu ma'lumotlar bazasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, mustaqillikka erishilgandan so'ng hozirgacha qabul qilingan qonunlar, kodekslari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari hamda boshqa hujjatlari, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudining qarorlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari o'zbek va rus tillarida joylashtirilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, Lex.Uz milliy bazasi Internet tarmog'i orqali normativ-huquqiy hujjatlarga bepul kirishni ta'minlovchi O'zbekistondagi yagona axborot-huquqiy tizim hisoblanadi.

•uzbekenergo.uz - har bir elektr energiyasi iste'molchilari o'zlarining shaxsiy ma'lumotlariga kirishlarini ta'minlovchi alohida xona. Har qanday korxonalar, tashkilot yoki oilalar elektr energiyasi iste'molchisi hisoblanadi. Mazkur loyiha mamlakatdagi barcha iste'molchilarning elektr energiyasidan foydalanish hisobini qulay interaktiv shaklda nazorat qilish imkonini beradi.

•evisa.mfa.uz - chet el fuqarolari uchun O'zbekistonga viza olishni rasmiylashtirish onlayn-anketa. Tizim O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi veb-saytining bir qismi bo'lib, hozirda alohida veb-sahifa sifatida o'zbek, ingliz va rus tillarida ishlamoqda, kelajakda boshqa tillarda ham ishlashi mumkin. O'zbekiston - eVisa tizimini joriy etgan dunyodagi to'qqizinchi mamlakat. Bu mamlakatimizning turistik va biznes salohiyatini oshiradi.

license.uz - amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati va litsenziya hamda ruxsatnoma olishning tartib-taomillari, talab etiladigan hujjatlar va boshqa masalalar to'g'risida axborot olish imkonini beradigan litsenziyatning yagona portali.

O'zbekistonda litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlari doimo qisqaradi va ularni olish tartib-taomillari soddalashtiriladi. Mazkur loyiha axborot va zarur litsenziyalarni olishda ortiqcha rasmiyatchilikni kamaytirishga yordam beradi.



## O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIY OTNI RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA XUQUQIY- NORMATIV ASOSLARI

### 1. Raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy o'sish

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ularning iqtisodiy o'sishi, avvalambor, bilimlar va intellektual potentsial hisobiga amalga oshirilmoqda. 1962 yilda avstriyalik olim F.Maxlup tomonidan "bilimlar iqtisodiyoti" iborasi ilk bor amaliyotga kiritilib, uning ostida milliy iqtisodiyotning biror-bir sektori tushunilgan.

Hozirgi kunda esa ushbu ibora milliy iqtisodiyotning turini aniqlash uchun qo'llanilib, unda bilimlar asosiy rol o'ynamoqda. Iqtisodiy o'sishning manbai bo'lib esa bilimlarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish hisoblanmoqda. Bilimlar iqtisodiyotining shakllanib borishi jarayonlarini davlatdagi iqtisodiyot va institutsional holat indeksi, bilimlar indeksi, innovatsiyalar indeksi, ta'lim indeksi va AKT indeksleri asosida kuzatib borish mumkin.

Shuning uchun ham bilimlarga qilinayotgan investitsiyalar miqdori asosiy fondlarga qilinayotganlarga nisbatan o'sib bormoqda. Bilimlar mahsulotdir, bir tomondan, shaxsiy bo'lib, boshqa tomondan esa jamoaviydir, ya'ni ulardan barcha kishilar foydalanishlari mumkin.

Iqtisodiy o'sish ma'lum bir davr mobaynida milliy iqtisodiyotdagi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish hajmining yuksalib borishidir. Unda ko'pgina omillar o'z aksini topadi, ya'ni milliy resurslardan ratsional foydalanish, iqtisodiyotning barcha darajalarini samarali boshqarish, yuqori darajadagi raqobatbardoshlikni nafaqat ichki bozorda, balki globallashtirish jarayonlari talablaridan kelib chiqqan holda tashqi bozorda ham ta'minlash kerak.

Iqtisodiy o'sishning mutlaq ko'rsatkichlardagi ifodasini YaIM, milliy daromad, milliy boylik, davlatning to'lov balansi va oltin-valyuta zaxiralar yuksalishida ko'rish, nisbiy miqdoriy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ifodasini esa aholi jon boshiga YaIM, aholi daromadlari, iste'mol miqdori, jamg'armalar, investitsiyalar to'g'ri kelishi bilan izohlash mumkin.

Har bir mamlakatning iqtisodiy o'sishini aniqlashda sifat ko'rsatkichlari xam muhim rol o'ynaydi. Unga aholining bilimlilik darajasi, salomatligi, milliy iqtisodiyotning tarmoq bo'yicha tarkiblanishi, jamiyatning infratuzilmaviy rivojlanish darajalari kiradi. Bundan tashqari iqtisodiy o'sish aholining turmush sifati va darajasi o'sishi bilan xam yaqindan bog'liq bo'lib, u o'z o'rnida yashash davomiyligi o'sishi, tibbiy xizmat sifati yuksalishi, zamonaviy ta'lim olish imkoniyatlari, ish kuni davomiyligi qisqarishi, fuqarolar xavfsizligi va hokazolar bilan ifodalanadi.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, hozirgi davrda iqtisodiy o'sish omillaridan bo'lib mehnat, kapital, texnologiyalar, er va axborot- kommunikatsiya texnologiyalari hisoblanmoqda. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi global innovatsiyalarni keng joriy etish asosida ko'pgina davlatlar iqtisodiy o'sishini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridandir. Milliy iqtisodiyotning ushbu sohasi ko'pgina davlatlarda endigina shakllanmoqda, lekin rivojlangan davlatlarda esa u iqtisodiy o'sishning lokomotivi bo'lib xizmat qilmoqda. AKT mehnat unumdorligini yuksaltirish va boshqa barcha resurslardan optimal foydalanishning asosiy omili bo'lib, zamonaviy iqtisodiyotda ahamiyatli resurslarga aylanmoqda.

AKT mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish bilan, asosan, Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi, Xitoy kabi sanoatlashgan davlatlar shug'ullanayotgan bo'lsa, ularning iste'molchilari esa rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanmoqda. AKT samaradorligi indeksi bo'yicha esa dunyoda Shvetsiya, Singapur, Finlyandiya, Shveytsariya, AQSh, Daniya va Kanada mamlakatlari ilg'orlik qilishmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, AKTning samaradorlik indeksi bozor muhiti, uni tartibga solish muhiti, infratuzilma, aholi tayyorgarligi, biznesning tayyorgarligi, AKTdan aholi, biznes va davlatning foydalanish darajalari bilan ifodalanadi.

AKT oldingi texnologiyalarga nisbatan bir qator o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ularning iqtisodiy o'sish va milliy iqtisodiyotga ta'siri sifat jihatdan boshqacha tusda bo'ladi.


Avvalambor, AKTni tarqatish va undan foydalanish global xarakterga ega. Bu texnologiya unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirish mumkin bo'lgan barcha sohalarda qo'llaniladi, jumladan, boshqaruv sohasida ham.

Boshqaruv va biznes jarayonlarida AKTdan samarali foydalanayotgan mamlakatlarning tajribasi juda ham e'tiborlidir. Singapur davlati dunyoda birinchi bo'lib optik tolali tarmoq bilan barcha sohasini 100 % ta'minladi, Shvetsiya davlatida 2012 yilda barcha kompaniya va uy xo'jaliklari optik tola bilan 100 % qamrab olindi. Ushbu texnologik yorib o'tish ularning iqtisodiy o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

AKTning iqtisodiy o'sishga ta'sirini bevosita va bilvosita samaradorlik asosida aniqlash mumkin. Bevosita samaradorlik ushbu soha infratuzilmasiga qilinayotgan investitsiyalar, axborot xizmatlarining keng kirib kelishi va AKT sohasidagi bandlikning yuksalishi bilan ifodalanadi. Ushbu sohaning iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri AKT mamlakatning uzoqda joylashgan hududlarigacha kirib borishi bilan bog'liqdir. AKTga qilinayotgan investitsiyalar o'z o'rnida yangi ish o'rinlarini yaratishga olib kelib, turmush sifatini ham yuksaltiradi.

AKTga qilinayotgan investitsiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotini yanada yuksaltirishning asosiy omillaridan hisoblanmoqda. AKT tarmog'i rivojlangan davlatlarda raqobatbardoshlik darajasi ham yuqori bo'lib, ular istiqbolda iqtisodiyotdagi samaradorlikni oshirmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, AKTga qilinadigan investitsiyalar mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. 7.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, AKTga investitsiyalar miqdorini 10 %ga oshirganda, YaIM Buyuk Britaniyada 0,6 %ga, Avstraliyada 0,8 %ga, Yangi Zelandiyada 0,9 %ga, Malayziyada 0,14 %ga ortgan. Ushbu ko'rsatkich dunyo mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 0,7 %ni tashkil qilgan.

AKT sektorining bilvosita samaradorligi mehnat unumdorligining ortishi, AKT potentsiali yuqori bo'lgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'sishi, innovatsion klasterlar shakllanishi va axborot xizmatlari eksporti yuksalishi bilan ifodalanadi. AKT omilining iqtisodiy o'sishga ta'siri darajasi AKT bozori, mobil aloqa, keng polosali Internet va shaxsiy kompyuterdan foydalanish miqyosi va ularning davlat darajasida joriy qilinishi intensivligiga ham bog'liq.



1-rasm. AKTga investitsiyalarni 10 %ga oshirganda, YaIMning o'sishi holati[1]

AKT rivojlanishining yuqori tezlikda bo'lishi ularni joriy etish va foydalanish xarajatlari juda ham past ekanligiga ham bog'liq. Shuning uchun ham an'anaviy texnologiyalarga nisbatan AKTdan olinishi mumkin bo'lgan iqtisodiy samaradorlik tezkor va katta hajmda bo'lishi mumkin.



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida iqtisodiy o'sish va jamiyat ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- AKT sektorining yuqori sur'atlarda o'sishi;
- bozor va sub'ektlar boshqaruvi samaradorligiga AKTning ijobiy ta'siri;
- ta'lim sifati yuksalishi va ommabopligi o'sishi;
- davlat boshqaruvi samaradorligi yuksalishi va fuqarolik jamiyati rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy institutlarga AKTning jiddiy ta'siri;
- jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlarining rag'batlantirilishi va tezlashishi;
- bank tizimining rivojlanib borishiga keng ko'maklashish. Hozirgi kunda kompyuterlashtirish inson faoliyatining barcha sohalarini keng qamrab olib, axborot maydonini kengaytirishga yordam bermoqda. Endi zamonaviy jamiyatni AKTning ta'sirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dunyo hududlari bo'yicha AKTdan foydalanish darajasi ko'rsatkichlariga ko'ra, Shimoliy Amerika davlatlarining boshqaruv va xo'jalik sub'ektlari hamda uy xo'jaliklarida ulardan foydalanish bo'yicha ancha yuqori (1-jadval). Ularda keng polosali Internet bilan uy xo'jaliklarining 85%i, mobil aloqa bilan aholining 72%i, uy xo'jaliklarining 93%i esa shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan.

Dunyoning turli hududlarida AKT tarqalishi, %

Hududlar	Uy xo'jaliklari-ning keng polo-sali internet bilan ta'minlanishi	Aholining mobil aloqa bilan ta'minlanishi	Uy xo'jaliklari-ning shaxsiy kompyuter bilan ta'minlanishi
Shimoliya Amerika	85	72	93
G'arbiy Evropa	62	83	64
Sharqiy Evropa	32	66	25
Lotin Amerikasi	29	66	21
Tinch okean havzasi	17	48	14
Afrika	11	37	8

Tahlillarga ko'ra, G'arbiy Evropa davlatlari ham AKTdan foydalanish bo'yicha ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Sharqiy Evropa va Lotin Amerikasi davlatlari bu borada erishgan ko'rsatkichlar esa deyarli bir xil darajada. Iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan Afrika davlatlari bu sohada ham rivojlangan davlatlardan bir necha barobar ortda qolgan.

Milliy iqtisodiyotni axborotlashtirishda uy xo'jaliklarining o'rni ham muhim. Shaxsiy kompyuterlar bilan 100 ta uy xo'jaligidan Rossiya Federatsiyasida 64 tasi, Ukrainada 28 tasi, Armanistonda 29 tasi, O'zbekistonda 25 tasi, Ozarbayjonda 9 tasi, Qirg'izistonda 5 tasi ta'minlangan.

AKT rivojlanishi va undan keng foydalanish jahon taraqqiyotining oxirgi yillardagi global tendentsiyalaridan hisoblanmoqda. Dinamik ravishda rivojlanib kelayotgan hozirgi dunyoda AKT milliy iqtisodiyotning lokomotivi rolini o'ynab, mamlakatga investitsiyalarni kiritishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, istiqbolli texnologiyalarni ishlab chiqarish va boshqaruvga kiritishga, oxir-okibatda doimiy iqtisodiy o'sish va turmush darajasini yuksaltirishga ko'mak bermoqda. Shu boisdan ham jamiyat hayotining turli jabhalariga AKTni joriy qilish va undan foydalanish darajasi davlat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining hal qiluvchi omili bo'lmoqda. Respublikamizda istiqboldagi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari tarzida quyidagi yo'nalishlar belgilab olingan:

- milliy iqtisodiyotni faol tarkibiy qayta qurish;
- xomashyo eksport qilishdan yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar eksportiga bosqichma-bosqich o'tish;
- iqtisodiy erkinlashtirishni davom ettirish va iqtisodiyotda davlatning ulushini kamaytirib borish;

- moliyaviy sektorni yanada rivojlantirish;
- “bilimlar iqtisodiyoti”ni shakllantirish uchun inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish;
- jamiyatni keng axborotlashtirishni ta’minlash;
- innovatsion institutlarni tashkil qilish;
- hududlarni kompleks rivojlantirish.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, “bilimlar iqtisodiyoti”ni shakllantirish va axborotlashtirish jarayonlarini keng ko’lamda amalga oshirish iqtisodiy o’sishimizning asosiy omillaridan hisoblanmoqda.

AKT sohasida respublikamizda faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish (75 ta korxonalar), axborot tashuvchi vositalar ishlab chiqarish (2 ta), dasturiy vositalarni loyihalashtirish va ishlab chiqarish (371 ta), axborot-hisoblash xizmatlari (910 ta), Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmat ko’rsatish bo’yicha (2426 ta) shug’ullanishmoqda.

Dunyoning 246 mamlakatida raqamlashtirish bo’yicha olib borilgan keng ko’lamli tadqiqotlarga ko’ra, 2019 yil ma’lumotlariga asosan turli mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish ko’rsatkichlari tendentsiyasi turlicha (2-jadval).

Bir qator davlatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish ko’rsatkichlari[2]

Ko’rsatkichlar	Mobil abonentlar, jami aholiga nisbatan %		Internet foydalanuvchi-lar		Ijtimoiy OAVlarning faol foydalanuvchilari		Mobil ijt. media foydalanuvchilari	
	Mln.	%	Mln.	%	Mln.	%	Mln.	%
Dunyo	8842	115	4388	57	3484	45	3256	42
Afg’oniston	28,82	78	9,7	26	3,8	10	3,6	9,8
Xitoy	1543	109	802	57	1007	71	1007	71
Germaniya	107,8	131	79,13	96	38	46	30	36
Hindiston	1190	87	560	41	310	23	290	21
Eron	123,7	150	72,94	89	47	57	41	50
Yaponiya	186,3	147	118,9	94	78	61	78	61
Qozog’iston	25,69	139	14,14	69	7,3	39	3,6	19
Qirg’iziston	9,38	152	2,49	40	1,8	29	0,96	16
Mongoliya	4,19	133	2,2	70	2,2	70	2,1	67
Rossiya	248,2	172	109,6	76	70	49	57,75	40
Tojikiston	9,9	108	3,01	33	0,44	4,8	0,24	2,6
Turkmaniston	4,48	76	1,06	18	0,042	0,7	0,021	0,4
BAA	19,23	200	9,52	99	9,52	99	8,8	92
Buyuk Britaniya	71,76	107	63,43	96	45	67	39	58
AQSh	347,4	106	312,3	95	230	70	200	61
Suriya	13,61	74	6,03	33	6,8	37	6,49	35
O’zbekiston	24,84	76	15,45	47	2,0	6,1	1,0	3,1

AKTning davlat makroiqtisodiy ko’rsatkichlariga ta’siri, avvalambor, mikrodarajadagi boshqaruv va xo’jalik sub’ektlarining ulardan foydalanish darajasiga to’g’ridan-to’g’ri bog’liq. Respublikamiz yirik tijorat korxonalari misolida axborotlashtirish jarayonlarini tahlil qiladigan bo’lsak, AKTning asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanmish shaxsiy kompyuterlar soni 2010 yilda 380929 ta bo’lgan bo’lsa, 2019 yilda 987767 tani tashkil qildi, ya’ni 3,6 martaga o’sgan. O’zbekiston Respublikasida 2019 yilda axborot va aloqa xizmatlari bilan band bo’lganlar soni yildan-yilga oshib borgan. Mamlakatda 325,5 ming faoliyat olib boruvchi korxonalar va

tashkilotlardan xizmat ko'rsatish sohasida hammasi bo'lib 213 mingtasi ish olib borgan, bu 65,8 %ni tashkil etgan (3-jadval).

O'zbekiston Respublikasida "Axborot va aloqa"da band bo'lganlar soni dinamikasi

Yil	"Axborot va aloqa"da band bo'lganlar soni dinamikasi, ming kishi	Ro'yxatdan o'tgan G'faoliyat olib boruvchi korxonalar soni, ming
2010	53,1	Axborot yo'q
2011	54,7	Axborot yo'q
2012	56,3	Axborot yo'q
2013	58,0	Axborot yo'q
2014	59,8	Axborot yo'q
2015	61,7	Axborot yo'q
2016	63,6	Axborot yo'q
2017	64,3	6800
2018	66,1	7400
2019	68,9	8200

Tahlillarga ko'ra, internet tarmog'idan respublikadagi tijorat korxonalarini ham o'z faoliyatida keng foydalanishmoqda (1.6-jadval).

Raqamli iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish ko'rsatkichlari (2018 yil)

Ko'rsatkichlar	O'zb	MDH	Jahon	Xitoy
Statsionar telefon aloqasi (har 100 kishida)	11,3	20,7	13,6	14,7
Mobil aloqa (har 100 kishida)	77,3	141,2	101,5	96,9
Faol mobil tarmoq aloqasi (har 100 kishida)	55,9	59,7	52,2	69,1
3 G doirasi (umumiy aloqaga nisbati)	45,3	77,1	85	98
LTEG'WiMAX doirasi (umumiy aloqaga nisbati)	16,9	45,9	66,5	97
Mobil aloqa narxi (YaMD nisbati)	2,3	1,7	5,2	0,6
Mobil tarmoq narxi 500MB (YaMD nisbati)	3,3	1,4	3,7	0,7
Mobil tarmoq narxi 1G (YaMD nisbati)	16,7	3,1	6,8	1,1
Kompyuter mavjud bo'lgan xo'jaliklar soni (har 100 xo'jalikdan)	43,9	67,4	46,6	52,5
Internetga ulangan xo'jaliklar foizi, %	75,4	68	51,5	55,5
Internetdan foydalanuvchilar foizi, %	46,8	65,1	45,9	53,2
Foydalanuvchi uchun internet tarmoq tezligi (kbitG's)	5,7	59	74,5	14,7

Manba: <http://www.itu.int/eng/ITU-DG/>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, respublikada axborot kommunikatsiya texnologiyalari va internet tizimini rivojlantirishga berilgan katta e'tibor tufayli soha tez rivojlanmoqda. Ammo internet tarmog'ining tezligi, mobil aloqa va mobil tarmog'i narxi, mobil aloqa mavjudligi bo'yicha jahonda va Mustaqil davlatlar hamdo'stligida orqada bormoqda. Proвайderlar va operatorlarning asosiy qismi Toshkentda jamlangan bo'lishiga qaramay, respublika hududlarida, ayniqsa, Samarqand va Buxoro viloyatlarida ularning soni muttasil oshib borishi kuzatilmoqda. Bu esa bozorning ushbu segmentida raqobatning kuchayib borayotganidan dalolat bermoqda. Kanallarning o'tkazuvchanlik layoqati ko'payishi va operatorlar hamda provayderlar soni ortishi barobarida Internet tarmog'iga kommunikatsiyalangan va keng tarmoqli foydalanish tizimi abonentlari jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda.

Mamlakatda Internet tarmog'idan jamoaviy foydalanish shaxobchalari soni ortib bormoqda (JFSh). Bunga ushbu shaxobchalar faoliyatini litsenziyalash jarayonining soddalashtirilishi yordam bermoqda. Internet tarmog'ida ulanish uchun Wi-Fi texnologiyasidan foydalanish ham kengaymoqda. Tajriba tariqasida foydalanish natijalariga ko'ra, Davlat radiochastotalar komissiyasi tomonidan respublikada WiMAX texnologiyasi bo'yicha keng tarmoqli simsiz foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida har bir opretorga chastotalar tarmoqli ajratib berilgan edi. Bu katta hududlarni qamrab olish bilan birga simsiz tarmoqlarni yaratish imkonini beradi (50 kilometr gacha). Bunda ma'lumotlarni uzatish tezligi 32 dan 135 MbitG's gachani tashkil etadi. Shu bilan birga, Wi-Fi texnologiyasi bo'yicha simsiz foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish uchun chastotalar ajratib berilgan. Ular simsiz lokal (ofis ichidagi) tarmoqlarni yaratishga va Internet tarmog'iga ma'lumotlarni uzatish tezligi 54 MbitG's bo'lgan yuqori tezlikka ega simsiz ulanishlarni vujudga keltirishga mo'ljallangan.

Wi-Fi texnologiyasidan foydalanilgan holda Internet tarmog'iga ulanish hududi kengaytirilmoqda. Natijada Wi-Fi foydalanish nuqtalari soni ortadi.

Raqamli iqtisodiyot g'oyasi Jahon banki tomonidan 2016 yil "Jahon taraqqiyoti haqida ma'ruza – 2016: raqamli dividendlar" ma'ruzasida ma'lum qilingan. Jahon banki mamlakatda raqamlashtirishning ochiq ma'lumotlar, elektron hukumat tizimi, "Yandeks" va "Kasperskiy" kabi raqamli gigantlar, on-layn-buyurtma xizmatlari, axborot texnologiyalari yordamida mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazish muddatining 10 kunga qisqarishi kabi belgilarini ko'rsatadi. Bunday sharoitlarda alohida kompaniyalar, mintaqalar, mamlakatlar va ularning birlashmalari texnologiyalar, tovarlar va xizmatlarning yangi turlari bozorlarida yangi shakllanadigan uzoq muddatli raqobatli ustunliklarni ta'minlashga intilib, raqamli iqtisodiyot sohasida strategik qarorlar shakllantirish va amalga oshirish jarayoniga faol kirisha boshlaydi.

Shu bilan bir paytda alohida tarmoqlar va mamlakat mintaqalari kesimida raqamli iqtisodiyot afzalliklarini amalga oshirish oqibatlarini baholash bilan bog'liq qator masalalarni hal qilish zarur. "Raqamli iqtisodiyot real voqelikni to'ldirib turadigan virtual muhitdir".

Yaqinda yangicha: raqamli iqtisodiyot real sektorlarni rivojlantirishga undashga qodir bo'lgan analogli iqtisodiyotga qo'shimcha degan talqin paydo bo'ldi.

Buyuk Britaniya – raqamli iqtisodiyot sohasida etakchilardan biri, lekin o'tgan yili ushbu sektor ulushi YaIM atigi 12 %ni tashkil qildi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi moddiy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq: real iqtisodiyotda qaerda yuqori bo'lsa, o'sha erda raqamli segmentni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

G'arb mamlakatlari ekspertlari raqamli texnologiyalar iqtisodiyot cub'ektlari va boshqaruv o'rtasidagi munosabatlarni sozlamasdan ish bermasligi borasida yakdil fikr bildiradilar.

G'arb biznesi yangi kommunikatsiya vositalarini birinchilardan bo'lib, faol o'zlashtirib oldi, mumkin bo'lgan hamma narsani raqamlashtirdi, hukumatdan elektron raqamli imzoni qonunchilik bilan rasmiylashtirishga erishdi, nafaqat biznes-hamjamiyat ichida, balki davlatda ham raqamli aloqani yo'lga qo'ydi, davlat idoralari ham o'z axborot tizimlarini asta-sekinlik bilan integratsiya qildi. Iqtisodiy "raqamlashtirish"ning uchta asosiy tarkibiy qismi mavjud:

birinchidan, axborot to'plash va tahlil qilish. Biroq ma'lumotlarni to'g'ri topish va ular bilan sifatli ishlash uchun bu maqsadda nima qilish kerakligini tushunish zarur;

ikkinchidan, birinchi o'rinda ishlab chiqaruvchi emas, iste'molchi turadigan ehtiyojlar.

Raqamli ma'lumotlar nuqtai nazaridan aynan "ehtiyotlar" ko'rib chiqilayotgan tushunchada "iqtisodiyot" o'zini ifodalaydi.

Faol axborotlashtirish iste'molchilar xulq-atvorini o'zgartiradi. Marketing asta-sekinlik bilan to'xtovsiz ravishda iqtisodiy o'zaro aloqalarning mohiyatiga, har bir kishini iqtisodiy o'zaro aloqalarga kirishishga majbur qiladigan asosiy harakatlantiruvchi kuch – ehtiyojlarga yaqinlashmoqda. Ya'ni biz oddiygina bir iste'molni har bir kishi uchun umumiy qulaylik boshqariladigan hududiga o'tkazishga qodir bo'lgan salohiyatni qo'lga kiritamiz;

uchinchidan, boshqaruv. "Raqamli iqtisodiyot" atamasidagi uchinchi unsur inson ko'ziga ko'rinmaydi. Biroq bizning holatda «mashina nigohi»ni e'tiborga olishga majburmiz. Shunda "raqamli" va "iqtisodiyot" so'zlari orasidagi "ko'rinmas" bo'shliqni ifodalaydi. Bu ikki

tushunchaning barqaror uyg'unlashuvi tufayli, hatto, uzluksiz bo'shliq haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Boshqaruv (professional kadrlar) o'zaro aloqalarni boshqarish malakali tizimi bo'lib, nazariya va amaliyotda insoniyatning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish ishida ma'lumotlardan faol foydalanish bo'yicha keng ko'lamli faoliyatni prognoz qilish, rejalashtirish, tashkil qilish, ijro etish, nazorat qilish va muvofiqlashtirishi ko'zda tutilgan. Va bu tizim bugungi kunda, aftidan, bungacha misli ko'rilmagan darajada har tomonlama – ilmiy, ulubiy, metodologik, texnologik, axborot, instrumental, kreativ va hokazo qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi.

Ya'ni mamlakatni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish uchun ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish asosida xalq xo'jaligi majmuini boshqarish umumiy tizimi bo'lishi lozim.

Raqamlashtirish jarayoni mamlakat iqtisodiyotida kuchayib boradi va transmilliy korporatsiyalarning mamlakatning mintaqaviy va milliy iqtisodiyotlari faoliyatidagi roli ortib boradi. Iqtisodiyotning raqamli segmenti mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatida ro'y bergan sifat o'zgarishlari tufayli dolzarb ahamiyatga ega bo'ladi. Yangi texnologiyalar va platformalar jismoniy shaxslar va korxonalar menejmentiga tobora katta ko'lamda o'zaro aloqalarda tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish hamda davlat tuzilmalari va xo'jalik yurituvchi ob'ektlar bilan mustahkam aloqalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Shu sababli iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsiyasini ishlab chiqishimiz kerak, – deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida. Shu asosda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Natijada YaIMni kamida 30 foizga o'stirish, korruptsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi[3].

Shu sababli raqamli iqtisodiyot AKT xizmatlarining kirib borish darajasi yuqori va qatnashchilar soni ko'p bo'lgan bozorlarda eng samarali faoliyat ko'rsatadi.

Birinchi navbatda, bu e-segmentning ulushi YaIM 10 %ini tashkil qiladigan, bandlik 4 %dan yuqori bo'lgan va bu ko'rsatkichlar yaqqol o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan internetga qaram tarmoqlar (transport, savdo, logistika va h.k.) bilan bog'liq. Texnologik jihatdan raqamli iqtisodiyotni to'rtta trend belgilab beradi: mobil texnologiyalar, biznes-tahlili, bulutli hisob natijalari va ijtimoiy media; global jihatdan – Facebook, Youtube, Twitter, Instagramm kabi ijtimoiy tarmoqlar.

Bu esa shuni anglatadiki, milliy segmentni shakllantirishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir paytda milliy raqamli iqtisodiyotga investitsiyalar samarali natijasiga ega bo'lish va undan dividendlar olish uchun nafaqat global tarmoqlar nuqtai nazaridan AKT-infratuzilmasini, balki "analogli qo'shimchalar" – qulay ishbilarmonlik muhiti, salmoqli inson kapitali, tegishlicha boshqaruvni ham rivojlantirish zarur. Bularning keyingisi iqtisodiy o'sishning poydevori hisoblanadi, shu sababli ularni chora-tadbirlar majmui va ustuvorliklarni aniqlash, talab qilingan investitsiyalar va maksimal samara berish, risklarni baholash borasida aniqlashtirish, mutaxassislar va mamlakat iqtisodiyotining raqamli segmentini shakllantirish uchun javobgar bo'lgan davlat amaldorlari uchun murakkab va dolzarb muammoni ifodalaydi.

Hozirgi kunda dunyoda raqamli iqtisodiyot hodisasini umumiy bir tushunish mavjud emas, shunday bo'lsa-da, ko'plab ta'riflar mavjud. Ushbu fenomenga davlat tomonidan berilgan rasmiy ta'rif quyidagicha: raqamli iqtisodiyot – ularni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmda qayta ishlash, an'anaviy xo'jalik yuritish shakllari bilan taqqoslaganda, har xil turdagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish va etkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili sanalgan xo'jalik faoliyatidir.

#### **14-Mavzu: Geoaxborot tizimlari(GIS).**

Asosiy savollar:

1. Geografik axborot
2. Geografik axborot tizimi (GIS)

Ushbu hodisaning to'liq qisqacha qisqacha ta'rifi etarlicha berish uchun etarli. **Geografik axborot tizimi (GIS)** - Bu bizning atrofimizdagi dunyodagi yangi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Agar siz umumlashtirish va tasvirlarsiz qilsangiz, shunda GIS haqiqiy dunyo inshootlarini xaritalar, shuningdek, haqiqiy dunyo inshootlarini xaritalar, shuningdek sayyoramizda ro'y berayotgan voqealardir. Ushbu texnologiya ma'lumotlar bazalari bilan ishlaydigan an'anaviy operatsiyalarni, shuningdek, xarita ta'minlangan to'liq vizualizatsiya va geografik (mektivona) tahlilning afzalliklari bilan birlashtiradi. Ushbu xususiyatlar boshqa axborot tizimlaridan GIS tomonidan ajralib turadi va atrof-muhitni tahlil qilish va asosiy omillar va sabablarni tushunish va taqsimlash bilan bog'liq keng ko'lamlil vazifalarni taqdim etish, shuningdek, tushunish va sabablarni tushunish va ularni taqsimlash bilan ta'minlash, shuningdek, tushunish va sabablar bilan bog'liq. strategik qarorlarni rejalashtirish va harakatning amaldagi oqibatlarini bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlarini kabi. Kartalar va geografik tahlilni yaratish mutlaqo yangi emas. Biroq, GIS texnologiyasi yangi, yanada tegishli zamonaviy, qulay, qulay va tez yondashuvni, xususan, insoniyat umuman, o'ziga xos tashkilot yoki odamlar guruhi, xususan, ma'lum bir tashkilot yoki guruhlar bilan ta'minlaydi. Bu tahlil qilish va prognozlash tartibini avtomatlashtiradi. GIS ishlatilishidan oldin, bir nechta bir nechta, zamonaviy yondashuvlar va vositalar asosida maqbul echimlarni qabul qilish uchun generalashtirish va geografik ma'lumotlarni to'liq tahlil qilishdi. Ayni paytda GIS - bu ko'p millionli dollarlik sanoatdir, bunda butun dunyo bo'ylab yuz minglab odamlar ishtirok etadi. GIS maktablarda, kollejlar va universitetlarda tahsil oladi. Ushbu texnologiya inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida qo'llaniladi - bu shunday tahlildir [global muammolar](#) Haddan tashqari ham, o'rmonlarning kamayishi, tabiiy ofatlar, tabiiy ofatlar va yangi ofisning eng yaxshi yo'nalishini, masalan, yangi ofisning maqbul joyini tanlash, uyda quvur liniyasini yoqish, uyda qidirish, yangi ofisning maqbul joyini tanlash, uyda quvur liniyasini yotqizish. erga, turli munitsipal muammolar. Hududiy qamrab olingan ma'lumotlarga ko'ra, global Global Global (Global Global Gical GIS, ko'pincha davlat, mintaqaviy GIS, mintaqaviy GIS va mahalliy GIS (mahalliy GIS).

GIS fan modellashtirish sohasida, masalan, shahar GIS yoki shahar GIS, MGI (shahar GIS), atrof-muhitni muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalar. Ular orasida maxsus nom, juda keng tarqalgan, olingan erlar [axborot tizimlari](#). GISning muammoli yo'nalishi unda bu haqda (ilmiy va amaliy) hal qilinadi, ular orasida resurslarni inventarizatsiya qilish (shu jumladan inventarizatsiya, monitoring, monitoring, boshqarish, boshqarish va rejalashtirish, qarorlarni qabul qilish. Birlashtirilgan GIS, IGIS integratsiyalashgan (Integratsiyalangan GIS, IGIS) bitta yaxlit muhitda GIS va raqamli image ishlov berish tizimlari (masofadan o'lchash ma'lumotlar) funktsional imkoniyatlarini birlashtiradi.

Axborot tizimi - bu raqamli ma'lumotlar bazasi raqamli ma'lumotlarga aylantirilgan. Ular geografik asosda va ma'lum bir koordinata tizimiga bog'langan batafsil qatlamlar. Bunday hodisalar ushbu ma'lumotlar bazasi yordamida muvaffaqiyatli kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari, u dunyoning deyarli har qanday nuqtasini topishingiz, deyarli har qanday ob'ektning harakatini kuzatishingiz mumkin. GIS ma'lumotlar bazasi besh xil vazifani bajara oladi. Siz ma'lumot bazasiga haqiqiy ma'lumotlarni kiritishingiz mumkin va aksariyat hollarda u avtomatik ravishda skanerdan foydalaniladi. Siz ma'lumotlarni boshqarishingiz, ularni o'z xohishingizga ko'maklashishingiz, ma'lum bir vazifani hal qilish uchun kerakli ma'lumotlarni to'plashingiz mumkin. An'anaviy ma'lumotlar bazalariga kelsak, GIS tizimini boshqarish mumkin. Bu butun yaxlit dasturlarning butun to'plami orqali amalga oshiriladi. Ma'lumotlar bazasidagi katta miqdordagi ma'lumotlar eng ko'p turli parametrlarni tahlil qilish uchun keng imkoniyatlarga ega. Siz uy qurish uchun bepul joylarni topishingiz mumkin, trafik oqimi uchun optimal ravishda shakllanish uchun, masalan, turli xil ob'ektlarning yaqinligini tahlil qilishingiz mumkin (do'koningizdan kirish imkoniyati mavjud bo'lgan odamlar sonini aniqlang), bir-birining turli xil ko'rsatkichlarini qo'llaydi va natijada paydo bo'lganlarni tahlil qiling rasm. GISning so'nggi vazifasi ma'lumotlarni vizualizatsiya qilishdir. Siz kartalar, grafika, grafika, jadvallar va hatto sizni qiziqtirgan mintaqaning fotosuratlarini olishingiz mumkin. Ushbu ma'lumotlar individual kompaniyalar va tashkilotlarning ilmiy tadqiqotlar va ishi uchun katta ahamiyatga ega.

### **GIS texnologiyasi qayerda qo'llaniladi?**

Yuqoridagilarning tavsiflari shuni ayonki, GIS texnologiyalari turli sohalarda keng qo'llanilishi aniq bo'ladi. Ammo ular nima qila oladi? Keling, GIS texnologiyalaridan haqiqiy foydalanishni ko'rsatadigan bir nechta misol keltiraylik. Turli xil ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlarni oshkor qilish, siz ko'proq narsani rivojlantirishingiz mumkin [samarali texnologiyalar](#) Ishlash, etarli vositalardan saqlang. Tuproqning turi, iqlimi va hosilning bir-birlari bir-birlari bilan qanday bog'liqligini tahlil qiling va siz ularning etishtirilishi bilan shug'ullanish yaxshiroq ekanligini tushunasiz.

• Ishonch mezonlarini aniqlashni, siz kerakli ob'ektni osongina topishingiz mumkin va uni ishlab chiqishda qo'shimcha vaqt sarflamasdan. Ma'lum bir qator xonalar, oshxona metro stantsiyasi va bir vaqtning o'zida bolalaringizning ishi va maktabining ishi va maktabining yonida joylashgan kvartirani toping endi juda oddiy. Tashkilotda sodir bo'lgan biznes jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Katta ma'lumotlar bazasi har qanday sohada foydali bo'lishi mumkin, chunki u ish rejalashtirish uchun imkoniyat yaratadi.



Kommunal xizmatlar nafaqat uskunalar kiyish va profilaktik ishlarni rejalashtirish, balki ularga ta'sir qiladigan aholini xabardor qilish. Bugungi kunda, shaharlar va mahalliy kartalar tezda eskirgan - yangi qurilish olib borilmoqda, yo'llar ishlab chiqilgan. GIS sizga ushbu o'zgarishlarni kuzatishga va ma'lumotlar bazasini deyarli chaqmoq yasashga imkon beradi. Virtual tarmoqda ishga tushirilgan, bunday karta har doim qo'lda dolzarb ma'lumotlar bo'ladi.

GIS texnologiyasi shunchaki emas [kompyuter bazasi](#) Ma'lumotlar. Bular tahlil qilish, rejalashtirish va muntazam ravishda yangilash va muntazam ravishda yangilash uchun katta imkoniyatlardir. Bugun GIS texnologiyalari hayotning deyarli barcha sohalaridan foydalaniladi va bu juda ko'p vazifalarni samarali hal qilishga yordam beradi.

GIS ("Geografik axborot tizimlari" deb shifriladi) - elektron ko'rinishga ma'lumotlarni ekranga chiqishga imkon beradigan kompyuter tizimlari. GIS tomonidan olingan rasmlar yangi avlod kartalariga tegishli.

#### *Ekrandagi geografiya*

Bunday kartalar statistika, demografika va boshqa ma'lumotlardan tashqari, ular bilan eski qog'oz tashuvchilar uchun turli xil analitik operatsiyalardan tashqari mavjud bo'lishi mumkin.

Elektron kartalarni texnik qo'llab-quvvatlash juda ko'p miqdordagi tahlillar, tahrirlash vositalarida, keng ma'lumotlar bazalari shaklida mavjud. Ularning yaratilishi va foydalanishlari bilan ko'plab zamonaviy vositalar, skanerlardan kosmik sun'iy yo'ldoshlarga er yuzi suratga oladigan joylarga jalb qilingan.

Yangi texnologiyalardan foydalangan holda olingan ma'lumotlar nafaqat geograflar, balki ishbiarmonlik muhitida, qurilish, marketing, davlat boshqaruvida ham foydalanishni topadi. Hatto uy bekalari ham geo-axborot tizimlari nima ekanligini bilishadi. Va ular elektron kartalar bilan muvaffaqiyatli ishlatilmoqda!

#### *GIS - ta'rif va asosiy tushunchalar*

Ushbu atamani aniq ko'rsatadimi? Geoinformatsiya tizimlari (GIS) - fazoviy ma'lumotlarni to'plash, saqlash va tahlil qilish, shuningdek ularning grafik vizualizatsiyasi. GIS yangi avlodning kompyuter texnologiyalarini anglatadi. GIS, geoinformatika bilan ishlashning qo'llanilishi va texnik jihatlarini o'rganadigan fan.



GIS - ma'lumotlar bazalari (so'rovlar, tahlillar) va kartalarga xos vizual vizualizatsiya bilan ishlashning muvaffaqiyatli uyg'unligi. Bunday tizimdagi ma'lumotlarni saqlash geografik joylashuvdan aziyat chekkan tematik qatlamlar bo'yicha amalga oshiriladi. GIS, shuningdek, raster bilan va vektor ma'lumotlari bilan ish olib boradi, buning uchun fazoviy ma'lumot bilan bog'liq har qanday vazifa ularning yordami bilan samarali hal qilinishi mumkin.

*Ularni ajratib turadigan narsa*

Geoinformatsiya tizimi rivojlangan tahliliy xususiyatlarga ega, ulkan ma'lumotlar bilan ishlash, fazoviy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun maxsus vositalarning mavjudligi.

Ularning asosiy afzalliklari foydalanuvchi uchun qulaylikdir (uch o'lchovli o'lchovlardagi ma'lumotlar idrokni olish oson, turli manbalarda to'plangan ma'lumotlarni birlashtirish, jamoaviy foydalanish uchun bir qatorni yaratish).



Keyin - Gidossess ma'lumotlari va hisobotlarni avtomatik tahlil qilish, ilgari yaratilgan sxemalarning sxemalari va rejalarini, ilgari yaratilgan sxemalar va rejalarini aniqlashning avtomatik tahlili. Muhim vaqt tejash va uch o'lchovli geografik ob'ektni yaratish imkoniyati.

*Asosiy vazifalar*

GIS funktsiyalari:

- ma'lumotlar kiritish (raqamli kartalar avtomatik ravishda yaratiladi)
- ma'lumotlarni boshqarish (barchasi keyingi ishlov berish va foydalanish imkoniyati bilan ta'qib qilinadi),
- parametrlar to'plamini taqqoslash orqali ularning so'rovi va tahlillari,
- olingan va qayta ishlangan ma'lumotlarni interfaol kartalar shaklida vizualizatsiya qilish.

Har bir ob'ekt haqida xabarlar grafika turini, diagramma yoki uch o'lchovli tasvirni olishi mumkin.

*Imkoniyatlar GIS*

GIS tizimining yordami bilan barcha mavjud ob'ektlarning mavjudligi, miqdori va o'zaro joylashuvining belgilangan qismini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, u bu bilan amalga oshiriladi, masalan, ko'chirish zichligini tavsiflovchi va boshqa o'zgarishlarni aniqlash va boshqa o'zgarishlarni aniqlash.



GIS tizimlari yordamida taxmin qilingan holatni, masalan, yangi ob'ektni - yo'l, turar joy, turar-joy massivi va boshqa qo'shishni taqqoslash mumkin bo'ldi.

#### *GIS - tasnifi*

Ushbu tizimlarning bir nechta tasnifi mavjud. Agar biz ularni hududni qamrab olish printsipiga baham ko'rsak, har bir IGHT global, mahirintal, milliy, mintaqaviy, subektsiyalar, shuningdek mahalliy yoki mahalliy tizimlarga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Agar siz nazorat darajasidan voz kechsangiz, tizim ma'lumotlar federal, mintaqaviy, shahar va korporativdan iborat.

Ular ularni va funktsiyalarda ajratishadi. GIS (qisqartirishlarning qisqarishlari ko'p sonli foydalanuvchilar uchun tushunarli) to'liq taniqli va ixtisoslashgan bo'lishi mumkin, ular ma'lum bir vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin - masalan, ma'lumotlarni ko'rish, ularning kiritish va qayta ishlash.

Ob'ekt zonasiga qarab, GIS kartografik, geologik, atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, shahar yoki shaharga tegishli bo'lishi mumkin.





Integratsiyalashgan jug'rofiy axborot tizimlari - bu standart funktsional ishlov berishdan tashqari raqamli ishlov berishga kirishadi. To'liq miqyosdagi GIS har qanday tanlangan o'lechlarda ma'lumotlarni ko'paytiradi. Spatio-Vectorial tizimlari o'tmishdagi yoki kelajakda ma'lumot bilan ishlash imkoniyatini beradi.

#### *Bu erda GIS ishlatiladi*

GIS - bu qo'llanma keng ko'lamli universal vositadir. Nima aniq?

- U er resurslarini boshqarish, kadastrlarni tuzish, maydonni hisoblash va yer chegarasini o'rnatishdir. Faqat bunday muammolarni hal qilish va birinchi bunday tizimlarni yaratgan.
- Boshqa bir sohada ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlarini boshqarish, ularning hisobi, rejalashtirish, inventarizatsiya. Ayrim uchrashuvlar - do'konlar, yonilg'i quyish stantsiyalari va boshqa narsalar tarmog'ini yaratish va joylashtirish va boshqalar.
- Muhandislik tadqiqotlari va arxitektura va qurilish sohasida rejalashtirish, hududni rivojlantirish va uning infratuzilmasini optimallashtirish muammolarini hal qilish.
- Tematik xaritalar yaratish.
- Barcha turdagi transport turlarini boshqarish - er va havoga.

#### *Boshqa sohalarda*

Tabiatni muhofaza qilish, ekologik tamoyil, tabiiy resurslarni rejalashtirish, ekologik rejalashtirish, ekologik jarayonlar.

Geologiya va tog'-kon sanoati sohasi. GIS yordamida, omonat tarkibini qidirishning qidiruv burg'ulash va modellashtirish namunalari asosida foydali qazilmalar zaxirasini hisoblash mumkin bo'ldi.

#### *Keyingi rivojlanish*

70-yillardan. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi sababli GIS-dan foydalanish, transport, transport harakati va boshqalarni ishlatish va boshqalarni iste'mol qilish tizimida eksperimental loyihalar tufayli.

80-yillardan. Taraqqiyot davri tijorat asosida boshlandi. Bozor ommaviy mahsulot massasi bilan to'ldirilgan, barcha turdagi arizalar, GIS texnologiyasining qaysi mutaxassislaridan oshib ketgan foydalanuvchilar soni paydo bo'ldi.

User, ishlab chiqaruvchilarning muhitidagi yuqori raqobat tufayli, ishlab chiqaruvchilarning tematik guruhlarini tashkil etish, telekonferentsozlik, telekonferalash, birlashtirilgan jahon geologik tuzilishini tashkil etish mumkin bo'lgan davrda.



### *GIS istiqbollari*

GIS rivojlanishida evolyutsiyaning yangi bosqichi hozircha hamma joyda talab qilinadigan geodizisning paydo bo'lishi, shuningdek, yangi infratuzilma va qurilish ob'ektlarini rejalashtirishdan oldin, shuningdek, yordamchi dasturni rejalashtirishdan oldin, erdan foydalanish va tabiiy xavfsizlik sohasidan, shuningdek, yordamchi dasturni rejalashtirishdan oldin tarmoqlar va boshqalar.

Kelajak sun'iy intellektni o'z ichiga olgan GIS texnologiyalariga tegishli. Zamonaviy GIS - bu global hukumat dasturlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan kosmos va aviatsiya fotosuratlaridan foydalanish asosida eng so'nggi kompyuterni ishlab chiqish.

Hozirgi kunda GIS tizimlari misli ko'rilmagan stavkalarni ishlab chiqmoqdalar va tijorat rejasida eng qiziqarli echimlardan biri hisoblanadi. Rossiyada, bizning kunlarimizda 200 ga yaqin tashkilotlar o'zlarining rivojlanish va amalga oshirilishi bilan shug'ullanadi, bu esa G'arbiy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat haqida gapirishimizga imkon beradi. Boshqa hech kim sir emaski, yangi texnologiyalar yanada rivojlanishga asoslangan [kompyuter vositalari](#) Axborotni qayta ishlash.

## **15-mavzu. Tarmoqda axborot xavfsizligi va axborotlarni himoyalash usullari.**

### **Reja:**

- 1.1. Kiberxavfsizlikning fundamental tushunchalari.
- 1.2. Kiberxavfsizlik siyosati va uni boshqarish.
- 1.3. Xavf-xatarlarni boshqarish.
- 1.4. Hujum intsidentlari va ularga qarshi reaksiya.

### **1.1. Kiberxavfsizlikning fundamental tushunchalari.**

**Axborot xavfsizligi** deb, ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossali tasodifiy va qasddan ta'sirlardan xar qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi.

**Axborotning himoyasi** deb, boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitligi, ishonchligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi.

**Kiberxavfsizlik** hozirda kirib kelgan yangi tushunchalardan biri bo'lib, unga turli berilgan turli ta'riflar mavjud.

• Xususan, **CSEC2017 Joint Task Force (CSEC2017 JTF)** kiberxavfsizlikka quyidagicha ta'rif bergan: **kiberxavfsizlik** – hisoblashga asoslangan bilim sohasi bo'lib, buzg'unchilar mavjud bo'lgan sharoitda amallarni kafolatlash uchun o'zida texnologiya, inson, axborot va jarayonni mujassamlashtirgan.

• U xavfsiz kompyuter tizimlarini yaratish, amalga oshirish, tahlil qilish va testlashni **o'z ichiga oladi**.

• Kiberxavfsizlik ta'limning **mujassamlashgan** bilim sohasi bo'lib, qonuniy jixatlarni, siyosatni, inson omilini, etika va risklarni boshqarishni **o'z ichiga oladi**.

• Tarmoq bo'yicha faoliyat yuritayotgan **Cisco** tashkiloti esa kiberxavfsizlikka quyidagicha ta'rif bergan: **Kiberxavfsizlik** – tizimlarni, tarmoqlarni va dasturlarni raqamli hujumlardan himoyalash amaliyoti.

• Ushbu kiberhujumlar odatda **maxfiy axborotni boshqarish, almashtirish yoki yo'q qilishni; foydalanuvchilardan pul undirishni; yoki normal ish faoliyatini uzub qo'yishni maqsad qiladi**.


• Hozirgi kunda samarali kiberxavfsizlik choralarini amalga oshirish **insonlarga qaraganda qurilmalar sonining ko'pligi va buzg'unchilar salohiyatini ortishi natijasida amaliy tomondan murakkablashib** bormoqda.



1.1-rasm. Kiberxavfsizlik kimlarga kerak.


Kiberxavfsizlikni **fundamental terminlarini** qarab chiqamiz:

- **Konfidentsiallik**
  - Tizim ma’lumoti va axborotiga faqat **vakolatga ega sub’ektlar** foydalanishi mumkinligini ta’minlovchi qoidalar.
  - Mazkur qoidalar axborotni faqat qonuniy foydalanuvchilar tomonidan “**o’qilishini**” ta’minlaydi.
- **Yaxlitlik (butunlik)**
  - Ma’lumotni aniq va ishonchli ekanligiga ishonch hosil qilish.
  - Ya’ni, axborotni ruxsat etilmagan o’zgartirishdan yoki “**yozish**” dan himoyalash.
- **Foydalanuvchanlik**
  - Ma’lumot, axborot va tizimdan foydalanishning mumkinligi.
  - Ya’ni, ruxsat etilmagan “**bajarish**” dan himoyalash.



1.2-rasm. Kiberxavfsizlikning bilim sohalari.

- “**Ma’lumotlar xavfsizligi**” bilim sohasi **ma’lumotlarni saqlashda, qayta ishlashda va uzatishda** himoyani ta’minlashni maqsad qiladi.
  - Mazkur bilim sohasi himoyani to’liq amalga oshirish uchun **matematik** va **analitik algoritmlardan** foydalanishni talab etadi.
- “**Dasturiy ta’minotlar xavfsizligi**” bilim sohasi foydalanilayotgan tizim yoki axborot xavfsizligini ta’minlovchi **dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish** va **foydalanish jarayoniga** e’tibor qaratadi.
  - “**Tashkil etuvchilar xavfsizligi**” bilim sohasi katta tizimlarda integrallashgan tashkil etuvchilarni **loyihalash, sotib olish, testlash, analiz qilish** va **texnik xizmat ko’rsatishga** e’tibor qaratadi.
    - Tizim xavfsizligi tashkil etuvchilar xavfsizligidan farq qiladi.
    - Tashkil etuvchilar xavfsizligi ular *qanday loyihalanganligi, yaratilganligi, sotib olinganligi, boshqa tarkibiy qismlarga ulanganligi, qanday ishlatilganligi* va *saqlanganligiga* bog’liq.
  - “**Aloqa xavfsizligi**” bilim sohasi tashkil etuvchilar o’rtasidagi **aloqani himoyalashga** etibor qaratib, o’zida *fizik va mantiqiy* ulanishni birlashtiradi.
  - “**Tizim xavfsizligi**” bilim sohasi **tashkil etuvchilar, ulanishlar** va **dasturiy ta’minotdan** iborat bo’lgan tizim xavfsizligining jihatlariga e’tibor qaratadi.
    - Tizim xavfsizligini tushunish uchun nafaqat, *uning tarkibiy qismlari va ulanishini tushunishni*, balki *butunlikni* hisobga olishni talab qiladi.
  - “**Inson xavfsizligi**” bilim sohasi *kiberxavfsizlik bilan bog’liq inson hatti harakatlarini o’rganishdan* tashqari, *tashkilotlar (masalan, xodim) va shaxsiy hayot sharoitida shaxsiy ma’lumotlarni va shaxsiy hayotni himoya qilishga* e’tibor qaratadi.
  - “**Tashkilot xavfsizligi**” bilim sohasi tashkilotni *kiberxavfsizlik tahdidlaridan himoyalash* va *tashkilot vazifasini muvaffaqiyatli bajarishini* madadlash uchun risklarni boshqarishga e’tibor qaratadi.
  - “**Jamoat xavfsizligi**” bilim sohasi u yoki bu darajada jamiyatda ta’sir ko’rsatuvchi kiberxavfsizlik omillariga e’tibor qaratadi.
    - *Kiberjinoyatchilik, qonunlar, axloqiy munosabatlar, siyosat, shaxsiy hayot va ularning bir-biri bilan munosabatlari* ushbu bilim sohasidagi asosiy tushunchalar.




1.3-rasm. Xavfsizlik muammolari.


### 1.2. Kiberxavfsizlik siyosati va uni boshqarish.

Kiberxavfsizlik kontsepsiyasi – axborot xavfsizligi muammosiga rasmiy qabul qilingan qarashlar tizimi va uni zamonaviy tendentsiyalarni hisobga olgan holda echish yo'llari.

Kontsepsiyani ishlab chiqishni uch bosqichda amalga oshirish tavsiya etiladi.



1.4-rasm. Axborot ximoyasi kontsepsiyasini ishlab chiqish bosqichlari



1.5-rasm. Kiberxavfsizlik kontseptsiyasi sxemasi.

**Kiberxavfsizlik siyosati** bu – tashkilotning maqsadi va vazifasi hamda xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi chora-tadbirlar tavsiflanadigan yuqori sathli reja hisoblanadi.

U xavfsizlikni ta'minlashning barcha dasturlarini rejalashtiradi.

Axborot xavfsizligi siyosati tashkilot masalalarini echish himoyasini yoki ish jarayoni himoyasini ta'minlashi shart.

Apparat vositalar va dasturiy ta'minot ish jarayonini ta'minlovchi vositalar hisoblanadi va ular xavfsizlik siyosati tomonidan qamrab olinishi shart.

**Tashkilotning amaliy xavfsizlik siyosati qo'yidagi bo'limlarni o'z ichiga olishi mumkin:**

- umumiy nizom;
- parollarni boshqarish siyosati;
- foydalanuvchilarni identifikatsiyalash;
- foydalanuvchilarning vakolatlari;
- tashkilot axborot kommunikatsion tizimini kompyuter viruslardan himoyalash;
- tarmoq ulanishlarini o'rnatish va nazoratlash qoidalari;
- elektron pochta tizimi bilan ishlash bo'yicha xavfsizlik siyosati qoidalari;
- axborot kommunikatsion tizimlar xavfsizligini ta'minlash qoidalari;
- foydalanuvchilarning xavfsizlik siyosatini qoidalarini bajarish bo'yicha majburiyatlari va h.k.lar

### 1.3. Xavf-xatarlarni boshqarish.

**Kiberxavfsizlik risklarini aniqlashning umumiy tavsifini** qrab chiqamiz. Risk nomaqbul voqea - hodisadan kelib chiqadigan oqibatlar va voqea-hodisa yuzaga kelishi ehtimolligi birikmasini o'zida ifodalaydi. Risklarni aniqlash miqdor yoki sifat jihatdan risklarni tavsiflaydi va rahbarlarga qabul qilinadigan jiddiylikka yoki boshqa o'rnatilgan mezonlarga ko'ra ustuvorliklarga muvofiq risklarni joylashtirish imkoniyatini beradi.

**Riskni aniqlash quyidagi tadbirlardan iborat:**



- risklarni aniqlash;
- risklarni identifikatsiya qilish;
- risklarni tahlil qilish;
- risklarni baholash.

**Risklarni aniqlash** axborot aktivlarining ahamiyatini belgilaydi, mavjud (yoki mavjud bo'lishi mumkin) qo'llaniladigan tahdidlar va zaifliklarni identifikatsiya qiladi, mavjud boshqarish vositalarini va ularning identifikatsiya qilingan risklarga ta'sirini identifikatsiya qiladi, potentsial oqibatlarni aniqlaydi va nihoyat, ustuvorliklarga muvofiq, muayyan risklarni joylashtiradi va kontekstni o'rnatishda aniqlangan risklarni baholash mezonlari bo'yicha ularni tasniflaydi. Riskni aniqlash ko'pincha ikki (yoki undan ko'p) iteratsiyadan foydalanib o'tkaziladi.

Risklarni aniqlashning maqsad va vazifalari asosida risklarni aniqlashga o'z yondashuvini tanlash tashkilotning o'ziga bog'liq.

Aktivlarning bahosi, oqibatlarining har bir turiga taalluqli bo'lgan zaifliklar va tahdidlarning darajalari, har bir kombinatsiya uchun 0 dan 8 gacha bo'lgan shkala asosida riskning tegishli o'lchovini identifikatsiyalash maqsadida, jadval shakliga (matritsaga) keltiriladi (1.1 (a)-jadval). Qiymatlar matritsaga strukturalangan tarzda kiritiladi.

1.1(a)-jadval.

*Risklar o'lchovlarini identifikatsiyalash matritsasi*

	Tahdidning yuzaga kelish ehtimolligi	Past (P)			O'rta (O')			Yuqori (Yu)		
	Foydalanishning soddaligi	P	O'	Yu	P	O'	Yu	P	O'	Yu
Aktiv bahosi	0	0	1	2	1	2	3	2	3	4
	1	1	2	3	2	3	4	3	4	5
	2	2	3	4	3	4	5	4	5	6
	3	3	4	5	4	5	6	5	6	7
	4	4	5	6	5	6	7	6	7	8

Har bir aktiv uchun o'rinli zaifliklar va ularga mos keladigan tahdidlar ko'rib chiqiladi. Agar tegishlicha tahdidsiz zaiflik yoki tegishlicha zaifliksiz tahdid mavjud bo'lsa, hozirgi paytda risk yo'q (lekin, bu vaziyat o'zgarganda ehtiyotkorlik ko'rsatish kerak). Jadvaldagi tegishli satr aktiv bahosining qiymati bo'yicha, tegishli ustun esa, tahdidning yuzaga kelish ehtimolligi va foydalanishning soddaligi bo'yicha belgilanadi. Masalan, agar aktiv 3 bahoga ega bo'lsa, tahdid «yuqori», zaiflik esa, «past» bo'ladi, u holda risk o'lchovi 5 ga teng bo'ladi. Aktiv 2 bahoga ega deb, va masalan, o'zgartirish uchun tahdid darajasi «past», foydalanishning soddaligi esa «yuqori» bo'ladi deb taxmin qilamiz, u holda risk o'lchovi 4 ga teng bo'ladi. Jadvalning o'lchami, tahdidlar ehtimolligi toifalarining, foydalanishning soddaligi toifalarining soni hamda aktivlar bahosini aniqlash toifalarining soni nuqtai nazaridan, tashkilotning ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin.

Risklarning berilgan shkalasi quyidagicha oddiy umumiy reytingi uchun ham aks ettirilishi mumkin:

- past risk: 0-2;
- o'rta risk: 3-5;
- yuqori risk: 6-8.

1.1(b)- jadval.

*Risklar umumiy reytingining matritsasi*

	Intsident stsenariysi ehtimolligi	Juda past (ehtimolligi juda kam)	Past (ehtimolligi kam)	O'rtacha (mumkin bo'lgan)	Yuqori (ehtimolligi bo'lgan)	Juda yuqori (tez-tez uchrab turadigan)
Aktiv bahosi	Juda past	0	1	2	3	4
	Past	1	2	3	4	5
	O'rtacha	2	3	4	5	6

	Yuqori	3	4	5	6	7
	Juda yuqori	4	5	6	7	8

**Risklarni identifikatsiya qilishdan** maqsad, potentsial zarar etkazadigan ehtimoliy intsidentlarni prognozlash va bu zarar qay tarzda olinishi mumkinligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish hisoblanadi. Quyida tavsiflangan qadamlar risklarni tahlil qilish bo'yicha tabdirlar uchun kirish ma'lumotlarini aniqlaydi.

Risklarni identifikatsiya qilishdan maqsad, potentsial zarar etkazadigan ehtimoliy intsidentlarni prognozlash va bu zarar qay tarzda olinishi mumkinligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish hisoblanadi. Quyida tavsiflangan qadamlar risklarni tahlil qilish bo'yicha tabdirlar uchun kirish ma'lumotlarini aniqlaydi.

**Aktivlarni aniqlashda** axborot tizimi faqat apparat va dasturiy vositalardan iborat emasligini nazarda to'tish kerak. Aktivlarni aniqlash risklarni baholash uchun etarli axborot ta'minlanadigan tegishli detallashtirish darajasida amalga oshirilishi zarur. Aktivlarni aniqlashda foydalaniladigan detallashtirish darajasi risklarni baholash vaqtida to'plangan axborotning umumiy hajmiga ta'sir etadi. Bu daraja risklarni baholashning keyingi iteratsiyalarida yanada detallashtirilishi mumkin.

#### 1.4. Hujum intsidentlari va ularga qarshi reaksiya.

##### *Kiberxavfsizlik sohasidagi faktlar:*

1. Kuchli parol ko'p hujumlarni bartaraf etishi mumkin.
2. Yangi vosita (dasturiy-apparat) xavfsiz hisoblanmaydi.
3. Eng yaxshi dasturiy vositalar zaifliklarni o'z ichiga oladi.
4. Bulutli texnologiya to'liq xavfsiz emas.
5. Xakeralar-bular hama vaqt ham jinoyatchi emas.

Kompyuter va kompyuter tarmoqlarida **kompyuter xavfsizligi intsidentlarini boshqarish** o'z ichiga monitoring va xavfsizlik hodisa-voqealarini, hamda bu hodisa-voqealarga to'g'ri javoblarni qaytarishni qamrab oladi. Intsidentni boshqarish dastur hisoblanib ma'lum bir jarayonni aniqlab beradi va amalga oshiradi.

**Hodisa** - shaxs yoki ishchi jarayonni, jarayonni, o'rab olgan muxit va tizimni normal holatini o'zgartirishni nazorat etishdir.

##### *Hodisaning uchta asosiy turi mavjud:*

**Normal.** Normal hodisa kritik komponentalarga ta'sir qilmaydi yoki ko'rsatma (rezolyutsiya)ni boshlanishidan oldin o'zgartirishni nazorat etishni talab qiladi.

**Hodisalarni kengayishi va ko'payishi (Eskalatsiya).** Hodisalarni ko'payishi tizimga jiddiy ta'sir ko'rsatadi yoki amalga oshirilgan ko'rsatma (rezolyutsiya) o'zgartirishni nazorat etish jarayonini kuzatishini ta'minlab berishi shart.

**Avariyaviy hodisa.** Avariya hodisa shaxs xavfsizligi va sog'ligiga ta'sir ko'rsatadi.

**Intsident** - bu standart operatsiyalar qatoriga qo'shilmaydigan hamda xizmat holatini uzib qo'yish yoki xizmat sifati yomonlashishi holatlariga olib keladigan har qanday hodisaga aytiladi.

**Intsidentga javob qaytarish guruhi.** Xavfsizlik intsidenti koordinatori intsidentga javob qaytarish jarayonini boshqaradi va komandani to'plash uchun javobgar shaxsdir. Koordinator komandani tashkil etib, tashkil etilgan komanda o'z ichiga intsidentni baholovchi va qaror qabul qiluvchi shaxslarni qamrab oladi.

**Intsidentni tergov qilish** - bu intsident holatini tergov qilish harakatidir. Har bir intsident tergov etishni talab qilishi yoki unga kafillik berishi kerak bo'ladi. Shu bilan birga tergov qilinadigan resurslar, ya'ni tibbiy vositalar, nomunosib tarmoqlar va karantin qilingan tarmoqlar favqulodda intsidentlarga tez va samarali ruxsat berish uchun foydali hisoblanadi.


**Intsidentga javob qaytarish** - bu xavfsizlikni buzilish ketma-ketligi yoki hujumni boshqarish va echish uchun ishlab chiqilgan usuldur. Buning maqsadi vaziyatni to'g'rilash, ya'ni tizimni buzilishini cheklash va buzilgan tizimni tiklash vaqti va mablag'ini kamaytirishdir.

##### **Intsident boshqaruvchisini vazifalari va majburiyatlari:**

- munosib vakolatlardan foydalanish uchun har qanday avariya G' nosozliklarni bilish;
- etarli axborot yig'ish va tizimni tahlil etish uchun qayta tiklaydigan komandani shakllantirish;
- intsidentni umumiy holatini saqlash;
- funktsional imkoniyatlarni bilish (Core Network);
- komandani yuqori sathga ko'tarish (prioritet berish) uchun qo'llanmadan foydalanish.

## Hujum intsidentlarini boshqarish tizimi

Tashkilot faoliyatida axborotni himoyalash uchun qo'yidagi modelni keltirish mumkin: **ITRM**. Bu model 4ta jarayonni o'z ichiga oladi. Bular:



1.6-rasm. ITRM modeli.

Keltirilgan 4 ta jarayon ham tanqidiy (kritik) muhim hisoblanadi. Tizimda bu jarayonlarning birortasini yo'qligi yoki yaxshi ishmasligi korxonaga yoki tashkilot axborot resurslari himoyalanganligiga katta zarar etkazadi. Axborot xavfsizligi intsidentlarni boshqarishda bu jarayonlarning ichidan faqat monitoring jarayonini ko'proq kuzatish mumkin.

Ko'p tashkilot va korxonalarda **axborot xavfsizligi intsidentlarni boshqarish jarayoni** quyidagicha quriladi:

- kompyuter intsidenti haqida axborot olish;
- qoidabuzarlik aniqlangan holatlarda qo'shimcha axborot olish;
- holatni tahlil etish;
- sabablarni aniqlash;
- profilaktik tadbirlar o'tkazish.

*Intsidentlarini boshqarish jarayoni samaradorligi qo'yidagilarga bog'liqdir:*

- axborot xavfsizligi intsidentini boshqarish jarayonida jalb etilgan shaxslarning tizimni boshqarishni yaxshi bilishi;
- intsident bilan bog'liq axborotni tahlil etish va olish imkoniyatlarning borligi;
- olingan natijalarning haqiqiyliги.

**Intsidentni boshqarish tizimini qurish kontseptsiyasi va strukturasi** qarab chiqamiz.

Axborot xavfsizligi intsidentini boshqarish tizimi arxitekturasini quyidagi asosiy komponentalarni o'z ichiga oladi:

1. Integrallashgan platforma.
2. Audit va monitoringni apparat-dasturiy vositalari.
3. Axborotni himoyalashning apparat-dasturiy vositalari.
4. Axborot xavfsizligi intsidentlari haqida axborot ombori.
5. Hisobotlarni generatsiyalash vositalari va analitik asboblari.
6. Vositalarni boshqarish va interfeysni to'g'rilash.

**Integrallashgan platforma** tizimning yadrosi hisoblanadi. Bu tizim tuzilishidagi hamma komponentalarni bitta umumiy funktsiyaga bog'lab beradi.

Integrallashgan platforma qo'yidagilardan tarkib topgan:

1. Ma'lumotlarni yig'ishni ta'minlovchi monitoring va audit vositalari uchun interfeys.
2. Axborot xavfsizligi intsidentlari oqibatini lokalizatsiyalash maqsadida konfiguratsiyani tezkor o'zgartirishdagi axborot himoyasi vositalari interfeysi
3. Hisobotlarni generatsiyalash vositalari va analitik funktsiyalardan foydalanishdagi xizmatlar.

**Audit va monitoringni apparat-dasturiy vositalari** - tashkilot axborot tizimini qayta ishlash, yig'ish va protokollashtirishni amalga oshiruvchi vositalardir. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: o'rnatilgan vositalar (ilovalar, operatsion tizim vositalari, tarmoq qurilmalari, himoya vositalari va


автоматлаштирилган тизимлар) ва maxsus vositalar (audit, xavfsizlik skanerlari, dasturiy agentlar, sensorlar, axborot yig'uvchi qurilmalar).



1.7-rasm. Audit va monitoringni apparat-dasturiy vositalari.

***Axborotni himoyalashning apparat-dasturiy vositalari:***

1. Firewalls
2. IDSG'IPS
3. Switch Level 3
4. Axborot xavfsizligini ta'minlash usul va vositalari (dasturiy vositalar).



## **Криптограfiяning asosiy tushunchalari. Tarmoq xavfsizligi zaiflikalari va ularga bo'lgan tahdidlar**

### **Reja:**


- 2.1. Kriptografiyaning asosiy tushunchalari.
- 2.2. Tarmoq xavfsizligi zaifliklari va ularga bo'lgan tahdidlar.

**Tayanch iboralar:** *shifr, kriptotizm, kalit, kriptozanaliz, kriptografiya, simmetrik shifr, assimetrik shifr, stenografiya, xesh funktsiya, tarmoq xavfsizligi zaifliklari, skaynerlar.*

### **2.1. Kriptografiyaning asosiy tushunchalari.**

*Shifr yoki kriptotizm ma'lumotni shifrlash uchun foydalaniladi. Haqiqiy shifrlanmagan ma'lumot ochiq matn deb atalib, shifrlashning natijasi shifrmavn deb ataladi. Haqiqiy ma'lumotni qayta tiklash uchun shifrmavnni deshifrlash zarur bo'ladi. Kalit kriptotizmni shifrlash va deshifrlash uchun sozlashda foydalaniladi. Kriptotizmning "qora quti" sifatidagi ko'rinishi rasmda keltirilgan.*





2.1-rasm. Kriptotizimning “qora quti” sifatidagi ko’rinishi.

*Axborotni himoyalash uchun kodlashtirish va kriptografiya usullari qo’llaniladi.*

**Kodlashtirish** deb, axborotni bir tizimdan boshqa tizimga ma’lum bir belgilar yordamida belgilangan tartib bo’yicha o’tkazish jarayoniga aytiladi.

**Kriptografiya** deb maxfiy xabar mazmunini shifrlash, ya’ni ma’lumotlarni maxsus algoritm bo’yicha o’zgartirib, shifrlangan matnni yaratish yo’li bilan axborotga ruxsat etilmagan kirishga to’siq qo’yish usuliga aytiladi.

**Kalit**- matnni shifrlash va shifrini ochish uchun kerakli axborot.

**Kriptoanaliz** - kalitni bilmasdan shifrlangan matnni ochish imkoniyatlarini o’rganadi.

*Kriptografiya himoyasida shifrlarga nisbatan quyidagi talablar qo’yiladi:*

- etarli darajada kriptobardoshlilik;
- shifrlash va qaytarish jarayonining oddiyliigi;
- axborotni shifrlash oqibatida ular hajmining ortib ketmasligi;
- shifrlashdagi kichik xatolarga tasirchan bo’lmasligi.

Shifrlash va deshifirlash masalalariga tegishli bo’lgan, ma’lum bir *alfavitda* tuzilgan ma’lumotlar *matnlarni* tashkil etadi. *Alfavit* - axborotlarni ifodalash uchun foydalaniladigan chekli sondagi belgilar to’plami. Misollar sifatida:


- o’ttiz oltita belgidan (harfdan) iborat o’zbek tili alfaviti;
- o’ttiz ikkita belgidan (harfdan) iborat rus tili alfaviti;
- yigirma sakkizta belgidan (harfdan) iborat lotin alfaviti;
- ikki yuzi ellik oltita belgidan iborat ASSII kompyuter belgilarining alfaviti;
- binar alfavit, ya’ni 0 va 1 belgilardan iborat bo’lgan alfavit;
- sakkizlik va o’n oltilik sanoq sistemalari belgilaridan iborat bo’lgan alfavitlarni keltirish mumkin.

**Simmetrik** shifrlarda ma’lumotni shifrlash va deshifrlash uchun bir xil kalitdan foydalaniladi.




2.2-rasm. Simmetrik kalit.

Bundan tashqari *ochiq kalitli (assimetrik)* kriptotizimlar mavjud bo'lib, unda shifrlash va deshifrlash uchun ikkita kalitdan foydalaniladi.



2.3-rasm. Assimetrik kalit.

**Stenanografiya** – bu maxfiy xabarni soxta xabar ichiga berkitish orqali aloqani yashirish hisoblanadi. Boshqa soʻz bilan aytganda steganografiyaning asosiy gʻoyasi – bu maxfiy maʼlumotlarning mavjudligi haqidagi shubhani oldini olish hisoblanadi.



2.4-rasm. Stenografiya.

**Xesh funktsiya** deb ixtiyoriy uzunlikdagi (bit yoki bayt birliklarida) ma'lumotni biror fiksirlangan uzunlikdagi (bit yoki bayt birliklarida) qiymatga o'tkazuvchi funktsiyaga aytiladi.

Kriptografiyada xesh funktsiyalar quyidagi masalalarni hal qilish uchun ishlatiladi:

- ma'lumotni uzatishda yoki saqlashda uning to'laligini nazorat qilish uchun;
- ma'lumotning manbaini autentifikatsiya qilish uchun.


Ma'lumotni xeshlash uning butunligini kafolatlash maqsadida amalga oshirilib, agar ma'lumot uzatilish davomida o'zgarishga uchrasa, u holda uni aniqlash imkoni mavjud bo'ladi. Xesh-funktsiyalarda odatda kiruvchi ma'lumotning uzunligi o'zgaruvchan bo'lib, chiqishda o'zgarmas uzunlikdagi qiymatni qaytaradi. Zamonaviy xesh funktsiyalarga MD5, SHA1, SHA256, O'z DSt 1106:2009 larni misol keltirish mumkin. Quyida "hello" xabarini turli xesh funktsiyalardagi qiymatlari keltirilgan:

- $MD5(\text{hello}) = 5d41402abc4b2a76b9719d911017c592$
- $SHA1(\text{hello}) = aaf4c61ddcc5e8a2dabede0f3b482cd9aea9434d$
- $SHA256(\text{hello}) = 2cf24dba5fb0a30e26e83b2ac5b9e29e1b161e5c1fa7425e73043362938b9824$

**Xesh funktsiya quyidagi xususiyatlarga ega:**

- a) Bir xil kirish har doim bir xil chiqishni (*xesh qiymat* deb ataladi) taqdim etadi.
- b) Bir qancha turli kirishlar bir xil chiqishni taqdim etmaydi.
- c) Chiqish qiymatdan kiruvchi qiymatni hosil qilishning imkoniyati mavjud emas (bir tomonlamalik).
- d) Kirish qiymatini o'zgarishi chiqishdagi qiymatni ham o'zgarishiga olib keladi.


**Xesh funktsiyaga misol**



Misol

- M q "Elvis"
- $H(M)$  q ("E" Q "L" Q "V" Q "I" Q "S") mod 26
- $H(M)$  q (5 Q 12 Q 22 Q 9 Q 19) mod 26

- $H(M) \text{ q } 67 \text{ mod } 26$
- $H(M) \text{ q } 15$



2.5. Xesh funktsiya sxemasi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, simmetrik kalitli va ochiq kalitli kriptotizimlar ma'lumotlarni maxfiylikni ta'minlashda foydalanilsa, xesh funktsiyalar esa ma'lumotni butunligini tekshirishda foydalaniladi.

## 2.2. Tarmoq xavfsizligi zaifliklari va ularga bo'lgan tahdidlar.

Kompyuter xavfsizligida **zaiflik** (angl. vulnerability) termini tizimning kam himoyalangan yoki ochiq joyini belgilashda ishlatiladi. Zaiflik dasturning xatosi yoki tizimni loyihalashda yo'l qo'yilgan kamchilik natijasi bo'lishi mumkin. Zaiflik yoki faqat nazariy mavjud bo'lishi yoki biror tahdidida foydalanilgan holatda mavjud bo'lishi mumkin. Zaiflik ko'p hollarda dasturchining beparvoligi natijasidir, biroq boshqa sabablar ham bo'lishi mumkin.

### *Zaifliklarni aniqlovchi tashkilotlar:*

1. COAST laboratoriyasi.
2. Protection Analysis Project.
3. RISOS.
4. Internet Security Systems.

### *Zaifliklar klassifikatsiyasi:*

1. Operatsion tizim zaifliklari.
2. Ilovalar zaifliklari.
3. Tarmoq zaifliklari.
4. Fizik zaifliklar.

**Xavfsizlik skanerlari klassifikatsiyasini** qarab chiqamiz.

### *1. Bahosi bo'yicha:*

- bepul — keng tarqalgan, testlanadigan uzellar soni chegaralanmagan;
- tijorat narxi — bunday skanerlarning litsenziya narxi yuzdan bir necha ming dollargacha etishi mumkin.

### *2. Arxitekturasi bo'yicha:*

- avtonom - o'zida mustaqil dasturiy ta'minotni mujassam etgan. Skanerlovchi modullar va zaifliklar ma'lumotlar bazasi dasturiy ta'minot distributiviga tegishli bo'lib, shaxsiy kompyuterlarda lokal saqlanadi;
- mijoz-server – distributivga mijoz va server qismi kiradi. Dasturiy ta'minot yoki yakuniy foydalanuvchi tizimning mijoz qismi bilan bog'langan bo'lib, u tarmoq usti interfeysini oddiy holda ta'minlaydi.

### *3. Chiqish kodi bo'yicha:*

- chiqish kodi ochiq – foydalanuvchi skaner modullari ishlashini baholash imkoniga ega bo'lib, zarur bo'lganda qo'shimcha o'zgartirishlar kiritishi mumkin;

- chiqish kodi yopiq – ma'lumki bunday vaziyat tijorat mahsulotlariga xarakterlidir. Qonuniy foydalanuvchi bunday xavfsizlik skanerlarining chiqish kodini modifikatsiyalash va tanishish imkoniyatidan mahrumdir.

#### **4. Foydalanish bo'yicha:**

- dasturiy;
- dasturiy-apparat.

#### **5. Qo'llanilish muhiti bo'yicha:**

- operatsion tizim skanerlari – operatsion tizim oilasiga xarakterli bo'lgan parametrlarni tahlillaydi:

- foydalanuvchilarning hisob yozuvi, sozlanishlar shabloni;
- zaifliklarini qidirish.

**Tarmoq skanerlari** – bu masofaviy yoki lokal tashxis dasturi bo'lib, u tarmoqning turli elementlarida har xil zaifliklarni aniqlaydi. Oddiy skanerlardan farqli o'laroq ular turli vositalar yordamida dasturiy ta'minot versiyasini aniqlaydi va o'zining bazasida ma'lum zaifliklar mavjudligini tekshirib, ularni zararsizlantirish uchun qisqacha qo'llanma va ta'rif keltiradi. Bundan tashqari zaifliklarning xavflilik darajasi haqida ham ma'lumot beradi. Tarmoq skanerlariga: port skanerlari (ochiq TCP va UDP portlarini qidiruvchi) va CGI skanerlari (WEB serverlarida zaif skriptlarni, direktoriylarni va WEB serverlar xatoliklarni skanerlaydi) kiradi.

**Tarmoqdagi zaifliklarni bartaraf etish yo'llari va vositalarini** qarab chiqamiz.

*Tarmoqdagi zaifliklarni bartaraf etish uchun tarmoq qurilmalarida turli ishlarni amalga oshirish mumkin:*

1. Port security.
2. Access lists.
3. Ma'lumotlarni shifrlab uzatish algoritmlarini yoqish.

Bundan tashqari turli trafik tahlillovchi tizimlarni ishlatishimiz, Kerio Control hamda Proxy serverlardan foydalanishimiz lozim, lekin bularning ham uziga yarasha kamchiliklari mavjud: Oddiy VPN bilan aldab ketish mumkin.

**Ilova skanerlari** – aniq MBBT, Web-brauzerlari va boshqa amaliy tizimlarga mo'ljallangan.

Ishlatilayotgan har bir ilovaning o'z chiqish porti mavjud bo'lib bu portlardan turli maqsadlarda foydalanish mumkin.



Application	Protocol	Port	DB Node	Cell Node	IB	DB ILOM	Cell ILOM	IB ILOM	KVM	PDU	Outgoing	Comment
SSH	TCP	SSH	22	✓	✓	✓	✓	✓	✓			
Telnet	TCP		23							✓		
SMTP	SMTP		25									
			465									• If using SSL
TFTP	UDP		69			✓	✓	✓				•
Web HTTP	TCP	HTTP	80			✓	✓	✓		✓		
NTP	NTP	NTP	123	✓	✓	✓	✓	✓				•
SNMP	UDP	SNMP	161			✓	✓	✓	✓	✓		
SNMP (out)	UDP	SNMP	162			✓	✓	✓				•
SNMP (out)	IPMI	SNMP	162			✓	✓	✓				• Outgoing IPMI Platform Event Trap (PET)
SNMP (out)	SNMP		162		✓	✓	✓	✓				• Telemetry messages sent to ASR Manager
LDAP	TCP/UDP	LDAP	389			✓	✓	✓				
Web	TCP	HTTPS	443			✓	✓	✓	✓	✓		
Syslog	UDP	Syslog	514			✓	✓	✓	✓	✓		• Outgoing Syslog
DHCP	UDP	DHCP	546			✓	✓	✓	✓	✓		• DHCP client
IPMI	UDP	IPMI	623			✓	✓	✓				
OEM	TCP	HTTPS	1159	✓	✓	✓	✓	✓				• OEM upload port
DB	TCP		1521	✓								Database listener
RADIUS	UDP	RADIUS	1812			✓	✓	✓				• Outgoing RADIUS
KVM	TCP		2068						✓			
OEM	TCP	HTTP	4889	✓	✓	✓	✓	✓				• OEM upload port
remote console	TCP		5120			✓	✓	✓				ILOM remote console: CD
remote console	TCP		5121			✓	✓	✓				ILOM remote console: keyboard and mouse
remote console	TCP		5123			✓	✓	✓				ILOM remote console: diskette
remote console	TCP		5555			✓	✓	✓				ILOM remote console: encryption
remote console	TCP		5556			✓	✓	✓				ILOM remote console: authentication
remote console	TCP	HTTP	6481			✓	✓	✓				Service tags listener for asset activation
remote console	TCP		7578			✓	✓	✓				ILOM remote console: video
remote console	TCP		7579			✓	✓	✓				ILOM remote console: serial
OEM Console	TCP	HTTP	7777	✓	✓							OEM HTTP console port
OEM Console	TCP	HTTPS	7799	✓	✓							OEM HTTPS console port

## Kompyuter viruslari, zararkunanda dasturlar va ulardan himoyalaniş mexanizmlari

### Reja:

1. Kompyuter virusi tushunchasi.
2. Kompyuter viruslari va ularning klassifikatsiyalari.
3. Viruslar bilan kurashish usullari va vositalari.

**Tayanch iboralar:** kompyuter viruslari, tarmoq viruslari; fayl viruslari; yuklama viruslar; kombinatsiyalangan viruslar, rezident viruslar; rezident bo'lmagan viruslar; talaba viruslar; «stels» viruslar (ko'rinmaydigan viruslar); polimorf viruslar, skanerlash; o'zgarishlarni bilib qolish; evristik taxlil; rezident qorovullardan foydalanish; programmani vaksinatsiyalash; viruslardan apparat-programm himoyalaniş.

### 1. Kompyuter virusi tushunchasi

«Kompyuter viruslari» - kompyuter tizimlarida tarqalish va o'z-o'zidan qaytadan tiklanish (replikatsiya) xususiyatlariga ega bo'lgan bajariluvchi yoki sharxlanuvchi kichik dasturlardir. Viruslar kompyuter tizimlarida saqlanuvchi dasturiy ta'minotni o'zgartirishi yoki yo'qotishi mumkin.

Ichida virus joylashgan dastur **zararlangan** deb ataladi. Bunday dastur o'z ishini boshlaganda, oldin boshqarishni virus o'z qo'liga oladi. Virus boshqa dasturlarni topadi va «zararlantiradi» hamda biror-bir zararli ishlarni (masalan, fayllarni yoki diskda fayllarni joylashish jadvalini buzadi, tezkor xotirani ishlash jarayonini pasaytiradi va h.k.) bajaradi. Virusni niqoblash uchun boshqa dasturlarni zararlantirish va zarar etkazish bo'yicha ishlar har doim ham emas, aytaulik ma'lum bir shartlar bajarilganda bajarilishi mumkin. Virus unga kerakli ishlarni bajargandan keyin u boshqarishni o'zi



joylashgan dasturga uzatadi va u dastur odatdagiday ishlay boshlaydi. Shu bilan birga tashqi ko'rinishdan zararlangan dasturning ishlashi zararlanmagandek kabi ko'rinadi.

Viruslarning ko'pgina ko'rinishlari shunday tuzilganki, zararlangan dastur ishga tushirilganda virus kompyuter xotirasida har doim qoladi va vaqti-vaqti bilan dasturlarni zararlantiradi va kompyuterda zararli ishlarni bajaradi.

Virusning barcha harakatlari etarlicha tez bajarilishi mumkin va biror-bir xabarni bermaydi, shuning uchun foydalanuvchi kompyuterda birorta odatdan tashqari ishlar bo'layotganini payqashi juda mushkuldir.

Kompyuterda nisbatan kam dasturlar zararlangan bo'lsa, virusning borligi deyarli sezilarsiz bo'ladi. Lekin vaqt o'tishi bilan kompyuterda qandaydir g'alati hodisalar ro'y bera boshlaydi, masalan:

- ba'zi dasturlar ishlashdan to'xtaydilar yoki noto'g'ri ishlaydi;
- ekranga begona xabar yoki belgilar chiqadi;
- kompyuterining ishlash tezligi sekinlashadi;
- ba'zi bir fayllar buzilib qoladi va h.k.

Bu vaqtga kelib, qoidaga ko'ra, foydalanuvchi ishlayotganda etarlicha ko'p (yoki hatto ko'pchilik) dasturlar viruslar bilan zararlangan, ba'zi bir fayl yoki disklar esa ishdan chiqqan hisoblanadi. Bundan tashqari, foydalanuvchi kompyuteridagi zararlangan dasturlar disketalar yordamida yoki lokal tarmoq bo'yicha foydalanuvchi hamkasblari va o'rtoqlarining kompyuteriga o'tib ketgan bo'lishi mumkin.

Viruslarning ba'zi bir ko'rinishlari o'zlarini yanada xavfliroq kirib tushadilar. Ular boshlanishda katta miqdordagi dasturlarni yoki diskarni bildirmasdan zararlantiradilar, keyin esa jiddiy shikastlanishlarini keltirib chiqaradi, masalan, kompyuterdagi butun qattiq diskni formatlaydi. Dastur – virus sezilarsiz bo'lishi uchun u katta bo'lmasligi kerak. Shuning uchun, qoidaga ko'ra, viruslar etarlicha yuqori malakali dasturlovchilar tomonidan Assembler tilida yoziladi.

Kompyuter viruslarini paydo bo'lishi va tarqatilishi sabablari, bir tomondan, inson shahsiyatining ruhiyatida va uning yomon xislatlarida yashirinadi (havaslar, qasos olishlar, tan olinmagan ijodkorlarning mansabparastligi, o'z qobiliyatlarini konstruktiv qo'llash imkoniyati yo'qligi), ikkinchi tomondan esa, himoya qilishning apparat vositalarini va shaxsiy kompyuterining operatsion tizimi tomonidan qarshi harakatlarning yo'qligi bilan bog'liqdir.

Viruslarni kompyuterga kirib olishining asosiy yo'llari olinadigan disklar (egiluvchan va lazerli) ham kompyuter tarmoqlari hisoblanadi. Qattiq diskni viruslar bilan zararlanishi kompyuterni virusni o'zida saqlagan disketadan yuklaganda amalga oshishi mumkin. Bunday zararlanish tasodifiy bo'lishi mumkin, masalan, disketani A diskovoddan chiqarib olmasdan va kompyuterni qayta yuklanganda, bunda disketa tizimli bo'lmasligi ham mumkindir. Disketani zararlantirish juda oddiyroqdir. Unga virus hattoki, agar disketani zararlangan kompyuter diskovodiga qo'yilganda va uning mundarijasini o'qilganda, tushish mumkin.

Zararlangan disk bu yuklanish sektorida dastur – virus joylashgan diskdir.

Virusni o'z ichiga olgan dastur ishga tushirilgandan keyin boshqa fayllarni zararlantirish mumkin bo'lib qoladi. Eng ko'proq viruslar bilan diskning yuklanadigan sektori va .EXE, .COM, .SYS yoki BAT kengaytmasiga ega bo'lgan fayllar zararlanadi. Kam matnli va grafikli fayllar kam zararlanadi.

Zararlangan dastur, bu unga tadbiiq qilingan dastur – virusni o'z ichiga olgan dasturdir. Kompyuter virusi bilan zararlanishda o'z vaqtida uni payqash juda muhimdir. Buning uchun viruslarni paydo bo'lishining asosiy belgilari to'g'risida bilimlarga ega bo'lish kerak. Ularga quyidagilar tegishli bo'lishi mumkin:

- oldin muvaffaqiyatli ishlagan dasturlarning ishlashdan to'xtashi yoki noto'g'ri ishlashi;
- kompyuterining sekin ishlashi;
- operatsion tizimni yuklash imkoni yo'qligi;
- fayl va kataloglarni yo'qolib qolishi yoki ularning mazmunini buzilishi;
- fayllarni o'zgartirilganlik sanasi va vaqtining o'zgarishi;
- diskda fayllar soni bexosdan juda oshib ketishi;
- bo'sh tezkor xotira o'lchamining jiddiy kamayishi;
- ekranga ko'zda tutilmagan xabarlarni yoki tasvirlarni chiqarish;
- ko'zda tutilmagan tovushli xabarlarni berish;
- kompyuter ishlashda tez-tez bo'ladigan osilib qolishlar va buzilishlar.

Ta'kidlash kerakki, yuqorida sanab o'tilgan hodisalar viruslarni kelib chiqishi bilan bo'lishi majburiy emas, boshqa sabablarning oqibatlarini ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun kompyuter holatini to'g'ri diagnostikalash har doim mushkuldir.

Kompyuter virusi kompyuterda mavjud bo'lgan disklardagi istalgan faylni etarlicha o'zgartirish va buzishi mumkin. Lekin fayllarning ba'zi bir turlarini virus «zararlantirishi» mumkin. Bu shuni bildiradiki, virus bu fayllarga «tadbiq» qilinishi mumkin, ya'ni ularni shunday o'zgartiradiki, ular virusni o'z ichida saqlaydi va bu virus ba'zi bir holatlarda o'zining ishini boshlashi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, dastur va hujjatlarning matnlari, ma'lumotlar bazasining axborotli fayllari, jadvalli protsessor jadvallari va boshqa shunga o'xshash fayllar virus bilan zararlanishi mumkin emas, bu fayllarni viruslar buzishi mumkin.

## 2. Kompyuter viruslari va ularning klassifikatsiyalari

Barcha kompyuter viruslari quyidagi alomatlarini bo'yicha klassifikatsiyalanishi mumkin:

- *yashash muhiti bo'yicha;*
- *yashash muhitining zaxarlanishi bo'yicha;*
- *zararkunandalik ta'sirning xavfi darajasi bo'yicha;*
- *ishlash algoritmi bo'yicha.*

**Yashash muhiti** bo'yicha kompyuter viruslari quyidagilarga bo'linadi:

- *tarmoq viruslari;*
- *fayl viruslari;*
- *yuklama viruslar;*
- *kombinatsiyalangan viruslar.*

*Fayl viruslari* bajariluvchi fayllarga turli usullar bilan kiritiladi (eng ko'p tarqalgan viruslar xili), yoki fayl yo'ldoshlari (kompan'on viruslar) yaratadi yoki faylli tizimlarni (linkviruslar) tashkil etish xususiyatidan foydalanadi.

*Yuklama viruslar* o'zini diskning yuklama sektoriga (boot sektoriga) yoki vintchesterning tizimli yuklovchisi (Master Boot Record) bo'lgan sek torga yozadi. Yuklama viruslar tizim yuklanishida boshqarishni oluvchi dastur kodi vazifasini bajaradi.

*Makroviruslar* axborotni ishlovchi zamonaviy tizimlarning makro dasturlarini va fayllarini, xususan MicroSoft Word, MicroSoft Excel va h. kabi ommaviy muharrirlarning fayl hujjatlarini va elektron jadvallarini zaharlaydi.

*Tarmoq viruslari* o'zini tarqatishda kompyuter tarmoqlari va elektron pochta protokollari va komandalaridan foydalanadi. Ba'zida tarmoq viruslarini "qurt" xilidagi dasturlar deb yuritishadi. Tarmoq viruslari Internet qurtlarga (Internet bo'yicha tarqaladi), IRCqurtlarga (chatlar, Internet Relay Chat) bo'linadi.

**Yashash muhitining zaxarlanishi** usuli bo'yicha kompyuter viruslari quyidagilarga bo'linadi:

- *rezident;*
- *rezident bo'lmagan;*

**Rezident** viruslar faollashganlaridan so'ng to'raligicha yoki qisman yashash muhitidan (tarmoq, yuklama sektori, fayl) hisoblash mashinasining asosiy xotirasiga ko'chadi. Bu viruslar, odatda, faqat operatsion tizimga ruxsat etilgan imtiyozli rejimlardan foydalanib yashash muhitini zaxarlaydi va ma'lum sharoitlarda zararkunandalik vazifasini bajaradi.

**Rezident bo'lmagan** viruslar faqat faollashgan vaqtlarida hisoblash mashinasining asosiy xotirasiga tushib, zaxarlash va zararkunandalik vazifalarini bajaradi. Keyin bu viruslar asosiy xotirani butunlay tark etib yashash muhitida qoladi. Agar virus yashash muhitini zaxarlamaydigan programmani asosiy xotiraga joylashtirsa bunday virus rezident bo'lmagan virus deb hisoblanadi.

Foydalanuvchining informatsion resurslari uchun xavf darajasi bo'yicha kompyuter viruslarini quyidagilarga ajratish mumkin:

- *beziyon viruslar;*
- *xavfli viruslar;*
- *juda xavfli viruslar;*

Yashash makonini o'zgartirmaydigan viruslar o'z navbatida ikkita guruhga ajratilishi mumkin.

• viruslar-«yo'ldoshlar» (companion). Viruslar-«yo'ldoshlar» fayllarni o'zgartirmaydi. Uning ta'sir mexanizmi bajariluvchi fayllarning nusxalarini yaratishdan iboratdir.

• Viruslar-«qurtlar» tarmoq orqali ishchi stantsiyaga tushadi, tarmoqning boshqa abonentlari bo'yicha virusni jo'natish adreslarini hisoblaydi va virusni uzatishni bajaradi.

Algoritmning murakkabligi, mukammal darajasi va yashirinish xususiyatlari bo'yicha yashash makonini o'zgartiradigan viruslar quyidagilarga bo'linadi:

- *talaba viruslar;*

- «stels» viruslar (ko'rinmaydigan viruslar);
- polimorf viruslar.

**Talaba-viruslar** malakasi past yaratuvchilar tomonidan yaratiladi. Bunday viruslar, odatda, rezident bo'lmagan viruslar qatoriga kiradi, ularda ko'pincha xatoliklar mavjud bo'ladi, osongina taniladi va yo'qotiladi.

«Stels» viruslar malakali mo'taxasislar tomonidan yaryatiladi. «Stels»-viruslar operatsion tizimning shikastlangan fayllarga murojaatlarini ushlab qolish yo'li bilan o'zini yashash makonidagiligini yashiradi va operatsion tizimni axborotning shikastlanmagan qismiga yo'naltiradi. Virus rezident hisoblanadi, operatsion tizim programmalari ostida yashirinadi, xotirada joyini o'zgartirishi mumkin. «Stels» - viruslar rezident antivirus vositalariga qarshi ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga ega.

**Polimorf viruslar** ham malakali mo'taxasislar tomonidan yaratiladi, va doimiy tanituvchi guruxlar-signaturalarga ega bo'lmaydi. Oddiy viruslar yashash makonining zaxarlanganligini aniqlash uchun zaxarlangan ob'ektga maxsus tanituvchi ikkili ketma-ketlikni yoki simvollar ketma-ketligini (signaturani) joylashtiradi. Bu ketma-ketlik fayl yoki sektorning zaxarlanganligini aniqlaydi.

### 3. Viruslar bilan kurashish usullari va vositalari

Viruslar tarqalishining ommalashuvi, ular ta'siri oqibatlarining jiddiyligi virusga qarshi maxsus vositalarni va ularni qo'llash metodlarini yaratish zaruriyatini tug'dirdi. Virusga qarshi vositalar yordamida quyidagi masalalar echiladi:

- kompyuter tizimlarida viruslarni aniqlash;
- viruslar ta'siri oqibatlarini yo'qotish.

Kompyuter tizimlarida viruslarni aniqlashning quyidagi metodlari mavjud:

- skanerlash;
- o'zgarishlarni bilib qolish;
- evristik taxlil;
- rezident qorovullardan foydalanish;
- programmani vaktsinatsiyalash;
- viruslardan apparat-programm himoyalanih.

Viruslarga qarshi programmlar yordamida viruslar ta'siri oqibatlarini yo'qotishning ikki usuli mavjud.

**Birinchi usulga** binoan tizim ma'lum viruslar ta'siridan so'ng tiklanadi. Virusni yo'qotuvchi programmani yaratuvchi virusning stukturasi va uning yashash makonida joylashish xarakteristikalarini bilishi shart.

**Ikkinchi usul** noma'lum viruslar bilan zaxarlangan fayllarni va yuklama sektorini tiklashga imkon beradi. Fayllarni tiklash uchun tiklovchi programma fayllar xususidagi viruslar yo'qligidagi axborotni oldindan saqlashi lozim. Zaxarlanmagan fayl xususidagi axborot va viruslar ishlashining umumiy printsiplari xususidagi axborotlar fayllarni tiklashga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda viruslarni yo'qotish uchun ko'pgina usullar ishlab chiqilgan va bu usullar bilan ishlaydigan dasturlarni **antiviruslar** deb atashadi. Antiviruslarni, qo'llanish usuliga ko'ra, quyidagilarga ajratishimiz mumkin: detektorlar, faglar, vaktsinalar, privivkalar, revizorlar, monitorlar.

**Detektorlar** – virusning signaturasi (virusga taalluqli baytlar ketma-ketligi) bo'yicha operativ xotira va fayllarni ko'rish natijasida ma'lum viruslarni topadi va xabar beradi. Yangi viruslarni aniqlay olmasligi detektorlarning kamchiligi hisoblanadi.

**Faglar** – yoki doktorlar, detektorlarga xos bo'lgan ishni bajargan holda zararlangan fayldan viruslarni chiqarib tashlaydi va faylni oldingi holatiga qaytaradi.

**Vaktsinalar** - yuqoridagilardan farqli bo'lib, u himoyalaniyotgan dasturga o'rnatiladi. Natijada dastur zararlangan deb hisoblanib, virus tomonidan o'zgartirilmaydi. Faqatgina ma'lum viruslarga nisbatan vaktsina qilinishi uning kamchiligi hisoblanadi. Shu bois, ushbu antivirus dasturlar keng tarqalmagan.

**Privivka** - fayllarda xuddi virus zararlagandek iz qoldiradi. Buning natijasida viruslar privivka qilingan faylga yopishmaydi.

**Filtrlar** – qo'riqlovchi dasturlar ko'rinishida bo'lib, rezident holatda ishlab turadi va viruslarga xos jarayonlar bajarilganda, bu haqida foydalanuvchiga xabar beradi.

**Revizorlar** – eng ishonchli himoyalovchi vosita bo'lib, diskning birinchi holatini xotirasida saqlab, undagi keyingi o'zgarishlarni doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

Detektor dasturlar kompyuter xotirasidan, fayllardan viruslarni qidiradi va aniqlangan viruslar hakida xabar beradi.

Doktor dasturlari nafaqat virus bilan kasallangan fayllarni topadi, balki ularni davolab, dastlabki holatiga qaytaradi. Bunday dasturlarga Aidstest, DoctorWeb dasturlarini misol qilib keltirish mumkin. Yangi viruslarning to'xtovsiz paydo bo'lib turishini hisobga olib, doktor dasturlarni ham yangi versiyalari bilan almashtirib turish lozim.

Filtr dasturlar kompyuter ishlash jarayonida viruslarga xos bo'lgan shubhali harakatlarni topish uchun ishlatiladi.

Bu harakatlar quyidagicha bo'lishi mumkin :

- fayllar atributlarining o'zgarishi;
- disklarga doimiy manzillarda ma'lumotlarni yozish;
- diskning ishga yuklovchi sektorlariga ma'lumotlarni yozib yuborish.

Tekshiruvchi (revizor) dasturlari virusdan himoyalashning eng ishonchli vositasi bo'lib, kompyuter zararlanmagan holatidagi dasturlar, kataloglar va diskning tizim maydoni holatini xotirada saqlab, doimiy ravishda yoki foydalanuvchi ixtiyori bilan kompyuterning joriy va boshlang'ich holatlarini bir-biri bilan solishtiradi. Bu dasturga ADINF dasturini misol qilib keltirish mumkin.

Hozirgi kunda kompyuter viruslariga qarshi kurashga ixtisoslashgan kompaniyalar vujudga kelgan. Ular har kun, har soat mijozlarning kompyuteridagi mavjud viruslarni topib, ularni yo'q qiladigan antivirus dasturlarini yaratadilar. Hozirgi kunda kompyuter viruslariga qarshi kurashuvchi antivirus dasturlaridan eng asosiylari **KasperskyAnti-Virus (AVP) ScriptChecker, NortonAntivirus, DrWeb, Adinf, AVPlar** hisoblanadi. **KasperskyAnti-Virus** dasturi bugungi kunda kompyuter viruslarining 100000 dan ortiq turini aniqlaydi va davolaydi.

#### ***Kompyuter viruslaridan himoya qilish usullari***

Kompyuter viruslaridan himoya qilishning uchta chegarasi mavjuddir:

- viruslarning kirib kelishini bartaraf etish;
- agar virus baribir kompyuterga kirgan bo'lsa, virus hujumini bartaraf etish;
- agar hujum baribir amalga oshgan bo'lsa, buzuvchi oqibatlarini bartaraf etish.

Himoya qilishni amalga oshirishning uchta usuli mavjuddir:

- himoya qilishning dasturli usullari;
- himoya qilishning apparatli usullari;
- himoya qilishning tashkiliy usullari.

Muhim ma'lumotlarni himoya qilish masalasida ko'pincha maishiy yondashish ishlatiladi: «kasallikni davolagandan ko'ra uning oldini olgan yaxshiroq». Afsuski, aynan u eng buzuvchi oqibatlarni keltirib chiqaradi. Kompyuterga viruslarni kirib olish yo'lida barrikadalarini yaratib olib, ularning mustahkamligiga ishonib va buzuvchi hujumdan keyingi harakatlarga tayyor bo'lmasdan qolmaslik kerak. Shu bilan birga, virusli hujum, bu muhim ma'lumotlarni yo'qotishni yagona bo'lmagan hattoki keng tarqalmagan sababidir. Shunday dasturli uzilishlar mavjudki, ular operatsion tizimni ishdan chiqarishi mumkin hamda shunday apparatli uzilishlar borki, ular qattiq diskni ishlashga layoqatsiz qilib qo'yish qobiliyatiga egadirlar. O'g'irlash, yong'in yoki boshqa favqulodda holatlar natijasida muhim ma'lumotlar bilan birgalikda kompyuterni yo'qotish ehtimoli har doim ham mavjuddir. Shuning uchun xavfsizlik tizimini yaratishni birinchi navbatda «oxiridan» boshlash kerak – istalgan ta'sirni, U virus hujumi, xonada o'g'irlik yoki qattiq diskni fizik ishdan chiqishidan qat'iy nazar, buzuvchi oqibatlarini bartaraf etishdan boshlash kerak.

Ma'lumotlar bilan ishonchli va xavfsiz ishlashga faqat shundagina erishiladiki, agar istalgan kutilmagan hodisa, shu jumladan kompyuterni to'liq fizik ishdan chiqarish ham, salbiy oqibatlariga olib kelmasligi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. Kompyuter virusi nima?
2. Fayl va disklarda kompyuter viruslari mavjudligini tekshirish.
3. Elementlarni, uzil(tugun) va qurilmalarda kompyuter viruslari mavjudligini tekshirish.
4. Virus nima va uning bajaradigan vazifasi?
5. Viruslar kompyuterda qanday paydo bo'ladi?
6. Viruslarning qanday turlarini bilasiz?
7. Kompyuterda viruslar mavjudligi qanday aniqlanadi?
8. Antivirus dasturlarining qanday turlarini bilasiz?
9. Kompyuter viruslaridan himoyalashda ehtiyotkorlik choralari nimalardan iborat?

## Amaliy mashg'ulotlar Amaliy mashg'ulot № 1-2

**Mavzu:** Zamonaviy texnik va dasturiy vositalari bilan tanishish.

**Maqsad:** Kompyuterning zamonaviy texnik va dasturiy ta'minoti fanini o'qitishdan maqsad – informatika o'qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo'lgan bilimlar va amalda qo'llash uchun ko'nikma va makalalarni shakllantirish va kompyuter texnikasi, arxitekturasi tushunchasi, ishlash prinsiplari, asosiy texnik vositalari bilan tanishish.

**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari.

### Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:

- 1.1 Kompyuterlarning texnik ta'minoti.
- 1.2 Kompyuter turlari, asosiy va qo'shimcha qurilmalari.
- 1.3 Kompyuterning dasturiy ta'minoti.
- 2.1 Sistemaviy dasturiy ta'minot.
- 2.2. Amaliy dasturiy ta'minot.
- 2.3. Dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalari.

Kompyuter – inglizcha so'z bo'lib, u hisoblovchi demakdir. Garchand u hozirda hisoblovchi bo'lmasada, matnlar, tovush, video va boshqa ma'lumotlar ustida ham amallar bajaradi. Shunga qaramasdan hozirda uning eski nomi – Kompyuter saqlangan. Uning asosiy vazifasi turli ma'lumotlarni qayta ishlashdan ibora. Avvalo shuni aytish lozimki, ko'pchilik tushunchasida go'yoki biz kundalikda foydalaniladigan faqat SHK bor xolos. Bunga albatta sabablar ko'p. Shulardan biri hozirgi zamon SHK lari ilgari universal deb hisoblangan Kompyuterlardan tezligi va xotira hajmi jihatidan ancha oshib ketgan bo'lsada, ikkinchi tomondan ko'p masalalarni yechish uchun bu Kompyuterlar foydalanuvchilarni qanoatlantirishidir. Hozirgi Kompyuter termini ko'p uchrasada, shu bilan birga EHM (Elektron Hisoblash mashinalari), HM (hisoblash mashinalari) terminlari ham hayotda ko'p ishlatilib turiladi. Ammo biz soddalik uchun faqat Kompyuter terminidan foydalanamiz. Kompyuterlarning amalda turli xillari mavjud:

Raqamli, analogli (uzluksiz), raqamli-analogli, maxsuslashtrilgan. Ammo, raqamli Kompyuterlar foydalanilishi, bajaradigan amallarning universalligi, hisoblash amallarining aniqligi va boshqa ko'rsatkichlari yuqori bo'lganligi uchun, ulardan ko'proq foydalanilmoqda. Amalda esa hozir rivojlangan mamlakatlarda Kompyuterlarning 5 guruhi keng qo'llanilmoqda. Kompyuterlarni xotirasining hajmi, 1 sek. da bajaradigan amallar tezligi, ma'lumotlarning razryad to'rida (yacheykalarda) tasvirlanishiga qarab, 5 guruhga bo'lish mumkin:

- super Kompyuterlar (Super Compyuter)
- blok Kompyuterlar (Manframe Compyuter)
- mini Kompyuterlar (MiniCompyuter)
- shaxsiy Kompyuterlar (PC- Personal Compyuter)
- bloknot (Noutbook) Kompyuterlar.

Super Kompyuterlar (TOR 500 Kompyuterlar) – juda katta tezlikni talab qiladigan va katta hajmdagi masalalarni yechish uchun uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Bunday masalalar sifatida ob havoning global prognoziga oid masalalarni uch o'lchovli fazoda turli oqimlarning ketishini o'rganish masalalari, global informatsion sistemalar va hakoazolarni keltirish mumkin. Bu Kompyuterlar 1 sekundda o'n trillon amal bajaradi. Super Kompyuterlarga AQSH energetika vazirligining Sandiya laboratoriyasida o'rnatilgan 9472 protsessorli Intel ASCI Red Kompyuter sistemasi karvonboshlik qilmoqda.

Shuni qayd lozimki, superKompyuterlarning ma'lum yo'nalish masalalarini yechishga qaratilgan turlari xam mavjud.

Bu yerda Kompyuterlar tezligini o'lchovi – Linpacr parallel testida 1 TFLOPS-bu 1000 GFLOPSga teng, 1 GFLOPS esa-1000000 FLOPS ga, 1FLOPS- sekundiga 1000 amalga teng.

Xususan bu Kompyuterlar yadro sinovlarini va eskirgan yadro qurollarini modellashtirishda qo'llaniladi.

Reyting	Super Kompyuterlar rusumi	Ishlab chiqaruvchi davlat	Nomlari	Protsessor rusumi	Quvvati (GFLOPS)
1	Intel ASCI Red	AQSH	Intel (AQSH)	9472	1338



2	SGI ASCI Blue	AQSH	SGI (AQSH)	6144	634
3	SGI T3E1200	AQSH	SGI (AQSH)	1084	430
4	Hitachi SR 8000	Yaponiya	Hitachi Yapon	128	368
5	SGI T3E900	AQSH	SGI	1324	264

Blok Kompyuterlar – fan va texnikaning turli sohalariga oid masalalarni yechishga mo'ljallangan. Ularning amal bajarish tezligi va xotira hajmi super Kompyuterlarnikiga qaraganda bir-ikki pog'ona past. Bularga misol sifatida AQSH ning CRAY (kray), IBM 390, 4300, IBM ES/9000, Fransiyaning Borrous 6000, Yaponiyaning M1800 rusumli Kompyuterlarini va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Mini Kompyuterlar (kichik Kompyuterlar)- hajmi va bajaradigan amallar tezligi jihatidan blok Kompyuterlardan kamida bir pog'ona pastdir. Shuni aytish joizki, ularning gabariti (hajmi) tobora ixchamlashib, hatto shaxsiy Kompyuterdek kichik joyni egallaydiganlari yaratilmoqda. Bunday Kompyuterlar turkumiga ilk bor yaratilgan PDP-11 (Programm Driver Processor-dasturiy boshqaruv protsessori), ilgari harbiy maqsadlar uchun ishlatilgan VAX, SUN turkumli Kompyuterlar, IBM 4381, Hewlett Packard firmasining HP 9000 va boshqa mini Kompyuterlar misol bo'la rolati. Shaxsiy Kompyuterlar-hozirda ko'pchilik foydalanuvchilar IBM rusumidagi Kompyuterlardan keng foydalanishmoqda. IBM rusumiga mos Kompyuterlar deganda, ham programma ta'minoti mosligi, texnik ta'minoti mosligi, ya'ni bir-biriga mos kelishi nazarda tutilgan. Bunday

sistema bloki

monitor

klaviatura

sichqoncha

tashqi qurilmalar

Sistema bloki- yassi (desktop) yoki minora (town) ko'rinishida ishlab chiqariladi. Kompyuterning asosiy qismlari sistema blokida joylashgan bo'lib, ular quyidagilardir:

Tezkor xotira (RAM- Random Access Memory –ixtiyoriy kirish mumkin bo'lgan mikroprotsessor. Tezkor xotira qurilmasi registrlardan tashkil topgan.

Registr-ma'lumotlarni ikkilik shaklida vaqtinchalik saqlab turish uchun mo'ljallangan qurilma. Har bir registr o'z navbatida triggerlardan tashkil topgan. Trigger-bu kichik kondensator bo'lib, u elektr toki bilan zaryadlangan holda 1 ni , aks holda 0 ni ifodalaydi.

Registrdagi triggerlarning miqdori Kompyuterni necha razryadli ekanini bildiradi. Registrlar-bu yacheykalar deb xam yuritiladi. Bu yacheykalarining xar bir razryadida bir bit axborot joylashadi ya'ni 0 yoki 1

Razryadlar soni deganda bir vaqtda qayta ishlanadigan ikkilik razryadlar soni tushiniladi.

#### **Tekshirish uchun savollar**

1. Kompyuterning qismlarini sanash, ajratish.
2. Tizimli blokka texnik qurilmalarni ulash portlari bilan tanishish, ularni ulab ko'rish.
3. Kompyuterga qo'shimcha yangi qurilmani o'rnatish.
4. Shaxsiy kompyuterlar apparat va dasturiy ta'minoti bilan tanishish. Sistemaviy dasturiy ta'minot turlari bilan ishlash.
5. Kompyuterni ishga tushiruvchi sitemaviy dasturlar bilan ishlash. DOS operasion sistemasini va uning buyruqlari
6. Windows XP operasion tizimining oddiy va serverli sistemalarini kompyuterga o'rnatish.

#### **Amaliy mashg'ulot № 3-4**

**Mavzu:** Windows OTda ishlash ko'nikmalarini takomillastirish.

**Maqsad:**Talabalarga Windows muhitida ishlash,Windows operatsion tizimi va uning mkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirish, Windows operatsion tizimini boshqa operatsion tizimidan farqlash va ishlash ko'nikmalarini takomillastirish.

**Mashg'ulot jihozi:** Shaxsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari.

### **Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:**

#### ***Dasturlar, fayl va papka oynalari. Ishlash usullari va ta'rifi***

1. Kompyuterda dastur ishga tushgach, ekranda fayllar ro'yxati va ular xaqidagi axborotlar yozilgan ko'sh chiziq bilan chegaralangan oynalar paydo bo'ladi. (Aslida WINDOWS so'zi xam "oynalar" degan ma'noni bildiradi). Oynalar to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'ladi. Obyekt (fayl, papka yoki dastur) ochish obyektning belgisida yoki obyektning kontekst menyusidan ochish buyrugida "sichqoncha"ning chap tugmasini 2 marta tez bosish bilan amalga oshiriladi.

2. Oyna elementlari-ochiq obyektning nomini saqlovchi sarlavxa o'lchovini o'zgartiruvchi va oynalarni birlashtiruvchi tugmalarni boshqarish tugmalaridan iborat. Bunda tugmalarning yigishtirish, o'lchov o'zgartirish va oyna berkitish faoliyatini ko'rsatib tasvirlab berish lozim. Oynani yigishtirish operatsiyasi bilan oynalarni yopish operatsiyasi farqlarini ta'kidlab o'ting (Birinchi xolatda obyekt faolligicha qoladi, ikkinchisi bilan ish xam to'xtatiladi). Masalalar paneli yordamida yoki ALT+TAB tugmasini bosish bilan yigishtirilgan oynalarni tiklash xam mumkin.

3. Oyna o'lchovlarini o'zgartirish, oyna o'lchovi o'zgartirish yo'nalishini ko'rsatuvchi 2 yo'nalishli strelkalar paydo bo'lguncha, "sichqoncha" kursorini oyna chegarasiga olib berishi kerak. "Sichqoncha"ning chap tugmasini bosish va uni bosib turgan xolda kursorni ko'chirib, shu vaqtda oyna o'lchovini o'zgartirish kerak.

4. Oynani "sichqoncha" yordamida boshqa joyga ko'chirish yo'li bilan xarakatlaniriladi. Buning uchun kursorni oyna sarlavxasi o'rtasiga olib boriladi, "sichqoncha"ning chap tugmasi bosiladi, uni bosgan xolda oyna ish stolida ko'chiriladi.

5. Bir vaqt ichida bir necha obyekt, ularning xar biri alohida oynada joylashganligi, ochish imkoniyatlari xaqida gapirish o'rinli. Shuni ta'kidlash lozimki, faqat ulardan biri faol bo'lishi mumkin, vaqtning xar damida faqat bir oyna bilan ish amalga oshirilishi mumkin. Bunda faol oyna sarlavxasi to'q ranglar bilan ajratilgan bo'ladi.

Oynalar orasida ko'chish quyidagicha amalga oshiriladi:

- a) "Sichqoncha" tugmalarini faoliyatsiz oyna yuqori qismida bosiladi;
- b) "sichqoncha" tugmalarini masalalar panelida faoliyatsiz oyna tugmasida bosamiz;
- v) ALT+TAB tugmalar kombinatsiyasi yord

### **Amaliy mashg'uloti № 5-6**

**Mavzu:** Matn muxarrirlarida hujjatlar va taqdimotlar yaratish.

**Ishning maqsadi:** Matnli xujjatlarni yaratish, formatlash va taxrirlash. Hujjatlarda grafik ob'yektlaridan foydalanishni o'rgatish va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

**Kutilayotgan natija:** : Matnli xujjatlarni yaratish, formatlash va taxrirlash. Hujjatlarda grafik ob'yektlaridan foydalanish haqida nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi.

**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari, tarqatma topshiriqlar, kompyuterlar.

### **Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:**

Microsoft Word bir vaqtda bir nechta hujjat bilan ishlash imkoniyatiga ega. Xar bir hujjat "oyna" deb ataladigan maxsus ishchi maydonida tashkil etiladi. Oynalarning o'lchami va joylashish tartibini foydalanuvchi o'z xoxishiga qarab belgilab oladi.

Microsoft Word matn protsessorining hozircha o'zbek tilidagi varianti mavjud emas. Shu bois uning ba'zi buyruq va ko'rsatmalarining o'zbek tilidagi ifodasi bilan birga qavs ichida rus tilidagi ifodasini berib borishni lozim topdik. Microsoft Word ishga tushirilganda ekranda uning ishchi maydoni va boshqarish paneli hosil bo'ladi. Boshqarish paneli odatda sarlovha satri, menyu satri va uskunalar panelidan iborat.

Uskunalar panelida uskunalar rasmi chizilgan tugmalar bo'lib ulardan foydalanish matn protsessori bilan ishlashda qulaylik yaratadi.

Sarlovhalar satrida ishlanayotgan hujjatning nomi aks etadi.

Menyular satri quyidagilardan iborat:

- fayl menyusi;
- to'g'rilash (pravka);
- ko'rinish (vid);
- joylashtirish (vstavka);
- format;
- servis;
- jadval (tablitsa);

- oyna (okno);
- ma`lumot (spravka).

Mazkur menyular hujjatlar tayyorlashda muxim ahamiyatga ega. Endi har bir menyuning asosiy buyruqlari bilan tanishib chiqamiz. "Fayl" menyusi quyidagi amallarni bajaradi:

- ochish (Открыть);
- hosil qilish (sozdat);
- saqlash (soxranit);
- ... kabi saqlash (soxranit kak);
- hujjatlarni chop etish (pechat);
- Word dan chiqish (выход).


**"To'g'rilash" menyusi quyidagi amallarni bajaradi:**

- bekor qilish
- yo'qotish
- nusxalash;
- joylashtirish;
- matni izlash va almashtirish;
- boshqa matnga o'tish.

### **Avtomundarija yordamida yangi takdimot yaratish**

Fayl (FILE)menyusini oching va **Sozdat** (NEW) buyrugini bosing. Keyin esa quyidagi buyruqlarni bajaring:

1. Takdimot o'rnatilgan bulsin



SHu joyni bosing ↑

SHu asosda qolgan turt dialog oynalarini tuldiring. POWER POINT dasturi yangi takdimotni yaratish uchun avtomundarija ustaning oxirgi oynasida **Gotovo (FINISH)** tugmasini bosing.

*Maslahat:* usta slaydlarning «standart» ko'rsatishini yaratadi, xoxishga karab siz uni taxrir qilishngiz mumkin.

POWER POINTda quyidagi kurish xolatlari mavjud:

*Slaydlar* – **slaydy**. Ekranda xar bir slayd aloxida kurinadi.

*Tuzilish* – **struktura**. Takdimotning asosiy matnli tuzilishini ko'rsatadi.

*Slaydlarni saralash* – **sortirovnik slaydov**. Slaydlar xammasi rasm sifatida krinadi (bu xolatda ularning urnini osongina almashtirish, nusxa olish va b.mumkin).

*Izohli betlar* – **strnitsa zametok**. Xar bir slaydni ma'rzachining izox bilan birga ko'rsatadi.

Takdimotingizni kurishning bu usullari bir-biridan sezilarli fark qiladi. Takdimot bilan ishlashning eng yaxsh usuli kuyilgan masalani xal etishda bu xolatlarining kombinatsiyasidan foydalanishdir.

**Topshiriqlar variantlari (masala, misol, keyslar):**

#### **Topshiriq №1**


Quyidagi slaydni yarating

# POWER POINT

Prezentatsiyalar yaratish uchun  
mo'ljallangan dastur

## Topshiriq №2


a) Quyidagi tarkibga ega bo'lgan 1-slaydni yarating.



Bajarish tartibi:

- «Razmetka slayda» bandidan slaydga mos shablon tanlang.
- 1-3 matnli ob'ektlarni yarating
- mavzuga mos rasmni joylashtiring (4-ob'ekt)
- Ob'ektlarga animatsiya effektlarini belgilang.
- Slaydga, o'tish effektini belgilang

b) Quyidagi tarkibga ega bo'lgan 2-slaydni yarating.



Bajarish tartibi:

- Avtfigurani yarating (1-ob'ekt)
- Ro'yxat tuzing (2-ob'ekt)
- Kolleksiyanadan rasm tanlab slaydda joylashtiring (3-ob'ekt)
- Ob'ektlarga animatsiya effektlarini tanlang.
- Slaydga o'tish effektini belgilang

**Amaliy ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralari:**

Berilgan nazariy ma'lumot bilan tanishib chiqiladi va topshiriqlar variantlari ketma-ket bajariladi va natijalar olinadi.

Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena talablariga amal qilinadi.

**Nazorat savollari:**

1. Taqdimot tayyorlashning afzalliklari va kamchiliklarini sanab o'ling?
2. Animasiyalarni yaratishda qanday buyruqlardan foydalaniladi.

**Amaliy mashg'uloti № 7-8**

**Mavzu:** MS Excel dasturida sohaga oid sonli ma'lumotlar bilan ishlash.

**Ishning maqsadi:** Elektron jadval muharrirlari, ularning vazifasi, imkoniyatlari va asosiy tushunchalari. Ma'lumotlarni kiritish va taxrirlashni o'rgatish va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

**Kutilayotgan natija:** Elektron jadval muharrirlari, ularning vazifasi, imkoniyatlari va asosiy tushunchalari. Ma'lumotlarni kiritish va taxrirlash haqida nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi.

**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari, tarqatma topshiriqlar, kompyuterlar tarqatma topshiriqlar.


**Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:**


Zamonaviy kompyuterlarning dasturiy ta'minotining tarkibiy qismiga kiruvchi MICROSOFT OFFICE paketidagi asosiy vositalardan biri jadval protsessori deb ataluvchi EXCEL dasturidir. EXCEL WINDOWS operatsion qobig'i boshqaruvida elektron jadvallarni tayyorlash va ularga ishlov berishga mo'ljallangan.

Elektron jadvallar asosan iqtisodiy masalalarni yechishga mo'ljallangan bo'lsa-da, uning tarkibiga kiruvchi vositalar boshqa sohaga tegishli masalalarni echishga ham, masalan, formulalar bo'yicha hisoblash ishlarini olib borish, grafik va diagrammalar qurishga ham katta yordam beradi. Shuning uchun EXCEL dasturini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi va xar bir foydalanuvchidan EXCEL bilan ishlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish talab etiladi.


Inson o'z ish faoliyati davomida ko'pincha biror kerakli ma'lumot olish uchun bir xil, zerikarli, ba'zida esa, murakkab bo'lgan ishlarini bajarishga majbur bo'ladi. MICROSOFT EXCEL dasturi mana shu ishlarni osonlashtirish va qiziqarli qilish maqsadida ishlab chiqilgandir.

MICROSOFT EXCEL elektron jadvali xisoblash vositasi sifatida qaralib, iqtisodiy va moliyaviy masalalarni echishda yordam beribgina qolmay, balki xar kungi xarid qilinadigan oziq-ovqatlar, uy-ro'zg'or buyumlari xamda bankdagi xisob raqamlari xisob-kitobini olib borishda xam yordam beruvchi tayyor dasturdir. Jadvallar muxarriri MS Excel WINDOWS OT- da ishlash uchun yaratilgan. Uni ishga tushirish uchun biz **Пуск** menyusiga kirib **Все программы** bulimni tanlaymiz va shu bulimda MS


office ga kirib  MS Excel dasturini ishga tushuramiz, yoki **S:** diskdagi **Programm Files** ichidagi MS office papka ichidagi **Excel.exe** faylni ishga tushiramiz. Natijada dastur ishga tushadi. Dastur ishga tushgach siz ekranda uning oynasini kurasiz. Oynaning asosiy qismlari bu nom satri, menyu satri, erdamchi tugmalar satri, formulalar satri, ish soxasi va malumotlar satri



Nom satriida aktiv bo`lgan jadvalning nomi yoziladi, agar aktiv jadval yangi yaratilgan bo`lsa u xolda uning nomi **КНИГА 1** kurinishida bo`ladi.








Tanlangan xona quyidagi kurinishda bo`ladi:




Kursor 3 xil bulishi mumkin:

- **Ok rangli katta plus** - xona tanlash uchun. Xonani ustiga sichkonchani olib kelganimizda paydo bo`ladi,
- **Strelka** - xona yoki ob`ektlarni tanlab boshka joyga kuchirib olish uchun. Xona tagidagi chegarasiga yoki ob`ektning ustiga sichkonchani olib kelganimizda paydo bo`ladi,
- **Kora rangli kichkina plus** - xona ichidagi ma`lumotlarga uxshash ma`lumotlar bilan boshka yonidagi xonalarni avtotuldirish. Xonaning pastki ung tomondagi burchagida joylashgan nuqtaga sichkoncha bilan ko`rsatganimizda paydo bo`ladi



Excel dasturdagi xar bitta xona uzining xususiyatlariga ega. Ushbu xususiyatlarni kurish va uzgartirish uchun shu xonani tanlab «CTRL» tugmalarni bosamiz. Natijada ekranda oyna paydo bo`ladi.





	A	B	C	D	E	F
1						
2	январь	февраль	март	апрель	май	
3						
4						

2-misol:

	A	B
1		
2		10
3		20
4		
5		
6		
7		
8		
9		
10		

### Topshiriq №3

MS Excel dasturida satrni, ustunni, alohida olingan kataklarni xamda yonma yon turmagan kataklar yoki satrlarni (yoki ustunlarni) belgilash amallarini bajaring.

	A	B	C	D
1	1	8	15	
2	2	9	16	
3	3	10	17	
4	4	11	18	
5	5	12	19	

	A	B	C
1	1	8	15
2	2	9	16
3	3	10	17
4	4	11	18
5	5	12	19

	A	B	C
1	1	8	15
2	2	9	16
3	3	10	17
4	4	11	18
5	5	12	19

	A	B	C
1	1	8	15
2	2	9	16
3	3	10	17
4	4	11	18
5	5	12	19
6	6	13	20

### Amaliy ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralari:

Berilgan nazariy ma'lumot bilan tanishib chiqiladi va topshiriqlar variantlari ketma-ket bajariladi va natijalar olinadi.

Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena talablariga amal qilinadi.

### Nazorat savollari:

1. Elektron jadval muharrirlarini imkoniyatlari haqida ayting?
2. Elektron jadval muharrirlarini formulalari haqida ayting?

### Amaliy mashg'uloti № 9-10

**Mavzu:** MS Excel dasturida standart funksiyalar bilan ishlash

**Maqsad:** Katakda matn yo'nalishlarini o'zgartirish, Excel dasturini ma'lumotlar bazasi bilan tanishish. Ma'lumotlarni saralash. Hujjatni chop etishga tayyorlash.

**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari, tarqatma topshiriqlar, kompyuterlar.

### Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:

**Topshiriq:** Bu topshiriqni bir necha ketma-ket mantiqiy bo'laklarga bo'lamiz.


- jadvalni hosil qilish;
- jadvalni to'ldirish;
- ma'lumotlarni biror belgisi bo'yicha saralash.

### Jadvalni tuzish

- Qo'yidagi jadvalni hosil qiling va jadval sarlavhasi ikki qatordan iboratligiga e'tibor bering.

№	Бўлим	Маҳсулот номи	Ўлчов бирлиги	Кирим		Чиким		Қолдик	
				Кирим нархи	Кирим соми	Чиким нархи	Чиким соми	Қолдик соми	Қолдик нархи
1									
2									
3									
4									
5									
6									

- Matni ikkinchi qatordan boshlab kiritish qulay. E'tibor bergan bo'lsangiz «Kirim» bo'limi ikkita ustundan iborat. Bunda yuqoridagi ko'nikmalardan foydalanib kataklarni birlashtirib, markazga tekislagan holda hosil qilamiz. Xuddi shu taxlit «Chiqim» va «Qoldiq» ustunlarini ham to'ldiring.
- Sarlavhani ikkinchi qatorini belgilab oling va markaz bo'yicha tekislang.
- Jadvalni butun ishchi varaq bo'yicha joylashtirish uchun ba'zi kataklarni 90 ga burish kerak. Buning uchun o'sha kataklarni belgilab **Format** menyusini **Yacheyki...** buyrug'idan **Viravnivaniye** bo'limiga o'ting, **Oriyentatsiyu teksta** dan kerakli o'lchamni o'rnatib va albatta **Perenosit po slovam** ga bayroqcha o'rnatib (vertikal ravishda tekislashga **Po nijnemu krayu** ni qo'ying).



- Boshqa aktaklarni vertikal ravishda markazga (Po sentru) **Format**  **Yacheyki...** buyrug'idan foydalanib tekislang.
- Jadvalga chegaralarni **Format menyusining Yacheyki..** buyrug'idan Granitsa bo'limi orqali qo'ying).
- Katalarga pullik o'lcham (denezniy format) ni (**Format**  **Yacheyki...**, buyrug'ining **Chislo** bo'limi orqali o'rnatib.
- Jadval qatorlarini (№ ustun) to'ldiruvchi markerdan foydalanib raqamlab chiqing.
- «Qoldiq soni» ustuniga formulani qo'ying («Kirim soni» ayiruv «Chiqim soni») va «Qoldiq narxi»ga («Qoldiq soni» ko'paytiruv «Chiqim narxi»). Bu formulalarni pastga jadval bo'ylab tarqating.

#### Jadvalni to'ldirish

- Qanaday mahsulotlar bilan savdo qilishingizni va do'kon qaysi bo'limlardan iboratligini aniqlab oling.
- Ma'lumotlarni jadvalga bo'limlar bo'yicha va kelib tushish vaqti bo'yicha kiriting.
- «Qoldiq» bo'limidan boshqalarini to'ldiring.
- Oxirgi qatorni bo'sh qoldiring, chunki bu qatorda formula joylashadi.
- Ma'lumotlarni shunday kiritingki bir bo'limdagi xar xil mahsulotlar mavjud bo'lib, nol qoldikli mahsulotlar mavjud bo'lsin (hammasi sotilgan).

№	Бўлим	Махсулот номи	Ўлчов бирлиги	Кириш		Чиқим		Қолдиқ	
				Кириш суммаси	Кириш сони	Чиқим суммаси	Чиқим сони	Қолдиқ сони	Қолдиқ суммаси
1	Сут маҳсулотлари	Пишлоқ	Кг.	650	100	850	80	20	17000
2	Гўшт маҳсулотлари	Колбаса ва колбаса маҳсулотлари	Кг.	1100	200	1200	150	50	60000
3	Гўшт маҳсулотлари	Балиқ	Кг.	1200	100	1400	50	50	70000

	A	B	C	D	E	F
1	650	100	850	80	20	17000
2	1100	200	1200	150	50	60000
3	1200	100	1400	50	50	70000

	A	B	C	D	E	F
1	650	100	850	80	=B1-D1	=C1*E1
2	1100	200	1200	150	=B2-D2	=C2*E2
3	1200	100	1400	50	=B3-D3	=C3*E3


Endi siz alohida yozuvlardan iborat o'z jadvalingizga ega bo'ldingiz. Oxirgi yozuvga o'tib uni to'ldiring. Bunda bir oynadan ikkinchisiga o'tishda Tab tugmachasidan foydalanish qulay. Oxirgi yozuvni to'ldirib Enter tugmachasini bossangiz yangi darchaga ega bo'lasiz. Kiritilgan yangi ma'lumotlar jadvalda birdaniga aks etadi.

Bir necha yangi yozuvlarni kiriting va Zakrit tugmasini bosib.

### Ma'lumotlar ustida amallar

Biz yuqorida mahsulotlarni kelib tushishi bo'yicha jadvalni hosil qildi. Agar bo'limlardagi mahsulotlar bo'yicha jadval hosil qilish kerak bo'lsa ma'lumotlarni saralash (sortirovka) ga to'g'ri keladi.

Jadvalni sarlavhasiz belgilab oling va **Danniye**  **Sortirovka...**



buyrug'ini bering.

• Hosil bo'lgan darchadan «Sortirovat po» bo'limidan «Bo'lim»ni tanlang va "Po vozrastaniyu" tanlang (bunda jadvaldagi hamma bo'limlar alfavit bo'icha joylashadi).

Xuddi shunday bo'lim ichidagi mahsulotlarni ham alfavit bo'yicha saralash uchun keyingi «Zatem po» bo'limda ham shu amallarni bajaramiz.

### Ma'lumotlarni saralash.

Jadvalni sarlavhasiz belgilab oling.

**Danniye**  **Filtr...**

**Avtofiltr** buyrug'ini tanlang.

Belgilashni yana xuddi shu taxlit belgilashi olib tashlang.

Ma'lumotlarni saralash usullarini yuqoridagi buyruk yordamida mustaqil bajarib ko'ring. Bunda

**Format**  **Stolbets**  **Skrit** va

**Format**  **Stolbets**  **Pokazat** buyruqlaridan foydalaning.

Tekshirish uchun savollar

1. Jismoniy shaxslarning jamg'arma bankiga qo'ygan summasidan olgan foyda hisobi (ming so'm hisobida).

T/r	Familiyasi, ismi, Sharifi	Qo'yilgan summa	9 % yillik foyda	Jami
1.	Suyarov A.	11500		
2.	Bozorov A.	9500		
3.	Aliyeva A.	14400		
4.	Umarov S.	13500		

2. Umumiy xarajatlar hisobi (ming so'm hisobida).

T/r	Xarajat maqsadi	1-kunga xarajat summasi	2-kunga xarajat summasi	% hisobida o'sish
1.	Ertalabki nonushta	12	15	
2.	Tushlik	15	17	
3.	Kechki ovqat	14	18	
	Jami			

### Amaliy mashg'uloti № 11-12

**Mavzu:** MS Access dasturida ob'ektlari bilan ishlash va jadvallar hosil qilish.

**Maqsad:** Talabalarga ms access dasturida ob'ektlari bilan ishlash va jadvallar hosil qilish haqida ma'lumot berish.

**Kutilayotgan natija:** Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, ma'lumotlar bazasi asosiy tushunchalari. Ma'lumotlarni formalar yordamida kiritish haqida nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi.

**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari, tarqatma topshiriqlar, kompyuterlar.

#### Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:

**Ma'lumotlar bazasi (MB)** – bu ma'lum sohaga tegishli bo'lgan, o'zaro bog'langan va tartiblangan ma'lumotlar majmuasi bo'lib, u ko'rilayotgan ob'ektlarning xususiyatini, holatini va ob'yektlar o'rtasidagi munosabatni tavsiflaydi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda inson hayotida **MB**da kerakli axborotlarni saqlash va undan oqilona foydalanish juda muhim rol o'ynaydi. Sababi, jamiyat taraqqiyotining qaysi jabhasiga nazar solmaylik o'zimizga kerakli ma'lumotlarni olish uchun, albatta, **MB**ga murojaat qilishga majbur bo'lamiz. Demak, **MB**ni tashkil qilish axborot almashuv texnologiyasining eng dolzarb hal qilinadigan muammolaridan biriga aylanib borayotgani davr taqozasi.

Ma'lumki, MB tushunchasi fanga kirib kelgunga qadar, ma'lumotlardan turli ko'rinishda foydalanish juda qiyin edi. Dastur tuzuvchilar ma'lumotlarini shunday tashkil qilar edilarki, u faqat qaralayotgan masala uchungina o'rinni bo'lardi. Har bir yangi masalani hal qilishda ma'lumotlar qaytadan tashkil qilinadi va bu hol yaratilgan dasturlardan foydalanishni qiyinlashtirar edi.

Shuni qayd qilish lozimki, **MB**ni yaratishda ikkita muhim shartni hisobga olmoq zarur:

**Birinchi**dan, ma'lumotlar turi, ko'rinishi, ularni qo'llaydigan dasturlarga bog'liq bo'lmasligi lozim, ya'ni **MB**ga yangi ma'lumotlarni kiritganda yoki ma'lumotlar turini o'zgartirganda, dasturlarni o'zgartirish talab etilmasligi lozim.

**Ikkinchi**dan, **MB**dagi kerakli ma'lumotni bilish yoki izlash uchun biror dastur tuzishga hojat qolmasin.

Shuning uchun ham **MB**ni tashkil etishda ma'lum qonun va qoidalarga amal qilish lozim. Bundan buyon **axborot** so'zini **ma'lumot** so'zidan farqlaymiz, ya'ni **axborot** so'zini umumiy tushuncha sifatida qabul qilib, **ma'lumot** deganda aniq bir belgilangan narsa yoki hodisa sifatlarini nazarda tutamiz.

Masalan: korxonaning ma'lumotlar bazasida ishchi va hizmatchilarning shtat jadvali xaqidagi, moddiy boyliklar, keltirilgan xom ashyo va butlash qismlari, omborlardagi ehtiyot qismlar, tayyor maxsulot, direksiyaning buyruq xamda farmoyishlar va boshqalar xaqidagi barcha axborotlar saqlanishi mumkin. Qandaydir bitta axborotning juda kichik o'zgarishi turli joylarda muxim o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Bu kabi masalalarni **MS Access 2010** dasturi yordamida xal qilinadi. Shu dasturda ishlatiladigan ayrim atama va tushunchalarni keltirib o'tamiz.



Accessda asosiy ishlatiladigan ob'yektlar to'rtta bo'lib, ular Tablitsi (jadvallar), Zaprosi (so'rovlar), Formi (shakllar) va Otcheti (hisobotlar) deb ataladi.

Avvalo MBda xar qanday ma'lumotlar jadval ko'rinishida ifodalanib olinishi kerak. Bunday jadvallardagi ustunlar **maydon**, qatorlar esa **yo'zuv** deb ataladi.

**Maydon** – shu maydonga kiritiladigan ma'lumotlarni xossalarini ifodalaydi.

**Yo'zuv**– mantiqiy bog'langan maydonlar yig'indisidir. Unda biror predmet sohasidan olingan ma'lumotlar joylashtiriladi.

**Maydon MB**ning asosiy elementi bo'lib, u quyidagi xossalar bilan ifodalanadi:

- **uzunligi** (belgi va simvollarida ifodalanib baytlarda o'lchanadi),
- **nomi** (maydonning o'ziga xos alohida xususiyati),
- **podpis-imzo**(maydon nomining forma va hisobotlarda ifodalanadigan shakli).

Maydonlar xususiyatiga va tarkibiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Matnli(Tekstoviy)**
2. **MEMO maydoni**
3. **Sonli(Chislovoy)**
4. **Sana/vaqt (Data/Vremya)**
5. **Pul birligi(Denejniy)**
6. **Sanash(Schetnik)**
7. **Mantiqiy(Logicheskiy)**
8. **OLEob'yekti maydoni**
9. **Gipermurojaat(Gipersilka)**
10. **Biriktirish(Vlojenie)**
11. **Hisoblanadigan(Vichislyaemiy)**
12. **O'rniga joylash ustasi(Master podstanovok)**

MB ning **maydonlari** albatta **nomlanishi** va u nomlar bitta jadvalda takrorlanmasligi kerak. Nom uzunlini 64 tagacha belgilardan iborat bo'lib, unda nuqta(.), undov(!) va kavdrat qavs([]) belgilari ishlatilishi mumkin emas. Shuningdek nom bo'sh joy belgisi bilan boshlanishi mumkin emas.

Maydon uchun imzo majburiy xossa bo'lmagani uchun uni ishlatish shart emas. Imzo asosan forma va hisobotlarda maydon nomini o'rnini bosib turadigan ma'lumot. Ko'p hollarda maydon nomi qisqartirib ishlatilgani uchun, bunday nomni forma yoki hisobotlarda ifodalash maqsadga muvofiq emas. Shunday xollarda maydon nomi o'rniga uning imzo deb atalgan hossasida biror mazmunli nom ishlatgan ma'qul. Imzodagi nom forma yoki hisobotlarda nom o'rnida ishlatiladi. Imzoda maydon nomidagi kabi qabul qilingan cheklashlar yo'q. Bitta jadvalda bir xil imzolar ishlatilishi mumkin.

Maydon uzunliklari ularning asosiy xossasi bo'lib, ular xar bir turdagi maydon uchun xar xil bo'ladi.

Matnli maydon 255 tagacha ixtiyoriy belgilarni kiritish va siz hoxlagan andoza(maska)da ko'rsatish imkonini beradi.

Sonli maydon butun yoki xaqiqiy sonlarni qanday kiritishingizdan qat'iy nazar, siz tanlagan biror formatda ko'rsatish imkonini beradi.

Vaqt va sanani ifodalovchi maydonga shu turdagi ma'lumotni qanday kiritsangiz xam, bu ma'lumoni avvaldan kiritilgan yoki andoza sifatida yaratilgan formatda ifodalaydi.

Pul birliklarida ifodalangan maydon sonli maydon bilan bir xil bo'lib, faqat oxiriga biror davlat pul birligini ko'rsatib turishi bilan farqlanadi. Bu turdagi maydonning **Format polya** xossasiga o'zgartirish kiritish orqali ixtiyoriy davlat pul birligini ifodalash imkoni bor.

OLE ob'yekti maydoni odatda 1 Gb gacha tasvir, rasm, musiqiy kliplar va videoyozuvlar shaklida ifodalanadigan ma'lumotni joylash uchun ajratiladi.

MEMO maydoni belgilari soni 255 tadan oshib 65535 tagacha bo'lgan ixtiyoriy matnli ma'lumotlarni alohida fayl ko'rinishida saqlaydi.

Schetnik maydoni esa yangi qo'shilgan yoki olib tashlangan yozuvlarni avtomatik ravishda raqamlab chiqishga hizmat qiladi.

Hisoblanadigan maydonga avvaldan yaratilgan qaysi maydonlar ustida va qanday amal bajarilishi kerakligini ifodalovchi formula kiritib qo'yiladi. Natijaning qaysi turga mansub bo'lishini esa dastur o'zi aniqlaydi.

Mantiqiy maydon mos yozuvdagi ma'lumotda ko'rsatilgan predmet mavjud(ro'st, xa, 1) yoki mavjud emas(yolg'on, yo'q, 0) ekanligini ifodalaydi.


Gipermurojaat shu maydonga ma'lumot boshqa man'ba(jadval, MB, internet)dan olinayotganligini ifodalaydi.

O'rniga joylash ustasi - shu maydonga avvaldan yaratib qo'yilgan boshqa jadvaldan yoki endi yaratiladigan jadvaldan ma'lumotlarni ochiladigan ro'yxat shaklida joylash imkonini beradi. Bunday maydonga ma'lumotlar ochilgan ro'yxatdan tanlash orqali kiritiladi. Bu usul maydonga ma'lumotlarni tezkor kiritishga yordam beradi.

**Access** jadvaliga kiritilayotgan xar qanday ma'lumot to'g'ridan-to'g'ri diskka yoziladi va agar unga o'zgartirishlar kiritilsa avvalgisi qayta tiklanmaydi.

### MS Access 2010 oynasi tuzilishi


**MS Access 2010** ishga tushirilsa, Rasm 1 ko'rinishdagi oyna ochiladi, unda agar yangi MB yaratilayotgan bo'lsa **Novaya baza dannix** tanlanib **Sozdat** tugmasi bosiladi. So'ngra MO ni saqlash uchun joy tanlash va MOga nom kiritish uchun mo'ljallangan muloqot oynasi ochiladi. Odatda yangi MOga **MS Access 2010** tomonidan **Database1** nomi tavsiya etiladi. Lekin siz o'z xoxishingizga ko'ra nom berishingiz mumkin.



### MS Access 2010ningdastlabki oynasi

Agar mavjud bo'lgan faylni ochmoqchi bo'lsangiz, u holda shu oynadagi birinchi ustunidan qidirib ko'ring. U yerda bo'lmasa, oxirgi ustundagi **Imya fayla** maydoni yonidagi papka rasmini tanlang va ochilgan muloqot oynasidan o'z faylingizni toping. Quyida biz yangi MO yaratish haqida ko'rsatma beramiz.

**MS Access 2010** oynasiko'rinishi oddiy va sodda bo'lib, unda professional darajadagi ma'lumotlar bazasi yaratishga kerak bo'ladigan barcha vosita(instrument)lar jamlangan. Uning tasma(lenta)sida besh guruhga bo'lingan vkladkalar mavjud bo'lib, ular: Fayl, Glavnaya, Sozdanie, Vneshnie dannie, Rabota s bazami dannix deb ataladi. Shu bilan bir qatorda, xar xil amallarni bajarish vaqtida qo'shimcha ravishda yangi vkladkalar paydo bo'lishi mumkin, masalan: jadval yaratish vaqtida Rabota s tablitsami deb atalgan vkladkalar guruhida Polya va Tablitsa vkladkalari paydo bo'ladi. **MS Access** bosh oynasiningish sohasida, yangi jadval yaratish uchun odatiy qabul qilingan **Tablitsa 1** nomli jadvalning **Kod** deb atalgan Schetchik turidagi maydoni va yangi maydon kiritish uchun mo'ljallangan sariq rangdagi fonda **Shelknite dlya dobavleniya** degan yozuvi bo'lgan maydon joylashgan bo'ladi.




### MS Access 2010ningbosh oynasi

## Jadvallar yaratish

**Tablitsi** - MBning ma'lumotlar saqlaydigan asosiy ob'ekti bo'lib, u ikki o'lchovli jadval shakliga ega.


Jadvallar yaratishning ikki xil usuli mavjud bo'lib, birinchisi – **Rejim tablitsi** (jadval rejimi) deb ataladi. Bu usulda ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri kiritish orqali jadval yaratiladi.

**Shelknite dlya dobavleniya** degan yozuvni sichqoncha bilan tanlansa, Rasm 3 dagi ko'rinish hosil bo'ladi. Shu maydonga qaysi turdagi ma'lumot kiritiladigan bo'lsa shu tur nomini tanlash kerak. So'ngra shu maydonga nom kiritilishi so'raladi. Navbatdagi maydonlar xam shu kabi yaratilib, ularga bevosita ma'lumotlar kiritilishi mumkin. Bu usulda barcha yaratiladigan maydonlar xossalarni tanlash yoki o'zgartirish imkoniyati cheklangan.




## MS Access 2010damaydon turini tanlash

Jadval yaratishning ikkinchi usuli – **Konstruktor** deb ataladi. Jadval rejimidan konstruktor rejimiga o'tish uchun Fayl vkladkasi tagida joylashgan **Rejimidan konstruktor** tanlanadi. Agar jadval yangi yaratilayotgan bo'lsa, u holda Rasm 4dagi kabi jadvalni saqlab qo'yish uchun uning nomini kiritish oynasi ochiladi.




## MS Access 2010dajadvalni saqlash va nomini o'zgartirish

Shu oynada Tablitsa1 o'rniga yangi nom kiritib OK tugmasini bosilsa, Rasm 5 dagi kabi oyna ochiladi.



## MS Access 2010dajadvalni konstruktor rejimida yaratish

Bu erda **Imya polya** deb atalgan ustunning xar bir qatoriga jadvalda ishlatiladigan maydon nomlari kiritiladi va **Tip dannix** nomli ustunda esa shu maydonlarga mos ma'lumot turlari tanlanadi. **Masalan:** maydonga **Familiya** degan nom kiritildi va uning qabul qiladigan qiymatlari, ya'ni turi sifatida **Tekstoviy** (matnli) tanlandi.



### MS Access 2010 jadvalni konstruktor rejimida yaratish

#### Jadvallarga ma'lumotlar kiritish

Matnli maydonning ayrim xossalarini ko'rib chiqamiz.

**Razmer polya** – maydondagi belgilar soni bo'lib, odatda 255ni ko'rsatib turadi. Bu raqamni shu maydonga kiritiladigan ma'lumotlar hajmdan kelib chiqib o'zgartirgan ma'qul. Bizning xolda **Familiya** taxminan 20tagacha harfdan iborat bo'lishi mumkin.

**Maska vvoda** – kiritiladigan ma'lumotni qanday ko'rinishda ifodalash kerakligini ko'rsatuvchi andoza. Andozaga mos kelmagan ma'lumotlarni bu maydonga kiritib bo'lmaydi.

Andozalar matnli, sana va vaqt ko'rinishidagi ma'lumotlarga qo'llanadi. Andozalarning ayrim belgilari bilan tanishtirib o'tamiz:


Belgi	Tavsifi	Andoza	Misol
0	Kiritilishi shart bo'lgan 0-9 raqamlar	(000) 000-0000	(206) 555-0248
9	Kiritilishi shart bo'lmagan raqam yoki bo'sh joy belgisi	(999) 999-9999	(206) 555-0248 ( ) 555-0248
#	Kiritilishi shart bo'lmagan raqam yoki bo'sh joy belgisi (ishora belgisi xam mumkin)	#999	-20 2000
L	Kiritilishi shart bo'lgan A-Z yoki A-Ya harf	LLL	MAY
?	Kiritilishi shart bo'malgan A-Z yoki A-Я harf	??????	ABCDEF BU KIM
A	Kiritilishi shart bo'lgan harf yoki raqam	(000)AAA-AAAA	(206)555-TELE
a	Kiritilishi shart bo'lmagan harf yoki raqam	aaaaa	A 333

&	Kiritilishi shart bo'lgan ixtiyoriy belgi	&&&&	S-99
C	Kiritilishi shart bo'lmagan ixtiyoriy belgi	CCCC	S \$6
.,:;- /	Kasrni, vaqt va sanalarni ajratuvchi maxsus belgilar	#99.99 00-00-0000	-5.26 12-03-2011
<	O'zidan keyingilarni kichik harflarga	>L<????????	Xasan
>	O'zidan keyingilarni katta harflarga	>L????????	XASAN

Yuqoridagi Rasm 6 da **Maska vvodaga** kiritilgan >C<CCCCCCCCC andozaning ma'nosi – kiritiladigan familiyaning birinchi harfi katta qolganlari esa kichik bo'lgan ixtiyoriy belgi bo'lishin ta'minlaydi. Biroq familiyani to'g'ri kiritilishini nazorat qila olmaydi.

Yana bitta misol: O'zbekistonda qabul qilingan shaxsiy avtomobillarning davlat raqamlarini kiritish uchun andoza ko'rinishi – 00 >L 000 LL shaklda bo'ladi. Bu yerda 00 - viloyat kodini bildiruvchi ikki xonali raqam kiritilishi shart, > - belgisidan keyin kiritiladigan alifbo harflarni katta harflarga aylantiradi, L – bir dona alifbo harfi kiritilishi shart, 000 – uch xonali tartib raqami kiritilishi shart, LL – ikkita alifbo harfi kiritilishi shart ekanini bildiradi.

**Denejniy** (Pul birligi) maydonining **Format polya** xossasidagi **Denejniy** degan yozuvni o'rniga Rasm 7dagi kabi **0.00 so'm** ko'rinishidagi ifoda yozilsa, u holda shu maydondagi raqamlar oxiriga **so'm** so'zi yozilgan holda ifodalanadi, ya'ni milliy pul birligi hosil bo'ladi.




**MS Access 2010**dajadvalda milliy pul birligini ifodalash  
**Shakl(Forma)lar yaratish**

**Forma** – jadval yoki zapros natijasi sifatida olingan ma'lumotlarini foydalanuvchiga bir nechta ko'rinishdagi elektron blanklar shaklida ifodalab beradi. Formalar ma'lumotlarni ko'rib chiqish, tahrirlash va xatto hisob ishlarini bajarishga imkon yaratadi. Bitta formada bir necha jadval va zaproslardan olingan ma'lumotlarni xam ifodalash mumkin.


## Formani master yordamida yaratish

MS Access 2010da forma yaratish uchun tasmadagi **Sozdanie** vkladkasida joylashgan **Master formdan** foydalanamiz.




## Formani master yordamida yaratish

**Master formni** ishga tushirganimizda quyidagi ko'inishdagi muloqot oynasining birinchi sahifasi ochiladi:




Bu oynadagi **Tablitsi i zaprosiro**'yxat maydonidan forma yaratiladigan jadval yoki zapros nomini tanlaymiz. **Dostupnie polya** deb atalgan ro'yxat maydonida tanlangan jadvalning maydonlari ro'yxati paydo bo'ladi. Shu maydondan formada ko'rinib turishi kerak bo'lgan maydon nomini tanlab ">"belgini bosish orqali **Vibrannie polya** nomli ro'yxat maydoniga o'tkazamiz. Agar barcha maydonlarni o'tkazish kerak bo'lsa, u xolda ">>" belgini bosish kerak. Noto'g'ri o'tkazilganlarini esa "<" belgi yordamida orqaga qaytarish mumkin.




Navbatdagi muloqot oynasida yaratiladigan formani ko'inishi tanlanadi. Ular to'rt ko'inishda bo'lib, v odin stolbes, lentochniy, tablichniy va virovnenniy deb ataladi. V odin stolbes va virovnenniy nomli formalar faqat bitta yozuvga tegishli maydonlarni nomlari va ularga mos ma'lumotlarni ifodalaydi. Qolganlari esa natijaviy jadvalni to'liq barcha yozuvlari va maydonlari bilan ifodalaydi. So'nggi muloqot oynasi hosil bo'lgan formani qanday nom bilan saqlash kerakligini so'raydi.





Va nihoyat **Gotovo** tugmasi bosilgach tanlangan ko'rinishdagi forma **MS Access 2010** oynasida paydo bo'ladi (Rasm 17 ga qarang).



#### Битта ustun ko'rinishidagi forma

Forma ko'rinishiga o'zgartirishlar kiritish va formada hisob ishlarini bajarish uchun **Glavnaya** vkladkasidan **Konstruktor** rejimiga kirish kerak. Bu rejimda forma foniga biror tasvir o'rnatish, maydonlar joylashuviga o'zgartirish kiritish, hisob ishlari bajarish uchun qo'shimcha maydonlar kiritish va boshqa ko'pgina amallarni bajarish mumkin. Buning uchun forma maxsus ko'rinishdagi kataklar bilan qoplanadi va tasmada yuqorida keltirib o'tilgan amallarni bajarish uchun moslashtirilgan vositalar paydo bo'ladi.

**MS Access 2010**da yaratilgan formalar uchun **Rejim maketa** kiritilgan bo'lib, uning yordamida formaga o'zgartirishlar kiritishni shu forma ko'rinishining o'zida amalga oshirish mumkin. Bu xolda xam tasmada yuqorida keltirib o'tilgan amallarni bajarish uchun moslashtirilgan vositalar paydo bo'ladi.

#### Amaliy ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralari:

Berilgan nazariy ma'lumot bilan tanishib chiqiladi va topshiriqlar variantlari ketma-ket bajariladi va natijalar olinadi.

Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena talablariga amal qilinadi.

#### Nazorat savollari

1. **MB** deb nimaga aytiladi?
2. **MSAccess 2010** qanday dastur?
3. **MS Access 2010** qanday ob'yektlari bor?
4. Maydon nima?
5. Yozuv nima?
6. **MS Access 2010** qanday turdagi kattaliklar bilan ishlaydi?
7. **MS Access 2010**da maydonlar nomlanishi qoidalarini keltiring.
8. **MS Access 2010**ning jadval ob'ekti vazifalari nima?
9. Matn maydonining hossalarini aytib bering.
10. **OLE** maydonining hossalarini aytib bering.

11. Ma'lumotlar kiritish andozasi nima uchun kerak?
12. Master yordamida ro'yxatli maydon qanday yaratiladi?

### Amaliy mashg'uloti № 13-14

**Mavzu: MS Access dasturida so'rovlar hosil qilish.**

**Maqsad:** MS Access 2010 ning so'rov ob'yekti bilan ishlash. MS Access 2010 ning otchyot (hisobot) ob'yekti bilan ishlashni o'rgatishva amaliy ko'nikmalar hosil qilish.


**Kutilayotgan natija:** MS Access 2010 ning so'rov ob'yekti bilan ishlash. MS Access 2010 ning otchyot (hisobot) ob'yekti bilan ishlash haqida nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi.

**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari, tarqatma topshiriqlar, kompyuterlar

### Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:


#### 1. So'rov (Zapros)lar

**Zaprosi** – bir yoki bir necha jadval va zaproslardagi ma'lumotlarni biror shart asosida qidirib topish, yangilash, o'zgartirish va birlashtirish kabi amallarni bajarish imkonini beradi.




Rasm 1. So'rov yaratishni boshlash

So'rov yaratish jarayon MS Access 2010 tasmasining **Sozдание** vkladkasidagi **Konstruktor zaprosovni** tanlash bilan boshlanadi (Rasm 1). Shundan so'ng Rasm 2 da ko'rsatilgani kabi zapros blankasi va shu zaprosda qatnashadigan jadval va zaproslar ro'yxati ifodalangan muloqot oynasi ochiladi.



Rasm 2. Jadval va zaproslarni tanlash

**Dobavlenie tablitsi** muloqot oynasidan so'rovda ishtirok etadigan jadval va zaproslarni tanlab **Dobavit** tugmasini bosiladi. So'rovda ishtirok etadigan boshqa jadval va zaproslar bo'lmasa muloqot oynasini Zakrit tugmasi yordamida yopamiz.




Рasm 3. Со'ров yaratish blankasi

Со'ров yaratish blanki ikki qismdan iborat bo'lib, yuqori qismida so'rov yaratishda ishtirok etadigan jadval va zproslar maydonlari ro'yxati keltiriladi. Ostida esa **Pole** nomli maydonda so'rovda ishtirok etadigan maydonlar nomlari, **Imya tablitsi** nomli maydonda yuqorida tanlangan maydon joylashgan jadval nomi, **Sortirovka** nomli maydonda tanlangan maydon bo'yicha ma'lumotlar o'sish yoki kamayish tartibida ifodalanishini amalga oshirish, **Vivod na ekran** nomli maydonda so'rov natijasida hosil bo'ladigan jadvalda ko'rinib turishi kerak bo'lgan maydonlar tanlanadi, **Ushovie othora** va **ili** nomli maydonlarda shu maydonlardan ajratib olinadigan ma'lumotlarga qo'yiladigan shartlar joylashtiriladi.

So'rovni ishga tushirish uchun **MS Access 2010** tasmasing **Konstruktor** vkladkasidagi ! tasvirli **Vipolnit** nomli tugmani yoki **Rejim tablitsini** tanlash kerak. So'rov natijasida yangi jadval hosil bo'ladi. Uni biror nom bilan saqlab qo'yish tavsiya etiladi. So'rovda ishtirok etgan jadval va zproslar qiymatlari o'zgaraydi, agar o'zingiz o'zgartirish uchun so'rov bermagan bo'lsangiz.

So'rovlarning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ulardan oddiy, parametrli, hisoblanadigan maydonli va natijaviy(guruhiy) so'rovlarni ko'rib chiqamiz.

## 2. Oddiy so'rov yaratish



Рasm 4. Oddiy so'rov yaratish


Barcha so'rovda **Zapros** blankasining **Uslovie otbora** nomli maydoniga kiritilishi mumkin bo'lgan amal belgilari mantiqiy solishtirish - >, <, >=, <=, <> va mantiqiy bog'lash - not, or, and, between, in lardan iborat.

Ba'zan ma'lumotlarni biror andoza asosida izlashga to'g'ri keladi. Buning uchun \* va ? belgilaridan foydalaniladi.

\* - ihtiyoriy sondagi ihtiyoriy belgi ma'nosini bildiradi, masalan: a\* - a harfi bilan boshlanuvchi ihtiyoriy ma'lumotlar, \*a - a harfi bilan tugaydigan ihtiyoriy ma'lumotlar, \*a\* - tarkibida a harfi ishtirok etgan ihtiyoriy ma'lumotlarni bildiradi.

? - bir dona ihtiyoriy belgi ma'nosini bildiradi, masalan: a? - faqat ikkita belgidan iborat, a harfi bilan boshlangan ikkinchi belgisi ihtiyoriy bo'lgan ma'lumotlar, ??? - faqat uchta ihtiyoriy belgilardan iborat ma'lumotlar.

### 3. Parametrli so'rov yaratish



Rasm 5. Parametrli so'rov yaratish


Parametrli so'rov ishga tushirilganda maxsus oynacha ochilib (Rasm 5) unda topilishi kerak bo'lgan ma'lumotni kiritish so'raladi. Buning uchun **Zapros** blankasining **Uslovie otbora** qatoridama'lumotlari topilishi kerak bo'lganmaydonga [] belgilar joylashtirilib uning ichiga izlanishi kerak bo'lgan ma'lumot mazmunini bildiruvchi so'z yozib qo'yidadi, masalan: **Familiyasi** nomli maydon bo'lsa, [Familiyani kiriting] kabi.

**Yodingizda bo'lsin**, [] ichiga maydon nomi bilan aynan bir xil yozuv joylashtirmang, aks holda so'rov ishamaydi, ya'ni so'rov natijasida barcha ma'lumotlar xatto so'ralmaganlari xam chiqaveradi. Chunki maxsus oynacha ochilmaydi.

Biroq bu holda so'ralgan ma'lumotni aynan to'liq va to'g'ri kiritish kerak bo'ladi, aks holda natija sifatida bo'sh jadval chiqadi. Agar [] belgilar o'rniga **like**[] qo'yilsa, u holda qidirilayotgan ma'lumotni xatto yuqorida keltirilgan andozalar asosida xam topish mumkin.

**like** yordamida tashkil qilingan parametrli so'rov oynasida mantiqiy solishtirish va mantiqiy bog'lash amallarini yozish mumkin emas. Ularning o'rniga \*, ?, #, !, [], - belgilar ishlatiladi. Misol: [A,B,R]\* - A,B,R harflaridan boshlangan ma'lumotlarni topish, [F-M]\* - F dan M gacha oraliqdagi barcha harflar bilan boshlangan ma'lumotlarni topish, [!R,V]\* - R va V harflari bilan boshlangan ma'lumotlardan boshqa xammasini topish kerak ekanini bildiradi.


### Hisoblanadigan maydonli so'rov yaratish



Rasm 6. Hisoblanadigan maydonli so'rov yaratish

Hisoblanadigan maydonli so'rov (Rasm 6) tashkil etish uchun zapros blankasining pastki qismidagi **Pole** nomli qatorning maydon nomi kiritilmagan joyi tanlanadi va **MS Access 2010** tasmasining **Konstruktor** vkladkasidan **Postroitel** tanlanadi. Shundan so'ng **Postroitel virajeniy** nomli muloqot oynasi ochiladi. Bu oynada avval shu yangi yaratilayotgan maydon uchun nom kiritiladi, so'ngra "•" (ikkinuqta) belgisi qo'yilib, davomidan hisoblash formulasi kiritiladi.

Formulada ishtirok etadigan xar bir maydon nomi [] kvadrat qavsbelgilari orasiga yozilishi kerak.




Rasm 7. Hisoblanadigan maydonli so'rovni ishga tushirish

Ba'zi bir funksiyalar bilan tanishtirib o'tamiz:

Sana va vaqt uchun ishlatiladigan ba'zi funksiyalar Date(), Now(), Day(), Month(), Year(), Time() – mos ravishda kompyuterdagi sana, sana va vaqt, kun, oy, yil va vaqt kabi kattaliklarini ko'rsatishga xizmat qiladi.


Matnli maydonlar uchun ba'zi funksiyalar Len([maydon nomi]), Left([maydon nomi],belgilar soni), Right([maydon nomi], belgilar soni) – mos ravishda ma'lumotdagi belgilar sonini aniqlash, ma'lumotning chap tarafidan belgilar sonichasini ajratib olish, ma'lumotning o'ng tarafidan belgilar sonichasini ajratib olish kerakligini bildiradi.



Rasm 8. Hisoblanadigan maydonli so'rovni natijasi

### Natijaviy so'rov yaratish

So'rovlar nafaqat kerakli ma'lumotni topish va uni qayta ishlash, balki natijaviy hisoblashlar tashkil qilish imkonini ham beradi. Masalan: qandaydir yozuvlar guruhi bo'yicha o'rta arifmetik qiymatini yoki yig'indisini topish, yozuvlar sonini aniqlash kabi.



Рasm 9. Guruhiy amal uchun so'rov yaratish

Natijaviy so'rov yoki guruhiy amalni bajarish uchun (Rasm 9) MS Access 2010 tasmasining **Konstruktor** vkladkasidan  $\Sigma$  belgini bosilsa zпрос blankasining pastki qismdagi **Imya tablitsi** va **Sortirovka** nomli qatorlari orasida **Gruppovaya operatsiya** nomli yangi qator paydo bo'ladi. Xar bir guruhiy amal bajarishda qatnashadigan maydonlarning **Gruppovaya operatsiya** nomli qatorida **Gruppirovka** nomli ochiladigan ro'yxat maydoni paydo bo'ladi.

**Gruppirovka** nomli ochiladigan ro'yxat maydonidagi funksiyalar:

- **Gruppirovka** – jadvalning tanlangan maydoni bo'yicha bir xil yozuvlarni guruhlab faqat bittadan qoldiradi;

- **Sum** – bitta guruhga keltirilayotgan jadval yozuvlarning sonli qiymatlarini yig'indisini hisoblaydi;
- **Avg** – bitta guruhga keltirilayotgan jadval yozuvlarning sonli qiymatlarini o'rta qiymatini hisoblaydi;
- **Min** – bitta guruhga keltirilayotgan jadval yozuvlarning sonli qiymatlarini eng kattasini aniqlaydi;
- **Max** – bitta guruhga keltirilayotgan jadval yozuvlarning sonli qiymatlarini eng kichigini aniqlaydi;
- **Count** - bitta guruhga keltirilayotgan jadval yozuvlarning sonini aniqlaydi.

Bu so'rovni amalga oshirish uchun, so'rovda qatnashadigan maydonlar soni minimal bo'lishi kerak, aks holda biror natija olib bo'lmaydi. Buni tushuntirish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz: jadvalda talabalar Familiyasi va ismi, Tug'ilgan joyi (shahar va viloyatlar nomi shaklida) va Tug'ilgan sanasi berilgan bo'lsin. Xar bir viloyatdan kelgan talabalar sonini aniqlash kerak degan shart qo'yilsin.

Masalani yechishda jadvaldagi barcha maydonlar ishtirok etgan holda guruhiy amal bajarib bo'lmaydi, chunki talabalarining Familiya va ismlari xamda tug'ilgan sanalari xar xil bo'lganidan ularni guruhlashing iloji yo'q. Masalaning yechimi quyidagicha bo'ladi, **Zпрос** blankasida faqat Tug'ilgan joyi maydonini ikkita ustunga joylab, birinchi ustunda **Gruppirovka**, ikkinchi ustunda esa **Count** amalidanlanadi va **Vipolnit** buyrug'i beriladi. Natijada yangi jadvalda birinchi ustunda barcha viloyatlar nomlari bir martadan, ikkinchi ustunda esa shu viloyat nomlari necha marotabadan ishtirok etganini ifodalovchi raqamlar hosil bo'ladi.

### Hisobot (Otchyot)lar


**Otcheti** – jadval yoki zпросlar yordamida olingan natijalarni ma'lum ko'rinishlarda printerda chop etishga imkon beradi. Hisobot – bu natijalar aks etgan qog'ozli hujjatning elektron ko'rinishi demakdir. Hisobotlar ma'lumotlarni ko'rib chiqish, tahrirlash va xatto hisob ishlarini bajarishga imkon yaratadi. Bitta hisobotda bir necha jadval va zпросlardan olingan ma'lumotlarni xam ifodalash mumkin.

### Hisobotlar ustasi bilan hisobot yaratish

MS Access 2010da hisobot yaratish uchun tasmdagi **Sozдание** vkladkasida joylashgan **Master otchetovdan** foydalanamiz.


Hisobotlarni yaratish ham xuddi formalar yaratish kabi amalga oshiriladi. Ularni xam master yordamida amalga oshirish qulay (Rasm 10).






Rasm 11. Hisobot yaratish


**Master otchetovni** ishga tushirganimizda quyidagi ko'rinishdagi muloqot oynasining birinchi sahifasi ochiladi:




Bu oynadagi **Tablitsi i zaprosiro'xat** maydonidan hisobot yaratiladigan jadval yoki zapros nomini tanlaymiz. **Dostupnie polya** deb atalgan ro'yxat maydonida tanlangan jadvalning maydonlari ro'yxati paydo bo'ladi. Shu maydondan hisobotda ko'rinib turishi kerak bo'lgan maydon nomini tanlab ">"belgini bosish orqali **Vibrannie polya** nomli ro'yxat maydoniga o'tkazamiz. Agar barcha maydonlarni o'tkazish kerak bo'lsa, u xolda ">>" belgini bosish kerak. Noto'g'ri o'tkazilganlarini esa "<" belgi yordamida orqaga qaytarish mumkin.




Dalee tugmasini bosib navbatdagi muolqot oynasiga o'tiladi. Bu oynada natijalarni guruhlab chiqarish imkoniyatidan foydalanish mumkin. Masalan natijalarni tug'ilgan joyi bo'yicha guruhlab chiqaradi.




Dalee tugmasini bosib navbatdagi muolqot oynasiga o'tiladi. Bu oynada natijalarni bir yoki bir nechta maydonlar bo'yicha o'sish yoki kamayish tartibida chiqarish amalga oshiriladi.



Navbatdagi muloqot oynasida yaratiladigan hisobotni ko'rinishi tanlanadi. Ular agar guruhlash ishlatilmagan bo'lsa uch ko'rinishda bo'lib, v stolbes, tablichniy va virovnenniy deb ataladi. V stolbes va virovnenniy nomli formalar faqat bitta yozuvga tegishli maydonlarni nomlari va ularga mos ma'lumotlarni ifodalaydi. Tablichniy esa natijaviy jadvalni to'liq barcha yozuvlari va maydonlari bilan ifodalaydi. So'nggi muloqot oynasi hosil bo'lgan hisobotni qanday nom bilan saqlash kerakligini so'raydi.



Va nihoyat **Gotovo** tugmasi bosilgach tanlangan ko'rinishdagi hisobot **MS Access 2010** oynasida paydo bo'ladi (Rasm 11 ga qarang).



Рашм 11. Qog'oz shaklidagi elektron hisobot

Hisobot ko'rinishiga o'zgartirishlar kiritish va hisobotda hisob ishlarini bajarish uchun avval tasmdagi **Zakrit okno predvaritelnogo prosmotra** tugmasini bosish kerak. So'ngra **Glavnaya vkladkasidan Konstruktor** yoki **Rejim maketaga** kirish kerak. Bu rejimda hisobot foniga biror tasvir o'rnatish, emblema joylash, sahifalarga nomer qo'yish, maydonlar joylashuviga o'zgartirish kiritish, hisob ishlari bajarish uchun qo'shimcha maydonlar kiritish va boshqa ko'pgina amallarni bajarish mumkin.

#### Amaliy ishlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralari:

Berilgan nazariy ma'lumot bilan tanishib chiqiladi va topshiriqlar variantlari ketma-ket bajariladi va natijalar olinadi.

Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena talablariga amal qilinadi.

#### Savollari:

13. MS Access 2010ning zapros ob'ekti vazifalari nima?
14. MS Access 2010da qanday turdagi zaproslar bor?
15. Oddiy zapros qanday yaratiladi?
16. Parametrlı zapros nima?
17. Hisoblanadigan maydonlı zapros nima?
18. Guruhıy zapros nima?
19. MS Access 2010da hisobot ob'ekti vazifalari nima?
20. MS Access 2010da hisobotlar qanday tahrirlanadi?
21. V stolbets shaklıdagi hisobot yaratishing.
22. Tablichniy shaklıdagi hisobot yaratish uchun nima qilish kerak?
23. Hisobotni tahrirlash qanday bajariladi?
24. Guruhıy shaklıdagi hisobot yaratish qanday amalga oshiriladi?

#### **Amaliy mashg'uloti № 15-16**

**Mavzu: Axborot tizimlarini loyixalashtirish va qurish.**

**Maqsad : Talabalarga axborot tizimlarini loyixalashtirish va qurish haqida ma'lumot berish.**

**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari, tarqatma topshiriqlar, kompyuterlar

#### **Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:**

##### **1. Axborot tizimlarini (AT) loyihalash texnologiyasining asosiy tushunchalari.**


**Loyihalash** – bu axborot tizimini texnik topshiriq ko'rinishdagi boshlang'ich tavsifidan, tizim tashkil qilish uchun yetarli bo'lgan standart hujjatlar to'plami sifatida tasvirlanishidir. Loyihalashda texnik topshiriqni, ya'ni texnik topshiriqda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan narsalarni ishlab chiqish, amalga oshirish usullari ishlab chiqish. Bunda standart hujjatlar deganda bu texnik va ishchi loyiha bo'lib, uning asosiy mazmuni davlat standartlarida keltirilgan bo'ladi. Loyihalash obyekti sifatida AT olinadi. Tizim degan termin ishlatilishi bu o'zaro bog'langan elementlarning mavjudligidir. Masalan, o'zaro bog'langan masalalar to'plami: bir masalani yechish natijasi boshqasi uchun zarur bo'ladi va h.k., tizim elementlari to'plami va ular orasidagi o'zaro aloqalar tizim tuzilmasini aniqlaydi. Tizim elementlari bu har xil belgilari bo'yicha ajratilgan uning tashkil etuvchilaridir. Shuning uchun axborot tizimlari boshqa narsalar kabi juda ko'p tuzilmalar to'plamidan tashkil topgan bo'lishi mumkin: ular vazifaviy (funktional), texnik vositalar majmuasi tuzilmasi, vazifaviy qismlar tuzilmasi, ta'minot qismlari tuzilmasi, obyekt tuzilmasi va h.k. Axborot zamonaviy dunyoda eng kerakli resurslardan biriga aylandi, axborot tizimlari (AT) insoniyatning amaliyotdagi hamma faoliyatida zaruriy uskuna bo'ldi. AT yordamida yechiladigan turli masalalar turli tipli tizimlar to'plamini yaratilishiga olib keldi, ular qurish va axborotga ishlov berish qonuniyati kiritilishi bilan farq qiladi. Axborot tizimlarini qator turli alomatları bo'yicha sinflarga ajratish mumkin. Qaralayotgan sinflashning asosiga mavjud alomatları asos qilingan, funksional imkoniyatlari va zamonaviy tizimlarni qurish hollari aniqlangan.

**2. Yechilayotgan masalaning hajmidan kelib chiqib, foydalaniladigan texnik vosita, funksionallashtirishni tashkillashtirish, axborot tizimlari bir qator guruhga (sinfga) bo'linadi**

**Tizim** – bir vaqtning o'zida yagona obyekt xamda maqsadga erishish uchun to'plangan elementlar yig'indisi sifatida tushuniladi. Tizimlar bir-biridan tarkibi va qanday maqsadda qo'llanilishi bilan ajratiladi. Axborot tizimi tushunchasi Tizim tushunchasi juda xam keng tarqalgan termin bo'lib, juda xam ko'p ma'noni anglatadi. Ko'p xollarda texnika vositalari va dasturlari yig'indisiga "TIZIM" deb ataladi. Tizim tushunchasiga "axborot" so'zini qo'shsak u holda "tizimning" yaratilish maqsadi va ishlash prinsipi tushuniladi. Axborot tizimi foydalanuvchilarga istalgan muxitdagi axborotlarni saqlash, qayta ishlash, qidirish imkonini yaratadi.

Axborot tizimi deb oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun axborotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish metodlari va vositalari yig'indisiga aytiladi

Axborot tizimlari quyidagi hossalalar bilan xarakterlanadi: 1.har qanday axborot tizimi, tizimni tashkil etishning umumiy prinsipi asosida tahlil qilinadi va boshqariladi. 2.Axborot tizimi dinamik ko'rinishga ega bo'lib, rivojlanuvchi tizim hisoblanadi. 3.Axborot tizimining mahsuloti ham axborot hisoblanadi. 4.Axborot tizimini odam-kompyuter tizimi ko'rinishida tasavvur qilish lozim.



Axborot tizimlarini xayotda qo‘llab qanday natijalar olish mumkin: 1. Matematik metod va intellektual tizimlarni qo‘llab, boshqarishning optimal variantlarini olish. 2.Tizimni avtomatlashtirish natijasida ishchilarning vazifalarini yengillashtirish. 3.Eng to‘g‘ri axborotga ega bo‘lish. 4.Axborotlarni qog‘ozda emas balki magnit yoki optik disklarda saqlash 5.Mahsulot ishlab chiqarish sarf xarajatlarnini kamaytirish. 6.Foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratish

Axborot tizimlarida boshqaruv tuzilmasining o‘rni Axborot tizimi jamiyat va har bir tashkilot uchun quyidagilarni bajarishi lozim: 1.Axborot tizimining tuzilmasi va uning qo‘llanilish maqsadi, jamiyat va korxonada oldida turgan vazifa bilan to‘g‘ri kelishi kerak. Masalan: tijorat firmasida – foydali biznes, davlat korxonasida ijtimoiy va siyosiy vazifalarni bajarishi kerak. 2. Axborot tizimi inson tomonidan boshqarilishi va ijtimoiy etika prinsiplari asosida foyda keltirishi kerak. 3. To‘g‘ri, kafolatli va o‘z vaqtida axborotlarni mijoz yoki tizimlarga yetkazishi lozim.

Tashkilotni boshqarish tuzilmasi Axborot tizimini yaratish, tashkilotning boshqaruv tuzilmasini taxlil qilishdan boshlanadi Boshqarish deganda quyidagi vazifalarni amalga oshirish funksiyasi bilan, qo‘yilgan maqsadga erishish tushuniladi: Tashkillashtirish – normativ xujjatlar kompleksi va tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish; shtat jadvali, bo‘limlar, laboratoriyalar va h.k

Hisobga olish – bu funksiya firma yoki tashkilot ko‘rsatkichlarining metod va formalarini ishlab chiqadi. Masalan; buxgalteriya hisoboti, moliyaviy hisobkitob, boshqaruv hisoboti va boshqalar. Taxlil (analiz) – rejalashtirilgan vazifalarni qay darajada bajarilganligini aniqlaydi

Loyixalash ishlarini avtomatlashtirish tizimi - tashkiliy-texnik tizim bo‘ladi, u konstruktoryoyixachilar jamoasi bilan o‘zaro boglangan va loyixalashni avtomatlashtiruvchi texnik, dasturiy va axborot vositalari kompleksidan tashkil topadi. Avtomatlashtirilgan loyixalashning (AL) kompleks vositalarini AL ta‘minlash kurinishlari bo‘yicha guruxlash mumkin. LIAT ni texnikaviy ta‘minlash (TT) - avtomatlashtirilgan loyixalashni bajarish uchun ishlatiladigan o‘zaro boglangan va o‘zaro harakatdagi texnik vositalar majmuasidir. TT quyidagilarga bulinadi: - ma‘lumotlarga dasturiy ishlov berish vositalari (MDIBV-SPOD), bular protsessorlar va eslab koluvchi kurilmalar, ya‘ni EXM larning ma‘lumotlarni uzgartiruvchi va hisoblarni dasturiy boshqarishni amalga oshiruvchi qurilmalari bilan belgilanadi; - ma‘lumotlarni tayerlash, kiritish, ko‘rsatish va hujjatlashtirish vositalari (MTKK va XD - SPVDO i D), bular operatorni EXM bilan aloqasi uchun xizmat qiladi; - loyixalashtirishdagi yechimlarni arxivlash vositalari (LEAV- SxPR), bular tashki eslab koluvchi kurilmalar (ZU) bilan belgilanadi; - ma‘lumotlarni uzatish vositalari (MUV-SPD), bulardan tarkok holdagi EXM lar va terminallar orasidagi aloqalarni tashkil qilishda foydalaniladi. □ LIAT ni matematik ta‘minlash quyidagilarni birlashtiradi:

- loyixalashtirilayotgan obyektning matematik modeli; - loyixalashtirish tadbirlarini bajarishni usul va algoritmlari; bularga funksional modellarni kurish prinsiplari, algebraik va differensial tenglamalarni rakamli yechish usullari, ekstremal vazifalarni qo‘yish, ekstremumlarni kidirish kiradi. LIAT ni dasturiy ta‘minlash (DT) mashina tashuvchilardagi ma‘lumotlarga ishlov beruvchi tizimlar uchun xususiy dasturlar va dasturlarni ishlash uchun kerak bo‘ladigan dasturiy hujjatlarni birlashtiradi. Bunda umumiy, bazoviy va amaliy (maxsus) DT larni ajratish mumkin. Umumiy dasturiy ta‘minlash - LIAT larning xususiyatlarini hisobga olmaydi, bazoviy va amaliy dasturiy ta‘minlashlar ALT larning

extiyejlariga mos yaratiladi. Bazoviy dasturiy ta‘minlash tarkibiga amaliy dasturlarni to‘g‘ri ishlashini ta‘minlovchi dasturlar kiradi.

#### **O‘zlashtirish uchun topshiriqlar:**

1. Loyihalash tushunchasiga izoh bering.
2. Loyiha obyekti nima?

3. Axborot tizimi nima?
4. Axborot tizimlarining qanday turlari mavjud?
5. Axborot tizimlarini loyihalash qanday sohalarni o'z ichiga oladi?
6. Axborot tizimini loyihalash nimadan boshlanadi?
7. Axborot tizimini loyihalash qanday bosqichlardan iborat?
8. Axborot tizimlarining hayot sikli nima?

### Amaliy mashg'uloti № 17-18

**Mavzu:** Internet xizmatlari, axborot qidiruv tizimlari bilan ishlash


**Maqsad:** Internet Explorer dasturida ma'lumotlarni qidirib topish, ularni saqlash, chop etish, pochta orqali ma'lumotlar almashinuvini tashkil etish usullari bilan tanishish.

**Kutilayotgan natija:** Internetdan olingan ma'lumotlarni saqlash, chop etish, uzatish, pochta orqali ma'lumotlar almashishni bilish.


**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari, tarqatma topshiriqlar, kompyuterlar.

#### Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:

Darchada ochilgan Web-sahifa matnini siz istagan jildda saqlash uchun quyidagi menyuni yo'lini faollashtirishingiz kifoya: **Файл (File) – Сохранит' как... (Save as...)**.



Web-sahifadagi rasmlardan birini alohida saqlab qo'yish uchun sichqoncha ko'rsatkichini kerakli rasmning ustiga olib kelib o'ng tomonini bosish natijasida paydo bo'ladigan menyuni orqali saqlanadi: **«Сохранит' рисунок как...» (Save Picture As...)** yo'li faollashtiriladi va rasimga nom berib **«Сохранит'»** tugmasini bosiladi.




Web sahifasidagi ma'lumotdan nusxa ko'chirish.

1) Nusxasi ko'chiriladigan ma'lumot belgilanadi. Butun sahifada nusxa ko'chirish uchun **«Правка»** menyusidagi **«Копироват'»** buyrug'i ishlatiladi.


2) Nusxasi ko'chirilgan matn qo'yiladigan hujjat ochiladi va yurgich hujjatning nusxa qo'yiladigan joyiga olib kelinadi.

3) **«Правка»** menyusidagi **«Вставит'»** buyrug'i yordamida Web sahifasidagi ma'lumot nusxasi hujjatning kerakli joyiga qo'yiladi.


Hujjatni bosmadan chiqarish

Web-sahifadagi ma'lumotni bosmadan chiqarish uchun standart qurollar penelidagi  piktogrammasini bosish orqali, yoki menyudan **«Файл»**→**«Печат'»** ketma – ketligi bajarilishi orqali amalga oshiriladi.

Drweb dasturini Internetdan qidirib topib, saqlab olishni ko'rib o'taylik. Buning uchun Internet Explorer dasturini yuklaymiz va qidirish oynasiga Dr.web скачат' deb yozib «Найти» tugmasini bosamiz




«Найти» tugmasi bosilgandan so'ng Dr.web dasturi ro'yxati akslangan oyna hosil bo'ladi. Bu oynadan kerakli dastur ustida sichqoncha ko'rsatkichi bir marta bosiladi.




Dastur tanlangandan so'ng quyidagi oyna hosil bo'ladi:

Bu oynadan скачат' Dr.web yozuvi tanlanadi, natijada dasturni saqlash yoki ochish oynasi hosil bo'ladi.

Bu oynadan **Сохранить** tugmasini bosamiz va dasturni qayerga saqlash yo'lini korsatamiz.








Pochta orqali ma'lumot almashish.


Rambler qidiruv sistemasi yordamida pochta orqali xat yozib jo'natish uchun Internet Explorer dasturi va




Rambler qidiruv sistemasi yuklanadi.

«Парол» degan bolimlariga elektron pochta manzili va parol kiritilib Enter tugmasi bosiladi. Natijada elektron pochta yuklanadi.


Dastur yuklangach oynaning «Имя» va



Bu yerda sizga kelgan xatlar, jo'natilgan xatlar, yozilgan xat nusxalari va o'chirilgan xatlar joylashadi. Bu oynadan «Написать» пис'мо» bandi tanlanadi va quyidagi oyna hosil bo'ladi:




Bu oynada «Кому:» bo'limiga elektron manzil nomi, «Тема:» bo'limiga xat mavzusi, «Текст пис'ма:» bo'limiga xat mazmuni kiritilib, «Отправит» пис'мо» tugmasi bosiladi. Xat muvaffaqiyatli jo'natilsa, jo'natilganlik haqida ma'lumot chiqadi



hamda «Отправленные» bandiga joylashadi.

«Входящие» bo'limiga kirib sizga kelgan xatlar bilan tanishishingiz mumkin.



### Nazorat savollari:

1. Web-sahifadagi rasmlardan birini alohida saqlab olish qanday bajariladi?
2. Internetda ma'lumot qanday qidiriladi?
3. Qidirish oynasi qayerda joylashgan?
4. Faylni saqlash yo'li qanday ko'rsatiladi?
5. Elektron manzil nima uchun kerak?
6. Elektron pochta qanday yuklanadi?
7. Sizga kelgan xatlarni qanday ko'rishingiz mumkin?

### Amaliy mashg'ulot № 19-20

**Mavzu:** Bulutli texnologiyalar. Google asbob uskunalar va xizmatlaridan foydalanish

**Maqsad:** Talabalarga Bulutli texnologiyalar. Google asbob uskunalar va xizmatlaridan foydalanish.

**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari, tarqatma topshiriqlar, kompyuterlar.

### Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:

Bulutli (tarqoq) hisoblash (bulutli hisoblash, shuningdek, bulutli (tarqoq) ma'lumotlarni qayta ishlash atamasi ishlatiladi) - bu kompyuter resurslari va quvvatlari Internet xizmati sifatida foydalanuvchiga taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi. Foydalanuvchi o'z ma'lumotlariga kirish huquqiga ega, ammo u boshqara olmaydi va u ishlaydigan infratuzilma, operatsion tizim va haqiqiy dasturiy ta'minot bilan shug'ullanishi shart emas. "Bulut" atamasi kompyuter tarmog'i diagrammasidagi Internet tasviriga asoslangan metafora yoki barcha texnik ma'lumotlarni yashirgan murakkab infratuzilma tasviri sifatida ishlatiladi. 2008 yilda nashr etilgan IEEE hujjatiga ko'ra, "Bulutli hisoblash - bu Internetdagi serverlarda doimiy ravishda saqlanadigan va mijoz tomonidan vaqtincha keshlanadigan paradigma, masalan, shaxsiy kompyuterlar, o'yin pristavkalari, noutbuklar, smartfonlar va hk. ".



### Bulutli xizmatlar quyidagi muhim narsalarga javob berishi kerak

talablar:

- iste'molchilar talabiga binoan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish. Iste'molchi provayder xodimlarining aralashuvisiz avtomatik rejimda unga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini bir tomonlama o'zgartirishi mumkin;

- kompyuter tarmog'iga keng polosali ulanish. Bulutli manbalarga kirish iste'molchilarga kompyuter tarmog'i orqali "ingichka" yoki "qalin" mijozlarning standart mexanizmlaridan foydalangan holda taqdim etiladi;

- bulut manbalarini yagona umumiy hovuzga birlashtirish. Provayderning bulutli manbalari ko'p vazifali rejimda bir nechta iste'molchilarga xizmat ko'rsatish uchun yagona umumiy hovuzga birlashtirilgan; turli xil jismoniy va virtual bulut resurslari iste'molchilar so'rovlariga muvofiq dinamik ravishda taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi;

- Tezkor javob. Iste'molchiga taqdim etiladigan bulutli manbalar miqdori tez va moslashuvchan o'zgarishi mumkin (ba'zi hollarda avtomatik ravishda) ko'payishi yoki kamayishi. Oxirgi foydalanuvchi uchun provayderning bulutli resurslari cheksizdir va ularni istalgan vaqtda istalgan miqdorda sotib olish mumkin;

- o'lchovlilik. Bulut tizimi taqdim etilayotgan xizmat turiga ko'ra (masalan, ma'lumotlarni saqlash, hisoblash, tarmoqli kengligi va foydalanuvchi hisoblari) ba'zi bir abstraksiya darajalarida bulut resurslari miqdorini o'lchash orqali resurslarni avtomatik ravishda kuzatib boradi va optimallashtiradi.

Bundan tashqari, bulutli resurslardan foydalanishni nazorat qilish va provayder va iste'molchiga shaffof ravishda hisobga olish mumkin.

tarix

oldin Elektr ta'minotini sotib olish tizimining printsipiga binoan hisob-kitoblarni resurslardan foydalanish kontseptsiyasidan 1960 yillarga (John McCarthy yoki DusefulNclider) tegishli.

Bulutli hisoblashni kontseptsiyalashga qo'shimcha teglar - CRM tizimlari va Salesforce.ee Ip, obuna va veb-saytga asoslangan (1999) paydo bo'lishi va mvgiyapum Llichsnichip (2002) kitobi orqali EastStriet orqali hisoblash manbalariga kirishni ta'minlash. Aslida ushbu xizmatlar tufayli texnologik kompaniyaga aylangan Amazon egarlarining rivojlanishi yod hisoblash maoshining shakllanishiga va 2006 yil avgust oyida "Elastic Computing Cloud" (Amazon EC2) deb nomlangan yod loyihasining boshlanishiga olib keldi. EKGni ishga tushirish bilan deyarli bir vaqtning o'zida bulut va bulutli hisoblash atamalari Google rahbari Erik Shmidning nutqida yangradi, chunki o'sha paytda ommaviy axborot vositalarida, axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning nashrlarida bulutli hisoblash haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. tadqiqot muhitida. "Bulut" ga havola IEGterpet tasviri asosida kompyuter tarmog'i diagrammasidagi metafora sifatida yoki murakkab infratuzilmaning tasviri sifatida ishlatiladi: ia sprtn texnik detallarning og'irligini yashiradi.

Google Apps-ning 2009 yilda ishga tushirilishi stipendiya va bulutli hisoblashni tushunish yo'lidagi navbatdagi muhim qadamdir. 2009-2011 yillarda bulutli hisoblash haqidagi g'oyalarning bir nechta muhim umumlashtirilishi ishlab chiqilgan, xususan, shaxsiy bulut o'tkazmalari modeli ilgari surilgan.

### Eng loyqa "bulutli" xizmatlar

Bulutli texnologiyalar anchadan beri paydo bo'lgan, foydalanuvchilar orasida ham mashhur emas, u nisbatan yangi rivojlanib bormoqda, ma'lumotlar saqlash va bulut juda qulay narsadir. Birinchidan, bu kompyuterning qattiq diskida foydalanuvchilarning bo'sh joyini tejashga imkon beradi, ikkinchidan, bulutga yuklangan fayllarga dunyoning istalgan nuqtasida Internet aloqasi mavjud bo'lgan joyda kirish mumkin, va n-uchinchidan, zamonaviy saqlash vositalarini sozlashga yo'l qo'yilmaydi. fayllarga kirish va ularni shifrlash.

Ushbu bulutli xizmatdan tashqari] l haqiqatan ham qulay imkoniyatlarni taqdim etadi, masalan, ikki kun oldin "Yandex. Disk »" Ko'chirish "xizmatini ishga tushirdi, bu ma'lumotlar bir mobil platformadan boshqasiga uzatilishini soddalashtiradi. Siz kontaktlarni, SMS-xabarlarini, qo'ng'iroqlar tarixini va hattoki ziadHI-ni o'rnatilgan E1 brauzeridan yangi smartfonga yoki pushastga o'tkazishingiz mumkin, natijada



## Google Drive

gadjetlarning poliagellari ma'lumotlarni qo'lda uzatishlari kerak bo'ladi. Sizga Rossiyadagi eng mashhur bulutli ma'lumotlar omborlari haqida aytib beramiz va ularni taqqoslaymiz.

### Dropbox

Bizning sharhimizdagi birinchisi, ehtimol eng mashhur Dropbox xizmati. U Nice veb-interfeysi, foydalanuvchiga qulay mijoz va veb-interfeys bilan ajralib turadi. Dropbox dasturi foydalanuvchi kompyuteriga o'rnatilganda bulut bilan sinxronlashtirilgan nanoSIM yaratiladi. Dropbox-da axlat tashuvchilarning tarixi ham yo'q. Shunday qilib, serverdan fayllarni o'chirib tashlaganingizdan so'ng, ma'lumotlarni qayta tiklashingiz mumkin.



Afsuski, ushbu xizmat oz miqdordagi bepul xizmatni taqdim etadi bulutli bo'shliq - atigi 2 gigabayt. Amerikalik ildizlarga qaramay, Dropbox veb-sayt va Windows, Mac OS va Linux operatsion tizimlari uchun chiqarilgan mijoz dasturlari uchun juda rus tilidagi interfeysga ega. Shuningdek, BpoBox ilovasi iOS, Android, Symbian, BlackBerry va hattoki Bada-da ishlaydigan smartfon va planshetlar egalari uchun mavjud.

### Yandex.Disk

Ushbu xizmat tezda mashhurlikka erishgan rus ishlab chiqaruvchisi mahsulotidir. U mavjud Yandex echimlari "infratuzilmasi" ga to'liq mos keladi, allaqachon hisob qaydnomasi bo'lgan va qo'shimcha interfeysga ega bo'lgan foydalanuvchilar tomonidan qo'shimcha ro'yxatdan o'tishni talab qilmaydi.

Afsuski, ushbu mahsulot pochta uchun Mail.ru qoidasiga bo'ysunadi qutilar. Agar siz uni uch oy ichida ishlatmasangiz, hisobingiz barcha tarkib bilan birga bekor qilinadi. Xizmat dasturi Windows va Mac operatsion tizimlariga ega shaxsiy kompyuterlar va noutbuklar uchun mavjud. IOS, Android va Windows Phone uchun mobil ilovalar mavjud.

### Microsoft SkyDrive

Dasturiy ta'minot giganti shu paytgacha Microsoft SkyDrive nomi bilan tanilgan o'z bulutli saqlash xizmatiga ega. Yaqinda matbuot Britaniyaning Sky Broadcasting Group bilan sud jarayoni yo'qolganligi sababli Microsoft uni OneDrive deb o'zgartirishi haqida xabar berdi. Xizmat bulutda 7 gigabaytgacha (Windows 8 foydalanuvchilari uchun mavjud bo'lgan 25 Gb) foydalanuvchi fayllarini saqlash uchun joy) standart papkalar yordamida tashkil etilgan formatda taqdim etadi.




Характеристики/ сервис	Dropbox	Яндекс.Диск	Google Drive	Облако Mail.ru	Microsoft SkyDrive
Объем бесплатного дискового пространства, Гб	2	3-10	15	100	7-25
Максимальный размер загружаемых файлов, Гб	Не ограничивается	10	10	2	2 (4Гб для архива)
Возможность разграничения прав доступа	Нет	Нет	Да	Нет	Да
Контроль изменений	Да	Нет	Да	Нет	Да
Создание общих папок	Да	Да	Да	Нет	Да
Загрузка файлов по почте	Да	Нет	Интегрирован с Gmail	Нет	Да
Редактирование файлов через интерфейс	Нет	Нет	Да	Нет	Да
Просмотр файлов через веб-интерфейс	Нет	Да, офисные документы, .fb2 и .epub	Да, более 30 поддерживаемых форматов	Нет	Да

#### 4 способа реализации Облака

1. Частное
  - Для себя
2. Со-общественное
  - Для группы
3. Общественное (публичное)
  - Для всех
4. Гибридное
  - Комбинация всех 3-х


#### Способы реализации Облака



#### Xizmat ko'rsatish modellari

Xizmat sifatida dasturiy ta'minot (SaaS) - bu iste'molchiga provayderning bulutli infratuzilmasida ishlaydigan va turli xil mijozlar qurilmalaridan yoki ingichka mijoz orqali, masalan, brauzerdan foydalanish mumkin bo'lgan dasturiy ta'minotidan foydalanish imkoniyatini beradigan model ( masalan, veb-pochta) yoki dastur interfeysi orqali. Bulutning asosiy jismoniy va virtual infratuzilmasini, shu

jumladan tarmoqni, serverlarni, operatsion tizimlarni, saqlashni yoki hatto dasturning individual imkoniyatlarini (foydalanuvchi tomonidan belgilangan dastur konfiguratsiyasi sozlamalarining cheklangan to'plamidan tashqari) boshqarish va boshqarish bulut provayderi tomonidan amalga oshiriladi.



## Savollar

1. Bulutli texnologiyalar xaqida nimalarni bilasiz
2. Google drive dan foydalanish

## Amaliy mashg'ulot № 21-22

**Mavzu.** Elektron xukumat tizimi imkoniyatlari, davlat interaktiv xizmatlari.


**Maqsad:** Talabalarni elektron xukumat tizimi imkoniyatlari, davlat interaktiv xizmatlarilaridan foydalanishni o'rgatish.

**Mashg'ulot jihozi:** Shahsiy kompyuter, Windows OT, adabiyotlar va internet resurslari, tarqatma topshiriqlar, kompyuterlar.


### Mashg'ulotning ko'riladigan masalalar:

**Davlat tashkilotiga elektron murojaat jo'natish.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrda "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 378-son qarori ijrosi sifatida, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, (Yagona portal), yaratildi va 2013 yil 1 iyulda Internet tarmog'ida ishga tushirildi.

Endi yagona portal orqali ro'yxatdan o'tish va davlat tashkilotiga murojaat jo'natishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun internet tarmog'iga ulangan kompyuter orqali brouzerni ishga tushirib, [www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz) ni yuklaymiz. Brouzer quyidagi web sahifani ochib beradi:







Yagona portal xizmatlaridan foydalanish uchun siz quyidagi ro'yxatdan o'tish usullaridan birini tanlashingiz mumkin:

1. SMS-tasdiqlash orqali. Aktivatsiya kodini mobil telefonga SMS- xabar orqali olish mumkin
2. ID.UZ yagona identifikatsiya tizimi yordamida.
3. Elektron raqamli imzo yordamida.
4. UzCard yordamida.



Biz ID.UZ yagona identifikatsiya tizimi yordamida ro'yxatdan o'tishni tavsiya qilamiz. Bu tizimning afzalliklarini oldingi amaliy mashg'ulotimizda ko'rib o'tganmiz. Demak yagona identifikatsiya tizimidagi

login va parolimiz orqali yagona portal xizmatlaridan foydalanamiz. Buning uchun



tugmachasi bosamiz. Hosil bo'lgan sahifadan **ID.UZ orqali** bo'limini tanlaymiz.

Portalga kirish uchun ID.UZ tizimida ro'yxatdan o'tgan loggingizni kiriting. Siz ro'yxatdan o'tgan parolingizni kiritishingiz lozim bo'lgan, ID.UZ tizimidagi avtorizatsiya sahifasiga kirasiz.



Agar siz parolni unutgan bo'lsangiz, parolni tiklash shaklidan foydalanishingiz mumkin. Bu holatda parol sizga (ID.UZ tizimida ro'yxatdan o'tish chog'ida siz tomoningizdan tanlangan usuldan kelib chiqqan holda) SMS yoki elektron pochta orqali yuboriladi.


**Eslatma!** Agar siz eslab qolishni belgilab qo'ysangiz login va parolingiz brouzer xotirasida saqlanib qoladi. Bu holatni belgilash axborot xavfsizligini taminlash maqsadida faqatgina o'zingizning shaxsiy kompyuteringizdan foydalanayotgandagina tavsiya qilinadi.

Parolni kiritib, kirishni bosganimizdan keyin yagona portal yuklanadi, va biz quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lamiz:


- davlat organlari va xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni olish;
- davlat xizmatlarini olish uchun lozim bo'lgan murojaat va boshqa hujjatlarni elektron shaklda to'ldirish;
- davlat xizmatini ko'rsatish uchun murojaat yo'llash;
- davlat xizmatini ko'rsatish uchun yo'llangan murojaatni ko'rib chiqish jarayoni haqidagi ma'lumotlarni olish;
- davlat xizmatlari natijalarini olish;
- tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish
- normativ xuquqiy xujjatlar muhokamasi va h.k.

**Eslatma!** Hurmatli foydalanuvchi! Yagona portal Sizga davlat tashkilotiga tashrif buyurishdan yoki qog'oz tarzda xat yuborishdan qulayroq bo'lgan davlat xizmatlaridan elektron shaklda foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. shu bilan birga, sizning yuborayotgan murojaatingiz rasmiy maqomga ega ekanligini ham eslatib qo'ymoqchimiz.

Endi davlat tashkilotiga murojaat jo'natish bo'limini tanlaymiz. Davlat tashkilotiga murojaat jo'natish 5ta qadamda amalga oshiriladi.



Eslatmani o'qib chiqishni tavsiya qilamiz va rozilik bildirilgandan keyin keyingi ikkinchi qadamga o'tiladi.



Ariza kim tomonidan to'ldirilmoqda \*

- Jismoniy shaxs
- Yuridik shaxs

◀ Avvalgi qadam

Keyingi qadam ▶

Qaysi maqomga ega ekanligimizni tanlaymiz va keyingi uchinchi qadamga o'tamiz. Jismoniy shaxsni tanlasak quyidagi forma hosil bo'ladi:

- ✓ 1-qadam 2-qadam 3-qadam 4-qadam 5-qadam

Ariza kim tomonidan to'ldirilmoqda \*

- Jismoniy shaxs  
 Yuridik shaxs

F.I.Sh. \*

Aminov Sabur Muxtarovich

Elektron pochta \*

sabur1088@umail.uz

Telefon raqami \*

998935202286

Uy telefoni \*

5202286

Jins \*

Erkak

Tug'ilgan sana \*

3-qadamda kerakli tashkilotni tanlash usullari taklif qilinadi. Va murojaat mazmunidan kelib chiqib tashkilot tanlanadi.

### Murojaatlarni ko'rib chiqish

3-qadam. Tashkilotni tanlash

- ✓ 1-qadam ✓ 2-qadam 3-qadam 4-qadam 5-qadam

Kerakli tashkilotni tanlash usullari

- Tashkilotni tanlash  
 Sohani tanlash  
 Kalit so'zini kiritish yo'li bilan

➔ Agentliklar

➔ Fondlar

↓ Vazirliklar

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi  
 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi  
 O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi  
➔  O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi  
 O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi  
 O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi  
 O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
➔  O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
➔  O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi  
 O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi

4-qadamda berilgan quyidagi formani to'ldirish talab qilinadi:

1. Murojaat sohasi;
2. Murojaat turi;
3. Javob olish yo'li;
4. Murojaatning ko'rinishi;
5. Murojaat mavzusi
6. Tadbirkormisiz(ha/yo'q)
7. Murojaat mavzusi
8. Faylni ilova qilish

**Murojaatlarni ko'rib chiqish** Xizmat pasporti

4-qadam. Fomani to'ldirish

1-qadam 2-qadam 3-qadam **4-qadam** 5-qadam

Murojaat sohasi \*  
Ish, ish haqi va imtiyozlar

Murojaat turi \*  
Shikoyat

Javob olish yo'li \*  
Elektron pochta orqali

Murojaatning ko'rinishi \*  
Shaxsiy

Murojaat mavzusi \*  
murojaat mavzusi keltiriladi

Tadbirkorlik subyekti sifatida taqdim etilmoqda  
Agar siz, haqiqatdan ham tadbirkorlik subyekti sifatida murojaat yuborsyotgan bo'lsangiz, iltimos ushbu katakchani belgilang. Unutmang sizning fikringiz biz uchun muhim

Murojaat matni \*  
Ariza shikoyat yoki taklif mazmuni kiritiladi

Faylni ilova qilish  
Faylni tanlang

Murojaat jo'natilgandan keyin davlat xizmatini ko'rsatish uchun yo'llangan murojaatni ko'rib chiqish jarayoni haqidagi ma'lumotlarni olish 5-kun ichida murojaat javobini olishingiz mumkin.

Har bir jo'natilgan murojaat haqida foydalanuvchi kabinetidan ma'lumot olishimiz

**Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali**

izlash...

Xizmatlar bo'yicha Tashkilotlar bo'yicha

**Davlat tashkilotiga murojaat yuborish**

Davlat organi rahbariyati qabuliga yozilish

Call-center: 1060 yoki (0800) 200-18-18

TJKX masalalari bo'yicha murojaat (Call-center 1095)

Texnik guruhga murojaat

Profil

Yuridik shaxs

Mening arizalarim

Mening qoralamalarim

Mening ma'lumotlarim

Mening bank kartalarim

To'lovlar

Tanlangan xizmatlar

**Saralash**

Murojaat raqami Sana (dan) Sana (gacha) Status

Xizmat turi Tashkilot nomi

Fillini tozalash Izlash

**Arizalar ro'yxati**

Xizmat	Tashkilot	Taqdim etilgan vaqt	Maqomi
130391 Murojaatlarni ko'rib chiqish	O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi	2015-02-01 12:24:43	Ko'rib chiqilgan

mumkin.

## ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARI


**http://click.uz/** Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishi – tijorat banklari, tashkilotlar, jismoniy shaxslar uchun dasturiy mahsulot ishlab chiqish, ularni joriy etish, turli apparat-dasturiy komplekslarga moslashtirish va kelgusi takomillashtirishdir. Click tizimi hozirda biz ko'rsatmoqchi bo'lgan amallar plastik kartalar uchun aloqador. Click xizmatini o'z telefoningizga sozlash uchunsiz avalambor o'z plastik kartochnangizga SMS xizmatini yoqtirgan bo'lishingiz kerak.

SMS xizmatini siz o'zingizga yaqin bo'lgan BANKOMATdan yoki o'zingizni bankingizdan yoqtirishingiz mumkin.

Plastik kartangizga UZCARD-CLICK xizmatini ulash uchun avvalam bor istagan bank yoki infokiosk (bankomat) orqali "SMS-Xabarnoma" xizmatni yoqtirishingiz kerak. Yaqin atrofdagi infokiosk/bankomatlarning ro'yxatini [www.click.uz](http://www.click.uz) dan topishingiz mumkin.

**"SMS-Xabarnoma" xizmatini onlineplastik kartalar uchun uyali telefoningizga infokiosk/bankomatda yoqtirish yo'riqnomasi**


1. Kartangizni uskunaning karta qabul qilish joyiga soling. Ekranga til tanlash menyusi chiqadi:



2. Tilni tanlaganingizdan so'ng kartaning PIN-kodini kiritish uchun forma paydo bo'ladi:




3. Karta PIN-kodini kiriting. Ekranga asosiy menyusi chiqadi:



4. «SMS-Xabarnoma xizmati» punktini tanlang. Shundan so'ng xizmatni boshqarish menyusi chiqadi:





5. «XIZMATNI ULASH» punktini tanlang. Shundan so'ng uyali telefon raqamini kiritish formasi paydo bo'ladi:



6. Kartangizga bog'lamoqchi bo'lgan uyali telefon raqamini "TELEFON RAQAMI" degan joyga xalqaro formatda 998XXYYYYYYY (boshidagi "+" belgisiz) kiriting, raqam to'g'ri terilganini tekshirib, "KEYINGI" tugmasini tanlang. Shundan so'ng xizmat muvaffaqiyatli ulatilganligi yoki ulatilmaganligi ko'rsatiladi.

**Agar xizmat ulatilmagan bo'lsa:**

1. "SMS-Xabarnoma" xizmatini o'chirib, qaytadan ulating.
2. Karta balansini chekni nashr qildirish bilan chiqarib ko'ring. Agar sodir bo'lmasa, demak, chek printerida muammo bor. Bank xodimiga murojaat qiling.
3. Agar infokiosk/bankomat kartani solganingizdan so'ng yashil ekran chiqarib, kartangizni qaytarsa, ushbu infokiosk aloqasiz qolganidan dalolat beradi. Aloqani sozlashi uchun bank xodimlariga murojaat qiling.

SMS xizmatini yoqtirganingizdan so'ng sizning telefoningizga plastik kartochkangiz orqali amalga oshirilgan har bir to'lovlar va boshqa operatsiyalar haqida SMS ma'lumotlari kelib turadi. Ushbu har bir kiruvchi SMSlar narxi 0.0005 USD hisoblanadi.

Click xizmatini telefoningizga sozlash uchun plastik kartochkangizning SMS xizmati ulangan telefon raqamidan \*880\*karta nomeri\*amal qilish muddati# ni terib chaqiriv tugmasini bosning.

Karta nomeri- bu plastik kartochkada ko'rsatilgan 16 ta raqamdan iborat sonlardir. Bu sizning plastik kartochkangiz nomeri hisoblanadi. ushbu raqamni siz bo'sh joy qoldirmagan holda terishingiz kerak.



Amal qilish muddati-bu plastik kartochkaning amal qilish muddatidir. Bu plastik kartochkangizga ko'rsatilgan bo'lib 4 ta raqamdan iborat. Ushbu raqam chiziqcha bilan ajratilgan bo'ladi, lekin uni terishda chiziqcha yozilmaydi.

Ushbu raqamlarni telefoningizdan terganingizdan so'ng 15 daqiqa ichida so'rovingiz qabul qilingani haqida xabar keladi. Va siz o'z telefoningizdan \*880# so'rovni terib CLIK PIN ni o'rnatasiz.

CLIK PIN-bu telefoningizdan klik operatsiyalarini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan pin kod hisoblanadi.

Agar Sizda DUET Offline, VISA (UzPSB) karta bo'lsa, yoki kartangiz umuman bo'lmasa, CLICK tizimiga ulanish uchun bank-hamkorlarimizning biriga\* uchrashib, ro'yxatdan o'tishingiz lozim bo'ladi. Iltimos, o'zingiz bilan birga pasport olishni unutmang.

Bankda CLICK tizimiga ulanish bo'yicha formani to'ldirib va muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tganingizdan so'ng Sizga avtorizatsiyangiz bilan bog'liq bo'lgan rekvizitlaringizni berishadi – login, parol va CLICK-PIN ko'rsatilgan informatsion varaqa. Xavfsizligingiz uchun tizimga ilk kirganingizda ushbu CLICK-PIN kodini almashtirishingiz kerak bo'ladi.

#### "CLICK" tizimining asosiy imkoniyatlari:

- To'lovlarni mobil telefon yoki Internet orqali bevosita jismoniy shaxslarning bank hisoblaridan naqd pul mablag'laridan foydalanmasdan amalga oshirish;
  - USSD/SMS/WEB – portal yordamida taqdim qilingan hisoblarni boshqarish;
  - CLICK tizimining boshqa foydalanuvchilariga pul mablag'larini o'tkazish;
  - Hisobdan hisobga pul mablag'larini o'tkazish;
  - Balansni doimiy ravishda ishchi holatda ushlab turuvchi, «Avtoto'lov» xizmatini aktivlashtirish imkoniyati;
  - To'lovlar tarixini ko'rish;
  - Bank hisoblarini onlayn tartibda tekshirish;
  - Hisob rekvizitlarini olish;
  - Bank hisoblari bo'yicha SMS-xabarnomalar;
- CLICK – hisobdan kreditni to'lash va ko'pgina boshqa imkoniyatlar.

